Создание бизнес-проекта как важнейшая часть проектной технологии является важным компонентом программы. Студенты строят модель своей предпринимательской деятельности от занятия к занятию, внедряя в неё новую изученную информацию и умения [3]. Ценностная составляющая проекта позволяет создать систему мотивации и интегрировать изученный материал в интригующую, творческую разработку. Бизнес-проект, состоящий из всех его компонентов - бизнес-идеи, анализа клиентов, организации деятельности, маркетинга и расчета будущих доходов, - еще не является бизнес-планом. Кульминацией курса является открытая защита проекта, в ходе которой студент демонстрирует оригинальность идеи, ее конкурентоспособность и востребованность на рынке образовательных услуг, а также своевременную окупаемость и устойчивость проекта.

На основе опыта автора представляется возможным дать краткий обзор исследований полезного потенциала курса «Предпринимательство в образовании». Во-первых, акцент на теоретичности высокого порядка помогает будущим педагогам развить знания, навыки и умения, отвечающие требованиям компетентностного подхода в высшем образовании. Во-вторых, разнообразные практические занятия помогают студентам сформировать систему навыков, определяют практико-ориентированную направленность курса, повышают их интерес к предмету, а также к другим педагогическим знаниям, влияющим на подготовку будущих учителей. В-третьих, большое внимание уделяется самостоятельной работе, когда студенты используют возможности университета (библиотека, бизнес-инкубатор, молодежный иннопарк и т.д.) для применения своих знаний и опыта, погружаясь в анализ проблем.

Объединение усилий всех сторон, участвующих в обучении в течение всей жизни для получения предпринимательского образования, является первым шагом в преодолении этих препятствий. Это должно начинаться с планирования и обсуждения, чтобы собрать информацию и ресурсы, необходимые для создания и реализации политики на различных уровнях системы обучения. Чтобы повысить стандарты обучения предпринимательству в целом, организациям, учебным заведениям, социальным партнерам и правительству следует сосредоточиться на обмене знаниями, разработке стандартов политики и создании сетей передового опыта. При наличии интереса можно использовать примеры разработки политики обучения и механизмов обмена знаниями в других секторах, хотя в настоящее время не существует четких структур, объединяющих политиков и практиков в области обучения предпринимательству (за исключением бизнес-образования третьего уровня).

В настоящее время в системах государственного образования обсуждаются вопросы расширения взаимозависимости и открытости рынков в рамках глобальной торговой системы. Национальные правительства, корпорации и другие участники процесса развития человеческих ресурсов пытаются определить, как навыки и знания работников могут повысить экономическую конкурентоспособность. В этой «борьбе за выживание» странам необходимо модифицировать свои учебные заведения, чтобы соответствовать требованиям растущей конкуренции.

«Этот курс отличался большим количеством практических заданий: кейсов, игр, тренингов, дискуссий, - пишут студенты по окончании изучения дисциплины. Я приобрела умение составлять структуру фирмы и принимать решения, влияющие на прибыль предприятия. Эти навыки могут пригодиться мне при создании собственной компании (Карина В.). «Я многому научилась на курсе и вижу будущее своей трудовой деятельности». Мои знания в области методологии, психологии и педагогики - это ценный актив, который можно эффективно использовать (Илья С.).

**Заключение.** Таким образом, можно сделать вывод, что ключевым элементом вузовской подготовки является предпринимательская подготовка начинающих учителей. Адаптивность трудовой деятельности, конкурентоспособность педагогических знаний и значимость профессии учителя можно продемонстрировать, объединив новые идеи предлагаемых знаний с уже существующей педагогической подготовкой.

#### Литература:

1. Волошина, Т. А. Предпринимательство в образовании : учебное пособие для студентов вузов : [в 2 ч.] / Т. А. Волошина ; [науч. ред. И. А. Колесникова] ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Федер. гос. бюджет. образоват. учреждение высш. образования Петрозав. гос. ун-т. — Петрозаводск : Изд-во ПетрГУ, 2016. — Ч. 1. — 60 с.
2. Городнова, А. А. Непрерывное образование и тенденции развития бизнесобразования / А. А. Городнова // Региональное образование XXI века: проблемы и перспективы. — 2014. — № 1. — С. 32–36.
3. Niyazova, M. Kh, and M. Temirova. "Semantic analysis of old english phraseological units." *Asian Journal of Multidimensional Research* 12.3 (2023): 35-39.
4. Niyazova, Mokhichekhra Khayatovna. "English And Uzbek Blessings Which Formed By The Belief Of Magic Words." *Scientific reports of Bukhara State University* 5.3 (2021): 72-79.
5. Khayatovna, Niyazova Mokhichekhra. "Classification of Usual Ways of Word Formation In The Russian Language." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.2 (2023): 200-203.
6. Khayatovna, Niyazova Mokhichekhra. "The Use of Riddles in the Speech of Characters in English and Uzbek Literature." *International Journal of Inclusive and Sustainable Education* 1.4 (2022): 60-65.
7. Леонова Ж. К. Непрерывное образование: условие развития молодежного предпринимательства / Ж. К. Леонова // Дети и молодежь – будущее России : материалы IV Междунар. науч.-практ. конф., г. Вологда, 5–7 октября 2016 г. : в 2-х частях. – Вологда : ИСЭРТ РАН, 2017. —Ч. I. — 416 с.
8. Khayatovna N. M. et al. Classification of Usual Ways of Word Formation In The Russian Language // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. — 2023. — Т. 11. — №. 2. — С. 200-203.
9. Профессиональная диагностика: тестирование выпускников с помощью системы «Эфдетон Студио» : методическое пособие / Бирюкова Н. Ю., Морозов В. Б., Самокатова А. А.. — Тула : РЦСТ ТулГУ, 2013. — 20 с.
10. Сальникова, Т. С. Проблемы предпринимательства в сфере образования : монография / Т. С. Сальникова; под ред. доктора экономических наук, профессора, заслуженного деятеля науки Российской Федерации И. К. Ларионова. — Москва : Дашков и К°, 2017. — 198 с.

## TA'LIM MENEJMENTI

### OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH JARAYONINI MONITORING QILISH, NIZOLARNI OLDINI OLISH VA HAL QILISH TEXNOLOGIYALARI

*Bo'riyev Sherzod Ahadovich,  
Shahrisabz shahar hokimligi bo'lim boshlig'i*

*Mazkur maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitlarida OTMni innovatsion rivojlantirish jarayonlarini boshqarish, bunda rahbarlarning tutgan o'rni, oliy ta'limning globallashuvi jarayonlarida oliy ta'lim tizimini boshqarishda yuzaga kelgan yondashuvlar, bu boradagi xorijiy tajribalar bayon etilgan, shuningdek, OTM rahbarlarining innovatsion kompetensiyalari va ularni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tavsiflab berilgan, OTMlarda innovatsion, ilmiy-pedagogik va ilmiy-tadqiqotchilik jarayonlarini boshqarish faoliyati tahlili amalga oshirilgan hamda OTMlarda innovatsion rivojlanish jarayonlarini boshqarishda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni monitoring qilish, ularni hal etish texnologiyalaridan foydalanish orqali innovatsion rivojlantirish jarayonida rahbarlarning ishtiroki samaradorligini oshirish modellari ishlab chiqishga harakat qilingan.*

***Kalit so'zlar:** innovatsion iqtisodiyot, raqamli boshqaruv, OTMni innovatsion rivojlantirish, boshqarish, rahbarlar, globallashuv, oliy ta'lim tizimini boshqarish, konflikt jarayoni, xorijiy tajribalar, OTM rahbarlarining innovatsion kompetensiyalari, nizoli vaziyatlarni hal etish modellari.*

### ТЕХНОЛОГИИ МОНИТОРИНГА ПРОЦЕССА ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ, ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ И РАЗРЕШЕНИЯ КОНФЛИКТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

*В статье рассматривается управление процессами инновационного развития высших учебных заведений в условиях становления инновационной экономики, роль руководителей в этом, подходы, сформировавшиеся в управлении системой высшего образования в условиях процессов глобализации экономики. высшее образование и зарубежный опыт в этом отношении. Также описаны инновационные компетенции руководителей вузов и основные направления их развития, проведён анализ управления инновационными, научно-педагогическими и исследовательскими процессами в вузах, разработаны инновационные решения посредством мониторинга и использования технологий разрешения конфликтных ситуаций, возникающих при управлении процессами инновационного развития в вузах. Предпринимаются усилия по разработке моделей повышения эффективности участия руководства в процессе развития.*

***Ключевые слова:** инновационная экономика, цифровое управление, инновационное развитие высших учебных заведений, менеджмент, лидеры, глобализация, управление системой высшего образования, конфликтный процесс, зарубежный опыт, инновационные компетенции лидеров высшего образования, модели разрешения конфликтных ситуаций.*


### TECHNOLOGIES FOR MONITORING THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT, CONFLICT PREVENTION AND RESOLUTION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*The article deals with the management of processes of innovative development of higher education institutions in the conditions of formation of innovation economy, the role of managers in this, approaches formed in the management of higher education system in the conditions of processes of globalisation of economy. higher education and foreign experience in this regard. It also describes innovative competences of university managers and the main directions of their development, analyses the management of innovation, scientific-pedagogical and research processes in universities, develops innovative solutions by monitoring and using technologies for resolving conflict situations arising in the management of innovative development processes in universities. Efforts are made to develop models to increase the effectiveness of management participation in the development process.*

**Keywords:** innovation economy, digital management, innovative development of higher education institutions, management, leaders, globalisation, higher education system management, conflict process, foreign experience, innovative competences of higher education leaders, conflict resolution models.

**Kirish.** Hozirgi paytda oliy ta’lim tizimidagi innovatsion rivojlanish jarayonlaridagi nizolar oldini olish va ularni hal qilish texnologiyalari mazkur nizolarning sinchiklab monitoring qilinishini ko’zda tutadi. Bunda eng avvalo, tavakkallarni hisobga olish va bashoratlashga asoslanadigan venchurli, ya’ni strategik yo’naltirilgan texnologiyalar diqqat markazida bo’ladi. Nizolarni bashoratlash esa axborot to’plashning turli xil modellarini qo’llash bilan diagnostik faoliyatsiz mumkin emasdir.

**Asosiy qism.** Mana shunga bog’liq holda eng istiqbolli model bo’lib monitoring hisoblanadi. Monitoring bitta va xuddi o’sha metodika bo’yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy vaziyatni muntazam tadqiq qilish sifatida olib qaraladi.



1-rasm. OTM innovatsion rivojlanishi jarayonidagi nizolarni o'rganish bosqichlari va ularning mazmuni<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, monitoringga turli xil xususiyatlar ham xos bo’lib, ular qatorida obyektlar, hodisalar va jarayonlarni bir martalik emas, balki ularning dinamikasi haqida fikr-mulohaza yuritishga imkon beradigan davriy o’lchovlarning olib borilishi; optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qaytar aloqa kanallari bo’yicha axborotlardan foydalanish bilan obyektlar, hodisalar va jarayonlarning holatini tizimli


<sup>1</sup>Muallif ishlanmasi.

ravishda aniqlab borish; monitoring doirasiga tushadigan obyektlar, hodisalar va jarayonlarga qayta o‘zgartiruvchi boshqaruvchilik ta’sirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish kabilar kiritiladi.[1]

Mana shunday tadqiqot monitoring qilinayotgan obyekt, hodisa yoki jarayonlarning nafaqat holatini, balki ularning dinamikasini ham tushunib olishga yordam beradi. Bunda monitoring doirasida ekspertli baholash boshqa tadqiqotchilik texnologiyalari bilan o‘zaro bog‘lanadi.

O‘rganish dasturi sotsiologiyada ancha fundamental ravishda ishlab chiqilgan va odatda metodologik hamda jarayonli (tadbirli, protsedurali) qismlardan iborat bo‘ladi (2-rasm).

### 1. Metodologik qism.



2-rasm. Nizoli o‘zaro harakatlarni o‘rganish dasturi.

Nizoli o‘zaro harakatlar dasturi ishlab chiqilganidan va tadqiqotning empirik obyektlari (tanlama) aniqlanganidan so‘ng tadqiqotchi konkret tadqiqotni amalga oshirish metodikasini ishlab chiqishga o‘tadi – bu metodika amaliyotda konfliktologiya metodlarini qo‘llash mahorat va bilimlariga asoslanadi. Monitoring davomida olingan ma‘lumotlar oliy ta‘lim muassasasidagi innovatsion o‘zgarishlarning kelgusi borish yo‘lini bashoratlashda qo‘llanilishi mumkin.

Bashorat – bu ma‘lum bir vaqt davomida biron-bir obyektning kelajakdagi holati va biron-bir natijalarga erishishning mumkin bo‘lgan yo‘llari haqidagi ehtimoliy mulohaza yuritishdir.

Kelgusidagi holatlar haqidagi bu ehtimoliy fikr-mulohazalar nisbatan yuqori darajadagi ishonchlilikka ega bo‘ladi. So‘nggi bir necha o‘n yil davomida bashorat qilishning ko‘plab usullari ishlab chiqildi. Bashorat qilish (bashoratlash)ning mohiyati eng optimal rivojlanish variantlarini belgilash va tanlab olishni mavjud resurslar, vaqt va ijtimoiy kuchlarning hisobga olinishi yo‘li bilan belgilashdan iboratdir. Bu ehtimol tutilgan echimlar, qarorlarning ularni muqobil variantlari, ehtimoliylik darajasining chuqur tahlili va ko‘p variantlilik ustidagi ishlardir.

Oliy ta‘lim muassasalari faoliyatidagi innovatsion jarayonlarni bashorat qilish bir qator murakkabliklarga ega bo‘ladi. Bu oliy ta‘limda innovatsion jarayonlarni bashorat qilish metodikasining va bashoratning aniqligini ta‘minlaydigan umumqabul qilingan mezonlarning ishlab chiqilmaganligi bilan bog‘liqdir.

Bashorat qilishning eng ishonchli metodlaridan biri sifatida tadqiqotchi-olimlar to‘la asosli holda ssenariyli metodni ko‘rsatib o‘tadilar. Bu metod o‘zida ehtimoliy harakatlar va ularning “agarda ...bo‘lsa, nima bo‘ladi?” tamoyili asosidagi oqibatlarining parallel ravishda ishlab chiqilishini namoyon qiladi.

Ssenariyli metod bo'yicha maqsadni belgilash dastlabki holatdan yagona sxemaga qarab harakat qiishning ko'plab variantlarini ko'rib chiqish bilan bashoratdagi xatoliklar tavakkallarini sezilarli ravishda kamaytirishga imkon beradi. Afzalligi va amalga oshiriluvchanligi bo'yicha 4-5-qadamlarda variantlarni taqqoslab chiqish izlanayotgan maqsadga olib keladi. Ssenariyli metod oliy ta'limdagi innovatsiyalarga nisbatan qo'llanilishini ko'plab tadqiqotchi-olimlar ta'kidlab o'tganlar (Yu.S.Tyunnikov, M.A. Maznichenko va boshqalar).

Bashoratlashning maqsadi OTM ning innovatsion rivojlanishi davrida yuzaga kelishi va oliy ta'lim muassasasida bashorat qilinayotgan holatga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni aniqlashdan iboratdir. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, nizolarning salbiy tajribalarini korreksiyalash innovatsion jarayon subyektlariga innovatsion faoliyatni amalga oshirish mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi.

Odatda oliy ta'lim muassasasida innovatsion o'zgarishlarni boshqarish maqsadlarini belgilash jarayonida bir nechta muammoli vaziyat (ssenariy)lar ajratib ko'rsatiladi:

- ijtimoiy buyurtmani, jamiyat rivojlanishi tendensiyalarini, talabalar va buyurtmachilarning ehtiyojlarini, OTM ning konkret muammolarini hisobga olmagan holda “yoqadi-yoqmaydi” tamoyili bo'yicha maqsadlarni shakllantirishdagi maqsadlarning subyektivlashtirilishi;

- erishilishi oldindan mushkulligi ko'rinib turgan maqsadlar qo'yilayotgandagi maqsadlarning ideallashtirilishi;

- maqsadlar o'rniga shior va deklaratsiyalarning qalashtirib tashlanishi;

- maqsadlarni stixiyali belgilash, ya'ni, maqsadlar o'z holicha innovatsiyalar subyekti deb anglanmasligi – bu stixiyalilikka olib keladi hamda buning natijasida subyekt faoliyatining samarasizligi kelib chiqadi;

- formal va haqiqiy maqsadlarning o'zaro kelishmasligi, bunda bir maqsad belgilanib, uning o'rniga umuman boshqa maqsadlar amalga oshiriladi;

- OTM rahbariyati maqsadlarining OTM xodimlari maqsadlari bilan kelishmasligi.

**Xulosa.** Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalaridagi innovatsion rivojlanishni bashorat qilish jarayonini monitoring amalga oshirilayotganda quyidagi shart-sharoitlar hisobga olinganida optimallashtirishga erishish mumkin:

- innovatsion jarayonlar holati sabab va shart-sharoitlarning murakkab majmuasi natijasi, ya'ni, tashqi holatlar bilan determinatsiyalanadigan tizim sifatida olib qaralishi lozim;

- innovatsion jarayonlar rivojlanishi qonuniyatlari va tendensiyalarini hisobga olish, ya'ni, innovatsion jarayonlarning o'z-o'zini determinatsiyalovchi tizim sifatida olib qaralishi zarur;

- innovatsion jarayonlarning haqiqiy va dastlabki rivojlanish holatini tavsiflovchi aniq va to'liq axborotlar talab etiladi;

- innovatsion jarayonlarning rivojlanishi bashorati bu bashoratning aniqligini ta'minlaydigan asosiy, yetakchi omillar va shart-sharoitlar asosiga qurilishi lozimdir.

Bizning fikrimizga ko'ra, bu yerda asosiylari bo'lib bashoratlash metodini optimal ravishda tanlab olish va ilmiy ishonchlik hamda haqqoniylik sanaladi. Monitoring ma'lumotlari asosida malakali mutaxassislar OTMlarda innovatsion rivojlanishi jarayonidagi nizolarning oldini olish va ularni bartaraf etish texnologiyalarini ishlab chiqishlari zarur bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Сурмин Ю.П., Туленков Н.В. Теория социальных технологий. – Киев, 2004. – С. 575.
2. Ядов В.А. Социологическое исследование: методология, программа, методы. – М.: Наука, 1987. – 245 с.
3. Плотинский Ю.М. Модели социальных процессов. – М.: Логос, 2001. – С. 6.
4. Плотинский Ю.М. Модели социальных процессов. – М.: Логос, 2001. – С. 89.
5. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. – М.: ЮНИТИ, 1999. – С. 364-371.
6. Дятченко Л. Я. Социальные технологии в управлении общественными процессами.- Белгород, 1993.- 343 с.
6. Кобзева Н.М. Управление внутрифирменными отношениями в условиях инновационных конфликтов: дис. канд. социол. наук.-Белгород, 2003. – 176 с.
7. Во'riyev Sherzod Ahadovich. Олий таълим муассасасини инновацион ривожлантириш жараёнида раҳбарларнинг ўрни. Лойиҳа 2022йил. Тошкент. 100 б.

## TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA ISLOHOTLAR VA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

*Jumayeva Muxlisa Shokir qizi,*  
*Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi*  
*Jumayevamuxlisa40@gmail.com*

*Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, yangilash, boyitish muhim va ustuvor vazifa sifatida baholanmoqda. Har bir jarayon bir-biri bilan bog'liq ekanligini hisobga olgan holda, ta'lim tizimining har bir bo'g'inini zamonaviy bilimlar, raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta'minlash hozirda har bir rivojlanayotgan davlatlarning ta'lim dasturlarida o'z aksini topmoqda. Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiyalashda islohotlar va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanishning ahamiyati, ta'lim beruvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatini mazmunli va sifatli tashkil etish, o'qituvchilarning bilim va dunyoqarashini muntazam oshirib borish uchun rivojlangan xorijiy davlatlar metodlaridan samarali foydalanishga o'rgatishning zaruriy jihatlari yoritilgan. Pedagoglar intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlay olishi, har tomonlama raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlarida ta'lim tizimini modernizatsiyalashning roli yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** pedagog, modernizatsiya, xalqaro tajriba, ta'limiy islohot, rivojlantirish, oliy ta'lim muassasasi, kompetensiya, o'quvchi bilimi, zamonaviy texnologiya, intellekt, ma'naviy salohiyat.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РЕФОРМ И МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА В МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

*В современный бурно развивающийся период организация, обновление и обогащение всех ступеней системы образования на основе современных требований считается важной и приоритетной задачей. Учитывая, что каждый процесс взаимосвязан друг с другом, обеспечивая каждое звено образовательной системы современными знаниями, конкурентоспособность специалистов в настоящее время находит своё отражение в образовательных программах каждой развивающейся страны. Важность реформ и использования опыта развитых зарубежных стран заключается в модернизации системы образования, осмысленной и качественной организации профессионально-педагогической деятельности педагогов. Выделены необходимые аспекты преподавания для эффективного использования методов развитых зарубежных стран для регулярного повышения знаний и мировоззрения учителей. Выделена роль модернизации системы образования в способности педагогов подготовить новое поколение кадров с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, стать конкурентоспособными специалистами во всех аспектах.*

***Ключевые слова:** педагог, модернизация, международный опыт, образовательная реформа, развитие, вуз, компетентность, знания студентов, современные технологии, интеллект, духовный потенциал.*

## USING REFORMS AND INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE MODERNISATION OF THE EDUCATION SYSTEM

*In today's rapidly developing period, organizing, updating and enriching all stages of the education system based on modern requirements is considered an important and priority task. Taking into account that each process is related to each other, providing each link of the educational system with modern knowledge, competitive specialists is currently reflected in the educational programs of each developing country. The importance of reforms and the use of the experience of developed foreign countries in the modernization of the education system, the meaningful and qualitative organization of the professional and pedagogical activities of educators. The necessary aspects of teaching to effectively use the methods of developed foreign countries to regularly improve the knowledge and worldview of teachers are highlighted. The role of modernization of the educational system in the ability of pedagogues to train a new generation of personnel with high intellectual and spiritual potential, to become competitive specialists in all aspects is highlighted.*

*Keywords: pedagogue, modernization, international experience, educational reform, development, higher educational institution, competence, students' knowledge, modern technologies, intelligence, spiritual potential.*

**Kirish.** Bugungi kunda deyarli har bir soha o‘z o‘rnini, ahamiyatini saqlab qolishi uchun doimiy ravishda modernizatsiyalash zarur. Modernizatsiya - lotincha (“modeme- eng yangi”) so‘zdan olingan bo‘lib, takomillashtirilgan, boyitilgan, so‘nggi talablarga javob bera oladigan degan ma‘nolarni anglatadi. Ta‘lim bu odamlarning ma‘lum maqsadlarga erishish uchun o‘z qobiliyatlarini oshirishga qodir bo‘lishlari uchun mashq qilish va o‘rganish jarayoni. Globallashuv ta‘lim olamida taraqqiyotga olib keladi [1]. Ta‘limni modernizatsiyalash shaxsga ta‘lim va tarbiya berish jarayonida ushbu jarayonga doir eng yaxshi an‘analarni saqlab qolgan holda, uni yanada boyitish, yaxshilash, jahon andozalariga mos xususiyatlarni tarkib toptirish hisoblanadi. Bundan tashqari, ta‘lim mazmunini zamon talablariga moslashtirishni va ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishda pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishni taqazo etadi.[2]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston- 2030” strategiyasida ham ta‘lim tizimi sifatini oshirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, 2024-yilda amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturi to‘g‘risidagi farmonga ko‘ra, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning baholash tizimi qo‘shimcha 1000ta umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida joriy qilinishi ham ko‘zda tutilgan.

**Tadqiqot obyekti:** bugungi kundagi ta‘lim tizimi va uni rivojlantirish masalalari va bu jarayonda xorijiy tajribalar va islohotlardan foydalanish, ularni qay tarzda amalga oshirish tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Qo‘llanilgan metodlar:** suhbat, kuzatish, tajriba, test.

**Asosiy qism.** Har bir rivojlangan mamlakat ta‘lim sohasini modernizatsiyalash uchun bir nechta bosqichlarni amalga oshiradi. Quyida ta‘limni yangilash, isloh qilish uchun amalga oshirish zarur bo‘lgan bir nechta vazifalar yoritilgan.

### **1. Ta‘lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot va o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini oshirish.**

Ta‘lim beruvchi va oluvchilar uchun eng yaxshi ta‘lim muhitini yaratish zamonaviy, ta‘lim samaradorligini oshiruvchi vositalar yordamida tashkil etishni nazarda tutadi. Chunki yangi tushuncha, bilim va ko‘nikmalar turli vositalar yordamida tushuntirilganda, ushbu bilimlar deyarli to‘liq va vaqtni tejalgan holda o‘zlashtirilishi fanga ma‘lum. Bunda ta‘lim tizimining quyi bo‘g‘inidan boshlab o‘quvchi va pedagoglarda mazkur tushunchalarni shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Pedagoglarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularni davriy ravishda tegishli kurslarga yuborish, turli AKT kurslari tashkil etish lozim. Bosqichma bosqich tarzda jahon ilm –fanida o‘z o‘rnini topayotgan **sun‘iy intellekt, biotexnologiya, robototexnika** kabilarni ham ta‘lim jarayonida samarali qo‘llash usullarini o‘rganish lozim.

### **2. Karyera bilan bog‘liq o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.**

Ma‘lumki, talaba, o‘quvchilar o‘qish, ona tili, matematika bilan bog‘liq bo‘lgan birlamchi fanlarni o‘rganishlari juda ahamiyatlidir. Inson faoliyatining barcha sohalorida, jumladan, ishlab chiqarish, madaniyat, san‘at yoki ilmiy-pedagogik faoliyat, umuman qanday soha bo‘lishidan qat‘iy nazar, “ijodiy faoliyat” yuqori baholanadi va rag‘batlantiriladi. Chunki u har qanday faoliyat samaradorligining ortishiga olib keladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “**Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarib, ta‘lim sifati ham, mazmuni ham o‘zgarmaydi**” degan so‘zlari bugungi kunda nihoyatda ahamiyatli. Xo‘sh, maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarishi uchun tizimda qanday islohotlar olib borish lozim? Albatta, bu maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalardan biri fan dasturlarini talabalar an‘anaviy fanlarni o‘zlari qiziqadigan kasbiy sohalari bilan bog‘lab o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratishdir. Masalan, talabalar tadbirkorlik, ishlab chiqarish va muhandislik sohalari negizida matematika, informatika kabi bir qator fanlarni o‘rganishlari mumkin. Ijtimoiy fanlar, iqtisod, texnologiya fanlari talabalar uchun huquqshunoslik sohalari bilan uzviy ravishda tashkil etilishi mumkin. Misol tariqasida, yuqorida keltirib o‘tilgan “**O‘zbekiston -2030**” strategiyasida ham **fanlardagi amaliy mashg‘ulotlar ulushini 60 foizgacha oshirish va 7,5 ming yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitishni ta‘minlash** vazifasi belgilangan.

### **3. Eski ta‘lim muassasalarini modernizatsiya qilish.**

Bugungi kun ta‘lim tizimida ta‘lim jarayonini o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va noodatiy qilishning eng oddiy yo‘li eski maktab binolarini yangilash, ta‘mirlash va qayta qurishdan iborat. Maktabning “jismoniy” holati o‘quvchilarning ta‘lim muhiti va pedagoglarning ruhiy holatiga ta‘sir qiladi. Ta‘lim muassasalarini faqatgina davriy ta‘lim olish uchun mo‘ljallangan joy sifatida emas,



balki keng qamrovli o‘quv muhiti sifatida ko‘rib chiqish lozim. Zamonaviy va yangilangan o‘quv muhitiga ega bo‘lish o‘quvchi, talabalarga o‘z ta‘lim maydoniga egalik tuyg‘usini berishi, va albatta, jarayondagi faollik va ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda bir qancha rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimini modernizatsiyalash uchun turli dasturlarni amalga oshirmoqdalar. Butun yer yuzida juda ko‘plab ta‘lim tizimlari mavjud. Jumladan, **AQSh ta‘lim tizimi** talabalarga haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan amaliy va asl bilimlarni berish mazmunida tuzilgan. “**Discovery Works Science**” kabi dasturlar barcha talabalarni virtual sayohatlar, videolar, podcastlar, matnlar, interaktivlar va boshqalar orqali jalb qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, bu o‘quvchilarning dars haqidagi tushunchalarini shunchaki fakt va raqamlardan tashqari chuqushlashtiradi. Ushbu xususiyat ta‘lim tizimining samarasini yanada oshirishi shubhasiz. O‘quv dasturi talabalarga har bir yosh va bosqichda olingan bilim va ko‘nikmalarni, ya‘ni:

- yetakchilik;
- hamkorlik,
- tanqidiy fikrlash,
- ommaviy nutq,
- ma‘lumotlarni tahlil qilish;
- muammolarni hal qilish

kabi hayotiy muhim ko‘nikmalarni namoyish etish imkonini beradi. Bundan tashqari, haqiqiy vazifalarga e‘tibor qaratiladi, bunda talabalar o‘rgangan narsalarini maishiy yoki hayotdagi muayyan muammolarni hal qilishda qo‘llaydilar. Albatta, ushbu dastur san‘at, musiqa va sport elementlari bilan uyg‘unlashgan.

Namunali va eng yaxshi ta‘lim tizimlaridan yana biri Buyuk Britaniya ta‘lim tizimidir. Asosiy xususiyatlari:

**1. Bepul boshlang‘ich ta‘lim.** 3,4 yoshli bolalar yiliga 38 hafta davomida 15 soatlik bepul ta‘lim olish huquqiga ega. **Maqsad:** bog‘chaga borish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bolalarni sinfdosh va sinflarga moslashtirish orqali kunduzgi ta‘limga tayyorlash.

**2. Britaniya maktablari milliy o‘quv dasturiga** amal qiladi. Bu dastur zamonaviy bilimlarni milliy xususiyatlar bilan uyg‘unlashgan tarzda o‘qitilishini ta‘minlaydi.

**3. Bolalarda mustaqillik rivojlanadi.** O‘rta maktabni boshlagan bolalar ko‘pincha avtobusda, velosipedda yoki piyoda ravishda mustaqil maktab sayohatini amalga oshiradilar.

**4. Talabalar keyingi ta‘lim olish uchun rag‘batlantiriladi.** Barcha bolalar keyingi ta‘limni olishga da‘vat etiladi. Agar talaba bunday qilishni xohlamasa, maktabni tark etishdan oldin unga boshqa mos variantlar haqida maslahat beriladi. Hech bir ta‘lim oluvchi e‘tibordan chetda qolmaydi.

**5. Britaniya maktablari 3 qismli rejaga amal qiladi.** Sentabrdan dekabrgacha, yanvardan martgacha va apreldan iyulgacha. Bolalar qisqa muddatlarda yaxshiroq o‘rganishlari va qisqa vaqt davomida dam olishga ruxsat berilganda, yaxshiroq ishlashlari isbotlangan.

#### **4. Oila va ta‘lim muassasasi hamkorligini yo‘lga qo‘yish.**

Yapon bolalari tarbiyasi, odobli, oqko‘ngil va kamdan-kam hollarda o‘z hissiyotlari ustidan nazoratni yo‘qotadi. Ona va bola juda yaqin: “amae”ning muhimligi.

Yaponiyada ona va bola juda yaqin. Bu yaqinlik maishiy hayotda ham aks etadi: ona va bola birga uxlaydi, ona bolani uzoq vaqt ko‘tarib yuradi. Birga uxlash va bolani ko‘tarib yurish haqida yapon badiiy adabiyotida ko‘plab eslatmalarni topish mumkin. Ona-bola aloqasi hissiy darajada aks etadi: ona bola qilayotgan hamma narsani mehr, sabr va g‘amxo‘rlik bilan qabul qiladi.

“Amae” — bolalar va ota-onalar oʻrtasidagi munosabatlar asosi boʻlib, bolalar toʻlaligicha ota-onalariga va ularning mehriga suyanishi mumkin. Qariyalar esa katta yoshli bolalaridan xuddi shu narsani qabul qilib oladi.

**5. Bola besh yoshgacha —podshoh, besh yoshdan 15 yoshgacha — xizmatkor, 15 yoshdan boshlab — teng qoidasiga amal qilish**

Aslida, “ikudzi” falsafasi inson manfaatlarini ikkinchi darajaga tushadigan jamoaviy jamiyat aʼzolarini tarbiyalashga yoʻnaltirilgan. Bu oʻziga xos stress, yapon ota-onalar shunday sharoitlarda tizimda oʻz oʻrnini topadigan va oʻz qadrini yoʻqotmaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashga harakat qiladi.

Birinchi bosqichda (xudo) ular bolani cheksiz mehr va koʻmak bilan oʻrab oladi. Ikkinchi bosqichda (xizmatkor) bu mehr hech qayerga ketmaydi, shunchaki bola jamiyat qoidalarini faol oʻrganadi va unda oʻz oʻrnini topishga harakat qiladi. Bunda dastlabki yillarda shakllangan onaga kuchli bogʻlanish bolaga katta taʼsir koʻrsatadi. Bola onasining jahlini chiqarmaslik uchun oʻzini toʻgʻri tutishga harakat qiladi.

Qiziq tomoni shundaki, yapon taʼlim muassasalarida nafaqat taʼlimga, balki tarbiyaga ham alohida eʼtibor qaratiladi, ularda atrofda qilarning eng yaxshisi va eng yomoni tushunchasi mavjud emas.

Uchinchi bosqichda (teng) bola jamiyatning shakllangan aʼzosi hisoblanadi. Uni tarbiyalashga kech boʻladi va ota-onalar oʻz urinishlari hosilini yigʻib olishi kerak boʻladi.

“Yaponiya. Uni qanday tushunish kerak” kitobi muallifi Ikeno Osamu qiziq bir tajriba haqida yozadi. Yapon onalari va yevropalik onalardan bolalari bilan birga piramida yigʻish soʻralgan. Yapon onalari dastlab oʻzlari yiqqan va keyin bolalardan takrorlashni soʻragan. Agar bolalar biror narsani oʻxshata olmasa, ular ishni qayta boshlagan.

Yevropalik onalar esa boshqa taktikani tanlagan: ular bolalarga piramida qanday yigʻilishini batafsil tushuntirgan. Keyin esa bolalarga ishni bajarishni taklif qilgan. Koʻrinib turibdiki, **yapon onalari “men kabi qil”** tushunchasini bergan boʻlsa, gʻarblik onalar faqat nazariyani tushuntirib, bolalarni hammasini oʻzi bajarishga majbur qilgan.

Shuning uchun yapon taʼlimi va tarbiyasi “hijjalovchi” deb ataladi. Yapon onalar kamdan-kam hollarda bolalarni qilib koʻrmagan ishini qilishga majburlaydi. Ular avval misol koʻrsatib, bolada shu ishni qilishga xohish uygʻotadi.

**Olingan natijalar:** Taʼlim sifatining oshishi: Xalqaro tajribalarni oʻrganish orqali oʻqitish metodlarida innovatsion yondashuvlar qoʻllanilib, taʼlimning sifati yaxshilanadi. Bu esa oʻquvchilarning bilim olish jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi.

2. Oʻquvchilarning muvaffaqiyat darajasini oshirish: Xalqaro taʼlim standartlari va oʻqitish usullarini integratsiya qilish orqali oʻquvchilarning muvaffaqiyat darajasi oshadi. Bu koʻpincha PISA kabi xalqaro baholashlarda ijobiy natijalar koʻrsatishi bilan isbotlanadi.

3. Taʼlimning universalligi va moslashuvchanligi: Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan taʼlim metodlari koʻplab mamlakatlarda umumiydir. Shu sababli, oʻquvchilar oʻzlarining bilimlarini boshqa davlatlarda ham muvaffaqiyatli qoʻllay olish imkoniyatiga ega boʻladi.

**Xulosa.** Zamonaviy taʼlim tizimi modernizatsiya bosqichida. Maʼlumki, har qanday kasbda faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyatli kasb sohiblarining tayyorgarligi, mahorati, oʻz qobiliyatlarini takomillashtirish ustida nechogʻlik qunt va izchillik bilan ishlashiga bogʻliq. Oʻqituvchilik kasbida esa oʻz bilimdonligi, zukkoligi, kasb mahoratini takomillashtirish ustida umr boʻyi muntazam ishlamay turib, el ardoqlagan, obroʻ-eʼtiborli pedagog boʻlish mumkin emas. Bugungi kunda barchamiz uchun eng muhim vazifaga aylanayotgan bir masala borki, biz amalga oshirayotgan barcha islohotlarni aynan shu masalani qanday hal etishimizga bogʻliq. Bu jarayonda esa samarali islohotlar oʻtkazishimiz, rivojlangan chet davlatlar tajribalarini milliyligimiz bilan uygʻunlashtira olishimiz zarur.

**Adabiyotlar:**

1. Jennifer Monies “Three steps to modernize educational system”
2. “The impact of Modernization in Education” Aristi Rahma Magistra, Indonesia
3. Toʻxtaxoʻjayeva. Pedagogika. Toshkent-2005.
4. www.booklikes.com

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING  
ZAMONAVIY MEKANIZMLARI  
(Oliy ta'limdagi boshqaruv jarayonlari asosida)**

*Xalilova Muxabbat Ruzmurodovna,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika-psixologiya kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

*xalilovamuhabbat70@gmail.com*

*Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida inson kapitalini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini yaratish, xorij tajribasini o'rganish va hamkorlik ishlarini yop'lga qo'yish, boshqaruvning demokratik tamoyillarini huquqiy asoslarini insonparvarlashtirish, ta'limda oshkorlik, adolat, jamiyatni pedagoglashtirish, zamonaviy professional qiyofani yaratish, kadrlarni pedagogik-psixologik, kreativlik jihatdan tayyorlash masalasi ilmiy-nazariy jihatdan o'z tasdig'ini topgan.*

***Kalit so'zlar:** inson kapitali, boshqaruv, qarorlar qabul qilish, demokratik, insonparvarlik, hamkorlik, xorij tajribasi, taraqqiyot strategiyasi, global ta'lim, kreativlik, investitsiya.*

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В  
ВУЗАХ (На основе процессов управления в вузе)**

*В данной статье рассматриваются создание современных механизмов развития человеческого капитала в высших учебных заведениях, изучение зарубежного опыта и налаживание сотрудничества, гуманизация правовой основы демократических принципов управления, прозрачности образования, правосудия, педагогики. общества, создание современного профессионального имиджа, научно и теоретически подтверждены вопросы педагогико-психологической, творческой подготовки кадров.*

***Ключевые слова:** человеческий капитал, управление, принятие решений, демократическое, гуманитарное, сотрудничество, зарубежный опыт, стратегия развития, глобальное образование, креативность, инвестиции.*

**MODERN MECHANISMS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN HIGHER  
EDUCATION INSTITUTIONS  
(Based on management processes in higher education)**

*This article investigates the establishment of modern-innovative mechanisms for enhancing human capital in HE institutions, with a focus on learning from international experiences and fostering collaborative initiatives. It emphasizes the importance of democratizing the legal foundations of management principles, promoting transparency, fairness, and societal “pedagogization” within the education sector. The development of a modern professional identity, alongside the pedagogical-psychological and creative preparation of personnel, are scientifically and theoretically demonstrated in the article.*

***Keywords:** human capital, human resources, management, decision-making, democracy, humanism, collaboration, foreign experience, development strategy, global education, creativity, investment.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmonida: xalqaro tajribalarga tayangan holda, oliy ta'lim standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv fan dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish vazifalari belgilab berildi.

Albatta bu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalaridagi boshqaruv tizimini tubdan yangilash, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish masalasi, oliy ta'limga investitsiyalar kiritish rivojlangan xorij tajribasini mahalliyashtirish-inson kapitalini rivojlantirishning asosiy mezonini sanaladi.

Bugungi kunda mamalakatimizda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirish, takomillashtirishni, ya'ni boshqaruvning ma'muriy

buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, global miqyosdagi demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni davrning o‘zi talab etmoqda.

Ta’kidlash joizki, 73 yil avval qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo‘lida yangi imkoniyatlar ochdi. Bu jihatdan qaraganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi adolatli demokratik davlat qurishdan iborat. Adolatli davlatning eng muhim xususiyati, avvalo, inson qadri va qonun ustuvorligini mustahkamlash uning bosh vazifasi ekanida korinadi.

Darhaqiqat oliy ta’lim jarayonida inson kapitalini rivojlantirish - demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimining muhim shartlaridan biri sanaladi.

Chunki birinchi galda inson kapitalini qonuniy asoslari yaratilmasa va unga amal qilinmas ekan u holda uning dasturiy ta’minoti ojiz bo‘lib, barcha qilinadigan ishlar samarasiz bo‘lib qoladi.

Shuning uchun ham biz o‘z faoliyatimizning birinchi kundan boshlab “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilish kerak”, “Davlat-inson uchun” degan g‘oyalar asosidagi siyosatni, ya’ni inson qadri ulug‘lash, uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashni eng ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik.

Qachonki inson erkin faoliyat yuritsa, erkin xatti-harakat qilsagina unda mustaqillik, talabchanlik, o‘z-o‘ziga ishonch va yaratuvchanlik ko‘nikmalari shakllanadi.

**Asosiy qism.** Mamlakatimizda ushbu siyosatni amalga oshirishda umuminsoniyatning ko‘p yillik tajribasi, xalqimizning ilmiy va madaniy an‘analari, urf-odatlar, qadriyatlar, fan-texnika taraqqiyotining so‘nggi yutuqlari inobatga olindi.

O‘zbekistonda ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilayotganligi oliy ta’lim tizimi rahbarlari (menejerlari) mas’uliyatini yanada oshirmoqda. Inson kapitalini shakllantirishda oliy ta’lim boshqaruvida sifatli qarorlar qabul qilish, ularni amaliyotda joriy etish muhim rol o‘ynaydi.

#### Boshqaruv qarorlariga quyiladigan talablar

T/r	Talablar	IZOH
1	2	3
1.	Boshqaruv qarorlari: Ilmiy asoslangan bo‘lishi lozim.	*boshqaruv qarorlari muayyan ishlab chiqarish holatini tahlil qilishdan kelib chiqib, iqtisodiy, texnikaviy va boshqa ijtimoiy qonunlarning amal qilishini hisobga olib, hoz-irgi zamon fan-texnika yutuqlari negizida qabul qilishi kerak. O‘z mazmuniga ko‘ra u lo‘nda, chuqur bo‘lishi lozim.
2.	Bir-biri bilan aloqador va yakdil bo‘lishi kerak	*Muayyan vazifani hal etishda ko‘pincha asosiy maqsadlardan kelib chiqadigan bir qancha qo‘shimcha vazifalarni hal etishga to‘g‘ri keladi. Bu vazifalar qaror qabul qilinayotgan bosh vazifaga bo‘ysindirilishi lozim. Barcha qarorlar, ko‘rsatmalar, nizomlar bir-biri bilan bog‘lanadi. Shuningdek, ular oldindan qabul qilingan va amaldagi qarorlar bilan muvofiqlashtiriladi.
3.	Huquq va javobgarlik doirasida bo‘lishi lozim	* Rahbar qarorni o‘ziga berilgan huquqlar doirasidagina qabul qilishi mumkin. Bu yerda gap boshqarishning barcha bo‘g‘inlarida huquq va javobgarlik ko‘lami va nisbati to‘g‘risida borayapti. Huquqlar katta bo‘lib, mas’uliyat kam bo‘lsa ma’muriy o‘zboshimchalikka, o‘ylamasdan qaror qabul qilishga yo‘l ochiladi. Huquqlar ozu mas’uliyat katta bo‘lsa, bu ham hech qanday naf keltirmaydi.
4.	Aniq va to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lishi kerak	*Har qaysi qaror aniq adresga ega bo‘lishi va bajaruvchiga tushunarli bo‘lishi lozim. Qarordan bir necha ma’no kelib chiqishi va uni turlicha talqin yoki tushunishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.
1	2	3
5.	Vaqt bo‘yicha qisqa bo‘lishi kerak	*Axborotlar bilan ishlash vaqtini tejash maqsadida qisqa muddatli qarorlar qabul qilinishi lozim.
6.	Vaqt bo‘yicha aniq bo‘lishi lozim	*Rahbar o‘z qo‘l ostidagilarga topshiriqning bajariish muddatini aniq ko‘rsatmasdan berishi mumkin emas. Aks holda u topshiriqning bajarilishini ob’yektiv ravishda nazorat

		qilsh imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.
7.	Tezkor bo‘lishi kerak	* Bunday qarorlar o‘z vaqtida, o‘sha zamon, ya’ni ishlab chiqarishda vaziyat shuni talab qilgan vaqtning o‘zidagina qabul qilish zarur. Kechikib yoki shoshqaloqlik bilan qabul qilingan har ikkisi ham zararlidir.
8.	Samarali bo‘lishi lozim	*Qabul qilingan qarorning samaraligi deganda qo‘yilgan maqsadning eng kam xarajat bilan erishishi tushuniladi.

Mavzuning dolzarbligini yana quyidagi ilmiy-nazariy va ijtimoiy-amaliy omillar bilan asoslash mumkin:

- birinchidan, zamonaviy ishlab chiqarish kuchlarining industrial bosqichi ob’ektiv ravishda axborot-industrial bosqichga ko‘tarilmoqda, yangi ma’lumotlarni yig‘ish va ularni ishlab chiqarish va texnologiyaning yangi turdagi vositalariga qo‘llash iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili bo‘lib qolmoqda va ta’lim sohasi ham bu jarayondan chetda emas. Bunda kishilarning ishlab chiqarish faoliyati axborot yig‘ish va qo‘llash sohasiga joylashib boradi. Bunday ishlab chiqarish faoliyati jarayonida odamlar o‘rtasidagi munosabatlar borgan sayin turli-tumanlashib, murakkablashib boradi, ularni optimallashtirish esa boshqaruv, ayniqsa, qarorlar qabul qilishning sifati va ahamiyatini oshirishini talab qiladi;

- Ikkinchidan, bugungi kunda inson madaniyati rivojlanishi bilan shaxs o‘zida avval ma’lum bo‘lmagan chuqur darajalarni ochadi, yanada murakkablashib, har tomonlama nafislashib boradi va unga qo‘yilgan talablar ham ortib boradi. Bu ta’lim jarayoniga ham taalluqli bo‘lib, yuqoridagi omillar unda boshqaruvning yanada yuqori darajalarga ko‘tarilishini, uning samaradorligini oshirishini talab qiladi va unga muvofiq ravishda boshqaruv qarorlarining ahamiyati ham oshadi;

- Uchinchidan, jamiyatdagi islohotlar, xususan ta’limni rivojlantirish va yanada insonparvarlashtirish g‘oyasining amalda tasdiqlanishi farovonlikning o‘shishi bilan birga yoshlarni ta’limga majburlash asosida emas, balki maqsadga muvofiq, ularning hayotiy muhim manfaatlariga samarali ta’sir qilish va rag‘batlantirish orqali boshqarish zaruratini uyg‘otadi. Shu sababli ham ta’lim tizimida boshqaruv qarorlarining roli va ahamiyati ortadi;

- To‘rtinchidan, globallashtirish jarayoni ijtimoiy munosabatlar, xususan ta’lim jarayonining globallashtirishga olib keladi. Bunday vaziyatda milliy ta’lim modelini rivojlantirish zarurati xalqlar va mamlakatlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda, turli ma’naviy qadriyatlar va madaniyatlarning tarixiy o‘ziga xosligini saqlash, ijodiy-yaratuvchanlik xususiyatini rivojlantirish va boyitish asosida kelib chiqadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Birinchi prezident Islom Karimov qarorlar qabul qilish jarayoni haqida shunday yozadi: «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir. Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo‘lmas ekan, demokratiya haqidagi hamma gap-so‘zlar yo xalqqa xushomad qilish yoki oddiy siyosiy o‘yin bo‘lib qolaveradi»

Albatta ushbu fikrlarning tasdig‘i sifatida tarix falsafasida ham o‘sha davr nuqtayi nazaridan boshqaruvning insoniy qadriyatlar asosida ifodalanishi bejiz emas.

Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida aholining ma’naviy va psixologik jihatdan boshqarilishida fozil odamlar shahrida shahar aholisining stratometrik xususiyatlarga ko‘ra tabaqalanishi lozimligi uqtiriladi. Bunda jamiyat a’zolarining o‘zlarini boshqarishlarida jamiyatning o‘zini-o‘zi boshqarilishiga olib kelish lozim, lekin bu bilan bir vaqtning o‘zida har bir a’zo o‘z psixologik-ma’naviy kamolotini usul hamda yo‘nalishiga ko‘ra yakkaxol tarzda mavjud bo‘ladi. «Shularning hammasini ikki yo‘l bilan olish mumkin. Birinchidan, yuqoridagi xodisalar aslida qanday mavjud bo‘lsa, inson qalbiga, ko‘ngliga o‘shanday o‘rnashib qolsa, boshqalarning ko‘nglida bu bilimlar qiyosiy yoxud taqlid asosida vujudga keladi. Ba’zi odamlar o‘sha narsalarni o‘zlari his etishlari tufayli ko‘ngillarida shu bilimlar vujudga keladi».

Forobiy bu fikrni davom ettirib: «Ikkinchidan, ushbu sifatlarga ega bo‘lmagan odamlar birikmasi esa, jaholatdagi va adashgan shaharlarning aholisini tashkil qiladi. Fikrlashlar, g‘azab, hasad, nafratga asoslangan bunday shahar aholisi... doimo bir-birlariga qarshi kurashib bir-birlariga dushmanlik qiladilar, eng kuchlilari boshqalarga nisbatan mukammalroq tuzilgan bo‘ladi. G‘olib kelganlar ham bir-birlarini yo‘qotishga urinadilar, go‘yo boshqa mavjudotlar nomukammalday, ularning borligi bularga zarar keltiradiganday, yoxud boshqalar ularga faqat qulday xizmat qilish uchun yaratilganday, barchasi bir-birini ezib ishlatishga intilishadi».

Forobiy shuningdek insonlarning yaxshi hayot kechirishi boshqaruvchi, ya’ni rahbar shaxsiga bog‘liq ekanligini, uning turli fazilatlarini bu borada unga yordam berishini uqtiradi. Uning fikricha, bu o‘rinda rahbar shaxsi uchun gumanistik, insonparvarlik xususiyatlari muhimdir: «Kimki bironi baxt va saodatga erishtirish

uchun zarur bo‘lgan ish-harakatlarga ruhlantira olish qobiliyatiga ega bo‘lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo‘lsa, bunday odam sira ham rahbar bo‘la olmaydi. Ular yo‘l-yo‘riqlarni o‘tmishda yashab o‘tgan boshliqlardan o‘rganadilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak o‘tmishdagi rasm-rusm, yo‘l-yo‘riqlarni isloh qilishni lozim topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab o‘zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyatida saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o‘zgarish va o‘sish ham bo‘lmaydi».

Forobiyning bu fikrlaridan ko‘rinadiki, rahbar shaxsi birinchi navbatda o‘zini yomon odatlardan ozod qila olishi, boshqalarni yaxshi ishlarga ruhlantira olishi kerak ekan. Bu fikrlarning bugungi kunimiz uchun ham ahamiyati pasaymaganligini kuzatish mumkin.

O‘rta Osiyoning buyuk donishmandlaridan yana biri bo‘lmish Abu Rayhon Beruniy ham boshqaruv va boshqaruvchi shaxsi xususida o‘zining bir qator fikr-mulohazalarini bayon etgan. U har bir kishiga baho berish uchun, uning qilgan ishini kuzatish mumkinligini ta’kidlaydi: «Har bir odamning bahosi o‘z ishini ajoyib bajarishidir».

Beruniy o‘zining «Hindiston» asarida ushbu g‘oyani ilgari suradi: «Tabiati jihatidan boshqarish va siyosat ishlariga qiziquvchi, boshliq bo‘lishga fazilat va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadda sabotli, davlatni o‘zidan keyingilarga qoldirib, ularning o‘z ota-bobolariga qarshi bo‘lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida turg‘un tog‘lar singari mahkam bo‘lib, u buyruqqa ko‘p vaqtlar va uzoq zamonlar o‘tsada, keyingilar ham bo‘ysunadilar».

Demak, Beruniy o‘z insonparvarlik g‘oyalari bilan boshqaruv va rahbarlik psixologiyasi ta’limotlari rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oldi. U insonlar orasida o‘zaro tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdiki, bu fikrlar hamisha ham qadrlidir

Darhaqiqat boshqaruv tizimida tarixiy shaxslarni fikrlari va hayotini ibrat na‘munasi sifatida qabul qilib bugungi zamonaviy rahbar qiyofasini yaratish rivojlanish va yangilanayotgan dunyoda adolat, haqiqat, sofdillik, insoniylik va poklik qaror topishini ta’minlanishiga olib keladi.

Oliy ta’lim jarayonida inson kapitalini shakllantirishda ta’lim muassasalaridagi mehnat jamoalari singari, umuman jamiyatning barcha sohalarida faqat yuqori malakali professional boshqaruvchilar tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyati moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish sohasidagi bevosita ijrochilarning ijodiy faolligi bilan uyg‘unlashsagina farovon hayot kechirish va barqaror rivojlanishi mumkin.

Rivojlanishning barqarorligi qabul qilinadigan qarorlarda o‘z aksini topsagina - inson kapitaliga investitsiyalar kiritish va uning amaliy natijalari har bir sohada yangilanish, taraqqiyot bilan birgalikda zamonaviy raqobatbardosh uchunchi renissians shaxsini tarkib toptiradi.

Bu esa o‘z navbatida respublikamizda yangi -hayot-yangi kun va jamiyatning har bir a’zosida professional qoyofani yuzaga keltirib jamiyatni pedagoglashtirish, o‘z-o‘zini ilmiy jihatdan idrok etish, boshqarish, mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirib, ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy, etnik, global miqyosda fikrlay oladigan, kreativ zamonaviy kadrlarni jamiyatga yetishtirib beradi.

Mustaqillik yillarida psixologiya fanining boshqaruv sohasida Respublikamiz miqyosida qator ilmiy-amaliy ishlar olib borildi. O‘zbekistonda boshqaruv jarayonini tashkil etishning psixologik omillari dastlab E. G‘oziyev, M. Davletshin, G‘.Shoumarov, V.Karimova, Sh.Baratov singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik ushbu masala bilan shug‘ullanuvchilar safi kengayib bordi. Jumladan, I.Maxmudov, R.Toshimov, E.Sattorov, X.Alimov, M.Yo‘ldoshev, N.Boymurodov, F.Akramova, O.Shamiyeva, N.Ro‘ziqulov, O.Hayitov, Sh.Holiqova, Sh.Azizova, Z.Abdurahmonova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari boshqaruv muammosini o‘rganishni jadallashtirishga xizmat qildi.

Mamlakatimiz psixologlari rahbarni uning yaxlit ruhiy dunyosi bilan, binobarin, shaxsning aqliy faoliyati, bilish jarayonlari, irodasi, xarakteri, temperamenti, hissiyoti, qobiliyati bilan, umuman olganda inson tuzilishining barcha qirralari bilan bog‘liq tarzda tushuntirishga harakat qilganlar.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning rahbar kadrlar va ularni qanday sifatlarga ega bo‘lishliklariga bag‘ishlangan asarlarida va faqrmon va qarorlarida ”Yangi O‘zbekiston –Taraqqiyot Strategiyasi”, Shuningdek, boshqaruv jarayonini tashkil etish, rahbar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori singari me‘yoriy hujjatlar, rahbar kadrlar va ularni qanday sifatlarga ega bo‘lishliklariga bag‘ishlangan , mavzuga doir ilmiy-metodik, psixologik, pedagogik adabiyotlar, monografiyalar va boshqa manbalar metodologik asos sifatida olindi..


**Tahlil va natijalar.** Inson kapitalini oliy ta’lim jarayonida rivojlantirishda ta’lim sohasining samarali faoliyatiga uning boshqarish tizimi hal etuvchi omil sifatida ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Miromonovning Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi kitobida keltirib o‘tilgan - “Demokratik islohotlar yo‘li –biz uchun yakkayu-yagona va eng to‘g‘ri yo‘ldir. Bu borada biz har kuni izlanishdamiz, yurtimiz va xorijdagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganib, hayotimizni, ish uslubimizni takomillashtirishga harakat qilmoqdamiz”, kabi fikrlari har bir sohada yangilanish, hamkorlik ishlarining dasturiy ta‘minoti sanaladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya‘ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e‘tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan ta‘limga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat mamlakatni rivojlantirishning muhim usuli, inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitalini takomillashtirib moddiy farovonlik va sog‘lom turmush tarziga erishiladi.

Shu o‘rinda milliy ta‘lim sohasining boshqarish tizimini takomillashtirishda ilg‘or mamlakatlarning bu yo‘nalishdagi tajribalarini o‘rganib, ularning ijobiy tomonlaridan mamlakatimizda foydalanish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Buyuk Britaniyaning ta‘lim sohasini boshqarish tizimiga oid tajribasi ham muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki Buyuk Britaniyaning ta‘lim sohasi va uni boshqarish tizimi o‘zining boy tarixi va xususiyatlariga ega. Birlashgan Buyuk Britaniya qirolligi va Shimoliy Irlandiyada tegishli tartibda qabul qilinib ommaviylashtirilgan barcha ta‘limga oid qonunlar bir xil kuch va ta‘sirga ega. Umuman olganda Buyuk Britaniya ta‘lim tizimini ta‘lim vazirligi boshqaradi. Vazirlik umummilliy ta‘lim standartlari va tavsiyalar tayyorlaydi. Biroq har bir maktab o‘z o‘quv rejasini mustaqil, vazirlikning tavsiyasiga binoan shakllantiradi. Ta‘lim tizimini boshqarishda mahalliy organlar ham ishtirok etadi. Vazirlikning subsidiyalari ta‘lim muassasasi vazirlikning tavsiyalariga qanchalik amal qilishi va uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga qarab taqsimlanadi. Buyuk Britaniya ta‘lim tizimi ma‘muriy boshqaruviga ko‘ra quyidagilarga: 1) Angliya va Uels; 2) Shimoliy Irlandiya; 3) Shotlandiya ta‘lim tizimlariga bo‘linadi.

Britaniya ta‘lim tizimining eng muhim jihati – davlatning ta‘lim tizimini boshqarishdagi katta rolidir. Chunki Britaniya hukumati markaziy byudjetidan ta‘lim tizimini doimiy ravishda moliyalashtirib boradi. Buyuk Britaniya oliy ta‘lim tizimidagi moliyaviy boshqaruv talabalar qabulining miqdori, ta‘limning mehnat va material talabliligiga asoslangan. Mazkur ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda har yillik blokgrantlar ko‘rinishidagi moliyaviy vositalari oliy ta‘lim muassasalariga tegishli kengashlar va boshqa organlar orqali taqsimlanadi. Blok-grantlar oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishning yetakchi shakli hisoblanadi, ular orqali 80% moliyaviy resurslar har yili oliy o‘quv muassasalari o‘rtasida taqsimlanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, Buyuk Britaniya ta‘lim tizimini boshqarish demokratik boshqarish tavsifiga ega bo‘lib, ta‘lim tizimini rivojlantirish strategiyasini davlat va mahalliy nodavlat korporativ organlar belgilaydi. Ta‘lim tizimini boshqarish ta‘lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar va innovatsion mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan.



Islangan davlatning ma'muriy tizimining milliy xususiyati ko'p jihatdan milliy xulq-atvor xususiyatlari bilan belgilanib, ular ijtimoiy hayotning barcha darajalaridagi boshqaruv amaliyotiga o'zining real ta'sirini o'tkazadi. Xozirgi vaqtda Xitoy hukumati "fan va ta'lim orqali mamlakat taraqqiyotiga erishish" tamoyili va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib, ta'limni modernizatsiyalashga va aholining madaniyati darajasini oshirishga ustuvor vazifa sifatida qaramoqda.

Bu ko'rsatkichlar esa inson kapitalini rivojlantirish mexanizmlari uchun qulay shart-sharoit yaratish va uning texnologiyalarini ishlab chiqishda davlat boshqaruv organlarining molyaviy ta'minotining qanchalik natijadorligida o'z aksini amaliy jihatdan isbotlamoqda.

Professional inson kapitali mamlakatning ijtimoiy-ikhtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, Xitoy hukumati ham ta'lim sohasida "Ta'limni rivojlantirish - modernizatsiyalashuv va kelajakni belgilab beruvchi omil" mazmunidagi yangi yunalish buyicha islohotlarni amalga oshirmokda.

Xitoyda kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash oldiga mehnat bozorining kadrlar tayyorlash buyicha yuqori sifatga ega bo'lishi lozimligidan kelib chiqib strategik maqsadlar qo'yilgan. Bular qatoriga kasbiy ta'lim tizimi boshqaruvining markazlashuvi va muassasalarni restrukturalash kiradi. Xitoyda kasbiy ta'limni rivojlantirish samaradorligiga xorijiy mamlakatlarda kasbiy tayyorgarlikning tashkil etilishini o'rganish va ushbu tajribalarning ijobiy jihatlarini amaliyotga qo'llash orqali erishiladi.

**Xitoyda zamonaviy oliy ta'lim tizimi tarkibiga universitetlar, kollejlilar va kasbiy oliy maktablar kiradi.** Universitet va kollejlarning asosiy qismi mamlakat ta'lim vazirligi nazorati ostida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga maxalliy munisipalitetlar tomonidan boshqariladigan oliy ta'lim muassasalari ham mavjud. Mamlakatning oliy ta'lim muassasalari oliy ta'limning uch bosqichini ta'minlaydi. Birinchi bosqich - o'qish 4-5 yil davom etib, bakalavr darajasini berish bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich - o'qish 2-3 yil davom etib, magistr darajasini berish bilan yakunlanadi. Uchinchi bosqich - 3 yil ta'lim olishni nazarda tutadi va doktor darajasini berish bilan yakunlanadi. Ushbu unvonni olish o'quv kursining asosiy fanlaridan imtixonlar topshirish va mustaqil ravishda ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xozirgi vaqtda Xitoyda 2 mingdan ortiq universitetlar, kollejlilar va kasbiy oliy maktablar mavjud bulib, ularda taxminan 9 million kishi taxsil olmoqda. Ushbu muassasalarning bakalavr bosqichida 5,5 million talaba, magistratura va doktorantura bosqichlarida 300 mingga yaqin kishi o'qimoqda. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida jami talabalarning taxminan 20%i bilim olmoqda. Yildan yilga ta'lim sohasida xalqaro xamkorlik va almashinuv kengayib bormoqda. Xitoy chet davlatlarga o'qishga eng ko'p talaba yuboruvchi mamlakat xisoblanadi.

**Xitoyning ta'lim sektori sifat jihatidan va metodik ta'lim bo'yicha katta zafarlarga erishdi.** Xitoy oliy ta'limining sifati dunyoning ko'pgina mamlakatlarida tan olingan, shu sababdan, Xitoyga almashinuv dasturlari buyicha juda ko'p talabalar keladi. Mamlakatning 450 ta oliy ta'lim muassasalari xorijiy talabalarni taxsil olishga qabul qilish ("laovay lyusyueshen") ("лаовай люсюэшэн") huquqiga egadirlar. 2000-yildan 2006-yilga qadar Xitoyga o'qish uchun keluvchi chet ellik talabalar soni uch barobar kupaydi. 2006-yilda Xitoyga o'qish maqsadida 185 ta mamlakatdan 162000 talaba kelgan. Xitoy hukumati universitet darajalari va ta'lim to'g'risida guvohnomalarni o'zaro tan olish bo'yicha 30 ta mamlakat bilan kelishuv shartnomalarini imzoladi. Shu sababdan Xitoy oliy ta'limi rivojlanishida oliy ta'lim sifati va sifat kafolatini berish dolzarb masala xisoblanadi.

Oxirgi 10 yillikda Xitoyda oliy ta'lim muassasalari soni 70%ga o'sdi va bu o'sish birinchi navbatda nodavlat ta'lim muassasalarining tashkil etilishi hisobiga bo'ldi. XXRda ta'limni rivojlantirish rejasiga binoan, barcha oliy ta'lim muassasalari har besh yilda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini baholash jarayonidan o'tishlari zarur. Xitoy oliy ta'lim muassasalari sifatini baholash jarayoni milliy xamda xududiy darajada maxsus tashkil etilgan tashkilot - Sifatni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Undan tashqari, oliy ta'lim muassasalarining o'zlarida ta'lim sifati uchun javobgar ichki bo'linmalar tashkil etilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Xulosa qilib aytish mumkinki, Xitoy kasbiy ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Bor yo'g'i 30 yil ichida Xitoy savodxonlik darajasi bo'yicha qoloq mamlakatdan samarali o'rta va oliy ta'lim tizimiga ega mamlakatga aylandi. Mamlakat iktisodiy taraqqiyot uchun zarur bulgan kadrlarni takror ishlab chikarish uchun sharoit yarata oldi. Xitoyning kasbiy ta'lim sohasidagi yutuqlarini chet eldan ta'lim olish maqsadida kelayotganlarning yildan-yilga ko'payib borayotganligi xam tasdiklaydi. Xitoy Yaponiya bilan bir qatorda Janubi-Sharqiy Osiyoda xorijiy talabalarning oqimi buyicha yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Xitoy oliy



ta'limining taraqqiyoti global ta'lim makoniga integratsiyalashuviga yunaltilgandir. Xitoy oliy ta'limi sohasidagi hozirgi davrning ustuvor yunalishlaridan biri AKSH, G'arbiy Yevropa, MDX mamlakatlarning yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dastur- larini yaratish xisoblanadi. Hozirgi kunda shu kabi dasturlar doirasida iktisodiy, texnik, tibbiy, filologik mutaxassisliklar buyicha 1300 dan ortik talaba tahsil o'lmokda.

**Xulosa va takliflar.** Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda hamkorlik ishlarining zamonaviy shaklini yaratish, bu sohada ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish, tajriba almashish talablarini xorijiy tajribalari asosida loyihalar yaratish yangiliklarni tadqiq qilish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Darhaqiqat bugungi Rahbarning fazilatlariga bo'lgan birinchi talablardan biri uning jamoani yaratish qobiliyatidir. Jamoaning bir yoki bir nechta rahbari tomonidan qanday tashkil etilishi uning boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatga bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan rahbarga muayyan psixologik talablar qo'yiladi. Rahbar ijodiy fikrlashga boy, ammo haqqoniy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Rahbarning har bir xodimda lavozimni egallash uchun nomzod bo'lishi kerak bo'lgan sifatlarning tuzilishini ko'ra olish qobiliyati, xodimlarni to'g'ri tanlashi va joylashtirishi muhimdir. Jamoani shakllantirish psixologik muvofiqlik muammosini hal qilish bilan bog'liq. Bu rahbardan xodimlarning psixologik xususiyatlarini bilishi va jamoaning alohida yo'nalishlarini shakllantirishda ularni qanday qilib hisobga olish kerakligini talab qiladi.

Bunday yondashuv unga jamoada eng yaxshi ijtimoiy – psixologik muhitni shakllantirishga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Barqaror natijalarni boshqarish sohasidagi Amerika va Yapon tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tinchoqsoyish axloqiy va psixologik muhit mavjuddagina yuqori ko'rsatkichlarga erishishi mumkin. Boshqaruv jarayonidagi eng muhim nuqta boshqaruv qarorini qabul qilishdir. Har bir rahbar o'zi boshqaradigan tizimning shartlari bilan bog'liq muammolarni ko'ra bilishi lozim. Har bir rahbar yangi tuyg'uni, tahlil qilish qobiliyatini, son-sanoqsiz axborot va faktlardan eng muhim savollarni ajratib olishni shakllantirishi kerak. Birovning tajribasini va ularni ishlatish uchun tayyor g'oyalarni tizimlashtirish, zarur bo'lganda, rahbarning ilmiy ishini tashkil etishning muhim shartidir. Muayyan qarorni o'rganishda yaxshi rahbarni tavsiflovchi boshqa sifat-bu qarorga aloqador bo'lishi kerak bo'lgan mas'uliyat hissi. Muammoni hal qilishning eng to'g'ri yondashuvini aniqlash va tanlash uchun menejerga maslahat berish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Menejerning maslahat berish qobiliyati uning faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada belgilaydi. Rahbar uchun odamlarning fikrlarini tahlil qilish qobiliyati juda ham muhimdir. Qaror qabul qilish samaradorligi va uning sifati aqliy faoliyatning samaradorligi darajasiga, mavjud bilim va tajribadan foydalanish qobiliyatiga bog'liq. Shuning uchun, aqlning moslashuvchanligi va xotira tezligi har bir rahbarning muhim va zarur xususiyatlari hisoblanadi. Tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik va jasorat – qaror qabul qilish va uni ijrosini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu rahbarga qo'yiladigan psixologik talablar. O'zini va o'z kasbiy mahoratini oshirib, rahbar birinchi navbatda talablarga javob beradigan fazilatlarini rivojlantirishi kerak

Olib borilgan izlanishlar natijasida boshqaruvda, xususan, oliy ta'lim boshqaruvida qaror mohiyati, turlari, qaror qabul qilish bosqichlari va uning asosiy tamoyillari borasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Oliy ta'lim boshqaruvida qarorlarning samaradorligiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning eng asosiylari: rahbariyatning yoki guruhning shaxsiy sifatlari, qarorni ishlab chiqishdagi sharoitning axborot ta'minoti, tashkiliy tavsif omillari (qaror ishlab chiqishga mutaxassislikni taklif qilish, usullar tizimi va qabul qilingan qarorni bajaruvchilarga yetkazish shakli, nazorat tizimi va h.k.), texnikaviy omillar (AKT dan foydalanish va h.k.), qarorni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishdagi vaqtinchalik omillar.

- Oliy ta'lim boshqaruvida qarorlarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: qabul qilinadigan qaror demokratik insonparvarlik bo'lishi, ilmiy asoslanishi, aniq yo'naltirilishi, qisqa va aniq bo'lishi, tez bajariladigan bo'lishi lozim.

- Qarorni ishlab chiqarish va qabul qilish – rahbarning asosiy ish faoliyati hisoblanib, bozor munosabatlari, globallashtirish, ta'limdagi innovatsiyalar qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari sifatiga katta talablar qo'yadi. Shundan kelib chiqib, ta'lim tizimida qaror qabul qilish – bu ta'lim muassasasi rahbarining tashkilot oldidagi maqsadga erishish uchun o'z vakolati va omilkorligi doirasida qarorning mavjud variantlaridan eng maqbulini tanlash jarayonidir.

- Kech qolgan, shoshib chiqarilgan qaror samara bermaydi, aksincha, ta'limi sifati, samarali boshqaruv natijalariga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Boshqaruv qarorlari sifati bo'yicha boshqacha yondashuvni taklif qilish mumkin. Boshqaruv qarori sifati - bu samarali qarorlar yig'indisi bilan xato qarorlar yig'indisining birgalikdagi ko'rinishidir. Bunday ta'rif berish orqali biz ta'kidlashimiz lozimki, har qanday malakali rahbar ham xato qaror chiqarishdan holi bo'la olmaydi. Yuqoridagilarga yondashgan holda rahbarlar vazifa va burchida quyidagilarni tanlashi lozim:

A) samarali qabul qilingan qarorlarni; B) yo‘l qo‘yilgan xatolarning kamligi bo‘yicha; V) samarali qarorlarning yuqori darajaligi va xatolarning kamayganligi mushtarakligi.

Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda hamkorlik ishlarining zamonaviy shaklini yaratish, bu sohada ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, tajriba almashish talabalrni xorijiy tajribalari asosida loyihalar yaratish yangiliklarni tadqiq qilish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

**Takliflar.**

- Oliy ta‘limni boshqarishda strategik ahamiyatga molik qarorlarni qabul qilishda keng jamoatchilik, jumladan, soha mutaxassislari fikrini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Oliy ta‘limni boshqarishda ishtirok etadigan menejerlar uchun mahorat maktablari, amaliy darslar, xorij bilan tajriba almashish kabilarni yo‘lga qo‘yish va uslubiy qo‘llanmalar yaratish lozim.

- Boshqaruvda qaror qabul qilish jarayonlarini qardosh xalqlardagi jarayon bilan qiyosiy tahlil qilish, o‘zaro integrasiya jarayonlarini o‘rganish darkor.

- Qaror qabul qilishda mental xususiyatlarni ham inobatga olish kerak. Mentalitet ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma‘naviy salohiyat hisoblanib, qaror qabul qilishda ularni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

- Qaror qabul qilishda milliylik va umuminsoniylik, an‘anaviylik va zamonaviylik bilan bog‘liq transformasiya jarayonlarini maxsus o‘rganish kerak.

- Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi qoshida boshqaruv faoliyatiga, qaror qabul qilish jarayonlariga oid filмотека, videofilmlar fondi tashkil qilish maqsadga muvofiq.

-Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda hamkorlik ishlarining zamonaviy shaklini yaratish, bu sohada ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, tajriba almashish talabalrni xorijiy tajribalari asosida loyihalar yaratish yangiliklarni tadqiq qilish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

**Adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston- Taraqqiyot Strategiyasi” T. O‘zbekiston-2022 yil 21bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 181 б.
5. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 167.
6. Beruniy Abu Rayhan. Indiya. Soch., t.2. – T.: «Fan», 1963. – S. 8. 6
7. Хошимов П.З., Орипов М.А. “Буюк Британия таълим тизимини бошқариш хусусиятлари”. // Замонавий таълим/Современное образование 2018., 11. 1-6 бетлар.

**МАЛАКА ОШИРИШ АСОСИДА РАХБАР ХОДИМЛАРНИНГ КАСБИЙ ВА  
БОШҚАРУВ МАҲОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТАШКИЛОТ МУВАФФАҚИЯТИ  
КАЛИТИДИР**

*Ҳақназарова Нилуфар Қуранбоевна,*

*Олий таълим фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги*

*Олий таълим тизими кадрларини қайта тайёрлаш ва*

*малакасини ошириш институти мустақил изланувчиси*

*Мустақиллик йилларида мамлакатимизда кўплаб таълим муассасалари янгидан қурилди, таъмирланди, энг замонавий ўқув анжомлари билан таъминланиб, мустақил фикр, интеллектуал жиҳатдан ривожланган, ўз дунёқарашига эга бўлган ёшларни тарбиялаш бугунги куннинг долзарб вазифасидир. Барча соҳалар каби таълим-тарбия жараёнига ҳам янгича ёндашув, инновацияларни татбиқ этишини тақозо этмоқда. Таълим сифатини таъминлаш энг муҳим ўрин тутадиган ўқитувчи-педагоглар савиясини мунтазам ошириб бориш, жараёнга энг замонавий ва илгор ахборот ҳамда таълим технологияларини жорий этиш билан боғлиқ муаммоларда кўринмоқда. Ушбу мақолада раҳбар ходимларнинг малака ошириш жараёнларини ташиқлотларга фойдаси, унинг асосий аҳамияти, самарадорлиги ҳамда ташиқлотларнинг муваффақиятли ривожланиши ва ходимларнинг иш сифатини яхшилаш учун муҳим асос эканлиги акс эттирилган.*

**Калит сўзлар:** раҳбар, ташиқлот, малака ошириш, бошқарув, самарадорлик, узлуксиз касбий ривожланиш.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ И УПРАВЛЕНЧЕСКИХ  
НАВЫКОВ РУКОВОДЯЩИХ РАБОТНИКОВ НА ОСНОВЕ ПОВЫШЕНИЯ  
КВАЛИФИКАЦИИ - ЗАЛОГ УСПЕХА ОРГАНИЗАЦИИ**

*За годы независимости многие учебные заведения нашей страны были заново построены, отремонтированы, оснащены самым современным учебным оборудованием, и воспитание молодых людей с независимым мышлением, интеллектуально развитыми, собственным мировоззрением является актуальной задачей сегодняшнего дня. Новый подход к образовательному процессу, как и все сферы, требует внедрения инноваций. Обеспечение качества образования видится в проблемах, связанных с регулярным повышением уровня учителей-педагогов, внедрением в этот процесс самых современных и передовых информационно-образовательных технологий. В данной статье показана польза процесса повышения квалификации руководящих кадров для организаций, его основная значимость, эффективность и важная основа для успешного развития организаций и улучшения качества работы сотрудников.*

**Ключевые слова:** руководитель, организация, повышение квалификации, менеджмент, эффективность, непрерывное профессиональное развитие.

**IMPROVING THE PROFESSIONAL AND MANAGERIAL SKILLS OF EXECUTIVES  
THROUGH PROFESSIONAL DEVELOPMENT IS KEY TO THE SUCCESS OF THE  
ORGANISATION**

*During the years of independence, many educational institutions in our country were newly built, renovated, equipped with the most modern educational equipment, and educating young people with independent thinking, intellectually developed, and their own worldview is an urgent task of today. A new approach to the educational process, like all areas, requires the implementation of innovations. Ensuring the quality of education is seen in the problems related to regularly raising the level of teachers-pedagogues, introducing the most modern and advanced information and educational technologies into the process. This article shows the benefits of the leadership development process for organizations, its main importance, effectiveness and an important basis for the successful development of organizations and improving the quality of employee work.*

**Keywords:** head, organization, professional development, management, efficiency, continuous professional development.

**Кириш.** Замонавий дунёда ташкилотларнинг муваффақияти фақатгина маҳсулот ёки хизматнинг сифатидан эмас, балки ундаги одамлар, уларнинг малакаси, билимлари ва бошқарув маҳоратидан ҳам келиб чиқади. Раҳбар ходимларининг касбий ва бошқарув маҳоратини такомиллаштириш, уларнинг иш самарадорлигини ошириш, ташкилотнинг стратегик мақсадларига эришишда муҳим рол ўйнайди. Раҳбарлик ва етакчилик ҳар бир ташкилотнинг стратегик муваффақиятида ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Ташкилотларнинг барқарор ривожланиши ва рақобатбардошлигини таъминлаш учун раҳбар ходимлардан доимий равишда янги билимлар, малака ва кўникмаларни ўзлаштириш талаб қилинади. Шу билан бирга, глобаллашув жараёни ва тезкор технологиялар ўзгариши раҳбарликда доимий инноватция ва ўзгаришларга мослашишни тақозо этмоқда. Бундай шароитларда узлуксиз касбий ривожланишнинг аҳамияти янада ортиб бормоқда. Бундай ривожланиш раҳбарлар ўзининг шахсий ва касбий кўникмаларини доимий такомиллаштириб боришини англатади, бу эса уларнинг самарали ишлашини таъминлайди. Мақсад ушбу касбий ривожланиш жараёнларини таҳлил қилиш ва уларнинг ташкилот ва шахсий фаолият учун аҳамиятини ўрганишдан иборат. Ҳар қандай ташкилотнинг муваффақияти нафақат моддий ресурсларга, балки инсон ресурсларига ҳам боғлиқ. Раҳбар ходимлар эса, ушбу инсон ресурсларини самарали бошқаришда ҳал қилувчи роль ўйнайди. Бугунги кундаги тез ўзгараётган бизнес муҳити ва рақамли трансформация жараёнлари раҳбарларнинг доимий малака ошириб боришини талаб қилади. Турли соҳалардаги инновациялар, янги технологиялар ва бозор тенденцияларини тушуниш учун раҳбарлар доимо ўрганишда ва ўзларини ривожлантиришда давом этишлари керак. Бунинг натижасида улар нафақат ўз ташкилотлари учун манфаатли қарорлар қабул қилади, балки жамоаларнинг барқарор ривожланишини таъминлайди. Малака ошириш — бу бир марталик жараён эмас, балки раҳбарларнинг ўз шахсий ва касбий ривожланиши учун доимий равишда амалга оширилиши лозим бўлган мураккаб жараёндир.

**Методлар.** Ушбу тадқиқотда бир қанча тадқиқот методлари қўлланилди. Биринчи навбатда, етакчилик салоҳиятини ривожлантириш дастурлари тўғрисидаги мавжуд илмий адабиётлар, тадқиқотлар ва амалиётлар ўрганилди. Ана шулар асосида тадқиқотдаги мавзу билан боғлиқ дастурларнинг самарадорлиги ва таъсири таҳлил қилинди. Шундан сўнг, раҳбар ходимлар ўртасида анкета ва интервью усули орқали маълумотлар тўпланди. Анкетада раҳбарлардан уларнинг касбий ривожланиш дастурлари ҳақидаги фикрлари, уларнинг иш сифатларига таъсири ва шахсий самарадорликлари ўрганилди. Шунингдек, сифатли таҳлил орқали уларнинг ривожланиш жараёнлари батафсил ёритилди. Бу усуллар орқали олинган маълумотлардан келиб чиқиб, тадқиқот натижалари чуқур таҳлил қилинди. Ушбу мақола турли усуллар ёрдамида тўпланган маълумотлар асосида ёзилган. Маълумотлар куйидаги манбалардан олинди:

**1. Анкета сўровлари:** Тадқиқотда иштирок этган раҳбарлар малака ошириш дастурларида қатнашганликлари ва уларнинг самарадорлиги ҳақида маълумот берди. Анкета сўровлари орқали уларнинг иш жараёнлари, жамоани бошқариш усуллари ва қарор қабул қилиш жараёнларидаги ўзгаришлар ўрганилди.

**2. Интервьюлар:** Турли соҳалардаги юқори малакали раҳбарлар билан ўтказилган интервьюлар орқали уларнинг малака ошириш жараёнлари ва уларнинг ўз жамоаларига қўшган хиссалари таҳлил қилинди. Улардан ташкилот самарадорлигини оширишда малака ошириш дастурларининг роли ҳақида фикр олинди.

**3. Иш фаолияти таҳлили:** Ташкилотларда раҳбарлик вазифасини бажараётган ходимларнинг малака ошириш дастурларида қатнашган ва қатнашмаган ҳолатларидаги иш самарадорлиги қиёслаб ўрганилди. Шунингдек, малака ошириш жараёнидаги муваффақиятлар ва муаммолар ҳам таҳлил қилинди.

Раҳбар ходимларнинг бошқарув маҳорати, уларнинг жамоани муваффақиятли бошқара олишлари, маълумотни тўғри таҳлил қилишлари ва самарали қарорлар қабул қилишлари учун муҳимдир. Бу маҳоратлар шунчаки назарий билимлар билан чекланмай, амалиётда тўғри қўлланилишини талаб этади.

**1. Лидерлик:** Самарали раҳбарлик сифатида жамоа аъзоларини рағбатлантириш, улар билан муносабатларни тўғри бошқариш ва ишда мотивацияни таъминлаш.

**2. Коммуникация:** Тўғри ва аниқ алоқа ўрнатиш, фикр алмашишни рағбатлантириш, жамоа орасидаги уяла олган тўсиқларни бартараф этиш.

**3. Стратегик фикрлаш:** Узоқ муддатли мақсадларни белгилаш, уларга эришиш учун самарали қарорларни қабул қилиш. Бошқарувчи ходимларнинг стратегик фикрлаш қобилияти ташкилотни ривожлантиришда катта аҳамиятга эга.

**Натижалар.** Тадқиқот натижалари узлуксиз касбий ривожланиш дастурларида иштирок этган раҳбар ходимлар иш сифатлари ва натижаларини яхшилаганлигини кўрсатди. Жумладан, раҳбарлар ўзларининг стратегик фикрлаш қобилиятлари ва инноватив ёндашувларини мустаҳкамлаганлари қайд этилди. Айниқса, улар тез ўзгарувчан бозор шароитларига мослашиш ва ўз жамоаларини самарали бошқариш қобилиятларини ривожлантирганликларини таъкидлашди. Ҳамкорликда ишлаш ва коммуникация кўникмаларини ривожлантириш бу дастурлар орқали янада кучайди. Бундан ташқари, ходимлар ўртасида мотивация ва ишга бўлган қизиқиш даражаси юқори эканлиги аниқланди. Улар ўз касбий ўсишлари билан бирга ташкилотнинг умумий ривожланишига ҳисса қўшишда муҳим қадамлар қўйишган. Тадқиқот натижалари раҳбарларнинг малака ошириш дастурларида қатнашишлари орқали иш самарадорлигига ва ташкилот умумий ривожланишига қуйидаги фойдалар келтиришини кўрсатди:

- **Иш самарадорлигининг ошиши:** Анкеталар ва интервьюлар натижаларига кўра, раҳбарлар малака ошириш дастурларида қатнашгандан сўнг, уларнинг иш юритиш қобилияти яхшиланган ва стратегик қарорларни қабул қилишда кўпроқ ишонч ҳосил қилинган. Бу иш жараёнларининг умумий самарадорлигини оширишга олиб келган.

- **Ташкилотда мулоқот сифатининг яхшиланиши:** Малака ошириш дастурлари орқали раҳбарлар замонавий коммуникация усулларини қўллаб, жамоа аъзолари билан самарали алоқа ўрнатишда муваффақият қозонган. Бу эса, жамоа ичида ўзаро ишонч ва ҳамкорлик муҳитини шакллантирган.

- **Ходимлар мотивациясининг ошиши:** Малака ошириш дастурларидан ўтган раҳбарлар ходимлар билан ишлашда самаралироқ бошқарув услубларини қўллаган ва натижада жамоанинг умумий иш унумдорлиги ошган. Улар янги билимларни жорий қилиш орқали ходимларнинг профессионал ривожланишига қўмаклашишган.

- **Инновацион фикрлашнинг ривожланиши:** Малака ошириш жараёнида раҳбарлар янги инновацион ғоялар, технологиялар ва трендлардан хабардор бўлиб, уларни ўз ташкилотларида жорий қилиш имконига эга бўлган. Бу эса, ишлаб чиқариш жараёнларининг сифатини оширишга ёрдам берган.

Раҳбар ходимларнинг касбий ва бошқарув маҳоратини такомиллаштириш, ташкилотнинг умумий муваффақиятига тўғридан-тўғри таъсир қилади:

1. **Жамоа иши:**

- Ташкилотдаги ҳамкорлик: Жамоа аъзолари орасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш, иш самарадорлигини ошириш.

- Умумий мақсадларга эришиш: Барча ходимларнинг бир мақсадга йўналтириш.

2. **Ривожланиш стратегияси:**

- Ташкилотнинг узоқ муддатли мақсадлари: Яқин ва узоқ муддатли стратегияларни ишлаб чиқиш.

- Планлаш: Ташкилот ривожланишининг аниқ йўналишларини белгилаш.

**Натижаларни баҳолаш**

Малака ошириш жараёнининг самарадорлигини баҳолаш учун КРІ (калит кўрсаткичлар) белгилаш жуда муҳим. Бу кўрсаткичлар:

- **Ходимларнинг самарадорлиги:** Иш самарадорлиги, жамоа ишининг натижалари.

- **Содиқлик ва фидойлик:** Ходимларнинг ташкилотга бўлган содиқлиги, уларнинг иш жойидаги аҳволи.

- **Бошқарув самарадорлиги:** Бошқарув қарорларининг самарадорлиги, жамоа билан муносабатлар.

**Муҳокама.** Тадқиқот натижалари раҳбарлик ривожланишининг ташкилотлар учун стратегик аҳамиятини очиб берди. Аввало, узлуксиз касбий ривожланиш ташкилотнинг барқарор ривожланишини таъминлайдиган асосий омиллардан бири сифатида тан олинади. Иккинчидан, раҳбарларнинг профессионал ривожланиши уларнинг шахсий етакчилик қобилиятларини оширишга ёрдам беради ва бу ташкилотнинг умумий иш самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади. Бугунги рақобатбардош муҳитда ташкилотлар доимий равишда ўз раҳбарларини касбий ривожлантиришлари зарур. Бу нафақат технологиялар ва бозорнинг тезкор ўзгаришларига мослашишда ёрдам беради, балки ташкилотни стратегик мақсадларига эришишга йўналтиради. Шу билан бирга, ҳар бир раҳбар ходимнинг шахсий мотивацияси, ўзини ривожлантиришга бўлган тайёрлиги ва масъулияти муҳим омил ҳисобланади. Малака ошириш раҳбарлар учун доимий ривожланиш жараёни ҳисобланади. Тадқиқот натижалари раҳбарлар малакасини оширишнинг иш самарадорлиги ва ташкилотга қўшадиган ҳиссасини очиқ-ойдин кўрсатди. Биринчи навбатда, малака ошириш раҳбарлар ва

ходимлар ўртасидаги мулоқотни яхшилайти ва иш муҳитини яхши томонга ўзгартиришга ёрдам беради. Бундан ташқари, улар замонавий бозор тенденцияларини тушуниб, тез ўзгарадиган шароитларда самарали қарорлар қабул қила олади. Ташкилот раҳбарлари малакасини ошириш дастурларида иштирок этмаганлар ташкилот ичидаги инновацияларга мослашишда қийинчиликларга дуч келади. Шу боис, ташкилотларнинг раҳбарлари учун малака ошириш жуда катта аҳамиятга эга. Малака ошириш жараёнининг самарадорлигини баҳолаш учун KPI (калит кўрсаткичлар) белгилаш жуда муҳим. Бу кўрсаткичлар ходимларнинг иш фаолиятини таҳлил қилиш, уларнинг самарадорлигини ошириш учун фидоийликни оширишга ёрдам беради.

**Хулоса.** Узлуксиз касбий ривожланиш раҳбар ходимларнинг ташкилотда самарали фаолият кўрсатишларида муҳим омил ҳисобланади. Ташкилотлар раҳбарлар учун мунтазам равишда ривожланиш дастурлари яратишлари, уларни қўллаб-қувватлашлари ва имкон қадар кенгроқ шароит яратишлари лозим. Бундан ташқари, раҳбарлар ўзларининг ривожланишларига масъулият билан ёндашишлари, янги билим ва кўникмаларга эга бўлиш учун фаол бўлишлари керак. Самарали касбий ривожланиш бу – ташкилотнинг узлуксиз ривожланиши учун пойдевор ҳисобланади. Малака ошириш раҳбар ходимларнинг касбий ўсишини таъминлаш ва уларнинг самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш қобилиятини оширишнинг асосий йўлларида биридир. Раҳбарлар малакасини ошириш нафақат уларнинг шахсий ривожланишига, балки ташкилотнинг умумий самарадорлигига ҳам тўғридан-тўғри таъсир қилади. Малака ошириш, ташкилот маданиятини шакллантириш ва мустаҳкамлашда ҳам муҳимдир. Ходимлар орасида ўзаро ишонч ва ҳамкорликни таъминлаш, жамоа руҳини ошириш, умумий мақсадларга эришишни енгиллаштиради. Бошқарувчиларнинг малакали бўлиши, ижобий ташкилот маданиятини ривожлантиришга ёрдам беради. Ташкилотларнинг муваффақиятли фаолият юритиши, бозорда ўз ўрнини сақлаб қолиши ва рақобатбардошлигини ошириши учун раҳбарларнинг малака ошириш дастурларида мунтазам иштирок этиши зарур. Малака ошириш раҳбарлар учун ўз устида ишлаш, янги билимларни ўрганиш ва жамоани самарали бошқаришда ёрдам беради. Мана шундай самарали малака ошириш дастурлари ташкилотларнинг муваффақиятли ривожланиши ва ходимларнинг иш сифатини яхшилаш учун муҳим асос ҳисобланади. Малака ошириш асосида раҳбар ходимларнинг касбий ва бошқарув маҳоратини такомиллаштириш, ташкилотларнинг муваффақиятининг асосий калити ҳисобланади. Замонавий шарт-шароитларда рақобатда ўзи ўрнини топиш ва узоқ муддатли ривожланишни таъминлаш учун, ташкилотлар бу жараёнга диққат билан ёндашишлари керак. Замонавий бозорда, ташкилотларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш учун раҳбар ходимларнинг малакаси ва шахсий ривожланишига эътибор бериш муҳим. Ушбу жараёнда замонавий билимлар ва янги усуллар, рақобатда устунлик беришда асосий аҳамиятга эга. Келажакда технологиялар, автоматизация ва рақамлаштиришни инобатга олиб, раҳбар ходимлар малакасини оширишда янги ёндашувларни жорий этиш зарур. Мисол учун, онлайн таълим платформалари, виртуал тренинглари ва менторлик дастурлари, самарадорликни ошириш учун самарали воситалар бўлиб хизмат қилади.

#### Адабиётлар:

1. Бекмуродов, Ш. (2015). Инсон ресурсларини бошқариш асослари. Тошкент: “Тошкент давлат иқтисодиёт университети” нашриёти.
2. Dessler, G. (2017). Human Resource Management (15th ed.). Pearson Education Limited.
3. Mintzberg, H. (2009). Managing. San Francisco: Berrett-Koehler Publishers.
4. UzReport (2020). Раҳбарлар учун малака ошириш дастурлари ва уларнинг аҳамияти. Онлайн манба (<https://uzreport.uz/>)
5. Jackson, S. E., Schuler, R. S., & Werner, S. (2011). Managing Human Resources (11th ed.). South-Western Cengage Learning.
6. Kotter, J. P. (2012). Leading Change. Harvard Business Review Press.
7. Ulrich, D., & Brockbank, W. (2005). The HR Value Proposition. Harvard Business Review Press.
8. Барноев, А. (2019). Корхона ва ташкилотларда бошқарув стратегиялари. Тошкент: “Фан ва технологиялар” нашриёти.
9. Кириллов, О. В. (2020). Инновация ва ташкилот бошқаруви. Москва: “Перспект” нашриёти.

## TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING AHAMIYATI

*Mirzayev Tolibjon To'raqul o'g'li,*

*Buxoro viloyat hokimining raqamlashtirish bo'yicha maslahatchisi*  
[tolib\\_mirzayev94@mail.ru](mailto:tolib_mirzayev94@mail.ru)

*Axborot odamlarning baxtli yashashi va mazmunli hayot kechirishi uchun zarur element hisoblanadi. Axborot qanday bo'lishi kerak, undan kundalik hayotda qanday foydalanish va uni asrash bugungi kunning dolzarb masalalaridir. Ushbu maqolada shu kabi masalalar, axborot, axborot xavfsizligi tushunchasi, axborot xavfi va undan himoyalaniş komponentlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot, axborot xavfsizligi, axborot xavfi, axborot xavfsizligi komponentlari.*

## ВАЖНОСТЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

*Информация является необходимым элементом для того, чтобы люди могли жить счастливой и значимой жизнью. Какой должна быть информация, как использовать её в повседневной жизни и как её сохранить – актуальные вопросы сегодняшнего дня. В данной статье представлена информация по таким вопросам, как информация, понятие информационной безопасности, информационный риск и компоненты защиты от него.*

**Ключевые слова:** *информация, информационная безопасность, информационный риск, компоненты информационной безопасности.*

## THE IMPORTANCE OF INFORMATION SECURITY

*Information is a necessary element for people to live a happy and meaningful life. How information should be, how to use it in everyday life and how to preserve it are the current issues of today. This article provides information on such issues, information, the concept of information security, information risk and components of protection against it.*

**Keywords:** *information, information security, information risk, information security components.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida barcha sohalarda axborot ko'lamini ortib, uning ustida amallar bajarish murakkablashib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning barcha bo'g'inlariga kirib borishi axborotlarni tizimli yo'lga qo'yishda tamaddul omilga aylandi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, axborot ortib borishi bilan uning xavfsizligini ta'minlash ham shunchalik murakkablashib boradi. Shunday ekan, soha mutaxassislari zamon bilan hamqadam ravishda axborot xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Chunki soha axborotlarining maxfiyligi, yaroqliligi, ishonchliligi yetarli darajada emas. Bu o'z navbatida sohadagi axborotlarning o'zgartirilishi, yo'qolishi, tarqalishi kabi oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham axborot tizimlarini rivojlantirish va ulardan foydalanishning barcha bosqichlarida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratish zarur.

**Asosiy qism.** Zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligi turli sohalarda, jumladan, ta'lim sohasida ham muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasasida axborot xavfsizligi, o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlash va talaba-ma'muriyat axborotlarini himoya qilish uchun juda muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalar orqali ma'lumotlar almashinuvi kuchaygan bir paytda, o'quv muassasalari kiberhujumlar, ma'lumotlarning yo'qolishi yoki o'g'irlanishi kabi tahdidlarga duch kelmoqda. O'quv jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash o'quvchilar va o'qituvchilar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarni oldini oladi, ularning erkin ishlashini ta'minlaydi, ta'limda shaffoflikni ta'minlashga va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Axborot xavfsizligini ta'minlash, nafaqat o'quvchilar va o'qituvchilar ma'lumotlarini himoya qilish, balki ta'lim muassasasining obro'sini saqlab qolish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi bo'yicha ta'lim berish, talabalarga va xodimlarga xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirok etishga yordam beradi, bu esa ularning raqamli savodxonligini oshiradi va kelajakdagi tahdidlarga qarshi turish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi va o'quvchilarning shaxsiy sirlarini va ta'lim muassasa axborot tizimlarida saqlanadigan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilib hujjatlashtirilgan

axborotning qonun hujjatlariga muvofiq konfidensialligi (maxfiylik, foydalanish va tarqatish huquqlari va boshqalar) ta'minlaydi.

Axborot – odamlar oladigan ma'lumot yoki har qanday faoliyatning aqliy ifodasi bo'lib qolmadi. U foydalanishdan olingan haqiqiy foyda yoki turli darajadagi ehtimollik bilan ma'lumot egasiga yetkazilgan zarar miqdori bilan aniq belgilanadigan moddiy xarajatlar og'irligiga ega bo'ldi. Shu sababli jamiyatda axborotdan foydalanish, ularni ayirboshlashda foydalanish raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'tkazildi. Biroq axborotni qayta ishlash texnologiyalarini yaratish bir qator murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolardan biri axborot va hisoblash tizimlarida aylanayotgan va qayta ishlanadigan axborot xavfsizligini ta'minlashdir.

Axborot xavfsizligi - bu ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo'q qilishning oldini olish amaliyotidir. Ushbu universal konsepsiya ma'lumotlar shaklidan qat'iy nazar amal qiladi.

Axborotlar quyidagi sabablarga ko'ra zararlanishi(tarqalishi, o'g'ishlanishi, shikastlanishi,o'zgartirilishi, o'chirilishi) mumkin:

Inson omili	- xavfsizlik tizimlarining noto'g'ri konfiguratsiyasi kabi xodimlarning xatolari; - maxfiy ma'lumotlar bilan noto'g'ri ishlash;
Kiberhujumlar	- fishing - shaxsiy ma'lumotlarni olishga qaratilgan firibgar xabarlar; - zararli dastur - ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan viruslar va troyanlar;
Xavfsizlik buzilishi	- buzg'unchilar tomonidan ishlatilishi mumkin bo'lgan dasturiy ta'minot yoki tizimlardagi zaifliklar; - noto'g'ri xavfsizlik sozlamalari (masalan, ochiq ma'lumotlar bazalari);
Jismoniy tahdidlar	- maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qurilmalarni o'g'irlash (noutbuklar, smartfonlar); - serverlar va saqlash tizimlariga zarar etkazishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlar;
Ma'lumotlar himoyasi yetarli emas	- shifrlashning yo'qligi yoki autentifikatsiya qilishning zaif usullari; - ma'lumotlarga kirishni noto'g'ri boshqarish;
Insayder tahdidlar	- xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari yoki norozi xodimlar; - ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan uchinchi tomon xizmatlari;
Xavfsizlik haqida xabardorlikning yo'qligi	- xodimlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha treninglar yo'qligi; - dasturiy ta'minot yangilanishlari va yamoqlariga e'tibor bermaslik.

Axborot foydalanuvchiga va boshqa shaxslarga zarar yetkazmasligi, hujjatlashtirilgan, ya'ni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlar bilan qayd etilishi, axborot qonun bilan himoyalangan bo'lishi kerak.

Axborotni himoyalashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- shaxsiy axborotlarning tarqalishining oldini olish;
- maxfiy axborotlarning o'g'irlanishiga yo'l qo'yimaslik;
- kerakli ma'lumotlarni o'chib ketishining oldini olish;
- muhim bo'lgan ma'lumotlarning ishonchligini mustahkamlash;
- tarqatiladigan, uzatiladigan ma'lumotlarni soxtalashtirilishlarning oldini olish;
- shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga bo'lgan xavf-xatarning oldini olish;
- yashirin saqlanadigan axborotlardan nusxa ko'chirishni cheklash;
- ish faoliyatiga to'sqinlikning oldini olish;
- yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish;
- shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va konfidensialligini saqlovchi fuqarolarning konstitutsion huquqlarini himoyalash;
- davlat sirini, qonunchilikka mos xujjatlashtirilgan axborotning konfidentsialligini saqlash;
- axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlovchi vositalarni yaratish, ishlab chiqish va qo'llashda subyektlarning huquqlarini ta'minlash;
- moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash.

Biz axborotni himoya qilish zarurligini tushunamiz. Xo'sh, uni qanday himoya qilish kerak, qaysi himoya usulini qo'llash kerak?


Axborotlarni himoya qilish usullari:



- kirishni nazorat qilish, audifikatsiyalash;
- axborotlarni shifrlash;
- axborotlarni yashirish;
- axborotlarni maskalash;
- tokenizatsiyadan foydalanish;
- pseudonymizationdan foydalanish;
- axborotlarni zahiralash va falokatlardan asrash.

Shuni yodda tutish lozimki, ko`pchilik axborot xavfsizligini kompyuter xavfsizligi bilan ("axborot xavfsizligi" tushunchasining ekvivalenti yoki uning o`rnini bosuvchi vosita sifatida) chalkashtiradi. Kompyuterlar bu axborotlarni saqlovchi, qayta ishlovchi va tarqatuvchi bir vositadir. Axborot xavfsizligi nafaqat kompyuterlarda, balki elektr, suv aloqa vositalari kabi ko`plab sohalaridagi axborotlarni qamrab oladi.

Axborot xavfsizligini uch komponentga ajratib qarash mumkin (1-rasmga qarang). Axborotlarning xavfsizligini ta`minlashda, eng avvalo, uning mavjudligini ta`minlash lozim. Keyingi o`rinda uning butunligi, yaxlitligi saqlanishi, unga o`zgartirish kiritilishi, qo`simchalar qo`shilishi va qismlari olib tashlanishiga yo`l qo`yilmasligi lozim. Yaxlitlikni ikki xil: axborotni o`zgarmasligi sifatida (statik) hamda jarayonlarni to`g`ri tashkil etilganligi, tizim to`g`ri yurishi (dinamik) holda tushunish mumkin. Yana biri uning maxfiylikni saqlash, muallifning rozilgisiz ma`lumotni olish, undan foydalanishga yo`l qo`ymaslik lozim.



1-rasm. Axborot xavfsizligining asosiy komponentlari

Axborotlar xavflariga nima sabab bo`lmoqda, qanday xavflarga e`tibor qaratish lozim?

Axborotlarga ziyon yetkazishdan quyidagi omillar sabab bo`lishi mumkin:

- Manipulyatsiya: Axborot orqali odamlarning fikrlarini o`zgartirish yoki ularni ma`lum bir yo`nalishga yo`naltirish.
- Raqobat: Biznes yoki tashkilotlar o`rtasida raqobatni kuchaytirish, raqiblarning obro`sini pasaytirish.
- Siyosiy manfaatlar: Siyosiy guruhlar yoki davlatlar o`z manfaatlarini himoya qilish yoki raqiblarini zaiflashtirish maqsadida axborotni manipulyatsiya qilishlari mumkin.
- Qaror qabul qilishda xato qilish: Odamlarni noto`g`ri ma`lumot bilan ta`minlash orqali ularning qarorlarini noto`g`ri yo`naltirish.
- Ijtimoiy tartibsizlik: Ijtimoiy norozilik yoki tartibsizliklarni keltirib chiqarish maqsadida yolg`on axborot tarqatish.
- Moliya yoki iqtisodiy manfaatlar: Moliya bozorlarida manipulyatsiya qilish yoki investitsiyalarni boshqarish maqsadida axborotdan foydalanish.
- Axborotning noto`g`ri yoki qasddan buzilgan tarqatilishi ko`plab salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, shuning uchun bu masala jiddiy e`tibor talab qiladi.

Axborot xavflarini uchga ajratib qarash mumkin (1-jadvalga qarang):

1- jadval.

**Axborot (tarqalishi, o`zgartirish, buzilish, yo`qotilish) xavflari**

Ichki xavflar	Tashqi xavflar	Neytral xavflar
Xodimlarning beparvoligi	Xakerlar	Axborotlarni o`g`irlash
Xavfsizlikni qasddan buzish	Spamlar	Axborot tuzilmalariga zarar yetishi
Moliyaviy firibgarlik	Viruslar	Axborot vositalarini o`g`irlash
Axborotlarni ruxsatsiz tarqatish		Qurulmadagi nozozliklar

Axborotni o‘zgartirish, buzish, tarqatish va yo‘qotish xavfining eng xavflisi ichki xavflardir! Axborot qanchalik yaxshi himoyalangan bo‘lmasin, ichki xavfsizlik sayoz bo‘lsa, axborot xavfsizligi buziladi. Shu sababli, eng avvalo, ichki xavfsizlikka alohida e‘tibor qaratish, har bir korxonada va muassasa xodimlarida axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, xodimlarni dunyoda yuzaga kelayotgan axborot xurujlari haqidagi yangiliklardan doimiy ravishda xabardor qilib borish, o‘qitishni tashkil etish zarur. Ularga axborot xavfsizligi va uni himoya qilishni o‘rgatish kerak.

Asbortlarni nimalardan himoya qilish lozim? Ushbu savolga javob berib o‘tsak (2-jadvalga qarang):

2- jadval.

### Axborot himoyalashning asosiy tushunchalari

Axborotlarning himoyalash tushunchalari	Axborotlarni himoyalash tushunchalarining tavsifi
Axborotlarni sizib chiqishidan himoya qilish	himoyalangan axborotning oshkor etilishi natijasida nazoratsiz tarqatilishiga, axborotga ruxsatsiz kirishga va himoyalangan axborotni olishiga yo‘l qo‘ymaslik;
Axborotni ruxsatsiz ta’sirdan himoya qilish	belgilangan huquqlarni va (yoki) ma’lumotlarni o‘zgartirish qoidalarini buzgan holda himoyalangan axborotga ta’sir qilishning oldini olishga qaratilgan, uning buzilishiga, yo‘q qilinishiga, axborotga kirishni blokirovka qilishga, shuningdek, yo‘qolishiga, yo‘q qilinishiga yoki ishlamay qolishiga olib keladigan faoliyat;
Axborotni qasddan bo‘lmagan ta’sirlardan himoya qilish	himoyalangan ma’lumotlarning foydalanuvchi xatolaridan, axborot tizimlarining apparat va dasturiy ta’minotining ishdan chiqishidan, tabiiy hodisalardan yoki ma’lumotni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lmagan, buzilish, yo‘q qilish, nusxalash, kirishni blokirovka qilishga olib keladigan boshqa choralar ta’sirining oldini olishga qaratilgan faoliyat. Shuningdek, axborotga, shuningdek, axborot tashuvchisining yo‘qolishi, nobud bo‘lishi yoki noto‘g‘ri ishlashi;
Ma’lumotni oshkor qilishdan himoya qilish	ma’lumotlarga kirish huquqiga ega bo‘lmagan iste’molchilarga himoyalangan ma’lumotni ruxsatsiz yetkazib berishning oldini olish uchun mo‘ljallangan;
Axborotni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish	qonun hujjatlarida yoki axborot egasi tomonidan belgilangan himoyalangan axborotga kirish huquqini yoki qoidalarini buzish orqali manfaatdor shaxsning himoyalangan axborotni olishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan faoliyat;
Axborotni razvedkadan himoya qilish	razvedka tomonidan himoyalangan ma’lumotlarni olishning oldini olishga qaratilgan faoliyat;
Axborotni inson aqlidan himoya qilish	inson aql-zakovatining himoyalangan ma’lumotlarni olishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan faoliyat;

**Xulosa.** Axborotlarning raqamli ko‘rinishida o‘tishi barcha sohalarning sezilarli darajada ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga olib keldi. Shuni unutmazlik lozimki, har bir narsaning teskarisi ham bor bo‘lgani kabi, ijobiy o‘zgarishlar bilan birgalikda axborotlarning raqamlashtirishning salbiy oqibatlari ham bor. Ya’ni axborotlarning o‘g‘irlanishi, o‘zgartirilishi, yo‘q qilinishi kabilar. Bu insonlarning obro‘sizlanishiga, ishlarining sekinlashishiga, moliyaviy inqirozlarga sabab bo‘lishi, davlat miqyosida olganda turli xil nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday ekan, eng avvalo, axborot xavfsizligiga alohida e‘tibor qaratish, turli xil axborot xavflaridan himoyalash lozim.

### Adabiyotlar:

1. Вострецова Е.В. Основы информационной безопасности: учебное пособие для студентов вуза, обучающихся по укрупнённой группе направлений бакалавриата специальности 10.00.00 «Информационная безопасность». – 2019.
2. Макаренко С.И. Информационная безопасность: учебное пособие. – 2009.
3. Михнев И.П. Информационная безопасность на просторах мобильного интернета //Образовательные ресурсы и технологии. – 2015. – №. 4 (12). – С. 66-70.3.

4. Eloff J.H.P., Eloff M.M. Information security architecture //Computer Fraud & Security. – 2005. – Т. 2005. – №. 11. – С. 10-16.
5. Falade P. V. Investigating The Security and Privacy Issues in ChatGPT Usage and Their Impact on Organisational and Individual Security //Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies Vol. – 2024. – Т. 10. – №. 3.
6. Gulmat O‘g‘li D.H., Muminovna A.S. Axborot xavfsizligi qoidalari //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 38-44.

## ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

UO‘K 001.8

### 4-SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA “KEYS-STADI” METODINI QO‘LLASH METODIKASI

*Djurayeva Perdegul Saidovna,*

*Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti*

*Ta’limdagi ilg‘or yutuqlarni o‘rganish, ta’lim-tarbiyaga qadriyatli munosabat, o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ta’limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish: 4K – hamkorlikda ishlash, kommunikativ, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Tadqiqot zamirida eng asosiy hikoya qahramonlari va ularning qay darajada ijobiy jihatgan yondashganligini ta’kidlashga alohida urg‘u berib, bolani e’tibor bilan tinglashi va boshqa guruh a’zolari yoki jamoaning qarashlarini ilg‘ashi - pedagogning samarali va sifatli ta’limni tashkil etish mahoratiga bog‘liqdir.*

**Kalit so‘zlar:** XXI asr ko‘nikmalari, boshlang‘ich sinf, izlanuvchanlik, ilmiy yondashuv, usullar, malaka oshirish, ijodiy yondashuv, muloqot, tajriba, media olam, ta’lim standarti.

### МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА «CASE-STUDY» НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ В 4 КЛАССЕ

*Изучение передовых достижений в образовании, ценностное отношение к воспитанию, моделирование учебно-воспитательного процесса и его внедрение в образовательный процесс, эффективное использование цифровых технологий в образовании, развитие навыков XXI века: 4K – сотрудничество, коммуникативные, критическое и креативное мышление, а также организация воспитательной деятельности нацелены на формирование соответствующих новых знаний, навыков, умений и компетенций. В центре исследования особое внимание уделяется главным героям рассказа и тому, насколько позитивно они подошли к проблеме; способность педагога внимательно слушать ребёнка и воспринимать мнения других членов группы или команды зависит от его мастерства в организации эффективного и качественного обучения.*

**Ключевые слова:** навыки XXI века, начальная школа, стремление к знаниям, научный подход, методы, повышение квалификации, творческий подход, коммуникация, опыт, медиа-пространство, образовательный стандарт.

### THE METHODOLOGY OF USING THE «CASE-STUDY» METHOD IN CLASS 4 READING LITERACY LESSONS

*The study of advanced achievements in education, value attitude to education, modeling of the educational process and its implementation in the educational process, effective use of digital technologies in education, development of 21st century skills: 4K is aimed at the formation of relevant new knowledge, skills, abilities and competencies for working in cooperation, the formation of skills of communicative, critical and creative thinking and the organization of educational activities. The basis of the study, with a special emphasis on highlighting the main characters of the story and their positive attitude, attentive listening to the child and conveying the opinion of other members of the group or team, depends on the organization of effective and high-quality training by the teacher on the skill.*

**Keywords:** 21st century skills, primary school, curiosity, scientific approach, methods, professional development, creativity, communication, experience, media world, educational standard.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni [1], 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni [2], 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi 121-son “Davlat ta’lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek,

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchilarining kasbiy standartlari asosida pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilgʻor va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yoʻli bilan umumiy oʻrta taʼlim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish boʻyicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda yozilishiga eʼtibor qaratilib, zamonaviy talablar asosida boshlangʻich taʼlimda uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi [4].

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi 32-sonli “Oʻqituvchilarning ilgʻor tajribasi va faoliyati davomida qoʻllab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Buyrugʻi asosida boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga oʻz ish faoliyatida, taʼlimdagi ilgʻor yutuqlarni oʻrganish, taʼlim-tarbiyaga qadriyatli munosabat, oʻquv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni taʼlim jarayoniga tatbiq etish, taʼlimda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, XXI asr koʻnikmalarini rivojlantirish: 4K – hamkorlikda ishlash, kommunikativ, tanqidiy va kreativ fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish boʻyicha tegishli yangi bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilmogʻda. Shuningdek, oʻquv fanlarining mazkur metodik tavsiya doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy oʻrta taʼlim muassasalari boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining mustaqil ravishda oʻz ustida ijodkorlik bilan ishlash malakasini oshirish mazmuni, sifati va oʻz kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilgʻor xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini oʻquv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Yangilikka intiluvchan va zamon bilan hamnafas bugungi kun XXI asr koʻnikmalariga ega pedagog – oʻzining serqirra izlanuvchanlik xarakteri va bilimga chanqoqligi tufayli yangi marralarni zabt etishda ham peshqadam boʻlmogʻi zarur. Zero, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, taʼlim va tarbiyadir”, - degan fikrlarida ham biz pedagoglarga fidoiylilik va izlanuvchanlik koʻnikmalarini yanada mustahkamlab, yosh avlodni ajdodlarimiz ruhiyatiga munosib vorislar sifatida tarbiyalashimiz lozimligi uqtirilgan. Maʼrifatparvar olim Tomas Fauell Bakston “Hayotiy tajribalar shuni koʻrsatadiki, muvaffaqiyatlarga qobiliyatlardan koʻra koʻproq tirishqoqlik bilan erishiladi. Oʻz ishiga jon-u jahdini berib ishlagan inson albatta gʻolib boʻladi” – degan mulohazalari orqali har qanday kasb egasi oʻz ustida mukammal ishlashi, bilim va malakasi takomillashtirish orqali tirishqoqlik bilan odimlay olishi mumkinligi taʼkidlangan.

Xulosa sifatida, quvonarlisi shundaki, jamiyatimiz dunyoda paydo boʻladigan har qanday yangilik, yangi loyiha, yangi texnologiyani qabul qilish va oʻzlashtirishga qodir, katta moliyaviy resurslarga ega. Shuning uchun ham taʼlim sohasidagi asosiy strategiyalar yangi texnologiyalarni oʻzlashtirish bilan bir qatorda oʻquvchining fikrlash qobiliyatini oshiradigan, sifatli taʼlim olish imkoniyatini taʼminlovchi anʼanaviy oʻqitish usullarini rivojlantirishga asoslangan boʻlishini istaymiz.

**Izlanish materiallari va metodologiyasi.** Dangasa oʻquvchi haqidagi hikoya asosida oʻtkazilgan dars mashgʻulotida sinf oʻquvchilarini 4 ta guruhga boʻlinib, 4 ta bosqich boʻyicha 4K modeli koʻnikmalariga xos ilmiy izlanish va tasnifiy fikr-mulohazalar mavzu doirasida oʻquvchilar tomonidan mavzuning mohiyatini ochishga harakat qilish orqali ularda metodga nisbatan qiziqish uygʻonishiga harakat qiling. Shu oʻrinda “4K” modeli boʻyicha qisqacha tasnifni keltirib oʻtmoqchiman: XXI asr oʻquvchisi uchun zarur koʻnikmalarini oʻrgatuvchi model – 4K haqida: Yangi oʻquv yilidan boshlab boshlangʻich sinf oʻquvchilari yangi avlod darsliklari asosida taʼlim ola boshladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Yaʼni, bu tamoyilda quruq maʼlumotlarni yodlatish yoki shunchaki oʻqish va yozishni oʻrgatish bilan cheklanilmaydi.

Oʻquvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur boʻlgan hayotiy koʻnikmalarni ham oʻrganadi. Zamonaviy taʼlim ona tili darslarida oʻquvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yoʻnaltirish lozimligini taqazo etadi. Taʼlimni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bogʻliq. Ana shunday yondashuvlardan biri “4K” modelidir.

Kollobratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi tushunchalarni qamrab olgan “4K” modeli yod olishga yoʻnaltirilgan kontent oʻrniga oʻquvchining mustaqil faoliyatini qoʻllabquvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi muhim koʻnikmalarni shakllantirish va takomillashtirishda muhim omildir. 1) kollobratsiya (hamkorlik) – taʼlim oluvchining jamoa boʻlib ishlash qobiliyatini shakllantirish; 2) kommunikativlik - odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish; 3) kreativ fikrlash - oʻz maqsadiga erishish yoʻlida yangiliklarga qoʻl urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik koʻnikmalarini oʻrgatish; 4) kritik (tanqidiy) fikrlash - oʻz mustaqil fikriga ega boʻlish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish demakdir. Bu metodologiya bolalarning rivojlanishiga qaratilgandir. Ushbu kompetensiyalar asosidan tasavvur etish, gʻoyalarni ilgari

surish, dalillar keltirish, ma'lumot yetishmasligini ta'kidlash va izlash, o'z g'oyalarini shakllantirish va boshqalarning g'oyalarini rivojlantirish, taxmin va mulohazalarini baholay olish, guruh maqsadlarini qabul qilish va umumiy natijani baholash kabilar o'rin oladi. Ular maktab o'quvchilariga mustaqil o'qish va boshqalar bilan birgalikda tadqiqot olib borish, o'zini ko'rsatishga imkon beradi. Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini mustaqil rivojlantiradigan jarayondir.

**Izlanish natijalari.** «Keys-stadi» - inglizcha so'z, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Ushbu natijaviylikni ta'minlovchi modelni tizimli ravishda quyidagicha holatda dars jarayonimda qo'llashga harakat qiling:

1 - bosqichda, har bir kichik guruh hikoya qahramonlari, ularning o'ziga xosligi, qaysi zamon va makonda bo'layotgani, asosiy muammo kim yoki nimaga qaratilganligi, ustoz, ona, bobo, Dilshod va uning sinfdoshlarining o'zini tutishi, onasining ma'noli qarashi, mehrlil nigohi, do'stona muhit, oila, maktab va mahalla hamkorligi, boquvchisini yo'qotgan yoki keksa yoshli insonlarga g'amxo'rlik g'oyasi, maktab hovlisidagi mevali bog' va Dilshodning uyi, voqea-hodisalarning uzviy bog'liqligi, kreativ yondashuv tahlili, tanqidiy fikrlar xilma-xilligi kabi eng kichik epizod, hodisalarga nisbatan har xil qarashlarning mavjudligi ushbu kichik birgina hikoya zaminida to'laqonli tasniflanishiga e'tibor qarating [13].

2 - bosqichda 4 ta kichik guruhda o'quvchilar hikoya ta'sirida hayotiy ko'nimlarini ham aytishga kirishib ketdiki, o'zlarining maktab hayotida uchragan, mahallasida yordamga muhtoj yoshi katta qo'shnilar, uy ta'limida ta'lim olayotgan tengdoshlariga nisbatan ko'rsatilayotgan g'amxo'liklar, sinfdoshlari kasal bo'lganida sinf rahbari, ustozlari bilan birgalikda uyiga yoki shifoxonaga borib hol-ahvol so'rganlari, qarindoshlar o'rtasidagi mehr-oqibat kabi qadriyatlarimizni ham eshlashlari, ularning qanchalik emotsional kayfiyatda fikrlarini aniq va tiniq aytishga intilishlari, atrofida bo'lgan hamda bo'layotgan voqeliklarga befarq emasligini, sinfdoshlari, oilasida albatta muhokama etilayotganligini tasdiqlaydi. Daxldorlik hissini yosh qalblarida singdira olgani, ularning hayajoni meni ham befarq qoldirgani yo'q, albatta.

Mehr ulashmoq - insoniy ulug' fazilatli hissiyot ekanligini, uning hikmati va savobi bola qalbida qanchalik muhrlanishini yana bir bor kuztib, amin bo'ldimki, bugungi kun bolajonlari, aqlli, zukko va ziyrak! Faqat, biz pedagog sifatida shunday usullarni, taktik jarayonlarni tashkil etishga e'tibor qarataishim kerakki, o'quvchi darsda olgan har bir fan kesimida bilim va ko'nikmalariga o'z fikr-mulohazalarini, qarashini, eng avvalo, og'zaki nutqda, adabiy til normalariga nisbatan to'g'ri qo'llash malakasiga ega bo'lsin. Bunday samarali natijaviylikga erishishda, albatta, ta'lim standartlari talablarini har bir darsimizda yod etmog'imiz va unga nazariy-amaliy jihatdan amal etmog'imiz shart va zarur.

Hikoyani badiiy matn tahlili asosida o'quvchilarga o'rgatishimiz asiyatda, kichik ilmiy tadqiqot loyihasini shakllantirmoqdan iboratdir. 4K modeli bo'yicha yaratilayotgan darslik, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar mohiyati ham keng qamrovli natijaga asoslanib, fanlararo integratsiya natijasida o'quvchilarda birgina mavzu doirasida ham muloqotni yuzaga keltirish, munosabat bildirish, kreativ yondashish, taxmin qilish, tanqidiy fikrlash, tahlil va sintez qila olish qobiliyatini shakllantirishga zamin yaratadigan omildir. Ushbu birgina usul orqali ham hikoyani batafsil tahliliy o'rganish orqali o'qituvchi ham o'quvchilarni muayyan kontekstda tinglashi, grammatik qoidalarni amalda qo'llay olish malakasini, og'zaki va yozma nutq madaniyatini baholay olishi mumkin. Chunki, biz bilamizki, metodika asosini o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv tashkil etadi.

3-bosqichda guruh a'zolari so'zlarning ma'nosini bilish orqali hikoya matnidagi ayrim so'zlarning izohini, ma'nodoshini topadi va ular ishtirokida yangi gap tuzish ko'nikmasini egallaydi. Keyingi holatda sarlavha va matn asosida taqdim etilgan rasmga qarab o'zlari ham hikoya mazmunini taxmin qilishni, ma'nosini aytishga chog'lanadi. Hikoya mazmunining algoritm ketma-ketligidagi rivojlanish nuqtasini, yangi so'zlar qachon va qanday maqsadda ishlatilayotganiga, voqea-hodisa bo'lgan joy, makon haqida ham ma'lumotlarni bir-biridan farqlashga, hikoya mohiyati nimani mengzayotganiga, ishoraviy izohlarni taxmin qila olish idroklari bo'yicha muloqotga kirisha oladi. Undan keyin, bosqichma-bosqich o'quvchilarga hikoya bo'yicha darslikdagi va qo'shimcha holatda ham savol-javoblar orqali hikoya mazmunini mustahkamlashga harakat qilishning o'zi – pedagogdan kichik ilmiy-tahliliy izlanishni talab etadi.

Evristik suhbat tariqasida quyidagicha qo'shimcha ma'lumotlarni bilishi, anglashi va voqeaga nisbatan qarashlarini turlicha tarzda ifodalashlari uchun ham og'zaki uslubda o'tkazishni tavsiya qilaman:

1. Maktab va oilada ta'lim-tarbiyaga ijobiy jihatdan uzviylikni ta'minlovchi hikoyada qanday holatlarni kuzatdik?

2. Maktab bog'ida hashar uyushtirishdan maqsad nima edi aslida?

3. Dilshodning xulq-atvori, fe’lidagi ijobiy o’zgarishlarning hosil bo’lishida ustozining o’rni qanday?
4. Dilshodning bobosi va onasining xarakter xususiyatlarini ifodalovchi so’zlarni toping.
5. Ta’lim-tarbiyada “yumshoq”lik bilan yondashuv tamoyili qanday hislat va fazilatlarni o’zida mujassam etadi deb o’ylaysizlar?
6. Siz Dilshod tengdoshingiz holatiga tushganingizda xuddi uningdek qat’iyatlilik bilan ish tutgan bo’larmidingiz?

Tadqiqot zamirida eng asosiy hikoya qahramonlari va ularning qay darajada ijobiy jihatgan yondashganligini ta’kidlashga alohida urg’u berib, bolani e’tibor bilan tinglashi va boshqa guruh a’zolari yoki jamoaning qarashlarini ilg’ashi - pedagogning samarali va sifatli ta’limni tashkil etish mahoratiga bog’liqdir. Mehr tuyg’usi, do’stlik, g’amxo’rlik, oila, ta’lim muassasa va mahalla hamkorligi kabi tushunchalarni ilk elementar ko’rinishda kichik birgina hikoyada mujassam etilishiga ham alohida omil sifatida qaralishi ustozdan hayotiy tajriba va yuksak tolerantlilikni ham talab etadi.

4 - bosqichda hikoya qahramoni Dilshoddagi ijobiy o’zgarishlarni “Buni uddalaysiz!” deya e’tirof etgan holda o’quvchilarga taxminiy fikrlarini yozma nutqda ifodalashni topshirishingiz mumkin. Yoki keksa kishilarga yana qanday mehribonlik va g’amxo’rlik ko’rsatish mumkin, siz qanday fikr bildirasiz? kabi topshiriqlar asnosida o’quvchilaringizda kreativ yondashuvning g’oyaviy omilini shakllantirishga zamin yaratlasiz. Albatta, bu kabi ijodiy yondashuv sinf o’quvchilari tomonidan quvnoqlik bilan iliq kutib olindi va dars yakunida samarali tashkil etilganigi e’tirof etildi. Hikoya asnosida yakuniy xulosalar, yechim sifatida taqdim etilgan fikrlar qabul qilindi [6].

**Metodning natijaviyligi “Assesment” metodi** asosida kichik guruh a’zolarining har biri tegishli tartibda mashg’ulotdagi belgilangan vaqtda bajargan ishlari yuzasidan baholanib, javob berishdagi kompetentlik yondasuvlari ta’lim talablari bo’yicha tahliliy fikr-mulohazalar bilan o’qituvchi tomonidan shaffof e’tirof etilishi lozim. Ushbu metodning lug’aviy ma’nosiga ham qisqacha to’xtalmoqchiman: “Assesment” inglizcha “assessment” so’zidan olingan bo’lib, “baho”, “baholash” ma’nolarini bildiradi“.

Har bir guruh a’zosining faolligi, mushohadalarining o’rinli yoki o’rinsiz ekanligi ongli ravishda o’zlari bilan individual debat asosida baholansa, bolada o’zini erkin va mustaqil his qilish ko’nikmasi shakllanishi osonlashadi, aqli charhlanadi. Bola qanchalik o’zini erkin his etsa, fikrlash qobiliyati, o’ziga bo’lgan ishonch hissi, jamoada o’zini tutish va boshqarish ko’nikmasi ham mustaqil rivojlana oladi.

Baholash omili sifatida oldindan tayyorlangan rag’bat kartatekalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Albatta, o’quvchining har bir bosqichdagi javob berish holati, qarashi va intilishi o’qituvchining nazari va e’tibordan soqit qolmasligi bola uchun juda muhimdir. Namuna sifatida taqdim etilayotgan tarqatma asosida o’quvchilar har biri yakka tartibda 4 ta omili ham 5 ball tizimida baholanishi maqsadga muvofiqdir. Maksimal 20 ball a’lo bahoga tenglashtiriladi, 15-18 ball “4” baho, 11-14 ball “3” baho va 7-10 ball “2” baho. 7 ballgacha belgilagan o’quvchilarga “Yanada intiling”, “Harakat qiling”, “Izlaning” kabi yangi bilimni o’zlashtirishga bo’lgan ishtiyoqini orttirishga undaydi va albatta o’qituvchi nazoratida qo’shimcha savollar, imkoniyatlar berish bilan qiziqishlarini shakllantirishga alohida urg’u berilishi pedagogning taktik mahoratini izohlaydi.

**“Assesment” metodi bo’yicha topshiriq namunasi**

<p><b>Test.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dilshod nega uyaldi?</li> <li>2. Jamoaviy ish va hasharlarning qanday foydali taraflari bor?</li> </ol>	<p><b>Muammoli vaziyat.</b></p> <p>Hikoya asosida aniq hayotiy vaziyat bizning ham sinfimiz yoki hayotiy turmush tarzimizda uchraganmi, kuzatganmisiz kabi muammo bering.</p>
<p><b>Simptom.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ustozining xatti-harakatini izohlang.</li> <li>2. Dilshodning bobosi kimlarni nima uchun olqishlaganini asoslang.</li> <li>3. Dangasalik qanday illat ekanini yoriting.</li> </ol>	<p><b>Amaliy ko’nikma.</b></p> <p>Matn asosida lug’at ishini boyiting, maktabingiz bog’ini chizing, Dilshodning ijobiy hislatini toping, hikoyada nechta qahramon borligini hisoblang va h.</p>

Ushbu mezonlar zamirida esa, pedagog doimiy ravishda har bir dars jarayonini sifatli tashkil etishda Blum taksonomiyasi asosida, ya’ni, tafakkurning rivojlanishini bilish, tushunish, qo’llash, tahlil, umumlashtirish (sintez), baholash darajalarida mulohaza yuritishsa, o’z o’rnida o’quvchilarning mavzuni to’laqonli va butun sinf o’quvchilarining o’zlashtirish darajasi yuqori saviyada bo’lishiga erishiladi. Faqat bu borada o’qituvchi barcha fanlar kesimida har bir dars bosqichini mavzuning oddiy yoki murakkablik darajasini oldindan loyihalab, qo’llayotgan metodikasining qanchalik bola ongiga, idrokiga ijobiy ta’sir eta olish strategiyalarini ishlab chiqishga tayyorlangan bo’lishi lozim. Bu esa, har bir darsni puxta strategik reja asosida oldindan kafolatlangan loyihaviy interfaol metodni qo’llashni tizimli ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shundagina ko‘zlangan maqsad har qanday ta‘lim shakli va vositalari orqali tashkil etilganda Blum taksonomiyasi asosida 6 ta omil bilan xulosalash imkonini yaratadi.

Hikoya asosida guruhlar bahosi va umumiy jamoaviy to‘plagan bilim, ko‘nikmalarini qay darajada bilish omillari, hikoya mazmunini tushunish holati, o‘qigan va o‘rgangan ta‘lim-tarbiyaviy fazilatlarini hayotda qo‘llash qobiliyatini, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fazilat, xulq-atvor yoki illat ekanligini tahlil qilsih malakasini takomillashtiradi. Shuningdek, matnni mohiyatan umumlashtirishni o‘zaro muloqot orqali kreativ hamda tanqidiy fikrlash doirasida mujassamlashtirishga o‘qituvchining e‘tibor berishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ijobiy ifodalay olishiga motivatsiya beradi. Umumlashtirgan holda baholash tizimini taqdim etayotganimizda guruhdagi har bir o‘quvchining ishtiroki, ziyrakligi, zehni va tafakkur doirasi qanchalik bugungi mavzuni o‘rganiganini ta‘kidlashimiz muhim ahamiyatga ega. Har bir darsimizda Blum taksonomiyasini qo‘llashga harakat qilishimiz biz pedagoglar uchun muhim omillardan biridir. Bizga ma‘lumki, amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o‘quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta‘lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O‘quv maqsadlari taksonomiyasi o‘quvchilar o‘zlashtirishining ma‘lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o‘zaro bog‘liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi lozim.

Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir. Ushbu atamaning ham lug‘aviy ma‘nosi haqida qisqacha manba sifatida quyidagicha e‘tirofni keltirish mumkin: **Taksonomiya** (qadimgi yunoncha: *τάξις* — tizim, tartib va *νόμος* — qonun) — murakkab tashkil etilgan ierarxik bog‘liq obyektlarni tasniflash va tizimlashtirish tamoyillari va amaliyoti haqidagi ta‘limot. Taksonomiya tamoyillari ko‘plab ilmiy bilim sohalarida geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya obyektlarini va organik dunyoning butun xilma-xilligini tartibga solish uchun qo‘llaniladi.

Hozirda yaratilayotgan yangi avlod darsliklarining asosiy mohiyati ham o‘quvchi ko‘proq og‘zaki nutqda muloqot jarayonida erkin mushohada yuritishi, ravon va aniq talaffuzi bilan bog‘lanishli nutq hosil qilishi va o‘zlashtirgan bilimni yozma nutqda bayon eta olishida har tomonlama xatosiz ifodalashda urg‘u berishdan iboratdir. Aynan shu yo‘nalishni shakllantirishda 4K modelidagi har bir ko‘nikmaning tavsifiy mazmuniga alohida omil sifatida e‘tirof etilishi – o‘qituvchining ilmiy yondashuv malakasiga bog‘liqdir. Shuningdek, o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma, malaka, munosabat, milliy qadriyatlar, xulq-atvorni o‘zlashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan shakllar, vositalar va materiallar bilan bir qatorda zamonaviy strategiyalar, o‘qitish usullari va metodlari, o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan dastlabki tayyorgarliklarni singdirish uslublarini har doim yodda tutmog‘imiz lozim.

Bu o‘z-o‘zidan fanlararo integratsiyani uzviy bog‘lash funksiyalarini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan ham o‘quvchilar birgina darsning sifatli tashkil etilishi nuqtayi nazaridan kasb tanlash, unga mehr berish, hunar o‘rganishda fanning qanchalik o‘rni beqiyosligini kichik maktab yoshidan his qilishni o‘zida shakllantira boshlaydi.

Badiiy matn asosida **“Esse” usulida** uyga vazifa berish. Ushbu o‘rinda “Esse” usuli haqida qisqacha ma‘lumot: Esse so‘zining lug‘aviy ma‘nosi – fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, essai – urinish, sinash, ocherk degan ma‘noni anglatadi. 4-sinf o‘quvchilari yozma nutq ta‘lim standarti talabiga muvofiq madsadli yozish orqali o‘z darajasiga mos matn tuza olishi, yozma matn yaratish jarayonida ishtirok etishi lozim: yozma ish maqsadini aniqlaydi, kerakli ma‘lumotlarni to‘playdi, reja tuzadi, qoralama matn tayyorlaydi, hamkorlikda ko‘rib chiqadi, tekshiradi va xatolarini tuzatadi hamda taqdim etish uchun tayyorlash ko‘nikmasini egallagan bo‘lishi talab etiladi (O‘BTD.OTO‘S.4.MY.6). [14].

Mavzuga oid esse yozish va keyingi darsda tayyor mulohazalarini taqdim etishda o‘quvchi o‘z oldiga maqsad qo‘yish ko‘nikmasiga ega bo‘lish kerak. Eslatma tariqasida sinfda muhokama qilingan hikoya asosida yozish ko‘nikmasiga oid mashqni bajarish uchun o‘qituvchi yo‘nalish berishi; yozish jarayonlarining bosqichlari (reja tuzish, qoralama matn yozish, tekshirish, tahrirlash va taqdim etish)ni o‘rgatishi; turli maqsadlardagi yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish (hisobot, xat, hikoya, esse, she‘r va boshqa matnlarni yozish) malakasiga e‘tibor berishi lozim.

Albatta keyingi darsda o‘qituvchi uyga berilgan vazifani tahliliy ko‘rib chiqishi, og‘zaki va yozma nutqda bir-birlari bilan fikr almashishi, yozgan essesini o‘qishiga imkon yaratishi, o‘zaro muloqot madaniyatiga e‘tibor berishi hamda monolog tariqasida ifodali o‘qish malakasiga e‘tibor berishi o‘quvchilarning badiiy adabiyotga mehri va qiziqishini orttiradi.

**Munozaralar.** “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanidan ta‘lim standartlari: tinglab tushunish, og‘zaki nutq, o‘qish, yozma nutq, lingvistik kompetensiya talablariga rioya etgan holda **anglash** omili yo‘nalishida 4-sinf darajasiga mos axborot matni va grafiklar (diagramma, jadval, xarita va boshqalar)dagi ma‘lumot yaqqol berilganda shaxslar, joylar, hodisalar va faktlar haqidagi savollarga javob beradi va asoslaydi



(O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.5); 4-sinf darajasiga mos matndagi ma’lumot aniq keltirilganda matnning asosiy g‘oyasi yoki ma’no tashuvchi jummalarni aniqlaydi va javobini asoslab beradi (O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.6); 4-sinf darajasiga mos axborot matnidagi shaxslar, ular xatti-harakatining sabablari, joylar, asosiy voqealarning ketma-ketligi va sodir bo‘lish sabablari, muammo, yechimlar va faktlarni tasvirlaydi, xulosa chiqaradi va javobini asoslab beradi (O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.8); ikki qahramonni solishtiradi va taqqoslaydi, ular o‘rtasidagi munosabatni tasvirlaydi; qahramonlar xatti-harakatiga mos yo‘l taklif etadi (O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.9); 4-sinf darajasiga mos axborot matnida nazarda tutilgan mavzu, maqsad va asosiy g‘oyani aniqlaydi, javobini asoslab beradi; matn ohangiga e’tibor bergan holda muallifning matnga munosabatini aniqlaydi (O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.11); 4-sinf darajasiga mos axborot matni bilan internet tarmoqlaridan olingan axborot matnidagi voqea rivojini, o‘rnini, paytini, qahramonlarning xatti-harakatlarini solishtiradi, xulosa chiqaradi hamda fikrlarini asoslab beradi (O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.15); 4-sinf darajasiga mos chop etilgan matn bilan internet tarmoqlaridan olingan matnlarga munosabat bildiradi va fikrlarini asoslab beradi (O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.16); 4-sinf darajasiga mos chop etilgan matn bilan internet tarmoqlaridan olingan matnning tarkibi, tuzilishi, xususiyatlari va grafik elementlari ma’lumotni topish va tushunishga qay darajada ta’sir qilishini aniqlaydi (O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.17); onlayn media, reklama hamda 4-sinf darajasiga mos badiiy va axborot matni kimga qaratilganligi, muallif nuqtayi nazari, matn maqsadi va mohiyati, ishonchliligini aniqlash uchun xulosa chiqaradi va javobini asoslab beradi (O‘BTD.OTO‘S.4.O‘Q.A.18) [14].

O‘qib-tushunish orqali matn mazmuni o‘qituvchi tomonidan ifodali va obrazli o‘qib berilgandan so‘ng berilgan ma’lumotlar usul g‘oyasidan kelib chiqib, tahliliy ruhiyatda o‘rganilish jarayoni davom etadi. Sarlavha mazmunidan kelib chiqqan xulosa sifatida internetdan foydalanishning yaxshi va yomon tomonlari o‘qituvchi nutqi va kichik guruh a’zolarining zanjirsimon matnni o‘qish usuli, obrazli bayon eta olish ko‘nikmalaridan so‘ng uzviy ravishda savol-javoblarga tayanadi.

**“Bir vaqtda ikki natija” axborot matnning bosh g‘oyasi** – internetdan unumli foydalanish va bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda uning imkoniyat doirasidagi omillari haqida. O‘qituvchi matn mazmunini hayotiy hodisalar bilan chambarchas bog‘lashi ijobiy natijaviylikni ta’minlashga xizmat qiladi; 1-3-ma’lumotlar tariqasida matn ichidan tegishli gaplarni topish, mazmunan va mantiqan bog‘lash, yangi so‘z yoki iboralarni belgilash ko‘nikmasi o‘quvchilarda kichik tadqiqot va izlanishga zamin yaratadi.

O‘quvchilar har qanday manbadan talab qilinayotgan materialni qiyinchiliksiz topa olish bilimiga, zakovati doirasida gaplarni bir-biridan farqlay olish zehninga charhlanib boradi. Oddiy holatda matnsiz manbadan, ya’ni, rasm, diagramma, chizmalardan axborotni izlash, topish va uni algoritim ketma-ketligida joylashtir ko‘nikmasi shakllanishiga imkon beradi. Ushbu manbalardan eng asosiy g‘oyasi nima ekanligini anglashi – muhim hisoblanadi. Chunki, matn mazmuniga munosabat bildira olish qobiliyati o‘quvchilarning fikrlarini ham tartibga solishini ifodalaydi, zero, ushbu darsning asosiy maqsadi ham shundan iborat.

Matn tahlilidan so‘ng axborot matnidagi ayrim so‘zlarning ma’nosi, uning izohi va ma’nodoshlarini o‘rganish, og‘zaki va yozma nutqda qayd etish topshiriqlari bajariladi. Darslikda ushbu matn asosida berilgan rasmdagi tasvirlar, taxminiy fikrlar, past ovozda matnni o‘qish malakasi, yangi so‘zlarning qo‘llanishiga alohida e’tibor berish, voqealar rivoji, qahramonlarni yodida saqlash kabi eslatmalar o‘quvchilarni “o‘qiyimiz – o‘rganamiz” ruknida asqotadi. Savol-javoblar orqali o‘qib tushunish ko‘nikmalarini mustahkamlash o‘quvchilarda matnga nisbatan fikr-mulohazalarini mustaqil va erkin ifodalash, hayotiy misollar orqali bayon etish malakasini takomillashtiradi.

Quyidagicha savol-javoblarni ham taqdim etish mumkin:

1. Matn qahramonlarini izohlang va har birining faoliyatini og‘zaki nutqda ifodalashga, obrazga kirishga harakat qiling.

2. Xumora va Shokirning fikriga qo‘shilasizmi?

3. Internet tarmoqlaridan foydalanishning afzalliklari deganda siz nimani tushunasiz?

4. Informatika fani ustozlari qaysi o‘quvchisidan nimaga mamnun bo‘ldi?

5. Siz ham ustozingizni mamnun qilish uchun qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

6. Internetdan siz nima maqsadda foydalanishni istaysiz?

Axborot kommunikatsion manbalardan oqilona foydalanish, media olam, media madaniyat tushunchasi, axborot xavfsizligi kabi lug‘aviy ma’nosi keng o‘lchamli bo‘lgan so‘zlarni ham bolalar ko‘rgan yoki eshitgan axborotlari bo‘yicha aytish ehtomollarini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak.

Olingan ma’lumotlarga tayangan holda o‘qituvchi tegishli tartibda baholash mezonlari asosida o‘quvchilarni baholashlari, rag‘batlantishlari lozim. Mavzu doirasida uyga vazifa sifatida darslikdagi talab bo‘yicha topshiriq berishi yoki qo‘shimcha topshiriq taqdim etishi mumkin.

**Xulosalash. Xulosa va yakunlash** – “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklari asosida o‘rganilgan va ta’lim olishga oid mavzular ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati haqida xulosa

qilib, mashg‘ulotni yakunlaymiz. O‘quv dasturi bo‘yicha darslik bilan ishlashda ta‘lim ko‘nikmalarini tushunish va amalda qo‘llash sog‘lom munosabatlarga, bolalarning o‘zini anglashning yaxshilanishiga va umumiy farovonlikka olib kelishi mumkinligi haqidagi g‘oyani tushuntirishga intiling.

**Tavsiya:** Har kuni uyda va maktabda o‘zingiz o‘rgatadigan fanlar kesimida ta‘lim olishga oid ko‘nikmalarni mustahkamlashni unutmang! Ota-onalar bilan muloqotda doimo samimiy bo‘ling va farzandlari haqida, eng avvalo, yutuqli jihatlari, o‘zlashtirish holatlari va tarbiyaviy xususiyatlarining ijobiy tomonlarini bildirish orqali yumshoqlik bilan tushuntiring va izohlang! Psixologik yondashuvga tayangan holda o‘quvchilarning salbiy jihatlari birgalikda bartaraf etishda hamohang vazifa sifatida o‘zingizning daxldorlik vazifangizni ifoda eting! Dars mashg‘ulotlaringizga ota-onalarni ham taklif eting, zero, farzandining haqiqiy bilim va kompetentlik yondashuvini o‘zlari ham ko‘rib, xulosa berishsin!

Vaholanki, bugungi kunda zamon bilan hamnafas har bir pedagog kasb etikasi va taktik xususiyatlarini yuksak saviyali madaniyati, o‘tkir bilimi, teran zakovati va komil ma‘naviyatli shaxs darajasida namoyon etmoqqa har doim tayyor bo‘lmog‘i shart va zarur. Chunki, yangi avlod darsliklarimiz ham XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda 4K modelini hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha tegishli zamonaviy bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarimizni takomillashtirishimizni taqozo etmoqda.

Dars jarayonlarida **interaktiv tinglab tushunish – mashg‘ulot bosqichlariga** ham e‘tibor qarating! Undan asosiy maqsad: o‘quvchilarning munozaralarda qatnashishi, taxmin qilishi, matn bilan bog‘lanish orqali interaktiv tinglab tushunishda faol ishtirok etishini ta‘minlashdan iboratdir. Didaktik materiallardan - badiiy yoki axborot matni, san‘at va hunarmandchilik buyumlari, sharhlash uchun qog‘ozlarni olishingiz mumkin. **O‘rtoqlashish va yakunlash** – bir necha o‘quvchilarga fikrlarini sinf bilan bo‘lishish imkonini bering. Mashg‘ulot davomida muhokama qilingan asosiy fikrlarni umumlashtiring, ijtimoiy xabardorlik va daxldorlik, hamdardlik va inklyuzivlikning ahamiyatini ta‘kidlang. Xulosa qilib aytganda, ta‘lim-tarbiyaning asosiy qismi - bolalarga bilim olish uchun do‘stona munosabat va o‘qishga imkon beruvchi muhitni yaratishga e‘tiborli bo‘ling!

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. [stesting.uz](http://stesting.uz) – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
4. Xalq ta‘limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi “Davlat ta‘lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-sonli buyrug‘i
5. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 540-son buyrug‘i.
6. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Peyskens Soya, Zuxra Saliyeva, Dilfuza Karimova. T.: 2023.
7. Shukurova M. Mahoratli pedagog T.:Pedagog, 2020.
8. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma T.: 2021.
9. G‘ulomova M.X Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o‘quv jarayonida (tezislar to‘plami).-T.: 2020.
10. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: 2017.
11. “O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi” qo‘llanmasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, Toshkent, 2019-yil
12. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 4-sinf darsligi. 1-2 qismlar. 140 bet. Toshkent – 2023
13. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 4-sinf. O‘qituvchi uchun qo‘llanma. T.-2023
14. Djurayeva Perdegul Saidovna «Training on a creative and modern approach in the system of training: social awareness, inclusive organization effectiveness». // Science and innovation international scientific journal volume 3 issue 3 march 2024 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | [scientists.uz](http://scientists.uz)
15. [onlinedu.uz](http://onlinedu.uz) – uzluksiz kasbiy ta‘lim platformasi.

**LINZALARDA TASVIR YASASH MAVZUSINI O‘QITISHDA KEYS-STADI TA’LIM  
TEKNOLOGIYASINI QO‘LLASH METODIKASI**

**Imomov Bahodir Umirzokovich,**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*Fizika kafedrası assistenti*

*O‘zbekiston, Samarqand Sh., 140100. Spitamen shoh ko‘chasi 166-uy*

**Mamatov Zayniddin Ubaydullayevich,**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*Samarqand kampusi universiteti dotsenti,*

*fizika-matematika fanlari nomzodi*

*O‘zbekiston, Samarqand tumani. Yasmin ko‘chasi 11-uy.*

*Ushbu maqolada pedagogika faoliyat davomida keys-stadi metodlarini qo‘llash xususiyatlari ishlab chiqilgan. Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o‘quv didaktik vazifalari, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Fizikaning optika bo‘limidagi bilimlarni kundalik turmush tarzi bilan bog‘lashni, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirish, o‘qitish samaradorligini oshirish uchun ta’lim metodlaridan biri “Keys-stadi” metodi haqida so‘z yuritilgan, unga doir misollar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** linza, fokus masofa, tasvir, keys-stadi, Phet dasturi, muammoli vaziyat, baholash mezon, optik sistema.

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ CASE-STUDY  
В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ «СОЗДАНИЕ ИЗОБРАЖЕНИЯ В ЛИНЗАХ»**

*В данной статье описаны особенности использования методов кейс-стади в педагогической деятельности. Основной целью технологии кейс-стади является развитие их научных и творческих способностей путём решения учебно-дидактических задач и существующих проблемных ситуаций. В качестве одного из образовательных методов, позволяющих связать знания на оптическом факультете физики с повседневной жизнью, повысить мыслительные способности студентов, повысить эффективность обучения, упоминается метод «case-study», приводятся его примеры.*

**Ключевые слова:** объектив, фокусное расстояние, изображение, case Study, программа Phet, проблемная ситуация, критерий оценки, оптическая система.

**METHODOLOGY OF USE OF CASE-STUDY EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN  
TEACHING THE SUBJECT OF LENS IMAGING**

*This article describes the features of using case-study methods in pedagogical activity. The main goal of the case-study technology is to develop scientific and creative abilities in solving educational and didactic problems and existing problem situations. As one of the educational methods, which may bring knowledge to the optical faculty of everyday life, it will enhance students’ abilities, increase their self-esteem, and improve their skills.*

**Keywords:** lens, focal length, image, case study, Phet program, problem situation, evaluation criterion, optical system.

**Kirish.** Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan [1,4-5].

Mavzuni yoritishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bir necha metodlarni qo‘llash o‘qitish samaradorligining oshishiga olib keladi [2]. Ayniqsa, Keys-stadi metodini qo‘llash muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular:

- talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

- talabalarning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiylikni ta’minlanishi;

- talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari mumkin.

Shunday ekan, biz ham dunyoning etakchi davlatlari hozirda foydalanib kelayotgan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini eng maqbullarini tanlab olib, yurtimizda ta’lim berishda joriy qilsak maqsadga muvofiq bo‘lardi.

So‘nggi vaqtlarda “Keys-stadi” metodi xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda va bugungi kunda Respublikamiz ta’limida ham tobora ommalashib bormoqda [3].


**Muhokama va natijalar.** “Keys-stadi” aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari**

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash.</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash.</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.</li> </ul>

1-Keys

Keysni PHET dasturida amalga oshirish.



Yig‘uvchi linza da buyum tasviri linzadan o‘tgach tasvir teskari bo‘lib qoldi.

**Topshiriq:** Nima sababdan hosil bo‘lgan tasvir teskari bo‘ladi?

Amaliy vaziyatni bosqichma - bosqich tahlil qilish va hal etish bo‘yicha talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar beriladi.

**Talabalarga yo‘riqnoma.**

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishish. “Linzalarda tasvir yasash” mavzusining maqsadi va vazifalari haqida tushuncha hosil qilish uchun mavzuga oid bo‘lgan axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim. O‘qish davomida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Chizma asosida ma‘lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: Linzalarda tasvir yasashda nimalarga e‘tibor berish kerak.
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash.	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko‘rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to‘ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting

**“Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring. Talabalarga beriladi.**


Vaziyatdagi muammolar turi.	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

**O‘qituvchi tomonidan keysni yechish va tahlil qilish varianti**

Muammoli vaziyat.	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Nima sababdan nurlar to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqaladi va ikki muhit chegarasida sinadi?	Bizga ma‘lumki, nurlar to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqaladi nurning trayektoriyasi to‘g‘ri chiziq buni tajribalar tasdiqlagan. Geometrik optika qonunlariga ko‘ra nurlar ikki muhit chegarasida sinadi.	Linzalarda tasvir yasash mavzusini qo‘llash asosida.



**Keysni PHET dasturida amalga oshirish.**



**Yig‘uvchi linza yordamida buyum tasviri hosil qilindi.**

**Topshiriq:** Nima uchun tasvir teskari, haqiqiy va kattalashgan?

Amaliy vaziyatni bosqichma - bosqich tahlil qilish va hal etish bo‘yicha talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
2. Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. “Linzalarda tasvir yasash” mavzusining maqsadi va vazifalari haqida tushuncha hosil qilish uchun mavzuga oid bo‘lgan axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim. O‘qish davomida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Chizma asosida ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: Linzalarda tasvir yasashda nimalarga e’tibor berish kerak. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling. - Geometrik optika qonunlari. Optik asboblari haqida tushuncha berish; - Linzalarda qachon buyum tasviri “mavhum” yoki “haqiqiy” bo‘ladi? - Agar linza sochuvchi bo‘lsa-chi?
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash.	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko‘rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to‘ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting

**“Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring**

Vaziyatdagi muammolar turi.	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

**O‘qituvchi tomonidan keysni yechish va tahlil qilish varianti**

Muammoli vaziyat.	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Buyum yig‘uvchi linzadan qandaydir masofaga qo‘yilgan, ekranda tasvir hosil bo‘ladi	Yig‘uvchi linzani odatdagi ko‘rinishiga muvofiq linzaning markazi qalin, chetlari yupqa bo‘ladi. Linza bosh optik o‘qqa parallel kelayotgan nurlar dastasini yig‘di. Agar buyum F fokus masofa bilan 2F masofa oralig‘iga $F < d < 2F$ qo‘yilsa, buyum kattalashgan, teskari, haqiqiy bo‘ladi.	Geometrik optika qonunlari mavzusini qo‘llash asosida.

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari (auditoriyadan tashqarida va auditoriyada bajarilgan ish uchun).

**Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari**

Talabalar ro‘yxati	Asosiy muammo ajratib olinib tadqiqot obyekti aniqlangan mak. 0,5 ball	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko‘rsatilgan mak. 1,5 ball	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko‘rsatilgan mak. 2 ball	Jami mak. 4 ball

**Auditoryada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari**

Guruhlar ro‘yxati	Guruh faolligi mak. 1ball	Ma’lumotlar ko‘gazmali taqdim etildi mak. 1ball.	Javoblar to‘liq va aniq berildi mak. 2 ball	Jami mak. 4ball

**Xulosa.** Maqolada keltirilgan Keys-stadi ta’lim texnologiyasi yordamida darslarni samarali tashkil qilish mumkin. Linzalarda tasvir yasash mavzusini o’qitishda, Keys-stadi usulini qo’llash o’quvchilarga o’z ijodiy va texnik salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. O’quv mashg’uloti davomida o’quvchilarning qiziqishlarini orttirish maqsadida turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarning nafaqat fanga bo’lgan qiziqishlarini oshib, balki ularning chuqur bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlariga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (Ижтимоий-гуманитар йўналишлардаги академик лицейларда математика ўқитиш мисолида): Пед. фан. докт ... дисс. автореф. –Т., 2006, - 49 б. 49.
2. Алейников В.В. Подготовка студентов к использованию компьютерных технологий в профессиональной деятельности: Автореф... дисс. пед. наук. – Брянск, 1998. – 19 с.
3. Djumanov Sh.Z. “Keys” texnologiyasi asosida o’quvchilarda muloqo-tchanlik shakllantirish imkoniyatlari.(147-148).
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. - Toshkent, 2004-y.
5. Umbarov A.U. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida linzalar mavzusini o’qitish metodikasi. “O’zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” halqaro ilmiy-amaliy anjuman. Science and Innovation halqaro ilmiy jurnal. 2022 y. 848-851 b.
6. Zoirov S.X., Hamrayev Yu.B., Bahriyeva M. Fizika fanini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o’qitish metodikasi. // Science and Education. 2023. -Т 4. №12. 515-519 b.
7. Zoirov S.X., Bahriyeva M. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi. // Science and Education. -2024. -Т.5. №1. 276-280 b.

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA INFORMATIKA FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

*Orinbaev Ansatbay Amanbaevich,*

*Nukus davlat pedagogika instituti*

*“Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o‘qitish” kafedrasida stajyor o‘qituvchisi*

*Ushbu maqola axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalar yordamida informatika fanidan mustaqil ta’limni tashkil etishning ahamiyatini o‘rganadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim talabalarni o‘z bilimlarini kengaytirish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Axborot texnologiyalari, masalan, onlayn platformalar va interaktiv dasturlar, talabalarga o‘zlarini erkin ifoda etish va ta’lim resurslariga qulay kirish imkonini beradi. Maqolada, shuningdek, pedagogik texnologiyalarning o‘quv jarayoniga qo‘shgan hissasi ham muhokama qilinadi. Pedagogik metodlar, masalan, aralash ta’lim (blended learning) va hamkorlikda o‘rganish usullari, talabalarining mustaqil faoliyatini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari talabalarining axborot texnologiyalari yordamida ta’lim olish jarayonida qiziqishini oshirish va o‘zlashtirish darajasini yaxshilashga imkon berishini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:** axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta’lim, informatika fani, ta’lim jarayoni.*

## ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО ИНФОРМАТИКЕ С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

*В данной статье рассматривается важность организации самостоятельного обучения информатике с помощью информационных технологий и педагогических технологий. Самостоятельное обучение в современном образовательном процессе побуждает учащихся расширять свои знания, развивать навыки логического мышления, активно участвовать в процессе самообучения. Информационные технологии, такие как онлайн-платформы и интерактивные программы, позволяют студентам свободно выражать своё мнение и легко получать доступ к образовательным ресурсам. Также в статье рассматривается вклад педагогических технологий в образовательный процесс. Педагогические методы, такие как смешанное обучение и методы обучения в сотрудничестве, играют важную роль в поощрении самостоятельной деятельности учащихся. Результаты исследования показывают, что использование информационных технологий позволяет студентам повысить интерес к учебному процессу и улучшить своё мастерство.*

***Ключевые слова:** информационные технологии, педагогические технологии, самостоятельное образование, информатика, образовательный процесс.*

## ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF COMPUTER SCIENCE THROUGH INFORMATION TECHNOLOGIES AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

*This article examines the importance of organizing independent education in computer science with the help of information technologies and pedagogical technologies. Independent education in the modern education process encourages students to expand their knowledge, develop logical thinking skills, and actively participate in the process of self-learning. Information technologies, such as online platforms and interactive programs, allow students to freely express themselves and easily access educational resources. The article also discusses the contribution of pedagogical technologies to the educational process. Pedagogical methods, such as blended learning and cooperative learning methods, play an important role in encouraging students' independent activities. The results of the study show that the use of information technologies allows students to increase their interest in the educational process and improve their mastery.*

***Keywords:** information technologies, pedagogical technologies, independent education, computer science, educational process.*

***Kirish.** Informatika fani zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ta’lim jarayoniga integratsiyasi, shuningdek, pedagogik texnologiyalar orqali ta’lim berishning yangi usullarini taqdim etadi. Mustaqil ta’lim — talabalarni mustaqil fikrlashga va o‘z bilimlarini kengaytirishga undaydi. Ushbu maqolada informatika fanidan mustaqil ta’limni tashkil*



etishning ahamiyati va axborot hamda pedagogik texnologiyalarning bu jarayondagi roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — axborot texnologiyalari va pedagogik metodlarni qo‘llash orqali informatika fanida mustaqil ta‘limni samarali tashkil etish.

**Adabiyotlar sharhi.** Ushbu maqolada keltirilgan adabiyotlar axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalar orqali informatika fanidan mustaqil ta‘limni tashkil etish jarayonini chuqur o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

1. **Anderson (2008)** asarida onlayn ta‘lim nazariyasi va amaliyoti haqida keng qamrovli ma‘lumotlar taqdim etiladi. Bu asar, informatika fanida mustaqil ta‘limni tashkil etishda axborot texnologiyalarining o‘rni haqida tushuncha berishi bilan tadqiqotimizda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

2. **Salomon (2000)** ning "Technology and Education" bo‘yicha yozganlari, axborot texnologiyalari orqali ta‘lim jarayonini qanday o‘zgartirishi mumkinligi haqida tushuncha beradi. Bu asar, mustaqil ta‘lim jarayonidagi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarning ta‘sirini tahlil qilishda muhimdir [2].

3. **Prensky (2001)** tomonidan keltirilgan "Digital Natives, Digital Immigrants" konsepsiyasi, zamonaviy talabalar va ularning o‘qituvchilariga taalluqli muammolarni ko‘rsatadi. Ushbu fikrlar, informatika fanida mustaqil ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda muhimdir [3].

4. **Kafai va Resnick (1996)** ning "Computer as a Medium for Creative Expression" asari, axborot texnologiyalarining ta‘lim jarayonida ijodiy ifoda va mustaqil o‘rganishga qanday yordam berishi haqida misollar keltiradi. Bu, informatika fani doirasida talabalarining ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarimizni yanada boyitadi [4].

5. **Garrison va Vaughan (2008)** ning "Blended Learning in Higher Education" asari, aralash ta‘lim modelini joriy etish orqali ta‘lim sifatini yaxshilash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv, informatika fanidan mustaqil ta‘limni tashkil etish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda foydali bo‘lishi mumkin [5].

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida bir nechta usullar qo‘llanildi. Bular quyidagilar:

• **Anketalar:** Talabalarining mustaqil ta‘limga nisbatan munosabatlarini o‘rganish uchun anketalar tuzildi. Talabalar o‘z tajribalarini va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini baholashdi.

• **Intervyular:** Ta‘lim jarayonida o‘qituvchilar va talabalarining fikrlarini o‘rganish uchun intervyular o‘tkazildi. Bu orqali ularning mustaqil ta‘lim jarayoniga qo‘shgan hissalarini va foydalanadigan vositalar tahlil qilindi.

• **Tajribalar:** Axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda o‘quv jarayonida eksperimentlar o‘tkazildi. Talabalarining natijalari va o‘zlashtirish darajalari kuzatildi.

Talabalarga informatika fanidan mustaqil ishlar qilishni o‘qitishda taqdimotlar muhim ahamiyatga ega. Taqdimot tayorlashda asosan quyidagi konstruktorlardan foydalaniladi:

- **Microsoft PowerPoint**
- **OpenOffice.org Impress**
- **Keynote**
- **SoftMaker Presentations**
- **KPresenter**
- **Multimedia Builder**

**Microsoft PowerPoint.** PowerPoint g‘oyasi Berkli Universiteti talabasi Bob Gaskins tomonidan grafik ko‘rinishdagi interaktiv materiallar yaratish maqsadida yuzaga keldi. 1984 yili Gaskins Forethought ga birlashib, Dennis Ostin (Dennis Austin)ni ishga taklif etdi. Bob va Dennis kuchlarini birlashtirishib Presenter dasturini yaratishdi. Dennis Tom Rudkin (Tom Rudkin) bilan hamkorlikda dasturning original versiyasini yaratishdi. Keyinchalik Bob nomini **PowerPoint** deb o‘zgartirishga qaror qildi va hozirgi kungacha dastur ushbu nom bilan atalib kelinmoqda.

1987-yili PowerPoint 1.0 Apple Macintosh uchun chiqarildi. U faqat oq-qora rangda ishlar edi. Ko‘p vaqt o‘tmay uning rangli versiyasi ishlab chiqildi.

Keyinchalik, 1987-yili Forethought va uning mahsulotini Microsoft 14 mln. dollarga sotib oldi. 1990-yili Windows ning birinchi versiyasi chiqdi va shu yildan e‘tiboran Microsoft Office dasturlar to‘plamining standarti sifatida qabul qilindi.

2002-yili PowerPoint nafaqat Microsoft Office XP paket tarkibida, balki alohida mahsulot sifatida ham tarqala boshlandi. Unda taqdimotni solishtirish va ko‘chirish, individual shakllar uchun animatsiya yo‘lini ko‘rsatish, piramida, radial va maqsadli diagrammalar hamda Eyler aylanasini yaratish, dastlabki ko‘rish uchun vazifalar paneli, fotoalbomni avtomatik qayta ishlash, prezentatsiyani parol bilan himoyalash, matn formatini tezkor topish uchun “tezkor teg”lar bilan boyitildi.

**Microsoft PowerPoint 2023** oldingi versiyadan uncha katta farq qilmaydi. Unda ishlash samaradorligi oshdi, “SD uchun paket” yaratish, ya’ni prezentatsiyani multimedia tarkibi bilan nusxasini ko’chirish va uni kompakt diskda ko’rish imkoniyati yuzaga keldi.


**PowerPoint 2023** versiyasida interfaqs dasturlar o’zgardi va grafik imkoniyatlar kengaydi.

**OpenOffice org Impress** prezentatsiya tayyorlash dasturi bo’lib, OpenOffice.org. tarkibiga kiradi. Ushbu dastur prezentatsiyadan PDF fayllarni yaratish va Adobe Flash (SWF) formatiga joylashtirish imkoniyatiga ega. Bu esa har qanday kompyuterdagi Flash- proigrıvıatel orqali prezentatsiyani ko’rish imkonini beradi. Fayllarni bir necha xil formatlarda, jumladan Microsoft PowerPoint dagi .ppt formatida ko’rsatish, tahrirlash va saqlash ham mumkin.

**OpenOffice.org Impress** dan foydalanuvchilar, o’z tarkibiga prezentatsiya tayyorlashda foydalanish mumkin bo’lgan tasvirlar va rasmlar galereyasini olgan **Open Clip Art Library** ni o’rnatishlari mumkin.

**Keynote, Kpresenter, SoftMaker Presentations KPresenter** dasturlari ham prezentatsiya tayyorlashda ishlatiladigan va uncha murakkab bo’lmagan, Microsoft PowerPoint i OpenOffice.org Impress dasturlariga o’xshash turli xil funksiyalar va shablonlar bazasiga ega dasturlar hisoblanadi. Bundan tashqari KPresenter o’z formatidan tashqari prezentatsiyani OpenOffice.org, JPEG, PNG, BMP, SVG formatlarida ham saqlashi mumkin.

Andragogikaning asosiy konsepsiyasiga muvofiq katta yoshdagilarni o’qitish bir necha sikllarni o’z ichiga oladi.



1-rasm. O’qitish sikli modeli (Kolb, Fray)

Ushbu model o’ziga xos muhim xususiyatlarga ega bo’lib, bunda o’qitish bir-biri bilan ketma-ket bog’langan bosqichlardan iborat siklik jarayon shaklida tashkil etiladi. Jarayon tajribadan boshlanadi va hech vaqt bosqichlar o’rtasida uzilish bo’lmaydi. Sikllar nafaqat ma’lum ketma-ketlik asosida bir-birini almashtiradi, balki bir-biriga qarama-qarshi ham turadi. Masalan, aniq tajribalarga abstrakt konsepsiyalash qarshi tursa, faol tajribaga refleksiv kuzatish qarshi bo’ladi. O’qitish jarayonida turli pedagoglar ushbu siklning u yoki bu boqichiga ko’proq e’tibor qaratishadi va bu holatni Kolb va Fray “o’qitish stili” deb ko’rsatadi.

Ushbu modelga muvofiq o’quvchi o’z tajribasi va bilimining qaysi sohada yetarli emasligini aniqlashtiradi, qiyalayotgan muammolarini shakllantiradi hamda ushbu muammolarni hal etish vositalari va yo’llarini belgilaydi, o’quv maqsadini aniqlab oladi.

**Faoliyatni rivojlantirish modeli.** Oddiy o’qitishdan farqli o’laroq, oliy ta’limda talabalarga nafaqat fan bo’yicha yangi bilim va ma’lumotlar beriladi, balki olingan bilimlarni amalda qo’llash ko’nikmalarini hosil qilish, bilimlarni rivojlantirish va qayta ishlashga ham o’rgatiladi. Ta’lim berish jarayonida modellar o’rni almashadi - kasbiy faoliyat ko’rinishi o’zgaradi, talabaning qobiliyati, uquvi rivojlanadi, o’quv maqsadi o’zgaradi. Ta’lim faoliyatining rivojlanish samarasi ham aynan shu bilan xarakterlanadi. Rivojlanuvchi faoliyat quyidagi uch xil yo’nalishda amalga oshadi:

1. Shaxsiy faoliyatda
2. Faoliyat refleksiyasida
3. Metodologik muhitda

Bu yerda metodologiya bilim olishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarga qaratilgan g’oyalar, konsepsiyalar, uslublar va vositalar majmui sifatida qaraladi. Ta’lim jarayoni nuqtai nazaridan ushbu modelni quyidagicha o’qish mumkin [6]:

talaba o’z faoliyati davomida refleksiv holatga olib chiquvchi bir qancha muammolarga duch keladi va ketma-ket ravishda quyidagi uch jarayonni amalga oshiradi:

➤ **tahlil** – o’z faoliyatini tadqiq qilish, ya’ni faoliyatni qayta shakllantirish va o’zlashtirishdagi muammoli vaziyatlarni aniqlash;


➤ **tanqid** – o‘zlashtirishdagi muammolar sababini aniqlash;

➤ **me‘yorlashtirish**–faoliyatni rivojlantirish. Muammoni barataraf etishga qaratilgan g‘oyalar, gipotezalar va usullarni o‘ylab topish, yangi me‘yorlarni tuzish.

An’anaviy va rivojlantiruvchi ta’lim modellarini taqqoslab quyidagilarni aniqlashimiz mumkin:

An’anaviy ta’lim modelining maqsadi va natijasi standart vazifalarni yechish bo‘yicha bilimlar berish hamda amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

Rivojlantiruvchi ta’limning maqsadi va natijasi bo‘lajak mutaxassislarni aniq ishlab chiqarish sharoitida muvaffaqiyatli faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan kompetentligini rivojlantirish, nafaqat standart vaziyatlarda, balki o‘zgaruvchan nostandart vaziyatlarda ham mustaqil qarorlar qabul qilish bo‘yicha bilimlar berish va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Rivojlantiruvchi ta’lim modelida ma’ruza dialog shaklida olib boriladi va talabada ma’ruza mazmuni bo‘yicha tahlil qilish, izlanish, yangi g‘oyalar hosil bo‘lish, o‘z g‘oya va fikrlarini bayon etish, boshqa talabalarning ushbu muammo bo‘yicha fikrlarini tinglash va unga o‘z munosabatlarini bildirish imkoniyati yaratiladi.




## 2-rasm. Ta’lim modellarining xususiyatlari

Talaba ma’ruzada faqat tinglovchi sifatida emas, balki jarayon ishtirokchisi sifatida faol qatnashadi. Rivojlantiruvchi ta’lim tashkiliy formasining o‘ziga xos xususiyatlari pedagogik muloqatning quyidagi uch turini o‘z ichiga oladi [8]:

1. Talabaning shaxsiy mustaqil ishi.
2. Talabalarning guruhij mustaqil ishlari.
3. Talabalarning o‘qituvchi ishtirokidagi guruhij mustaqil ishlari.

Pedagogik muloqatning ushbu uch turi birgalikda mutaxassislar tayyorlashda talab etilgan kompetentlikni rivojlantirishning to‘liq siklini hosil qiladi va bu jarayon quyidagi tartibda amalga oshadi. Talaba dastlab o‘z shaxsiy tajribalari va bilimlariga suyangan holda o‘rganiladigan mavzu (fan) bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plab, ularni mustaqil o‘rgana boshlaydi. O‘rganish davomida talabaning bilim va tajribasini yetarli emasligi sababli qiyinchiliklar va tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Shunda guruhij mustaqil mashg‘ulotlar davomida boshqa talabalarning bilimlari va qobiliyatlari yordamida tushunilmagan ma’lumotlarni o‘zlashtirishga harakat qiladi. Keyinchalik yuzaga kelgan savollar va muammolar bo‘yicha yechimlarni o‘qituvchi ishtirokidagi mustaqil ta’lim davomida aniqlashtirib boradi. Ushbu siklni quyidagicha tasvirlash mumkin.



### 3-rasm. Rivojlantiruvchi ta'limda o'zlashtirishning siklik ketma -ketligi

Ushbu sikl bo'yicha o'qitishni tashkil etish shakli shaxsiy tajriba va qobiliyatni rivojlantirishni universal mexanizmi sifatida qaralib, rivojlantiruvchi ta'limning mohiyatini ochib beradi. Rivojlantiruvchi ta'lim modeli asosida o'qitishda o'rganish talabani mustaqil ishidan (shaxsiy mustaqil, guruh mustaqil, auditoriyada mustaqil ish, auditoriyadan tashqari mustaqil ish va b) boshlanadi va ushbu mashg'ulot turi yetakchi hisoblanadi. Boshqa o'quv mashg'ulot turlari esa ikkinchi darajali bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayoniga yangi guruh o'qitish texnologiyalarini qo'llanilishi, o'z xususiyati bilan boshqa ma'ruzalardan farq qiluvchi mini –ma'ruzalarni yuzaga kelishiga olib keldi. Ushbu ma'ruza turi rivojlantiruvchi ta'lim yetakchi g'oyasida (paradigmasi)da ham muhim o'rin egallamoqda. Buning asosiy sabablaridan biri rivojlantiruvchi ta'limda talabalar mustaqil ishlariga katta e'tibor qaratilishidir. Bunda asosiy ma'ruza 15-30 minut bo'lib, qolgan vaqt talabalar mustaqil yoki guruh ishlar uchun ajratiladi [9].

Mini ma'ruzalar ham o'z vazifasiga bog'liq holda boshqa ma'ruzalar singari turlicha bo'ladi. Ta'lim oluvchining mavzuni o'zlashtirishdagi muammolari va qiyinchiliklariga bog'liq holda mini-ma'ruzalarni quyidagi uch turga bo'lish mumkin.

**1. Ma'ruza-navigator.** Mini ma'ruzaning birinchi vazifasi an'anaviy o'qitish shaklidagi kirish ma'ruzasiga mos keladi. An'anaviy ma'ruzadagi kirish ma'ruzasida ma'ruza fan bo'yicha umumiy ma'lumotlar berib, fanning bo'limlari va ular o'rtasidagi bog'lanishlar, fanning umumiy maqsad va vazifalari, rivojlanish tarixi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Rivojlantiruvchi ta'lim o'qitish sikli modeliga asosan mini ma'ruza-navigatorda ma'ruzaning asosiy maqsadi nafaqat fanning mazmunini ochish va umumiy yo'l-yo'riq berish, balki talabalar bilan birgalikdagi guruh faoliyat davomida fanning mohiyati va mazmunini yoritishdan iborat bo'lishi lozim. Bunday ma'ruzalar mazmun-mohiyat jihatidan navigator hisoblanib, talabaga kelajakdagi faoliyatining rejasini ishlab chiqishga, mustaqil o'rganishi lozim bo'lgan masalalarni belgilab olishga imkon yaratadi. Shuningdek, talaba tomonidan mustaqil faoliyat chegarasi belgilab olinadi, shaxsiy va guruh mustaqil ishlar bo'yicha talabalar hamda topshiriqlar aniqlanadi. Ma'ruza-navigatorlar o'qitish siklining boshida, talaba mustaqil ishlashga o'tishdan oldin, har bir o'qitish fazasi boshida hamda fanni o'rganish davomida savol yoki muammolar yuzaga kelganda tashkil etilishi mumkin.

**2. Refleksiv ma'ruzalar.** Rivojlantiruvchi ta'lim modeli bo'yicha mini-ma'ruzaning ikkinchi vazifasi auditoriyadagi har bir talabani va butun guruhni mavzu bo'yicha mustaqil fikrlashini ta'minlash hamda olgan bilimlar rivojlanishining keyingi bosqichiga yo'naltirishdan iboratdir. Bunday ma'ruzalar refleksiv ma'ruzalar deb ataladi.

Refleksiv ma'ruzada pedagog guruhdagi har bir talabani bilim olish bo'yicha shaxsiy rivojlanish qobiliyatini hisobga olib, quyidagi ta'limiy vazifalarni yechishni rejalashtiradi:

- guruhdagi qiyin o'zlashtiruvchi ayrim talabalar faollashtirish va keyingi bosqichda birgalikda faoliyat yurtishga yo'naltirish;
- oldin o'zlashtirilgan mazmun va faoliyat turi bo'yicha muammolari savollarni tashlab, mavzu bo'yicha bilimni chuqurlashtirishga imkon yaratish;

➤ talabalar bilimini rivojlanish pog‘onalari bo‘yicha o‘shini ta‘minlash.

Bunday ma‘ruzada o‘qituvchi o‘rganiladigan mavzu bo‘yicha o‘z ruhiy olami, fikrlari hamda talabalar shaxsiy hamda guruhli faoliyati tahlili yuzasidan vujudga kelgan muammolarni umumiy muhokama mazmuni sifatida o‘rtaga tashlaydi va buning uchun faoliyat refleksiya qilishning quyidagi usullaridan foydalanishni tavsiya etadi:

- tahlil - o‘tgan faoliyatni qayta qurish;
- tanqidiy tahlil - qarama-qarshiliklarni aniqlash usuli sifatida;
- oldin foydalanilgan uslub, vositalar va muammoli savollarni keltirib chiqarishni yetarli emasligi;
- me‘yorlash - g‘oyalar va qarorlarni izlash asosi.

Bunday ma‘ruza janri o‘qituvchidan nutqda yuqori aniqlikdagi mantiq va mazmun bo‘lishini talab etadi. Ma‘ruzadagi notiqlik san‘ati har doim o‘tilgan mavzularga murojaat etish va talabani hamda guruhni keyingi o‘zlashtirish bosqichiga yo‘naltiruvchi savollarni o‘rtaga tashlash bilan belgilanadi. Masalan: “Oldin Siz ushbu mavzu bo‘yicha “.....” deb fikr bildirgandingiz va unda quyidagi muammolarga duch kelgandingiz, yoki A.Raximov muammo yechimi bo‘yicha quyidagi “.....” g‘oyani taklif etmoqda (an‘anaviy ma‘ruzada “Kecha biz “.....” mavzuni o‘tgan edik, bugungi mavzumiz “.....”, u o‘tgan mavzu bilan “.....” bilan bog‘liqdir” deb berilgan). Refleksiv ma‘ruzada har bir talabaning mavzu muhokamasi bo‘yicha shaxsan qatnashish samaradorligi ta‘minlanadi va u tashlagan fikr, g‘oya yoki muammoli savol muhokama qilib boriladi. Bunday ma‘ruzada pedagog har bir ishtirokchining hamda butun guruhning o‘zlashtirish darajasini qanday bosqichda ekanligini bilib boradi va uni ma‘ruzani o‘zlashtirish loyihasi traektoriyasi bo‘yicha rivojlanishini ta‘minlaydi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarining mustaqil ta‘limga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Talabalarining 80% dan ortig‘i onlayn resurslardan foydalanish jarayonida o‘z bilimlarini kengaytirganliklarini ta‘kidladilar. Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan o‘tkazilgan seminar va treninglar natijasida ta‘lim sifatida muhim ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Talabalarining o‘zlashtirish darajasi 25% ga oshdi. Olingan ma‘lumotlar diagrammalar va grafiklar yordamida tasvirlandi, bu esa natijalarni yanada ravshan ko‘rsatishga yordam berdi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari ta‘lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular talabalarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish imkonini beradi va qiziqishni oshiradi. Mustaqil ta‘lim jarayonida o‘qituvchilarning roli, talabalarining mustaqil ishlashlariga yordam berish va ularni yo‘naltirishda juda muhimdir. Tadqiqotning cheklovlari sifatida talabalar orasida axborot texnologiyalarini qo‘llashga tayyorgarlik darajasi va o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi ko‘rsatildi. Kelajakda bu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur.

**Xulosa va munozara.** Ushbu tadqiqot natijalari axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalar orqali informatika fanidan mustaqil ta‘limni tashkil etish jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mustaqil ta‘lim talabalarining o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari, masalan, interaktiv dasturlar va onlayn platformalar, talabalarga o‘z vaqtida va osonlik bilan ta‘lim resurslariga kirish imkoniyatini yaratadi, bu esa ularning qiziqishini va o‘rganish motivatsiyasini oshiradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta‘lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Aralash ta‘lim modeli, talabalarni hamkorlikda ishlashga va bir-biridan o‘rganishga undaydi, bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘qituvchilar o‘z talabalariga ko‘proq yordam bera olishlari uchun yangi pedagogik metodlardan foydalanishlari lozim.

Shuningdek, tadqiqotda ta‘kidlanganidek, axborot texnologiyalari va pedagogik metodlarni integratsiyalash ta‘lim sifatini oshirish va talabalarining bilim olish jarayonini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Mustaqil ta‘lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida ochiq muloqot va hamkorlik muhimdir.

Natijada, ushbu maqola informatika fanidan mustaqil ta‘limni tashkil etishda axborot va pedagogik texnologiyalarni birlashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Olingan bilimlar va tavsiyalar ta‘lim jarayonida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga, shuningdek, talabalarining mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajakda, bu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, ta‘limni yanada samarali qilish va yangi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish zarur.

#### Adabiyotlar:

1. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.

2. Salomon, G. (2000). Technology and Education: The Restructuring of Learning in the Digital Age. In G. Salomon (Ed.), *Learning in the Digital Age* (pp. 1-15). New York: Psychology Press.
3. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
4. Kafai, Y. B., & Resnick, M. (1996). Introduction: The Computer as a Medium for Creative Expression. In *Constructionism* (pp. 1-23). New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates.
5. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines*. John Wiley & Sons.
6. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
7. Hattie, J. (2009). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge.
8. Axmedov, I. (2017). Axborot texnologiyalari va ularning ta’limdagi o’rni. *Ta’lim va Innovatsion texnologiyalar*, 2(1), 45-50.
9. Rahimov, B. (2015). *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.
10. Djurayeva, D. (2019). Mustaqil ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. *O‘zbekiston pedagogik jurnal*, 3(4), 112-117.

## OLIV TA'LIMDA “STORYTELLING” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

*Turakulova Feruza Mamadaliyevna,  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Ushbu maqola “Storytelling” texnologiyasining ta'lim jarayonida talabalarni kreativ jarayonga jalb qilishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Hikoya qilish san'ati orqali talabalar o'z fikrlarini ifodalash, emotsiyalarini baham ko'rish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maqolada “Storytelling” usulining ta'lim jarayonidagi o'ziga xos jihatlari, talabalar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash va muammolarni kreativ tarzda hal etish qobiliyatlarini oshirishdagi ro'li ko'rib chiqiladi. Ushbu tahlil orqali, “Storytelling” texnologiyasi talabalarning o'zlarini ifodalash va o'zaro munosabatlarini rivojlantirishda qanday muhim vosita ekanligi haqida chuqurroq tushuncha hosil qilishadi. Hikoya qilish, ma'lumotlarni taqdim etishdan tashqari, insonlarning hissiyotlari va tajribalarini imkon yaratadi.*

**Kalit so'zlar:** *storytelling, ta'lim jarayoni, kreativ jarayonlar, ijodiy fikrlash, hikoya, vosita, talaba, tajriba, motivatsiya, o'zaro aloqa, empatiya, emotsional tajriba.*

## МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ «STORYTELLING» В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

*В данной статье анализируется значение технологии «storytelling» для вовлечения учащихся в творческий процесс в учебном процессе. Благодаря искусству рассказывания историй учащиеся имеют возможность выразить себя, поделиться своими эмоциями и развить навыки творческого мышления. В статье рассматриваются уникальные аспекты метода «storytelling» в образовательном процессе, его роль в укреплении взаимодействия с обучающимися и повышении их способности творчески решать задачи. Благодаря этому анализу они глубже понимают, как технология изложения историй является важным инструментом для учащихся, позволяющим им самовыражаться и развивать свои отношения. Изложение историй, помимо представления информации, даёт возможность передавать человеческие эмоции и переживания.*

**Ключевые слова:** *storytelling, учебный процесс, творческие процессы, творческое мышление, история, средство, ученик, опыт, мотивация, взаимодействие, сопереживание, эмоциональное переживание.*

## METHODS OF USING «STORYTELLING» TECHNOLOGY IN HIGHER EDUCATION

*This article analyzes the importance of "Storytelling" technology in involving students in the creative process in the educational process. Through the art of storytelling, students have the opportunity to express themselves, share their emotions, and develop creative thinking skills. The article examines the unique aspects of the "Storytelling" method in the educational process, its role in strengthening interaction with students and increasing their ability to creatively solve problems. Through this analysis, they develop a deeper understanding of how storytelling technology is an important tool for students to express themselves and develop their relationships. Storytelling, in addition to presenting information, enables human emotions and experiences.*

**Keywords:** *storytelling, educational process, creative processes, creative thinking, story, tool, student, experience, motivation, interaction, empathy, emotional experience.*

**Kirish.** Hozirgi kunda ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, talabalarni ijodiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalariga ham yo'naltirilmoqda. Shunday murakkab vaziyatlarda “Storytelling” – hikoya qilish san'ati, talabalarning kreativ jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda kuchli vositaga aylanadi. Hikoya qilish orqali nafaqat ma'lumotlar uzatiladi, balki emotsiyalar, qadriyatlar va tajribalar ham baham ko'riladi.

Ta'limda hikoya qilish- bu ma'ruzachi muhim narsalarga va voqealarga e'tibor qaratib, talabalarning diqqatini boshqara oladigan hissiy aloqalarni yaratishdir. Bu jarayonda talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda rag'batlantirishga qaratilgan o'qitish usuli deb hisoblasak bo'ladi. Bu usul talabalarni o'z fikrlarini yanada aniq va samimiy ifodalashga, ijodkorlikni rivojlantirishga va o'zaro aloqalarni

mustahkamlashga undaydi. Hikoya qilish texnologiyasi, ayniqsa, zamonaviy ta’lim tizimida ajralmas vosita sifatida qabul qilinadi. U talabalarni ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va analitik tafakkur ko’nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Har bir hikoya orqali odamlar yangi g’oyalarni o’rganish, o’z tajribalarini yangicha ko’z bilan ko’rish va o’zlarining fikrlarini shakllantirish imkoniyatiga ega. “Storytelling” yoki hikoya qilish texnologiyasi, o’zining tarixi davomida, insonlarning fikrlash tarzini va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o’ynagan. Hikoya qilish, nafaqat ma’lumotni etkazish, balki fikrlarni va his-tuyg’ularni birlashtirish imkonini beradi. Ushbu maqolada “Storytelling” texnologiyasining ijodiy fikrlash va qobiliyatlarini shakllantirishdagi ta’siri tahlil qilinadi. Hikoya qilish usullarining ta’lim jarayonida qanday qo’llanilishi, bu jarayonlar orqali qanday yangi g’oyalar va imkoniyatlar paydo bo’lishi mumkinligi va talabalarni kreativ jarayonga jalb qilishdagi o’ziga xos jihatlari haqida gapirib o’tamiz. Bu tadqiqotlar O’zbekistondagi pedagoglar va mutaxassislar tomonidan yuqori baholanib, amaliyotda qo’llanish imkoniyatlariga ega ekanligi namoyon etilgan.

Bundan tashqari, N.Rahmatullayeva, N.Qosimovalarning internet maqolalarida storytellingni ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda muvaffaqiyatli vosita sifatida e’tirof etadi. Ular storytelling usulini qo’llash o’quvchilarning tanqidiy fikrlash va yangicha yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilishini qayd etishgan. Ularning tadqiqotlari ijodiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishda texnikaning samaradorligini ko’rsatadi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda “Storytelling” texnikasining qo’llanilishi xorijlik olimlar tomonidan keng o’rganilgan va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ko’plab tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Storytelling’ning samaradorligi haqida ayniqsa AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliyada ko’plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu texnikaning talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko’rsatadigan ijobiy ta’siri xorijiy olimlar tomonidan puxta tahlil qilingan.

**Adabiyotlar tahlili.** AQSh olimi Kendall Haven storytelling usulining o’quvchilarni qiziqtirish va ularni yanada kreativ fikrlashga undashdagi kuchli ta’sirini o’z izlanishlarida ko’rsatib o’tgan. U o’z asarlarida storytelling texnikasi orqali ta’lim berish o’quvchilarning ongida mavzuga nisbatan chuqurroq tushuncha hosil qilishga imkoniyat yaratishini ta’kidlaydi. Havenning tadqiqotlari, ayniqsa, yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muvaffaqiyatli qo’llanilib, u o’quvchilarning hissiy va motivatsion jihatdan rag’batlantirishida ham samarali ekanini ko’rsatadi.

Kanadalik olim Jennifer Aaker ham storytelling’ni o’quvchilarni kreativ va ijodiy fikrlashga jalb etish vositasi sifatida o’rganib chiqqan. Uning tadqiqotlari asosida storytelling texnikasining ta’lim jarayonida mavzuni chuqurroq tushunish va ijodiy yondashuvni shakllantirishda samaradorligi tasdiqlangan. Aaker bu texnikani o’quvchilarda empatiya, muloqot va hissiy bog’lanishni rivojlantirishda kuchli ta’sirga ega deb hisoblaydi, bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada professor Carol S. Pearson va Avstraliyada professor Kate Heffernan storytelling texnikasining turli yoshdagi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o’rganishgan. Pearson storytellingning o’quvchilarda o’ziga xoslikni shakllantirish, o’z fikrlarini ifodalash va ijodiy qarorlar qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ko’rsatib bergan. Heffernan esa storytelling usulini ta’limda qo’llash orqali o’quvchilarning tanqidiy fikrlash, yangi fikrlarni ishlab chiqish va o’z g’oyalarni ochiq ifodalash qobiliyatlarini oshirishini ta’kidlagan.

Ta’lim jarayonida “Storytelling” texnologiyasining qo’llanilishi haqidagi tadqiqotlar keng ko’lamda olib borilgan. Birinchi navbatda, Egan (1988) o’zining “The Educated Mind” asarida hikoya qilishning ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. U hikoyalar orqali o’quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning emotsional tajribasini kengaytirish mumkinligini ko’rsatadi.

Bundan tashqari, Bruner (1996) «The Culture of Education» asarida hikoya qilishning kognitiv jarayonlarga ta’sirini o’rganadi. U hikoya qilishning o’quvchilarga yangi g’oyalarni o’zlashtirishda va o’zaro aloqalarni mustahkamlashda qanday yordam berishini tahlil qiladi. Bruner fikricha, hikoyalar inson fikrini shakllantiruvchi muhim vosita bo’lib, o’quvchilarni yaratishga va fikrlarini ifodalashga undaydi.

Gergen va McNamee (2000) o’zlarining “Social Construction and the Politics of Identity” asarida hikoya orqali shaxsiy va ijtimoiy identitini yaratish jarayonini o’rganadilar. Ular, hikoya qilish ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va shaxsiy tajribalarni baham ko’rish orqali talabalarning o’zini anglashiga yordam berishini ko’rsatadilar.

Bundan tashqari, Xu (2012) o’zining tadqiqotida «storytelling» usulining talabalar orasida hamkorlikni rivojlantirishdagi o’rnini tahlil qiladi. U hikoyalar talabalarning bir-birini yaxshiroq tushunishlariga, o’zaro munosabatlarini mustahkamlashga va ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga yordam berishini ta’kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Bu olimlarning tadqiqotlari shuni ko’rsatmoqdaki, storytelling texnikasi ta’limda samarali va ijodiy yondashuvlar shakllantirishda kuchli vosita bo’lib, o’quvchilarni o’zini anglash va o’z g’oyalarni rivojlantirishga yordam beradigan vosita sifatida tan olingan. Xorijiy tajriba shuni ko’rsatadiki,



storytelling texnikasi pedagogik metodika sifatida foydalanilganda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi va u o‘zbek ta‘lim tizimi uchun ham o‘rganishga arziydigan yondashuv hisoblanadi. “Storytelling” texnologiyasining ta‘lim jarayonida qanday muhim rol o‘ynashini va talabalarning kreativ jarayonlarga jalb qilinishidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot usuli.** Ushbu tadqiqot jarayonida olingan ma‘lumotlar «Storytelling» texnologiyasining ta‘lim jarayonida talabalarni kreativ jarayonlarga jalb qilishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Tahlil natijalari quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

**1. Ijodiy fikrlash rivoji:** O‘rganilgan talabalar orasida hikoya qilish metodologiyasi orqali ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Talabalar o‘z tajribalarini hikoya qilishda, yangicha g‘oyalarni ishlab chiqishda va muammolarni kreativ tarzda hal qilishda faol qatnashdilar.

**2. Motivatsiya va qiziqish:** Anketalar natijalariga ko‘ra, “Storytelling” usuli yordamida darslarga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya ancha oshgani ma‘lum bo‘ldi. Talabalar dars jarayonida o‘zlarini erkin his qilishlari, fikrlarini ifodalashlari va o‘zaro aloqalarini kuchaytirishlari natijasida ta‘limga bo‘lgan qiziqishlari ortdi.

**3. O‘zaro aloqalar:** Intervyular davomida talabalar o‘rtasida hikoya qilish jarayonida o‘zaro aloqalarining mustahkamlanganligi haqida ijobiy fikrlar bildirdilar. Talabalar bir-birlarini yaxshiroq tushunishga, empatiya qilishga va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berganini ta‘kidladilar.

**4. Emotsional tajribalar:** Hikoya qilish jarayoni talabalarda emotsional tajribalarni keltirib chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Ular o‘z hikoyalari orqali shaxsiy tajribalarini baham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayon ularning o‘zini anglashlariga va boshqalar bilan aloqalarini kuchaytirishga yordam berdi.

**5. Kreativ jarayonlar:** Tadqiqot davomida ko‘plab talabalar hikoya qilish jarayonida o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish uchun yangi g‘oyalarni yaratishga va yangiliklarga ochiq bo‘lishga intildilar. Bu, o‘z navbatida, ta‘lim jarayonida yangicha yondashuvlarni keltirib chiqardi.

**Natijalar.** Ushbu natijalar “Storytelling” texnologiyasining talabalarning kreativ jarayonlarga jalb qilinishidagi samaradorligini va ta‘limda ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ushbu maqola “Storytelling” texnologiyasining ta‘lim jarayonida talabalarni kreativ jarayonlarga jalb qilishdagi ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hikoya qilish usuli talabalarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘zaro aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Talabalar o‘z hikoyalarni yaratish jarayonida emotsional tajribalarini baham ko‘rish, yangicha g‘oyalarni ishlab chiqish va muammolarni kreativ tarzda hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Buning natijasida, ta‘lim jarayonida qiziqish va motivatsiya ortdi, shuningdek, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirdi.

Pedagogika yo‘nalishi talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda storytelling texnikasining ilmiy asoslarini aniqlash. Bu maqsadning amalga oshirilishi uchun storytellingning pedagogik va psixologik jihatlari o‘rganiladi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qo‘shadigan hissasi tahlil qilinadi.

Storytelling texnikasini ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish usuli sifatida nazariy jihatdan asoslash. Bu maqsadda storytelling texnikasining o‘ziga xos xususiyatlari va uni pedagogik jarayonga tatbiq etish imkoniyatlari o‘rganiladi.

O‘zbekistonda pedagogika yo‘nalishidagi talabalarga storytelling texnikasini qo‘llash orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish usullarini ishlab chiqish. Ushbu maqsad orqali storytelling texnikasining o‘zbek ta‘lim tizimiga moslashtirilgan modelini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Storytelling texnikasining pedagogik asoslarini o‘rganish va uning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish. Bu vazifani bajarishda storytelling haqida nazariy bilimlar va tadqiqotlar tahlil qilinadi, uning ijodiy tafakkurga ko‘rsatadigan ta‘siri o‘rganiladi.

Xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish orqali storytelling texnikasini pedagogik jarayonga tatbiq etish metodikasini ishlab chiqish. Bu vazifa yordamida boshqa davlatlardagi storytelling texnikasining qo‘llanish tajribasi va O‘zbekiston sharoitida uni qo‘llash imkoniyatlari o‘rganiladi.

Storytelling texnikasining samaradorligini tajribaviy sinovdan o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish: Bu vazifada storytelling texnikasini qo‘llash natijasida talabalar ijodiy qobiliyatlari qanchalik rivojlanganini amaliy sinovlar yordamida baholash ko‘zda tutiladi.

**Xulosa.** “Storytelling” texnologiyasining ta‘limda qo‘llanilishi nafaqat bilim berish, balki talabalarning shaxsiy va ijodiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot, kelajakda “Storytelling” texnologiyasini yanada kengaytirish va ta‘lim jarayonida qo‘llash uchun yangi yondashuvlar va usullarni izlash zarurligini ta‘kidlaydi.

Hikoya qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, talabalarda boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va baham ko‘rish qobiliyati orqali muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Hikoya qilish texnologiyasining ta’lim jarayonida qanchalik muhimligini va talabalarning kreativ jarayonlarga jalb qilinishidagi o’rnini ko’rsatadi. Kelgusida, ushbu metodologiyani qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish orqali ta’lim sifatini yanada oshirish mumkin. Umuman olganda, “Storytelling” texnologiyasi shaxsiy va akademik rivojlanishda muhim vosita sifatida qabul qilinishi kerak. Bu jarayon, yosh avlodning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur ko’nikmalarni shakllantiradi va ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Shuning uchun, ta’lim jarayonida hikoya qilish usullarini kengaytirish va ularni samarali ravishda qo’llash, ta’lim beruvchilar va ta’lim tizimlari uchun muhim vazifa bo’lib qoladi.

**Adabiyotlar:**

1. Kieran Egan. *The Educated Mind*. University of Chicago Press. – 1997. 288 p.
2. Kieran Egan, Kennet J. G. *The Culture of Education*. Harvard University Press. –1997.208 p.
3. Kenneth J. Gergen, Mary M. McNamee. *Social Construction and the Politics of Identity*. SAGE Publications. – 2000. 35p.
4. Jennu Leach, Bod Moon. *Learners & pedagogu*. –London, 1999. – P. 281.
5. John A. Johnson “Wrong and right questions about persons and situations” / *Journal of Research in Personality* 43 (2009) 251–252
6. Jon Kexo G’ayriixtiyoriy ong mo’jizalari “Davr Press” HMY, 2021. – 175 b.

## THE ROLE OF LOGICAL QUALITY ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF THINKING SKILLS IN PRACTICAL TRAINING IN PHYSICS

*Sattorova Aziza Makhmudjonovna,*

*Teacher of the "Physics and Astronomy" department, Navoi State University  
azizasattorova1991@gmail.com*

*In this article, the role of logical thinking in enhancing the practical knowledge of the students of higher educational institutes are described. A description of types of physical problems and their solutions, quality issues and their benefits in educating students of higher education institutes are described in detail. The relevance and benefits of logical thinking in solving problems in Physics are discussed. The best practices for solving physics problems, general understanding of the problems, types of physical problems, educational problems, their structure and characteristics, the main stages of solving problems, methods of interdisciplinary communication in the process of solving physical problems are also described. An algorithmic method of solving physical problems, analysis of problem conditions, drawing up a plan, understanding of the importance of solving problems in teaching physics is developed and are discussed in detail.*

**Key words:** *teaching physics, task, method, interdisciplinary communication, problem, analysis.*

### FIZIKADAN AMALIY MASHG`ULOTLARIDA FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MANTIQUIY SIFAT MASALALARNING O`RNI

*Ushbu maqolada fizik masalalarning turlari, ularni hal qilish usullari. Sifat masalalari va ularning talabalarga bilim berishdagi afzalliklari haqida yozilgan. Mantiqiy fikrlashning dolzarbligi va afzalliklari haqida yozilgan. Fanning vazifasi fizika masalalarini yechish metodikasi, masalalar haqida umumiy tushuncha, fizikaviy masalalarning turlari, ta'lim masalalari, ularning tuzilishi va xususiyatlari, masalalar yechishning asosiy bosqichlari, fizik masalalarni yechish jarayonida fanlararo aloqa usullari; Fizikaviy masalalarni yechishning algoritmik usuli, ijodiy masalalar va ularni yechish usullari, masala sharoitlarini tahlil qilish, masalalar yechish rejasini tuzish, fizika o'qitishda masalalar yechishning ahamiyati haqida tushuncha berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *fizika o'qitish, vazifa, metod, fanlararo aloqa, masala, tahlil.*

### РОЛЬ ЗАДАЧ ЛОГИЧЕСКОГО СВОЙСТВА В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ МЫШЛЕНИЯ НА ПРАКТИЧЕСКИХ УРОКАХ ФИЗИКИ

*В статье рассматриваются типы задач по физике и методы их решения. В ней говорится о вопросах качества и их преимуществах в передаче знаний студентам. В ней говорится о значимости и пользе логического мышления. Задачей дисциплины является рассмотрение методики решения задач по физике, общее представление о задачах, типах физических задач, учебных задачах, их структуре и свойствах, основных этапах решения задач, способах межпредметной связи в процессе решения. физические проблемы. Раскрывается представление об алгоритмическом методе решения задач по физике, творческих задачах и методах их решения, анализе условий задачи, составлении плана решения задачи, значении решения задач в обучении физике.*

**Ключевые слова:** *обучение физике, задача, метод, межпредметная связь, проблема, анализ.*

**Introduction.** The science of physics helps us to understand the world around us, along with the whole technology how it works. Physics helps us to study the phenomena occurring in the universe. It deals with foundations and helps to see the connection between dissimilar phenomena. The subject of Physics contained many topics related to such problems as expressing creativity, seeing the world in a new way. Teaching Physics is not similar as other subjects. In the methodology of teaching Physics, the teacher has to follow a different approach where special attention should be focused on types of physical issues, method of solving, organization of problem-solving sessions, educational significance of problem solving, and when taking classes, special attention should be paid to the methodology of solving issues.

It is necessary that the future physics teacher, in addition to having theoretical knowledge, has a thorough mastery of the teaching methodology for solving issues. The inductive teaching methodology is

applicable over the students where the teacher will give specific directions to the student in learning the original concepts of Physics. Physics provides the quantitative and analytical skills necessary to analyze information and solve problems in science, engineering and medicine, as well as in Economics, Finance, Management, Law and public policy.

Since its time as a physical science, the science's database has grown to a large size, and it is getting huge year by year at high speeds. For this reason, in the teaching-process of physics, it is necessary to select only the necessary information and bring the data volume to a quantitative size in accordance with the student's mastering abilities. In a class room, different students will possess different skills. But the role of physics teacher is to find the various skills in the students and has to motivate the students towards the skills that are essential to analyze the subject. There are so many issues related to the learning process of Physics subject among which, the problem-solving ability occupies the first position.

**Main part.** The task of science is the method of solving issues from physics, general concepts about issues, types of physical issues, educational issues, their structure and characteristics. The main stages of solving the issues are; the methods of implementing interdisciplinary communication in the process of solving physical issues; the description of the algorithmic method of solving physical issues, creative issues and methods of solving them; analysis of the condition of the issue; drawing up a problem solving plan; the importance of solving a problem in teaching physics; the methodology for conducting control work; their goals and objectives; Olympic issues and finally the use of modern pedagogical technology tools and methods of innovative technology in solving issues. As you know, there are theoretical and practical methods in teaching physics. Within practical methods, the importance of solving problems from physics is salient. In the process of solving the issue, the development of educational abilities, upbringing, as well as the provision of knowledge to the student are crucial.

Knowledge of the methods of solving problems from physics gives students the opportunity to easily solve the given issue and thus gain a wider understanding of theoretical information. It can be said that physics can be studied through theoretical and practical research. In solving problems in physics, students reach the state of the given magnitudes, their unity in the international system of units and the connection of these given magnitudes with the oblique units. On this basis, students have the peculiarities of careful attention, attention to each phenomenon up to its small elements.[1] an issue is a question whose answer is not immediately apparent. For a reader who knows the methods of solving the problem, it does not get stuck in this problem. Problem solving is an integral part of physics, which requires a more active approach than reading theory and listening to lectures. Students can only gain knowledge by studying physics in theory, but it is imperative to solve the problem and know its methods in order to solve the opposite physical issue. [2]

A task is a type of question whose answer is not immediately visible, and solving the problem and finding its answer will not be a problem for a student who knows the methods of solving problems. Problem solving is considered a major part of physics, and the student can further strengthen his knowledge by doing so. However, it should be noted that depending on the type of problem, a special approach is required to solve the problem (1)

Below is a review of what should be considered more when solving the issue:

- ✓ Determination of equations related to the issue. There can be different ways to solve the problem, so grouping by the type of solution that is relevant;
- ✓ Draw a picture to form a concept;
- ✓ Mathematically inducing non-integers from a defined equation, converting units into units that correspond to each other;
- ✓ Output by putting known values and units in the resulting equation;
- ✓ Mathematical calculation.

For example, "The number of gas molecules decreases exponentially as the height increases in the gravitational field of the Earth" - does the answer correspond to this theory? Make sure the final answer is correct and has the correct units. Making sure the original question in the issue is answered.

According to the methods of solving, physical problems can be divided into qualitative (verbal), quantitative calculation, graphical and experimental problems. Usually, such division of issues is conditional. After reading the condition of the given problem, it is determined to which type it belongs and the work is done accordingly.

At this point, a reasonable question arises, when choosing issues, it is better to choose the issue in which method. For example: to solve experimental problems, verbal reasoning is also carried out and, of course, appropriate computational work is carried out, graphs belonging to the issue are used appropriately. It can be seen that the order and method of solving problems will also vary depending on which type they belong to. The basic requirements for student students when solving issues during a lesson in physics can be

explained as follows. This requires a certain sequence to be followed when solving issues. We will dwell on quality issues and the methods used to solve them.

Qualitative issues-one of the most effective methods that develop logical thinking in students in physics lessons, of course, the solution of logical, enigmatic issues. The application of more qualitative issues, especially in matters given to the house, makes them more interested. Because at home, they try to find the answer to these issues, asking adults. And the task of teachers increases the interest of students in science and establishes cooperation with the parent, does not allow a gap in upbringing to remain. When quality finds answers to issues, its interest in physics increases again let's consider the following quality issues

For example, question 1: On the plane, the eleven-toothed wheel is so arranged that the first gear wheel is toothed with the second gear wheel, the second with the third, etc. The last eleventh gear wheel was bitten by the first. Is the wheel in such a system spinning?

Answer: Thinking logically in solving this issue, the state of the wheels is imagined, and in its place an attempt is made to reveal the essence of the issue. If the first wheel rotates clockwise, then any wheel with an odd number of digits rotates clockwise, while wheels with an even number of digits rotate counterclockwise. So that both the first wheel and the eleventh wheel should turn to one side. So, in such a system, the wheel does not spin.

Question 2: It is almost universally known that it is difficult to climb high-rise buildings with the help of a staircase to the upper floors. Why?

Answer: When we walk on a flat road, we use muscle power to overcome friction and air resistance. When climbing high-rise buildings, we have to overcome not only these forces, but also a part of our own weight.

In solving these problems, it is necessary to work step by step based on the principle of consistency.

Question 3: Candle in Space. Are candles lit on a spaceship? If not, what should be done to turn it on?

Answer: There is no air exchange in the spacecraft. Therefore, the candle does not burn. It needs oxygen to burn. The oxygen inside the ship burns out immediately and cannot be replaced. Air must circulate to keep the candle burning.

Question 4: Measurable quantities What has no depth, width, or height but can be measured?

Answer: Time and temperature have no depth, width, or height but can be measured.

Question 5: Length of day. When is the day shorter, in winter or summer?

Answer: A day is always 24 hours long.

Question 6: When does the water in a kettle cool down the fastest? When the ice is under the kettle or when it is on top?

Answer: When it is placed on top, because a layer of cold-water forms around the ice. The water in this layer is heavy. Therefore, it sinks down and convection occurs.

Question 7: What can't be hidden in a safe?

Answer: A ray of light.

Question 8: We have seen books and movies about the "invisible man". But in reality, it is not possible. If we can create an invisible person, when will the person standing in the room become invisible.

Answer: Human body

Question 9 : When the index of light is equal to the index of refraction?

Answer: Water in a glass.

Try this experiment: Fill a clean glass with water and argue with your students that there is still a lot of space in the glass. Of course, they will not believe you, but you carefully drop coins into the glass one by one, without touching the water. And the water does not spill out of the glass, you will prove that there is still space! Why is this so?

Answer. If you look at the glass from the side, you will see how its surface swells with the bottom when you drop the coins: the water does not spill out, because it is held by the force of surface tension.

A formula is not required to solve these and similar issues. To solve this, it is necessary to think logically, and this, in turn, develops students thinking.

The specific strategy for solving a logical problem can be summarized in the following five stages:

1. Focusing on and understanding the essence of the problem.
2. Describing the interconnections and relationships between the physical laws that constitute the essence of the problem.
3. Planning the solution.
4. Implementing the plan.
5. Interpreting and evaluating the solution.

The knowledge and thinking processes used in each stage depend on the student’s discipline.

These interactive methods will be the main factor shaping the practical skills of students. We can divide these techniques into the following groups:

1. According to the didactic (educational, educative, developmental) goals of training
2. According to the individual – psychological (age, intellectual potential, levels of assimilation) characteristics of the learners
3. According to the content and logic of the educational material
4. As a learning process management tool
5. According to the professional and work experience of the educator

The pedagogical capabilities of quality issues include: “work with text”, “solving problems and problem situations in the educational process”, “development of creative activity and logical thinking”, “assessment of knowledge, skills and competencies and self - assessment” and the formation of such “educational-cognitive” activities.

**Conclusion.** It can be said that in the current period, society is needed not only by young people with high theoretical knowledge, but also by creative young people who deeply perceive natural events, solve life issues, are interested in modern technologies and discoveries. Therefore, the organization of modern physics lessons using knowledge, skills and conditions correctly, improving the creative abilities of students is one of the main tasks of physics teachers. Thus, the organization of physics lessons corresponding to the demand of the times with the correct use of existing conditions and, in this way, the formation of the creative abilities of those who receive education as one of the current urgent requirements. This is due to the fact that in the current period, society needs not only educated young people, but young people who can apply the knowledge gained in life, correctly solve life problems, perceive modern techniques.

#### References:

1. N.P.Toshmurodov “Fizikada masalalarning yechilish usuliga ko`ra tasniflanishi molekulyar fizika misolida” // Science and education, March 2024.
2. Leoned A. Bulavin, Alexander V. Chayli. “Modern problems of Molecular physics”. Selected Reviews from the 7th International Conferense “Physics of Liquid Matter: Modern Problems”. Kyiv Ukraine, May 27-31, 2016.
3. D. A. Garanin. Introductory physics: Problems solving. 27- november 2023.
4. Sattorova Aziza Makhmudjonovna Methods of Improvement and Implementation of the Educational Purpose in the Lessons of Physics // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 7, Issue 11 , 30 th November 2020.
5. Sattorov Ahliddin Rizokulovich, Hamroyeva Sevara Nasriddinovna, Sattorova Aziza Makhmudjonovna Кун физикасы тақырыбын оқытуды жақсарту “Izdenis joly”, Республикалық ғылыми, ақпараттық-танымдық журналы. № 107(26) 2021 жыл.

## RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM

### OLIV TA'LIMDA ANIQ FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION VA AXBOROT TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

*Arabbayev Arobidin Xusnidinovich,*  
Andijon davlat universiteti Informatika kafedrasida katta o'qituvchisi  
arobijon@mail.ru

*Innovatsion va axborot ta'lim texnologiyalari, bugungi kunda ta'lim sohasida ahamiyatli bir bo'limni tashkil etadi. Bu texnologiyalar, o'qituvchilar va talabalarning ta'lim va o'qish jarayonlarini kuchaytirish, murabbiylikni yanada tashkil etish, va talabalarning ma'lumotlarni o'rganish va tushunishini oshirish uchun ishlab chiqilgan. Bu texnologiyalar ichiga virtual o'qitish platformalari, interaktiv darsliklar, o'qituvchilar uchun tahlil va monitoring vositalari, onlayn ma'lumotlar bazalari, yangi o'quv dasturlari yaratish vositalari va boshqalar kiritiladi.*

**Kalit so'zlar:** virtual, platforma, interaktiv, innovatsiya, online ta'lim, axborot ta'lim texnologiyalari, kommunikatsiya.

### ИННОВАЦИОННЫЕ И ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ТОЧНЫХ НАУК В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Инновационные и информационные образовательные технологии сегодня составляют важное направление в сфере образования. Эти технологии предназначены для улучшения процессов преподавания и обучения преподавателей и учащихся, дальнейшей организации обучения, а также улучшения обучения учащихся и понимания информации. Эти технологии включают виртуальные учебные платформы, интерактивные учебники, инструменты анализа и мониторинга для учителей, онлайн-базы данных, инструменты для создания новых учебных программ и многое другое.*

**Ключевые слова:** виртуальный, платформа, интерактивный, инновации, онлайн-образование, информационные образовательные технологии, коммуникация.

### INNOVATION AND INFORMATION EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING EXACT SCIENCES IN HIGHER EDUCATION

*Innovative and informational educational technologies constitute an important department in the field of education today. These technologies are designed to enhance the teaching and learning processes of teachers and students, to further organize instruction, and to enhance student learning and understanding of information. These technologies include virtual learning platforms, interactive textbooks, analysis and monitoring tools for teachers, online databases, tools for creating new curricula, and more.*

**Keywords:** virtual, platform, interactive, innovation, online education, information and educational technologies, communication

**Kirish.** Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim sohasiga kirib kelganidan buyon, aniq fanlarni o'qitish jarayoni sezilarli darajada o'zgargan. Bu texnologiyalar o'qitish metodikasini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi, shu bilan birga, talabalar uchun o'quv jarayonini yanada qiziqarli va foydali qiladi.

Innovatsion va axborot ta'lim texnologiyalari dunyoning ta'lim sohasida ko'p o'rin egallagan muhim bir bo'limdir. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini osonlashtirish, o'quvchilarning tushunchalarini mustahkamlash, ma'lumotlarni osonlik bilan olish, hamda o'qituvchilar uchun yangi o'qitish usullarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orasida quyidagilar keng qo'llanilmoqda:

- **Interaktiv ta'lim platformalari:** Bu platformalar o'qituvchi va talabalar o'rtasida bevosita aloqani ta'minlaydi, onlayn darslar va videokonferensiyalarni tashkil etishga imkon beradi.

- **Simulyatsiyalar va Virtual laboratoriyalar:** Aniq fanlarni o'qitishda maxsus dasturlar yordamida simulyatsiyalarni yaratish mumkin. Masalan, kimyo yoki fizika laboratoriyalari virtual shaklda talabalarga taklif qilinadi, bu esa amaliyotga nisbatan xavfsiz va samarali muhit yaratadi.

- **Matematika va Fizika uchun dasturiy ta'minot:** Aniq fanlarni o'rganishda Mathematica, MATLAB va GeoGebra kabi dasturlar talabalarga murakkab masalalarni yechishda yordam beradi.

Axborot texnologiyalari o‘qitish jarayonini yanada interaktiv qilish imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi, o‘qitish usullarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Xususan, quyidagi texnologiyalar yordamida aniq fanlarni samarali o‘qitish mumkin:

**1. Interaktiv ta’lim vositalari**

- **Ekranlar va proyektorlar** orqali darslarda vizual materiallar va diagrammalarni ko‘rsatish.
- **Virtual laboratoriyalar** yordamida amaliy tajribalarni kompyuterda o‘tkazish.
- **Simulyatorlar** orqali murakkab jarayonlar va tizimlarni o‘rgatish.

**2. Dijital resurslar va manbalar**

Aniq fanlarni o‘qitishda turli xil onlayn resurslar va platformalardan foydalanish o‘qituvchilarga darslarni samarali o‘tkazishga yordam beradi:

- **Matematika va fizika simulyatsiyalari:** Aniq fanlar uchun maxsus dasturlar (Masalan: GeoGebra, PhET) talabalarga tushunishni osonlashtiradi. Axborot texnologiyalarining yordamida ilmiy tajribalar va modellarni simulyatsiya qilish mumkin. Masalan, fizika yoki kimyo bo‘yicha laboratoriya ishlarini virtual ravishda o‘tkazish, tajriba natijalarini tezda tahlil qilish va tushunishni osonlashtiradi.

- **Video materiallar va onlayn darslar:** Khan Academy, Coursera, va YouTube kabi platformalarda mavjud darslar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Khan Academy – bu onlayn ta’lim platformasi bo‘lib, u dunyoning turli burchaklarida talabalarga bepul darslar va o‘quv materiallari taklif etadi. Agar siz Khan Academy orqali dars o‘tkazmoqchi bo‘lsangiz, quyidagi amallarni bajarishingiz mumkin:

✓ **Khan Academy hisobini yaratish:**

Khan Academy platformasiga kirib, hisob yaratishingiz kerak. Hisob yaratganingizdan so‘ng, siz darslarni o‘qituvchi sifatida yaratish va boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

✓ **Darslar yaratish va tashkil etish:**

Khan Academy o‘qituvchilar uchun turli xil o‘quv materiallarini yaratish va boshqarish imkoniyatini beradi. Bunda siz o‘z darslaringizni yoki mavjud materiallarni tanlab, talabalar uchun maxsus yo‘riqnomalar yoki mashqlar yaratishingiz mumkin.

✓ **Talabalar bilan ishlash:**

Darslarni talabalarga yuborish yoki ularga interaktiv tarzda yordam ko‘rsatish imkoniyatiga egasiz. Har bir talabani shaxsiy tarzda kuzatib borish mumkin, ularning o‘rganish jarayonini tahlil qilish va kerakli qo‘llab-quvvatlashni taqdim etish mumkin.

✓ **Videolar va interaktiv mashqlar:**

Khan Academy video darslari va interaktiv mashqlarni taklif etadi. Siz o‘zingizning o‘quvchilar uchun qo‘shimcha materiallar yaratishingiz, shu bilan birga, mavzularni o‘rgatishda bu materiallardan foydalanishingiz mumkin.

Coursera - bu dunyodagi eng yaxshi universitetlar va tashkilotlar bilan hamkorlikda kurslar, sertifikatlar va daraja dasturlarini taklif qiluvchi onlayn o‘quv platformasi. U san’at va gumanitar fanlardan texnologiya, biznes va fangacha bo‘lgan keng doiradagi fanlarni taqdim etadi.

Coursera-ning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

**Kurslar:** Bular ko‘pincha auditdan o‘tish uchun bepul, tugagandan so‘ng ixtiyoriy pullik sertifikatlar bilan.

**Mutaxassisliklar:** Muayyan sohada tajribani chuqurlashtirishga mo‘ljallangan tegishli kurslar turkumi.

**Kasbiy sertifikatlar:** Bular sohada tan olingan hisob ma’lumotlari bo‘lib, o‘quvchilarga ishga tayyor ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Degree Programs:** Coursera universitetlar bilan hamkorlikda to‘liq onlayn bakalavr va magistrlik dasturlarini taklif etadi.

**O‘quv rejimlari:** o‘z-o‘zidan ishlab chiqilgan, videoma’ruzalar, viktorinalar, ko‘rib chiqiladigan topshiriqlar va muhokama forumlari.

Coursera o‘quvchilar tomonidan o‘z malakalarini oshirish, sertifikatlar olish yoki yuqori darajalarni olish uchun keng qo‘llaniladi va u ko‘pincha faol o‘rganishni rivojlantirish uchun video kontent, amaliy mashqlar va baholashlarni o‘z ichiga oladi.

**3. Onlayn platformalar va kollaboratsiya**

- **Google Classroom va Moodle** kabi platformalarda darslar, topshiriqlar va baholashlar uchun resurslar yaratish mumkin.

- **Forumlar va chatlar** orqali talabalarning fikrlarini va savollarini tezda muhokama qilish, jamoaviy ishlashni rag‘batlantirish.

**4. Ma’lumotlar bazalari va bulutli texnologiyalar**



Axborot texnologiyalari yordamida o‘qituvchi va talaba ma’lumotlarni saqlash, tahlil qilish va ulashish uchun bulutli platformalardan (masalan, Google Drive, OneDrive) foydalanishi mumkin. Bu talabalar uchun materiallarni oson topish va ulashish imkoniyatini yaratadi.

### **5. Artificial Intelligence (AI) va mashina o‘rganish**

Aniq fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalari yordamida talabalarning o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirish mumkin. Masalan:

- **Adaptive learning platforms:** Bu platformalar talabani bilim darajasiga mos ravishda o‘quv materiallarini taqdim etadi.
- **Tahlil va baholash vositalari:** AI yordamida talabalar uchun testlar va baholarni avtomatik tarzda baholash va natijalarni ko‘rsatish.

### **6. Gamifikatsiya**

Gamifikatsiya o‘qitish jarayoniga o‘yinni kiritish orqali talabalarni jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish uchun ishlatiladi. Bu metod, ayniqsa, matematik va ilmiy mavzularni o‘rgatishda samarali bo‘lishi mumkin.

Ushbu texnologiyalarning qo‘llanishi, aniq fanlarni o‘qitishda talabalarning qiziqishini oshirish, ta’limni samarali qilish va o‘quv jarayonini yanada interaktiv qilish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotchilar «axborot kommunikatsion texnologiyalar faol o‘rganish, fikrlar almashish, muhkooma qilish va o‘z vaqtida o‘qituvchi bilan aloqa bog‘lash imkoniyatini yaratadi.» [1] Innovatsion va axborot ta’lim texnologiyalari, ta’limning yangi yo‘nalishlari va texnologik imkoniyatlarini integratsiya qilishda ishlatiladigan texnologik vositalar va usullar bo‘yicha o‘qitishning o‘zgaruvchan yutuqlari va tajribalarini anglatadi. Bu, o‘qituvchilar va o‘quv jarayoni bo‘ylab ma’lumotlarni yashirish, ishonchli muloqotlar o‘rganish, ijodiy yondashuv va muammolarni yechish uchun usullar kabi innovatsion texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu texnologiyalar, masalan, onlayn platformalar, interaktiv darsliklar, virtual o‘quv muhitlari, kollaborativ yondashuv vositalari, ishlab chiqarish usullari (masalan, 3D printerlar), va boshqalar bo‘lishi mumkin.

**Muhokama va natija.** An’anaviy ta’lim usullari bilan solishtirganda, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish aniq fanlarni o‘qitishda o‘zgarishlar kiritmoqda. Ularning yordamida ta’lim jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli qilish mumkin. O‘qituvchilar va talabalar bu texnologiyalarni o‘z faoliyatlarida qo‘llab, ilmiy va amaliy muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin.

Axborot texnologiyalari, shuningdek, ma’lumotlar bazalari, internet, multimedia asboblari, interaktiv monitorlar, mobil ilovalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ular talabalarga yangi ma’lumotlarni osonlik bilan olish, ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish, ta’lim sifatini nazorat qilish, dastlabki ta’limning yanada ilg‘orlashganini ta’minlash va boshqalar uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratish uchun qo‘llaniladi. Bular talabalar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari uchun samarali bo‘lishining yanada yaxshi usullarini taqdim etishga yordam beradi va talabalarning o‘zlarini o‘rganish va rivojlanish jarayonida innovatsiyalarga rahbarlik qiladi.

Innovatsion va axborot ta’lim texnologiyalari dunyoning ta’lim sohasida katta o‘zgarishlar keltirib chiqarayotgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Jamiyatning barcha sohalari qatori ta’lim sohasiga ham informatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. [2] Chunki taraqqiyot jarayoni butun jamiyatni qamrab oladi va ta’lim sohasida ham yangi texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar, o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘rganishni osonroq, qiziqarliroq va samaraliroq qilishda yordam beradi. Bugungi kunda quyidagi muhim innovatsion va axborot ta’lim texnologiyalari mavjud:

**Web-platformalar va online ta’lim yo‘nalishlari:** O‘quvchilar uchun onlayn darslar, ma’ruzalar va maslahatlar taklif etiladi. Bu platformalar YouTube, Khan Academy, va boshqalar kabi veb-saytlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Virtual ta’lim o‘lchash va 3D ta’lim vositalari:** Virtual ta’lim o‘lchash tizimlari va 3D ta’lim vositalari o‘quvchilarga o‘rganish jarayonida immersiv tajribani taqdim etish uchun foydalaniladi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga ko‘rib chiqish, o‘rganish va mustaqil ish yuritish imkoniyatlarini beradi.

**Mobil ilovalar va interaktiv darslar:** O‘quvchilar uchun mobil ilovalar va interaktiv darslar o‘quv-materiallariga osonlik bilan kirish imkonini beradi. Bu ilovalar yoshlar uchun madaniy o‘yinlar, dasturlash darslari, matematika va fanlarni o‘rganishga yordam beradi.

**Muhitni yaxshilash vositalari:** Muhitni yaxshilash vositalari o‘quvchilarga ta’lim jarayonida qulayliklar yaratishda yordam beradi. Bu shu jumladan, interaktiv doskalar, akustik qurilmalar va digger audio-visual vositalar.

**Sotsial media va ijtimoiy ta’lim platformalari:** Sotsial media va ijtimoiy ta’lim platformalari o‘quvchilarni bir-birlari bilan bog‘lash, ma’lumot almashish va ta’lim materiallarini ulashishda yordam beradi. Bu platformalar o‘quvchilar uchun o‘zaro munosabatlarni kuchaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

**Texnologik inqirozlar va blocchain:** Blockchain texnologiyasi o‘quvchilar haqida ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasdiqlash va to‘liq himoyalashda foydalanilishi mumkin. Bu, ta’limning aminlashuvini va ma’lumotlar to‘g‘risida ishonchli ravishda tasdiqlash imkoniyatlarini yaratadi.

Bu va boshqa innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonini osonlash, qiziqishlarni oshirish va o‘rganishni mukammallashtirish uchun qo‘llaniladi. Bu texnologiyalar o‘quvchi-talabalar uchun motivatsiya va o‘zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi va talabalar uchun ta’limning qiziqishini yuksaltiradi.

Innovatsion va axborot ta’lim texnologiyalari ilgari o‘rganishning va ta’lim jarayonlarini yanada samarali qilishning qadimiy usullarini yangi xususiyatlari bilan birlashtiradi. Bu texnologiyalar, o‘quvchilarning ta’lim jarayonlarida muxim ustuvorliklarga erishishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bir vaqtlar proyektor o‘quv jarayonidagi yangilik hisoblanardi, chunki u qimmatbaho keng ekranli televizorlarni sotib olmasdan tasvirlarni kattaroq formatda translyatsiya qilish imkonini berdi. [3] Bunda, onlayn darsliklar, interaktiv darslar, va shaxsiy ta’lim yo‘li yordamida o‘quvchilarning har biri o‘zining o‘ziga xos yo‘l bilan o‘zlashtirilgan ta’limni qabul qilishi mumkin.

Boshqa bir innovatsion texnologiya misoli, virtual realitiya (VR) va kibermaxsuslikdir. Bu usullar ta’limning interaktiv va jismoniyroq bo‘lishiga imkon beradi. Masalan, talabalar virtual laboratoriyalarda kimyo, biologiya yoki fizika darslarini o‘qiydigan va ilmiy tadqiqotlarni olib boradigan qo‘shimcha imkoniyatlarga ega bo‘lishadi.

Axborot texnologiyalarining aniq fanlarda o‘qitilishining samaradorligi nafaqat fanlarni o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, balki o‘quvchilarni yangi texnologik imkoniyatlar bilan tanishtiradi va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Bu yondashuv o‘qitishning sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning ilmiy o‘rgatish metodlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta’lim olish mumkin. Zero an’anaviy ta’lim o‘z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o‘qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. [4]

**Xulosa.** An’anaviy ta’lim usullari bilan solishtirganda, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish aniq fanlarni o‘qitishda o‘zgarishlar kiritmoqda. Ularning yordamida ta’lim jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli qilish mumkin. O‘qituvchilar va talabalar bu texnologiyalarni o‘z faoliyatlarida qo‘llab, ilmiy va amaliy muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin.

Innovatsion va axborot ta’lim texnologiyalari, bugungi ta’lim muhitida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan konseptlardan biridir. Bu texnologiyalar, ta’lim jarayonini kuchaytirish, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini osonlashtirish va o‘qituvchilar uchun yangi o‘qitish usullarini rivojlantirishda o‘zlarini ko‘rsatmoqda.

Innovatsion va axborot ta’lim texnologiyalari, bugungi kunda ta’lim sohasida ahamiyatli bir bo‘limni tashkil etadi. Bu texnologiyalar ichiga virtual o‘qitish platformalari, interaktiv darsliklar, o‘qituvchilar uchun tahlil va monitoring vositalari, onlayn ma’lumotlar bazalari, yangi o‘quv dasturlari yaratish vositalari va boshqalar kiritiladi. Boshqa innovatsion texnologiyalar esa virtual realitet (VR) va augmentatsiya (AR)ni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, innovatsion va axborot ta’lim texnologiyalari, ta’lim sohasini yanada o‘zlashtirish, kuchaytirish va har bir o‘quvchi uchun eng yaxshi ta’lim tajribasini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar, talaba rivojlanishini ta’minlash, ta’limning mazmunini yanada boyitish va ta’lim jarayonlarini modernizatsiyalashga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Хайитов Умиджон Хамидович (2021). Роль ИКТ в процессе преподавания и обучения. Проблемы науки, (4 (63)), 58-60.
2. Shamsiddinova E. (2023). Ta’limda kreativ fikrlash va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish metodlari. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (6), 433-443.
3. Петров В. Ф. (2011). Формирование ИКТ-компетентности педагогов: социально-философский аспект. // Вестник Чувашского университета, (2), 163-166.
4. Коробов Д. В. (2014). Инновационные информационные технологии в образовательном процессе. // Педагогическое образование в России, (4), 195-198.

**TALABALARNING MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATINI ELEKTRON TA’LIM  
RESURLARIDAN FOYDALANIB TASHKIL ETISH**

*Asrayev Zafar Rizakulovich,*

*Buxoro muhandislik- texnologiya instituti dotsenti  
zasrayev@gmail.com*

*Tohirov Nurbek Nizomovich,*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi  
ntoxirov@gmail.com*

*Maqolada mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha olimlarning ishlari tahlil etilib, shaxsiy fikr bayon etilgan. Shuningdek, elektron ta’lim resurslari yordamida mustaqil ishlarni tashkil etishda interfaol kontentlarning turlari va ularning imkoniyatlari ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** elektron ta’lim resurslari, mustaqil ish, interfaol kontent, forum, chat, viki, memory game, crossword, Drag and Drop, flashcards, interactive video*

**ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ С  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ**

*В статье анализируется работа учёных по организации самостоятельной работы и высказывается личное мнение. Также раскрываются виды интерактивного контента и их возможности в организации самостоятельной работы с помощью электронных образовательных ресурсов.*

***Ключевые слова:** электронные образовательные ресурсы, самостоятельная работа, интерактивный контент, форум, чат, вики, memory game, кроссворд, Drag and Drop, flashcards, интерактивное видео.*

**ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES OF STUDENTS USING  
ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES**

*The article analyzes the work of scientists on organizing independent work and expresses a personal opinion. It also reveals the types of interactive content and their capabilities in organizing independent work using electronic educational resources.*

***Keywords:** electronic educational resources, independent work, interactive content, forum, chat, wiki, memory game, crossword, Drag and Drop, flashcards, interactive video.*

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat ishlab chiqarishning yuqori darajada rivojlanishi bilan ajralib turadi, bu esa talabalarni tayyorlash masalalarida oliy ta’lim tizimiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishiga olib keladi. Bunday sharoitda turli ishlab chiqarish muammolarini hal qila oladigan, butun hayoti davomida o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatiga ega bo‘lgan ijodiy, professional barkamol va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash zarurati tug‘iladi [1, 2]. Bu muammoni hal qilish uchun ta’lim mazmuniga o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda mustaqil ishlar auditoriyadagi ishlar bilan bir qatorda ta’lim jarayonining shakllaridan biri bo‘lib, uning muhim qismi hisoblanadi. Pedagogik adabiyotlarda mustaqil ishlarga turlicha ta’rif berilganini hisobga olib, biz quyidagi ta’rifga amal qilamiz: “Mustaqil ish o‘qituvchining topshirig‘i va uslubiy rahbarligida amalga oshiriladigan, lekin uning bevosita ishtirokisiz bajariladigan talabalarning rejalashtirilgan ishi”.

Mustaqil ish, birinchi navbatda, barcha boshqa turdagi o‘quv ishlarning vazifalarini bajaradi. O‘z faoliyatining obyektiga aylanmagan hech qanday bilimni insonning haqiqiy mulki deb hisoblash mumkin emas [3].


Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatidiki, hozirgi kunda “Mustaqil ish” tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emas, unga ilmiy tadqiqotchilar o‘zlarining turli ta’riflarini berganlar. Masalan, V.K.Vinnik mustaqil ishlarni belgilashda dars va darsdan tashqari ishlarda olib boriladigan va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan talabalarning ichki motivatsion faoliyatini ajratib ko‘rsatadi [4].

U.Sh. Begimqulov, R.X. Djurayevning fikriga ko‘ra, mustaqil ishni tashkil etishda elektron resurslardan foydalanish tartibi har bir talabani individual xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanadi. Talabalarning mustaqil ish faoliyati kompyuter texnologiyasi: elektron o‘quv-metodik resurslar, integrallashgan elektron lug‘at-ma’lumotnomalar hamda laboratoriya va tabiiy eksperimentlarni modellashtirish tizimidan tashkil topadi [5].

A.S. Volovodenkoning ta’kidlashicha, mustaqil o‘quv faoliyati subyekt-sub’ekt munosabatlarini qurishga asoslangan faoliyatni tashkil etish shakli sifatida tushuniladi [6].

Bizning fikrimizcha, mustaqil ish - bu talabalarning sinfda ham, undan tashqarida ham, o‘qituvchi bilan aloqada bo‘lgan va individual mustaqil faoliyatining yig‘indisidir. Mustaqil ishlarni shakllantirishning ko‘p funksiyali jihatlarini shaxsni rivojlantirishga yordam beradi, ish beruvchilarning talablariga javob beradigan bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash uchun xizmat qiladi.

**Materiallar va usullar.** Talabalarning mustaqil ishlarni quyidagi sxema asosida tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1-rasm).



1-rasm. Mustaqil ishlarni tashkil etish sxemasi

Keltirilgan sxema bo‘yicha talabalar dastlab ishchi dastur va kalendar reja asosida o‘zlariga tegishli bo‘lgan mustaqil ish vazifalarini olishadi va har bir mustaqil ishning baholash mezonlari bilan tanishib chiqadilar. Ushbu vazifalarni bajarish uchun avvalambor ularni elektron o‘quv adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari va metodik ko‘rsatmalar bilan ta’minlash zarur. Vazifalarni hal etish jarayonida ular o‘qituvchi bilan yoki guruh bo‘yicha o‘zaro muloqotlarni forum yoki chat orqali amalga oshirishlari mumkin. Talabalarning olgan bilimlarini tekshirish va baholash uchun test va nazorat savollari, interfaol topshiriqlardan foydalaniladi.


O‘quv jarayonida mustaqil ishlarni faollashtirish, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish, axborot ta’lim muhitida o‘qitishning yangi usul va vositalaridan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. O‘quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etishda o‘quv vaqtining 60 foizigacha bo‘lgan qismi talabalarning mustaqil ishlarni tashkil qilishga qaratiladi. Ushbu muammoni hal qilishning mumkin bo‘lgan yo‘llaridan biri zamonaviy AKTdan, xususan, elektron ta’lim resurslari imkoniyatlaridan foydalanishdir.

Tadqiqotchilar talabalarning mustaqil ishlarni tashkil etishning eng samarali vositasi LMS Moodle - ta’limni boshqarish tizimi platformasidan foydalanish ekanligini ta’kidlaydilar. Tahlil qilingan ilmiy ishlar va turli o‘quv platformalaridan foydalanish tajribasiga asoslanib, biz oliy ta’lim muassasasi bazasida LMS Moodle ishonchli va ETR ni joylashtirishning qulay usuli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ushbu tizimning kommunikatsion imkoniyatlari o‘qituvchiga talabalarning ishlarni tezda qabul qilish, ularni ko‘rib chiqish, xatolarni tuzatish va qayta ko‘rib chiqishga yuborish imkonini beradi. Ta’limning yuqori darajadagi interfaoligi, o‘quv materiallarini taqdim etishning har xil usullari va shakllari, tarkibni modulli tuzish imkoniyati, doimiy yordam tizimining mavjudligi, individual ta’lim rejasini tuzish qobiliyati, mashg‘ulotlarning qulayligi kabi xususiyatlari o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishning sezilarli darajada oshishiga, ko‘nikmalar va qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beradi, talabalarning mustaqil ishlarni faollashtiradi.

Moodle platformasida ishlab chiqilgan har bir kurs modulli tuzilishga ega resurs bo‘lib, unda quyidagi asosiy elementlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Interfaol kontent. Bu element sizga ETR yaratish imkonini beradi, masalan: bir nechta tanlov savollari, taqdimotlar, interfaol videolar va boshqalar. Ushbu resurs juda samarali va vizualdir.



## 2-rasm. H5P tizimida ishlab chiqilgan interfaol topshiriqlar

Fan bo'yicha interfaol kontent turlarini yaratishda H5P dan foydalanish mumkin.

*Memory Game* (xotira o'yini) interfaol kontenti yordamida xotirani sinab ko'rish bo'yicha yaratilgan mashq "Amaliy mexanika" fani bo'yicha formulalarni eslab qolishda yordam beradi. Topilgan ikkita formula mos kelganida formula mohiyati ochib ko'rsatiladi.

*Crossword* (Krossvord) interfaol kontenti yordamida "Amaliy mexanika" fani yoki biror mavzusi tushunchalariga oid krossvord tuzish va uni talabalarga topshiriq sifatida taqdim etish mumkin.

*Drag and Drop* (surish) texnologiyasiga asoslangan topshiriqlarni ishlab chiqishda, rasm va so'zlarni o'zaro moslashtirish natijasida mavzuga doir asosiy tushunchalarni o'rgatish maqsadida qo'llaniladi. "Amaliy mexanika" fanidan konstruktsiya elementlari ko'rinishlarini o'rganishda ushbu kontentdan foydalanildi. Rasmga mos so'zlarni toping?

*Flashcards* (kartalar to'plami) - bu kartaning bir tomonida rasm va boshqa tomonida mos keladigan matnni o'z ichiga olgan kartalar to'plami. Talabadan kartani ag'darib, to'g'ri javobni ko'rsatishdan oldin rasmga mos keladigan so'z yoki iborani kiritish so'raladi.

*Interactive Video* (Interfaol video) - HTML5 asosidagi kontent turi bo'lib, foydalanuvchilarga videolarga bir nechta savollar, test, qalqib chiquvchi matn va boshqa turdagi o'zaro muloqotni amalga oshiruvchi axborot resurslarini qo'shish imkonini beradi. O'zaro aloqa paydo bo'lganida videoni to'xtatib qo'yish yoki davom ettirish imkoniyati mavjud.

*Forum* - kursning ushbu elementi asinxron rejimda ishlaydigan kommunikativ aloqa elementidir. Forumlarning bir nechta turlari mavjud: har bir ishtirokchi yangi muhokamani boshlashi mumkin bo'lgan standart forum; savol-javob forumi, bu yerda talabalar birinchi navbatda savolga javob berishlari kerak; faqat bitta mavzuni boshlashingiz mumkin bo'lgan forum. Ushbu element xabarlarda ko'rsatiladigan rasmlarni birlashtirish imkonini beradi. Kurs ishtirokchilari forumdan xabarlarga obuna bo'lishlari mumkin, bu holda yangiliklar tasmasi maksimal darajada to'ldirilgan bo'lsa, ularning elektron manziliga bildirishnomalar yuboriladi. O'qituvchi barcha talabalarni umumiy yangiliklar forumiga majburan ro'yxatdan o'tkazishi, shuningdek forum xabarlarini baholashi mumkin.

*Viki*. Ushbu kurs elementi brauzer oynasida oddiy belgilash tilidan foydalangan holda bir vaqtning o'zida bir nechta odamga hujjat yaratishga imkon beradi, ya'ni u bilan talabalar birgalikda ishlashlari, tarkibni qo'shishlari, kengaytirishlari va o'zgartirishlari mumkin. Hujjatning oldingi versiyalari o'chirilmaydi va istalgan vaqtda tiklanishi mumkin.

*Glossariy*. Kursning ushbu elementi kursda qo'llaniladigan tushunchalarning asosiy lug'atini hamda har bir ma'ruzani asosiy atamalarining lug'atini yaratish imkonini beradi. Moodle tizimidagi lug'at maxsus atamalar ma'lumotnomasi, lug'atning elektron analogidir. Ammo "qog'oz" lug'atdan farqli o'laroq, lug'at talabalar tomonidan o'qish davrida izchil ravishda yaratilishi mumkin. Talaba yangi tushunchani o'rganib, lug'at yozuvini tuzadi, bu tushunchaga, atamaga ta'rif beradi va tavsiflaydi. Kursning boshqa talabalari maqolaga sharh berishlari, o'zlarining ta'riflarini taklif qilishlari mumkin. Lug'at - bu barcha kurs mazmuni bilan bog'liq bo'lgan ta'riflarni taqdim etishning qulay usuli hisoblanadi. Misol uchun, agar siz "Texnika" atamasi va uning ta'rifini glossariyga kiritsangiz, kursning barcha kontentlarida ushbu so'z alohida ajratilib ko'rsatiladi, foydalanuvchiga atama ta'rifini beradigan havola avtomatik ravishda paydo bo'ladi va ushbu havolani tanlab, uning ta'rifini ko'rishi mumkin.

*Topshiriq.* Kursning ushbu elementi kurs rahbariga (o‘qituvchiga) trening ishtirokchilaridan elektron shaklda (istalgan formatda) javob tayyorlashni va uni serverga yuklashni talab qiladigan vazifani qo‘yish imkonini beradi. O‘qituvchi talabalarga laboratoriya va amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini undan foydalanib berishi va qabul qilib, baholab borishi, shu bilan birga topshirish muddatini ham aniq ko‘rsatishlari mumkin. Talabalar topshiriqda ko‘rsatilgan vazifalarni bajarib, natijalarni fayl ko‘rinishida uzatadilar, o‘qituvchi esa talabalar tomonidan yuborilgan topshiriq natijalarini ko‘rib chiqib, baholaydilar.

*Test.* Ushbu kurs elementi o‘qituvchiga test savollari to‘plamini yaratishga imkon beradi. Savollar yopiq shaklda bo‘lishi mumkin (bir nechta tanlov), to‘g‘ri/noto‘g‘ri tanlov bilan, yozishmalar uchun qisqa matnli, raqamli yoki hisoblangan javobni kiritishni taklif qiladi. Barcha savollar ma‘lumotlar bazasida saqlanadi va keyinchalik o‘sha kursda (yoki boshqalarda) qayta ishlatilishi mumkin.

**Natijalar va mulohazalar.** Tadqiqot davomida “Amaliy mexanika”, “Materiallar qarshiligi”, “Texnik mexanika” fanlaridan hammualliflikda o‘nga yaqin elektron o‘quv qo‘llanma va elektron darsliklar ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan guvohnomalar olindi [7,8].

Mazkur elektron darslik tarkibida yuqorida keltirilgan interfaol kontentlar, kompyuterli animatsiyalar va yangi kompyuterli metodika bo‘yicha tipik masalalarni yechishning interfaol dasturiy vositasi ishlab chiqildi.

“Amaliy mexanika” fanidan ishlab chiqilgan ETR yana bir xususiyatlaridan biri shundaki, o‘rganilayotgan obyekt yoki mexanizmlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini vizuallashtirish, unga oson kirish imkoniyati bilan katta hajmdagi ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash, faoliyat maqsadini va unga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini aniqlashga yordam beradi, murakkab vaziyatda muqobil qarorlar qabul qilishini ta‘minlaydi.

ETRlaridan foydalanib mustaqil ishlarni tashkil etishga alohida e‘tibor qaratildi, unda har bir talaba uchun individual topshiriqlar, H5P va Learningapps tizimlarida yaratilgan interfaol vazifalar, hisoblash-grafik ishlarini bajarish bo‘yicha masalalar ishlab chiqildi.

**Xulosa.** Ishlab chiqilgan elektron ta‘lim resurslari o‘quv mashg‘ulotlarda, materialni mustaqil o‘rganish yoki mustahkamlashda qo‘llanilishi mumkin.

Elektron ta‘lim resurslaridan foydalangan holda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini oshirishga yordam beradi, talabalarning kognitiv faoliyati uchun yetarli sharoitlar yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ершова О.В., Мишурина О.А. Качество образования в техническом университете как педагогическая проблема // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Педагогика, психология. – 2014. – № 4 (19). – С. 49–52.
2. Чупрова Л.В. К проблеме совершенствования системы подготовки специалистов в высшей школе // Педагогика и современность. – 2012. – № 1. – С. 63–67.
3. Космодемьянский В.А. Теоретическая и современная механика. -М: “Просвещение”, 2005.
4. Винник В.К. Теоретические основы организации самостоятельной работы студентов в современных условиях // [Электронный ресурс]. Режим доступа: [http://www.mininuniver.ru/mediafiles/u/files/Nauch\\_deyat/Vestnik/201312%203/Vinnik.pdf](http://www.mininuniver.ru/mediafiles/u/files/Nauch_deyat/Vestnik/201312%203/Vinnik.pdf).
5. Begimkulov U.Sh., Djurayev R.X. va b. “Pedagogik ta‘limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot” Monografiya, Fan. Toshkent 2011. – 232 b.
6. Лисичко, Е.В. Формирование готовности студентов технического университета к профессиональной деятельности в процессе изучения физики): автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук/ Е.В Лисичко.- Томск 2009 - 24с.
7. Bibutov N.S., Asrayev Z.R., Murodov Sh.M., Hojiyev A.X. “Amaliy mexanika - o‘quv moduli” elektron darsligi // O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi guvohnomasi. DGU 04307. 18.03.2017.
8. Bibutov N.S., Asrayev Z.R., Hojiyev A.X. “Materiallar qarshiligi” elektron darslik // O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi guvohnomasi. DGU 08069. 24.04.2020.

**RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA BO‘LAJAK SHIFOKORLARGA “TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISH**

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich,**

*Buxoro davlat universiteti, pedagogika fanlar doktori, professor*

**Davronov Shaxbos Erkin o‘g‘li,**

*Buxoro davlat universiteti 1-bosqich doktoranti*

*Ushbu maqolada raqamlashtirish muhitida ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va muammolari, bo‘lajak shifokorlarni tibbiyotda axborot texnologiyalari fanini kompyuterli o‘qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari yoritilgan. Bundan tashqari virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari, xususiyatlari, samaradorligi tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** raqamlashtirish muhiti, innovatsion texnologiyalar, o‘quv dasturlari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya jarayoni, axborot texnologiyalari.

**ПРЕПОДАВАНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ «ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МЕДИЦИНЕ» БУДУЩИМ ВРАЧАМ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ**

*В данной статье рассматриваются пути и проблемы совершенствования образовательного процесса в условиях цифровизации, с акцентом на ключевые особенности компьютерного обучения информационным технологиям в медицине для будущих врачей. Кроме того, анализируются преимущества, характеристики и эффективность использования виртуальных лабораторий.*

**Ключевые слова:** цифровая среда, инновационные технологии, учебные программы, виртуальные лаборатории, процесс симуляции, информационные технологии.

**TEACHING «INFORMATION TECHNOLOGY IN MEDICINE» TO FUTURE DOCTORS IN A DIGITALIZED ENVIRONMENT**

*This article explores the ways and challenges of improving the educational process in a digital environment, focusing on the key features of computer-aided instruction in the field of Information Technology in Medicine for future doctors. Furthermore, the advantages, characteristics, and effectiveness of using virtual laboratories are analyzed.*

**Keywords:** digital environment, innovative technologies, curriculum, virtual laboratories, simulation process, information technology.

**Kirish.** Zamonaviy tibbiyotda axborot texnologiyalarining roli tobora ortib bormoqda. Tibbiyot sohasining rivojlanishi va innovatsion yutuqlari ko‘plab murakkab tahlillarni amalga oshirish, bemorlarni tashxislash va davolash jarayonlarini yaxshilashga imkon yaratmoqda. Axborot texnologiyalari tibbiyotda yangi imkoniyatlar ochib, shifokorlarning ish faoliyatini samarali va sifatli tashkil qilishda asosiy omilga aylanib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, bo‘lajak shifokorlarni tayyorlashda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish va ulardan samarali foydalanishga o‘rgatish zaruratini tug‘dirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak shifokorlarni raqamlashtirilgan tibbiyot muhitiga tayyorlash, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, zamonaviy metodikalar asosida o‘rgatish bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish metodikalarini takomillashtirish, nafaqat shifokorlarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki tibbiy ma’lumotlarni to‘g‘ri ishlatish va uzatish, bemorlar bilan samarali muloqot o‘rnatish kabi muhim masalalarni hal etishga yordam beradi. Tibbiyotning barcha yo‘nalishlarida, jumladan, diagnostika, davolash, tibbiy tasvirlarni qayta ishlash, telemeditsina, sun‘iy intellekt va ma’lumotlar bazasini boshqarish kabi sohalarda axborot texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, tibbiyotda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. O‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalari o‘zining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

**Asosiy qism.** Fan va texnikada axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida keyingi vaqtlarda yangi “Virtual laboratoriya” atamasi paydo bo‘ldi. Bu atamadan hozirgi vaqtda ta’lim sohasida ayniqsa keng foydalanilmoqda. “Virtual laboratoriya” - virtual asbob yordamida kompyuterda ishlash imkoniyatini beradigan, unga qo‘shimcha qilingan apparatli va dasturli vositalar to‘plamidan iborat

bo‘lib, real mashina yoki texnik qurilmani ishlash jarayonini o‘zida aks ettiribgina qolmasdan, balki, real jarayonni tadqiq qilishga ham imkon yaratib beradi. Virtual laboratoriyalardan foydalanishning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Murakkab texnik qurilmalarni kompyuterdagi modulini ishlab chiqib, ularning ish jarayonini turli rejimlarda tekshirish, tahlil qilish va xulosa olish. Bu esa ko‘p omilli tadqiqotlarni o‘tkazishga, qurilmani tayyorlash va tadqiqotlarni o‘tkazish uchun mablag‘ va vaqtni tejashga yordam beradi.

2. Virtual laboratoriya qurilmalarida modul uchun avvaldan berilgan tadqiqot parametrlarini o‘zgarishsiz qoldirgan hisob jarayonni ixtiyoriy vaqtda, ixtiyoriy sharoitda va ixtiyoriy muddatga tadqiq qilish mumkin.

3. Tadqiqot jarayonida qurilma parametrlarini o‘zgartirish mumkin.

4. Virtual laboratoriya qurilmalaridan foydalanish jarayonida xatoliklar sodir bo‘lgan taqdirda ham qurilma ishdan chiqmaydi.

5. Virtual laboratoriya qurilmalardan foydalanish ta‘lim jarayonidagi moddiy-texnik ta‘minot borasidagi muammolarni oz bo‘lsada kamaytirishga hizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-yanvardagi 19-son “Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida malaka oshirish va qayta tayyorlash ta‘lim jarayonlarini tashkil etishda ilm-fanni hamda sog‘liqni saqlash sohasida innovatsiya ishlarini keng joriy etish belgilab berilgan [2]. Qarorni amalga oshirish maqsadida, tibbiy oliy ta‘lim muassasalarida “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishga virtual laboratoriyadan foydalanish katta ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

Virtual laboratoriya texnologiyalari o‘zida real laboratoriya ishlarini modellashtirishni talab etadi va materialni interaktiv asosda yoritish imkonini berdi. Talaba laboratoriya ishlarini bajarish davomida tadqiqotchilik va mustaqil ravishda to‘g‘ri xulosalar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishadi. “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanida ta‘lim amaliyotida virtual laboratoriya texnologiyalaridan foydalanishni asosli ravishda yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi muammolarni hal etish zarurati aniqlandi:

- “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini ta‘lim jarayonida virtual laboratoriya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan to‘liq asoslash;

- Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda virtual laboratoriya texnologiyalaridan foydalanishni ma‘lum bir izchillikda, metodik talablar asosida amalga oshirish;

- “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda virtual laboratoriya texnologiyalaridan foydalanishning dasturiy ta‘minotini o‘z vaqtida yaratish va joriy etish hamda undan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan metodikani tajriba-sinovdan o‘tkazish va kamchiliklarni bartaraf etish.

Mazkur muammolarni bartaraf etish “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanida virtual laboratoriya texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

“Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanidan virtual vositalarning tarkibiy qismlari (1-rasm).



1-rasm. Virtual vositalarning tarkibiy qismlari


“Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini virtual o‘quv jarayonini virtual ma‘ruza, shu ma‘ruza asosida tuzilgan virtual amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, hamda olingan bilimni tekshirish maqsadida virtual nazorat bloklaridan iborat bo‘lib, bu jarayonlar bir-biriga bog‘liq holda ishlaydi.






**2-rasm. Virtual vositalarning tuzilishi**

O‘quv jarayonining virtual resurslari pedagogik dasturiy vositalar asosida yaratilgan bo‘lib, davlat ta‘lim standartlariga mos keladi. Virtual resurslardan o‘quv jarayonida foydalanishdan asosiy maqsad – tibbiyotda axborot texnologiyalari fani bo‘yicha ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining kasbiy tafakkurini ongida aniq tasavvur hosil qilish, hamda bo‘sh vaqtlarida o‘quv jarayoni materiallaridan mustaqil foydalanishini ta‘minlash orqali fanning ta‘lim oluvchi tomonidan chuqur o‘zlashtirilishini ta‘minlashdan iborat.




**3-rasm. Virtual ma'ruzaning tuzilishi**

Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarni o’qitish metodikasi fanini o’zlashtirishlari uchun o’qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o’zlashtirishda darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual slaydlardan foydalaniladi. Mutaxassislik fanlarni o’qitish metodikasi fanini o’rganish jarayonida quyidagi yangi texnologiyalar qo’llaniladi: muammoli ma’ruzalar o’tkazish, interfaol metodlar, bahs va debat darslar, vaziyatli masalalarni qo’llash, axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqalar. Ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Jamiyatimizning rivojlangan davrida avvalgi metodik qo’llanmalar bilan cheklanib qolmasdan, unga fan-texnika yangiliklari, internet va yuksak texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, ta’lim jarayonini tinglovchilari uchun yanada qiziqarli va mazmunli qilib o’tish maqsadga muvofiq. Respublikamizda bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va internet tarmog’ini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda, shunga ko’ra, ta’lim tizimidagi o’quv yurtlarida informatika va yangi axborot texnologiyalari bilan birga kasb ta’lim yo’nalishiga tegishli fanlarining o’qitilishi ham davr talabi bo’lib qolmoqda. Masofadan o’qitish usulida o’qituvchi bilan talaba bir-biridan masofa bilan ajralgan bo’lsa ham, doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o’qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo’ladigan elektron pochta va Internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi [8].

**Asosiy qism.** Globallashtirish sharoitida oliy ta’lim sohasidagi o’qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta’lim sifatining yanada ortishi, har qanday sohada ham jahon bo’yicha uslubiy adabiyotlar, zamonaviy hamda so’nggi axborotlarni olish, ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini beradi. Oliy ta’lim muassasalarining o’quv laboratoriya va texnik jihozlar, kompyuterlar, multimediyali elektron resurslar, elektron darsliklar va o’quv qo’llanmalari bilan ta’minlanganligi, shu bilan birga, tizimda masofaviy ta’lim yoki zamonaviy pedagogika joriy etilganligi bunga yaqqol misol bo’la oladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030 yil uchun mo’ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to’g’risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham dolzarb masalalar qatorida ilm-fan va ta’lim, ijtimoiy hayot munosabatlariga alohida urg’u berilganligi bejiz emas. Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o’zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion-ijodiy yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko’zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko’zdan kechirishni taqozo etmoqda. Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev so’nggi yillarda ta’lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiiq etishga jiddiy e’tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident Qarorida o’z aksini topgan. Qolaversa, “O’zbekiston - 2030” strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirishga e’tibor qaratilgan. Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, kreativ g’oyalar asosida fikrlaydigan bo’lajak kadrlarni tarbiyalash, xorijiy tajribalarni o’zlashtirish bilan bog’liq umumiy jihatlarni mavjud [1].

Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, kelajakda esa u har bir insonga qayerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Shuningdek Oliy ta’lim muassasalarida fanlarni virtual muhitda o’qitish ham ustuvor masalaga aylangan. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o’rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz. Shu munosabat bilan barcha o’quv muassasalarida, oliy o’quv yurtlarida o’quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o’quv tizimidagi yangiliklar va yutuqlarni o’rganish va ularni o’zimizda tatbiiq etish maqsadga muvofiqdir.

Masofaviy o’qitish - sirtqi ta’limning o’z rivojlanish yo’lidagi yangi kommunikatsion va informatsion texnologiyalarga tayangan, hamma formalari qonunlashtirilgan o’qitishni amalga oshirishdir. Shuning uchun “Masofaviy o’qitish” formasi “XXI asr ta’limi” deb hisoblanmoqda. Keyingi paytlarda masofaviy

o'qitishning ijobiyligi isbotlangan. Bu borada birinchilik uchun AQSHning NTU Milliy Texnologiya Universiteti va Buyuk Britaniyaning ochiq Universitetlari kurashmoqda. Aslida hozirgi paytda masofaviy o'qitish va o'qitish muassasalari soni ularning klassifikatsiyasini keltirish uchun yetarlidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ular davlat va nodavlat guruhlariga bo'linib, o'zlarining o'qitish xizmatini mamlakatlarning ta'lim bozorlarida harakatga keltirmoqdalar va aksincha. Biroq, bunday ko'rinisdagi o'qitishlar ko'pincha gumanitar yo'nalishdagi o'qitishlarni o'z ichiga qamrab olmoqda [8].

Masofaviy o'qitishni o'qish jarayonida qo'llash sabablari shundaki oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini virtual muhitda o'qitish ta'lim tizimida o'quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta'lim tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. 90 yillarning boshlarida Internetning keng ommalashishi, ayniqsa www (World Wide Web -Butun dunyo o'rgimchaklari to'ri) tizimining joriy etilishi ta'lim tizimida yangi masofaviy ta'lim tushunchasini olib keldi.

Masofaviy o'qitish - bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar - elektron pochta, internet, video konferentsiya, audio, video ma'lumotlar va multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish usulidir. Masalan masofadan biror yangi mavzu yoki predmet bo'yicha ma'lumotlarni viloyatlardagi ixtiyoriy o'quv yurtlariga uzatish mumkin. Agar joylarda bu sohada mutaxassis bo'lmasa masofadan o'qitish yagona usuldir. Masofaviy ta'limda talabadan doimiy faoliyat interaktiv o'qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini sifat xarakteristikasini oshiradi. Masofaviy o'qitishning texnologiya elementlari hatto yuz yillardan beri ko'rib kelinadi [3].

Bunga Rossiya tajribasidan misol qilib general A.M. Shanyavskiy nomidagi Moskva Xalq Universiteti, Naxotka shaxridagi Morexodnaya maktablarini olish mumkin. Bu yerda V. P. Chernov 1987 yili masofaviy o'qitishni joriy etgan. Ma'lumki dunyoda ilmiy izlanishlar bo'yicha axborotlar doim o'sib, ularni tahlil qilish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda. Hozirgi zamon mutaxassisi qaysi sohada ishlamasin, uning oldida o'zining sohasiga tegishli hodisa va voqealarni bilib turishi va bilim saviyasini doimiy ravishda oshirib borishini talab etmoqda.

**Tahlil.** Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa “virtual o'quv guruhi” talabalari bilan muloqotda bo'ladi. Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi [3].

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferentsiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarini jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan yozilgan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtda qaytaqayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirish mumkin.

Masofaviy o'qitish eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir. Masofaviy o'qitish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart- sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qitish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas. Bulardan ko'rinib turibdiki, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni virtual ta'lim muhiti allaqachon kirib kelgan. Ammo mutaxassislik fanlarni virtual ta'lim muhitida o'qitish haligacha o'z yechimini topmagan, shu boisdan mutaxassislik fanlarini o'qitish uchun virtual ta'lim muhitiga o'tish ya'ni to'liq axborot texnologiyalariga o'tish samarali

hisoblanadi. Ayniqsa yengil sanoat sohasida virtual muhitni kengroq yoritib borish juda ko'p mehnat hamda tinimsiz mehnat talab etadi.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuaidir. Masofaviy o'qitish tizimi masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Nima uchun masofaviy ta'lim kerak bo'lib qoldi? – degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- ta'lim olishda yangi imkoniyatlar (ta'lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog'liqligini va boshqalar);

- ta'lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi;

- ta'lim olishni xohlovchilar sonining oshishi;


- sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi;

- xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o'tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o'qitishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Masofaviy ta'lim, o'rganish va o'qitishning barcha shakllarini o'z ichiga oladi. Qiziqishning to'satdan portlashi va yaqinda paydo bo'lgan faollik nimaga olib keldi? Bu savolga oddiy javob bo'lmasada, paydo bo'lishini inkor etib bo'lmaydi va yangi kompyuterga asoslangan kommunikatsiya texnologiyalarining tarqalishi asosiy sabablardan biridir.

O'quv kursining har bir tashkil qiluvchisi o'rganilayotgan sohasi va ushbu kurs o'rganilayotgan ta'lim yo'nalishiga bog'liq holda turli tarzda amalga oshiradi. Masalan, texnikaviy ta'lim yo'nalishlari uchun praktikum mashqlar to'plami iqtisodiyot topish yo'nalishlari uchun interaktiv o'yinlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

O'qituvchi darajasida masofaviy ta'limni amaliyotda qo'llashning eng yaxshi usuli kabi mavzularda darajada, ta'limning katta qismini o'zgartirishning davlat siyosati oqibatlari ushbu metodga resurslar va masofaviy ta'limni kengaytirishning oqibatlari ta'lim nazariyasi va o'quv tadqiqotlari amaliyoti kiradi (1-rasm).




**1-rasm. Elektron ta'limni tashkillashtirishda ishlatiladigan dasturiy ta'minotlar strukturasi**

Moodle – Web muhitida o'qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Mazkur tizimda Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking kabi ko'plab o'qitish modullar mavjud.

Boshqa LMSlar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo'llab quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda, eng ko'p qo'shimcha plugin va modullari mavjud bo'lgan dasturiy majmua bu Moodle dasturiy majmuasidir.



Hozirgi vaqtda dunyoning aksariyat ta’lim muassasalari o’z masofaviy ta’lim tizimlarini tashkil etishda Moodle dasturiy majmuasini joriy etmoqdalar, shuningdek, respublikamizdagi ko’plab ta’lim muassasalari virtual ta’lim muhiti sifatida aynan Moodle dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda (2-rasm).



## 2-rasm. Moodle dasturiy majmuasining umumiy ko’rinishi

Leksiya (Ma’ruza) – o’quv elementi masofaviy ta’lim tizmining asosiy mazmunini yoritib beruvchi elementlardan biri hisoblanadi. Uning yordamida ma’ruza, amaliy mashg’ulot darslarining ma’lumotlari tashkil etiladi. Ma’ruza sahifalar to’plami asosida tashkil etiladi. Odatda, sahifalarning har biri savollar bilan yakunlanib, savollarga berilgan javobga qarab talabalar keyingi bosqichga o’tishi yoki oldingi bosqichni qayta o’zlashtirishi aniqlanadi. Ma’ruza elementi quyidagi funksiyalarga ega:

- har bir dars baholanish imkoniga ega bo’lib, olingan natijalar baholar jurnaliga yozilib boriladi;
- har bir dars tarkibida bir necha sahifalar yaratish imkoni mavjud;
- o’zlashtirilgan darslarga bajarilganlik haqida belgi qo’yiladi;
- yangi mavzularni mustaqil o’rganish mumkin;
- darslarni nazorat qilish uchun turli xildagi test savollaridan foydalanish mumkin.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki - masofaviy o’qitish bugungi kunda nafaqat o’quv maskanlari uchun zarur, balki bugungi kundagi globalizatsiyalash jarayonida katta-katta korxonalariga, muassasalarga o’zlariga mutaxassislar tayyorlashda, ularni qayta tayyorlashda, ularning bilim darajalarini va ko’nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o’rin tutadi. Masofaviy o’qitishni qo’llagan holda aholining umumiy bilim darajasini va bu bilimning sifatini oshirish imkoni mavjud. Aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi ixtiyoriy talablarini qondirish mumkin bo’ladi. Bilimlarni o’z vaqtida keng aholiga tarqatish imkoni mavjud. Yagona ta’lim muhitini yaratib, unda barcha bilimlarni mujassamlashtirish imkoni mavjud. Masofadan o’qitish usulida o’quvchi va o’qituvchi bir-biridan masofa bilan ajralgan bo’lsa ham doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o’qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo’ladigan elektron pochta va internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

## Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O’zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi PF-37-son Farmoni.
2. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. // Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1(1), 252-256.
3. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайн-курсов в дистанционных условиях современного общества (модель-программа для преподавателей образовательных учреждений). // Universum: технические науки, 12 (81), 11-14.
4. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4), 71-75.

5. Самиева Ш. Х., Усмонова Г. Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
6. Самиева Ш. Х. Инновационное развитие проектных навыков учащихся на основе креативного подхода // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. – С. 209.
7. [https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/07/30/Oliy\\_va\\_professional\\_talimda\\_mutaxxasisliki.pdf](https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/07/30/Oliy_va_professional_talimda_mutaxxasisliki.pdf).
8. [https://www.researchgate.net/publication/348916562\\_MASOFAVIY\\_TA'LIM\\_TIZIMI](https://www.researchgate.net/publication/348916562_MASOFAVIY_TA'LIM_TIZIMI)

## INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING MUHIM XUSUSIYATLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

*Mamurova Dilfuza Islomovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Musiq va tasviriy san'at kafedrasida dotsenti, p.f.f.d.(PhD)  
dilf76@mail.ru*

*Raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta'lim va ilmiy sohalarda yuqori tezlikda o'zgarib turib, jamiyatning har bir sohasiga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, bu yoshlarning kasb-hunarga tayyorlash jarayonida juda foydali hisoblanadi. O'z o'rnida maqsadli foydalanilgan raqamli texnologiyalar bilan qarab olingan darslar, mashg'ulotlar o'rganuvchilarga ko'plab imtiyozlar berdi Eng e'tiborga molik jihati bu kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish yoshlarda kreativlik va tajribalarini oshirishda juda muhim.*

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, kibernetika, interaktiv, platforma, optimallashtirish, ta'lim resurslari, marketing, raqamli dunyo, virtual simulyatsiya, elektron darslar.

## ВАЖНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*Цифровизация и стремительное развитие цифровых технологий, информационных и коммуникационных технологий, меняющихся с высокой скоростью в образовательной и научной сферах, глубоко проникают во все сферы жизни общества. Особенно это полезно в процессе подготовки молодёжи к профессии. Вместо этого уроки и мероприятия, проведённые с целенаправленным использованием цифровых технологий, принесли учащимся много пользы. Наиболее примечательным аспектом является то, что использование таких цифровых технологий очень важно для повышения творческих способностей и опыта молодёжи.*

**Ключевые слова:** цифровизация, кибербезопасность, интерактивный, платформа, оптимизация, образовательные ресурсы, маркетинг, цифровой мир, виртуальное моделирование, электронное обучение.

## IMPORTANT FEATURES OF INTERACTIVE EDUCATIONAL PLATFORMS AND THEIR IMPORTANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*Digitization and rapid development of digital technologies, information and communication technologies, changing at a high speed in the educational and scientific spheres, deeply penetrate into every sphere of society. It is especially useful in the process of preparing young people for a profession. Instead, the lessons and activities that were taken with the purposeful use of digital technologies gave many benefits to the learners. The most notable aspect is that the use of such digital technologies is very important in increasing the creativity and experience of the youth.*

**Keywords:** digitization, cyber security, interactive, platform, optimization, educational resources, marketing, digital world, virtual simulation, e-learning.

**Kirish.** Bugungi kunda raqamli platformalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi va shu bilan birgalikda ta'limdagi raqamlashtirish sohada katta inqilobni yuzaga keltirdi. Texnologiyalar o'sishda davom etar, o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etar ekan, o'qituvchilar va talabalar uchun o'quv jarayonini tezlashtirish orqali raqamli ta'lim shaklini katta darajada o'zlashtirish juda muhimdir.

Axborot texnologiyalari bir yo'la bir necha fan sohasiga informatika, matematika, kibernetika, psixologiya, pedagogika kabi fanlarga oid ma'lumotlarni birlashtiradi. Biroq bu uyg'unlikda psixologik - pedagogik asos yetakchi o'rin tutadi. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o'qitish jarayoniga joriy qilish muhim o'rin egallaydi. Yangi axborot texnologiyalari o'quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun katta ahamiyatga ega. Odatdagi ta'limiy texnologiyalardan farqli ravishda, axborot texnologiyalarida mehnat predmeti va uning natijasi sifatida axborot, mehnat quroli bo'lib esa axborotlashtirishning texnikaviy vositalari xizmat qiladi.

*Kompyuter vositalari o'quv-tarbiya jarayonining turli bosqichlarida:*

- o'qituvchilarga o'quv materiallarini taqdim etish bosqichida;

- kompyuter bilan interfaol o‘zaro birgalashib, harakat qilish jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishda;
- o‘zlashtirilgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni takrorlash va mustahkamlashda;
- o‘qitishda erishilgan natijalarni oraliq va yakuniy nazorat qilish va o‘zo‘zini nazorat qilish bosqichida;

➤ o‘quv materialini qismlarga bo‘lish, uni klassifikatsiyalash va tizimlashtirishni takomillashtirish orqali o‘qitish jarayoniga va uning natijalariga tuzatishlar kiritish bosqichida foydalanilishi mumkin.

**Asosiy qism.** Texnologiyaning o‘sishi ijobiy o‘quv tajribalari, samarali o‘qitish usullari, majburiyatlari va bilimlarni yaxshiroq egallashga olib keldi. Ta’limda raqamlashtirish deganda biz turli xil raqamli vositalar va manbalar orqali ta’lim olish imkoniyatini, shuningdek, kengaytirilgan texnologik ta’lim, raqamli ta’lim yoki e-Learning deb nomlanuvchi o‘quv tajribasini maksimal darajada oshirish uchun texnologiya bilan ta’minlashni nazarda tutamiz. Boshqacha qilib aytganda, raqamli ta’lim - bu o‘qitish, raqamli manbalar va texnologiyalarning aralashmasidir.

Raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlarni ta’limga tayyorlashimizga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bizning dunyomiz tobora o‘zaro bog‘langan va texnologiyaga bog‘liq bo‘lib borayotganligi sababli, ta’lim muassasalari uchun raqamli savodxonlik va texnik ko‘nikmalarni o‘z o‘quv dasturlariga kiritish juda muhim.[1] Kodlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, raqamli marketing va kiberxavfsizlikni tushunish kabi sohalarda malakani o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari muhim, chunki bu ko‘nikmalar doimiy rivojlanib borayotgan raqamli landshaftga moslashishda muhim ahamiyatga ega. Bunga interaktiv ta’lim platformalari, virtual simulyatsiyalar va professional ish sharoitlarini aks ettiruvchi hamkorlik loyihalari orqali erishish mumkin. Yosh mutaxassislarni tayyorlashda raqamlashtirish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali biz kelajak avlodga raqamli ta’limni muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish va unga hissa qo‘shish imkoniyatini berishimiz mumkin. [2]

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M. V. Bulanova, A. Toporkova va boshqalar o‘qituvchining axborot texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

- 1) zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;
- 2) shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;
- 3) umumiy kommunikativ (o‘zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi;
- 4) axborot vositasida o‘zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo‘lishi;
- 5) o‘zini refleksiya qilish (o‘z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo‘lishi;
- 6) axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o‘zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o‘zlashtirishdir.

Birgina interaktiv ta’lim platformalarining o‘zi bilan ham ta’limda ko‘plab ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda eng muhimi platformalardan unumli va o‘rinli foydalana olishni bilishdir. Ta’lim platformalarining eng afzal tomoni uning joy va vaqt tanlamasligidadir. Bu platformalar o‘qituvchilar va talabalar uchun interaktiv darsliklar, elektron darslar, sinovlar, ma’ruzalar, tajribalar, o‘zaro fikrlar va boshqa ta’lim materiallarini o‘z ichiga oladi.[3] Interaktiv ta’lim platformalarida shaxsiy kompyuterlarimiz va smartfonlarimiz orqali foydalanishimiz mumkin. Interaktiv ta’lim platformalarining muhim xususiyatlari haqida aytilganda quyidagilarga alohida to‘xtalish lozim:

1. Bu platformalar darslar, darsliklar va boshqa ta’lim materiallarini o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yaratish, o‘zlashtirish va baholash imkoniyatini taqdim etadi.
2. Har bir platformadan foydalanuvchi o‘zining shaxsiy o‘rganish yo‘nalishlariga mos ta’limni olish uchun boshqaruv tizimlarini tanlaydi. Bu, o‘rganuvchilar uchun bo‘sh vaqtini optimallashtiradi va o‘rganishni o‘zlashtirishga yordam beradi.

3. Interaktiv ta’lim platformalari o‘quvchilarga interaktiv darslar olish imkoniyatini beradi.

Bu, o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, ko‘nikmalar qo‘shish, sinovlar o‘tkazish va amaliy mashg‘ulotlar bajarganliklarini baholash imkoniyatini taqdim etadi.


4. Bu platformalar o‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun o‘quv natijalari va amaliyotlarni baholashga yordam beradi va har bir foydalanuvchi o‘zining o‘zlashtirish darajasini tekshirib biladi.

5. Interaktiv ta’lim platformalari har bir o‘quvchi uchun o‘zlashtirilgan ta’lim rejalarini tayyorlash imkoniyatini taqdim etadi. Ya’ni o‘rganuvchi o‘zining bilim darajasidan kelib chiqib o‘rganish darajasini va o‘rganish siklini tanlay oladi.

6. Bu platformalar o‘qituvchilar uchun ta’lim materiallarini yaratish, tahrirlash va boshqa o‘quv resurslariga integratsiya qilish imkoniyatlarini yaratadi. Ular internet orqali o‘quv materiallariga oson murojaat qilish imkonini beradi.

Bir so‘z bilan aytganda interaktiv ta’lim platformalari o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun o‘rganish jarayonini oson va samarali qilishga yordam beradi. Interaktiv ta’lim platformalaridan foydalangan holda bir vaqtning o‘zida ishlab ham ta’lim olish mumkin. Hozirgi kunda ko‘p foydalaniladigan interaktiv ta’lim platformalariga quyidagilarni namuna qilsak bo‘ladi:

Chizmachilik fanida foydalanish uchun yaratilgan chizmachilik.uz platformasini ko‘rishimiz mumkin. (1-rasm)




1-rasm. Chizmachilik.uz platformasi

Bu platformada chizmachilik fanidan nazariy, amaliy, ma’lumotlar, video tasvirlar, fanga doir testlar, topshiriqlar, adabiyotlar mavjud.

Google Classroom o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun maxsus platforma hisoblanadi.[4]

Bu platforma o‘qituvchilar darslarini yaratish, bajarish va baholash imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarga interaktiv darsliklar, mashg‘ulotlar va vazifalar yuklash imkoniyatini taqdim etadi. Bu platforma o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv sinovlar tashkil etishga imkon beradi.

Google Classroomni uyali telefonlarga ham yuklash mumkin.(2-rasm)



2-rasm. Google Classroom platformasi

O‘qituvchilar o‘quvchilar uchun sinovlar yaratish, ularga qo‘shimcha ma’lumotlar qo‘shish va natijalarni baholash imkoniyatiga ega. Bu interaktiv ta’lim platformalari faqat bir nechta va ta’lim sohasidagi

ko‘p asosiy bo‘lgan platformalardan faqat bir qismidir. Bu kabi interaktiv platformalar qulaylik, samarali o‘rganish imkoniyatini beradi va onlayn ta‘limning o‘ziga xos formatlarini taklif etadi.

Ta‘limda raqamlashtirish talabalarga texnologiya bo‘yicha harakat qilish va taqdim etilgan ma‘lumotlardan eng yaxshisini olish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi. Raqamli ta‘lim talabalari tarkibga kirish, iste‘mol qilish va tengdoshlari bilan bo‘lishishda qulaydir. Raqamli ta‘limning talabalarga bir qator kontent turlarini taqdim etadigan keng doirasi talabalarga o‘zlarining shaxsiy va kasbiy martabalarida xizmat qiladigan qimmatli ko‘nikmalarni yaratishda yordam beradi, chunki ular raqamli ta‘lim safariga kirishadi. Vebinarlar, gibrid va aralash ta‘lim, virtual va kengaytirilgan haqiqat, sun‘iy intellekt kabi raqamli platformalarning ishtiroki aqlli sinflarni yaratdi va boshqalar butun dunyo bo‘ylab raqamli ta‘lim tizimlarining yangi bo‘r va doskasiga aylandi.

**Xulosa** qilib shuni aytish kerakki bu kabi interaktiv ta‘lim platformalari kelajakda onlayn ta‘limning rivojlanishi, ta‘lim sohasidagi rivojlanish va innovatsiyalarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘ladi va global ta‘limning o‘sishida ham ta‘sir ko‘rsatadi. Onlayn ta‘limning kelajakda o‘sishi, turli tillarda mavzularni o‘qitish, o‘quv materiallarini tarjima qilish yordamida ko‘payib boradi. Bu, global o‘qitishga oid boshqa mamlakatlarga o‘quvchilarga yetarlicha ilova qilish imkonini beradi. Shunday ekan an‘anaviy darslar bilan birgalikda interaktiv ta‘lim platformalarini o‘zaro mutanosib ravishda birga olib borish yoshlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Raqamli texnologiyalarning ta‘limdagi o‘rni chuqur va keng qamrovli bo‘lib, o‘quv jarayonining barcha jabhalariga ta‘sir qiladi. Multimedia resurslari orqali faollikni oshirishdan tortib, shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv tajribalarini yaratish va hamkorlikni rivojlantirishga qadar ushbu texnologiyalar jonli va samarali ta‘lim landshaftini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli integratsiya imkoniyatlarini o‘rganishni davom ettirar ekanmiz, o‘qituvchilar, siyosatchilar va manfaatdor tomonlar ushbu yangiliklarni qabul qilishlari shart, bu esa barcha o‘quvchilar doimo rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan vositalar va ko‘nikmalar bilan jihozlanganligini ta‘minlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. -T.: BROK SLASS SERVIS, 2016.
2. Raximov O.D. Elektron ta‘lim resurslarini yaratish talablari va texnologiyasi. // «Zamonaviy ta‘lim» jurnali, 2016 yil, 2-son.
3. Yuldoshev I.A. O‘quvchilar mustaqil ta‘limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish. // «Zamonaviy ta‘lim» jurnali, 2017 yil, 12-son. – 65-70 betlar.
4. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.

## O‘QUVCHILARGA MA’LUMOTLAR BAZASINI YARATISH BOSQICHLARINI O‘QITISH METODIKASI

*Nabiyev Dilshod Paxlavonovich,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
Matematika va informatika kafedrasida o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada umumta’lim maktablari o‘quvchilarning ma’lumotlar bazasini yaratish bosqichlarini o‘qitish metodikasi va ularni yaratish talablari, ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari tushunchalari hamda ularning asosiy xususiyatlari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ma’lumotlar bazasi (MB), model sintezi, obyekt, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT), model, predmet, tarmoq, maydon, yozuv, fayl, jadval, foydalanuvchi interfeysi, relyatsion model va boshqalar.*

## МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ УЧЕНИКОВ ЭТАПАМ СОЗДАНИЯ БАЗЫ ДАННЫХ

*В данной статье представлена методика преподавания этапов создания баз данных учащихся в общеобразовательных школах и требования к их созданию, понятия о базе данных и системах управления базами данных и их основные особенности.*

**Ключевые слова:** *база данных, синтез модели, объект, системы управления базами данных, модель, объект, сеть, поле, запись, файл, таблица, пользовательский интерфейс, реляционная модель и т.д.*

## METHODOLOGY OF TEACHING THE STAGES OF CREATING A DATABASE TO STUDENTS

*This article presents the methodology of teaching the stages of creating a database of students in secondary schools and the requirements for their creation, the concepts of database and database management systems and their main features.*

**Keywords:** *database, model synthesis, object, database management systems, model, network, field, record, file, table, user interface, relational model.*

**Kirish.** Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivoji, axborot oqimining kun sayin ortib borishi va ma’lumotlarning tez o‘zgarishi insoniyatga ma’lumotlarni o‘z vaqtida qayta ishlash vazifalarining yangi usullarini topishga undamoqda. Ma’lumotlarni qayta ishlash, yig‘ish, saqlash va uzatish kabi vazifalar uchun ma’lumotlar bazi (MB) ni yaratish va undan keng qamrovda qo‘llash hozirgi kunning muammoli vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi vaqtlarda insoniyat axborot texnologiyalarining tez sur‘atda o‘zgarib borishiga duch kelmoqda, bu esa o‘z navbatida hisoblash texnika va texnologiyasining tobora rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Axborotlashgan jamiyat muhitining kelajakda inson hayotida tutgan o‘rni hamda ahamiyati bugungi kundagi holatidan bir qancha yuqori bo‘lishi uchun bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar ko‘lamini kengaytirishni talab etadi. Shuning uchun har bir inson ijtimoiy va ilmiy faoliyatini zamonaviy dasturlashtirish va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari qayta qurish, uni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish bugungi kunda eng dolzarb muammodir. Bu kabi bir qancha muammolarni hal etishda “Ma’lumotlar bazasi” fanining o‘rni beqiyos.

**Asosiy qism.** Bugungi kunga kelib har qanday axborot tizimlarining maqsadi real muhit obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tashkil qilish va ularga ishlov berishdan iborat. Bir so‘z bilan aytganda ma’lumotlar bazasi bu qandaydir bir predmet sohasidagi real muhitning aniq obyektlari haqidagi ma’lumotlar jamlanmasidir. Predmet sohasi deganda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini tashkil etish uchun o‘rganilayotgan real muhitning ma’lum bir qismi tushuniladi. Misol tariqasida institut kollej, maktab, zavod, tashkilot va boshqalardir.

**Ma’lumotlar bazasi (MB)** - bu o‘zaro bog‘langan va tartiblangan ma’lumotlar majmuasi bo‘lib, u ko‘rilayotgan obyektlarning xususiyatlarini, holatini, va obyektlar o‘rtasidagi munosabatni ma’lum sohada tavsiflaydi. Katta hajmli ma’lumotlar matematik asosga ega bo‘lgan ma’lumotlar bazasida saqlanadi. Ma’lumotlar bazasida ma’lumotlarni saqlash, uzatish va qayta ishlash uchun maxsus ma’lumotlar bazasini

boshqarish tizimlari (MBBT) yaratilgan. Natijada ulkan hajmdagi, turli tuzilmali axborotni saqlashning ishonchli, arzon va samarali imkoniyatlari vujudga keldi.

Ma'lumotlar bazasi tushunchasi 60-yillarning oxirlarida paydo buldi. Bungacha ma'lumotlarni qayta ishlash sohasida ma'lumotlar fayli va ma'lumotlarni o'lchash to'grisida gapirilar edi. Dasturchilar ma'lumotlarini shunday tashkil qilar ediki, u faqat qaralayotgan masala uchungina o'rinli bo'lardi. Har bir yangi masalani hal qilishda ma'lumotlar qaytadan tashkil qilinar edi va bu hol yaratilgan dasturlardan foydalanishni qiyinlashishiga olib keldi. Shundan so'ng ma'lumotlar bazasi konstepstiyasi sekin-asta avtomatlashtirilgan axborot tizimining rivojlanishi jarayonida taraqqiy eta boshladi.

Bugungi kunga kelib ma'lumotlar bazasini yaratishning quyidagi bosqichlari mavjud.

1. **Muammoning qo'yilishi.** Bu bosqichda ma'lumotlar bazasini yaratish uchun bir qancha vazifa shakllantiriladi va unda bazaning yaratish maqsadi, tarkibi, nima uchun ishlatilishi batafsil bayon etiladi. Shuningdek, ushbu MB da qanday turdagi ishlarni bajarish mo'ljallanayotganligini (tahrirlash, qo'shish, ma'lumotlarni o'zgartirish, hisobotni ekranda chiqarish yoki chop etish va boshqalar) sanab o'tiladi.

2. **Obyektlarning tahlil** -. Bunda ma'lumotlar bazasini qanday obyektlardan tashkil topishi mumkunligi va ularning xususiyatlari ya'ni obyekt qanday parametrlar bilan aniqlanishi ko'rib chiqiladi. Barcha ma'lumotlarni alohida yozuvlar yoki jadvallar ko'rinishida tasvirlash mumkin.

3. **Model sintezi** - Bu bosqichda yuqoridagi tahlil asosida MB modeli tanlanadi (Relyatsion, ierarxik, tarmoqli va boshqalar).

4. **Ma'lumotlar bazasi jadvallarining tuzilmasini tashkil etish.** Bugungi kunda relyatsion model eng ko'p ishlatilayotganligi hech kimga sir emas, shu sababli ma'lumotlar bazasi tuzilmasini yaratishni jadval nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi va tanlangan modelga muvofiq MB sxemasi, jadvallar, jadval maydonlari, jadvallar va tugunlar orasidagi bog'lanishlar yaratiladi.

5. **Axborotni tasvirlash usullari va dasturiy uskunasi.** MB sxemasi yaratilgandan so'ng dasturiy mahsulotga bog'liq holda axborotni tasvirlash usulini aniqlab olish kerak. Ko'pchilik ma'lumotlar bazasi boshqarish tizimlari tushunchasida ma'lumotlarni ikki xil ko'rinishda tasvirlanadi:

- shakllardan foydalangan holda;
- shakllardan foydalanilmagan holda;

Shakl – bu foydalanuvchi tomonidan MB ga ma'lumotlarni kiritish va ma'lumotlarni tasvirlash uchun yaratilgan grafik interfeysidir.

6. **Obyektning kompyuter modeli tahlili va uni tuzish texnologiyasi.** Bunda oldindan tanlab olingan dasturiy mahsulotning uskunaviy imkoniyatlarini oldindan baholab, kompyuterda MB ni bevosita yaratishga boshlash mumkin. MB ning kompyuter modelini yaratish jarayonida har qanday MBBT uchun tipik bo'lgan ayrim bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

o Ma'lumotlar bazasi boshqarish tizimlarini ishga tushirish, ma'lumotlar bazasining yangi faylini yaratish yoki oldindan yaratilgan bazani ochish;

- o Dastlabki jadvalni yoki jadvallarni yaratish;
- o Interfeysni yaratish;
- o Ma'lumotlar bazasini to'ldirish.

MB ni to'ldirish ikki ko'rinishda olib boriladi: Bunda sonli va matnli maydonlarni jadval ko'rinishida.

7. **Yaratilgan MB bilan ishlash.** Ushbu bosqichda ma'lumotlar bazasida ishlashning quyidagicha imkoniyatlari mavjud:

- o zarur axborotlarni izlash;
- o ma'lumotlarni saqlash;
- o kerakli ma'lumotlarni tanlab olish;
- o ma'lumotlarni chop etish;
- o ma'lumotlarni o'zgartirish va qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari tarmoq orqali ko'p foydalanuvchilarning MB dagi ma'lumotlaridan foydalanish chog'ida ma'lumotlarning himoyalanganligini ta'minlaydi va ular tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlar cheklanishlarini nazorat qilib boradi. Bir vaqtning o'zida bir necha mijozlar ma'lumotlardan foydalanganda ularning muvofiqligi, himoyalanihi avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari hamda ma'lumotlar bazasining asosiy xususiyatlari quyidagicha:

o Ma'lumotlarni joylashtirish va ularni birlashtirishning oddiyiligini ta'minlovchi modelning turli obyektlarida ma'lumotlarning takrorlanishining yo'qligi;

- o Ma'lumotlarni o'zaro zid emasligi;
- o MB ning yaxlitligi;
- o Ko'p jihatli kirishning mumkinligi.



○ Ma'lumotlarni har xil tanlash va ulardan foydalanuvchining turli topshiriqlar va ilovalarda foydalanishi;

○ Avariya holatlari, apparat va dastur buzilishi yoki foydalanuvchining xatolari paytida ma'lumotlarni himoya qilish va tiklash;

○ Foydalanuvchilarning beruxsat kirishlarini cheklash vositalari yordamida himoya qilish;

○ Ma'lumotlarni qayta o'zgartirmay ma'lumotlar bazasini tuzilmalarini modifikatsiya qilish imkoniyati;

○ Mijozlarning har qanday talabi bo'yicha mavjud axborotlarni ma'lumotlar bazasidan chiqarib berishni va foydalanuvchi uchun qulay hisobot shakllari ko'rinishida taqdim etishni ta'minlovchi yuqori darajali talablar tilining mavjudligi.

Ma'lumotlar bazasini o'rnatish. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari dastur mahsuloti bo'lib, amaliy dasturlar paketi ko'rinishida yetkaziladi. Uning shakllari, va operatsion tuzilishi, shuningdek vazifalar to'plash uchun bo'lgan talablari hisobga olingan holda kompyuterga o'rnatilishi zarur.

*Bosqichma – bosqich joriy qilish jarayoni.* Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarini o'rnatgach, ma'lumotlar bazasini kompyuterda yaratish, jumladan MB tuzilmalarini joylashtirish, ma'lumotlarni kiritish, shuningdek MBBT funksional imkoniyatlari nazarda tutilgan har qanday amallarni bajarish mumkin. Shaxsiy kompyuterlarga mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari yetarlicha ixcham va qulay bo'ladi. Bu foydalanuvchi ilovalarini ishlab chiqishning ilk bosqichlaridayoq MB ning alohida qismlarini yaratishga kirishishga imkon beradi. Bunday MB ni ishlab chiqish chuqurlashgani sari, u oson kengayishi va modifikatsiyalanishi mumkin. MB bilan ishlash texnologiyasi xodimlar tomonidan tez o'zlashtirilsa, MBBT ni bosqichma – bosqich joriy etish osonlashadi.

Ma'lumotlar bazasi tushunchasi maydon, yozuv, fayl (jadval) kabi elementlar bilan chambarchas bog'liqdir.

**Maydon** -bu ma'lumotlarni mantiqiy tashkil etishning elementar birligi bo'lib, u axborotning eng kichik va bo'linmas birligi bo'lgan rekvizitga mos keladi. Maydonni tasvirlash uchun quyidagi tavsiflardan foydalaniladi:

**Maydon nomi.** MB jadvali ustunlariga beriladigan nomlarni bildiradi, masalan ma'lumotlar bazasining ishchilar jadvali uchun maydon nomlari quyidagilar bo'lishi mumkin: familiyasi, ismi, tug'ilgan sana, lavozimi, ish staji, mutaxassisligi.

**Maydon turi.** MB jadvali ustunlariga kiritiladigan ma'lumotlar turlarini bildiradi. Masalan, raqam (числовой), simvol (символ), sana/vaqt (дата/время), mantiqiy (логический).

**Maydon o'lchami.** MB jadvali ustunlariga kiritiladigan ma'lumotlarning maksimal uzunligi. Masalan, eng ko'p belgilar sig'imi.

**Aniqlik,** (son turidagi ma'lumotlar uchun) haqiqiy son o'nlik kasr qismining maksimal uzunligi.

**Yozuv** –bu mantiqiy bog'langan maydonlar to'plami bo'lib, MB jadvali qatoridir.

**Fayl (jadval)** - bu bir xil tuzilmaga ega yozuv nusxalari to'plami.

**Kalit.** Kalit yozuv nusxasini bir qiymatli aniqlash uchun xizmat qiladi. Kalit bir yoki bir necha maydonni o'z tarkibiga olishi mumkin. Agar kalit faqat bir maydondan iborat bo'lsa, oddiy deb, aks holda, u tarkibiy kalit deb ataladi.

Ma'lumotlar bazasini yaratishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- unumdorlik;
- ortiqchalik;
- butunlik;
- xavfsizlik;
- maxfiylik;
- eng kam sarf va himoya.

**Unumdorlik** – bu foydalanuvchini MB bilan bog'lovchi, maxsus ishlab chiqilgan ilovalar hamda foydalanuvchi bilan muloqotni qanoatlantiradigan vaqtni ta'minlab berishi zarur. Bundan tashqari MB tizimiga kelib tushgan ma'lumotlarni qayta ishlashni ta'minlashi zarur.

**Ortiqchalik** - bu ma'lumotlar bazasida har bir ma'lumot faqat bir joyda saqlanishi va u takrorlanmasligi lozim. Agar ma'lumot faqat bir joyda saqlansa, ular qiymati o'zgartirilganda MB yaxlitligi ta'minlanadi. Chunki, u boshqa joyda takrorlanmasligi sababli boshqa aynan shunday qiymatni o'zgartirishga ehtiyoj yo'q. Ma'lumotlar bazasining unumdorligi ortiqcha ma'lumotlarning bo'lmasligiga bog'liq bo'ladi.

**Butunlik** - bu ma'lumotlar bazasi tarkibida ko'p foydalanuvchilar ishlatadigan ma'lumotlar bo'lishi lozim va unda ma'lumotlar elementlari va ular orasidagi bog'lanish imkon qadar buzilmasligi lozim. Ma'lumotlarni saqlash, ularni yangilash, ma'lumotlarni qayta ishlash tartibi shunday bo'lishi kerakki, u

tizimda biror o'zgarish bo'lib qolsa, ma'lumotlarni yo'qotishsiz qaytatdan tiklanishi kerak. Bundan tashqari, ma'lumotlarni har xil tizimli o'zgarishlardan saqlash uchun ularning qiymatlarini biror aniq o'lchovlarga mos kelishini ta'minlashda oldindan ko'zda tutilgan butunligini tekshirish amalga oshiriladi.

- **Xavfsizlik va maxfiylik** - bu ma'lumotlar yashirin va maxfiy saqlanishi kerak. Ma'lumotning xavfsizligini yuqori darajaga oshirish uchun uni texnik yoki dasturiy o'zgarishlardan, tabiiy va sun'iy vaziyatlardan saqlamoq maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumotlarning xavfsizligi bu ma'lumotlarni tasodifiy yoki ularga ruhsat etilmagan foydalanuvchilarning kirishidan himoya qilinishi tushuniladi. Maxfiyligi esa ayrim shaxslarning yoki tashkilotlarning qachon va qanday miqdorda boshqa shaxslarga yoki tashkilotlarga ma'lumotlarni berish huquqi bilan aniqlanadi.

**Eng kam sarf** – bu ma'lumotlar bazasini yaratishda va undan foydalanishdagi usullari shunday tanlanilishi kerakki, ular vaqt va xarajatlarni imkon darajada kamaytirsin.

**Qidiruv imkoniyatlar** - bu foydalanuvchining ma'lumotlar bazasiga turli xil shakldagi ma'lumotlarni olish uchun murojaat qilishi mumkuniligidir. Bunda tizim oldindan rejalashtirilmagan turli talablarni qayta ishlashni ta'minlashi yoki shunday javoblarni yarata olishi lozim.

**Sozlash** – bu ma'lumotlarning foydaliligini yaxshilash maqsadida uning bazasini qayta ko'rib chiqish. Ma'lumotlar bazasini sozlashga va uning ishlashiga administrator javobgar bo'ladi.

**Ma'lumotlar bazasi (MB)** da ishlashning afzalliklari:

- ixchamligi;
- axborotlarni qayta ishlash tezligining oshishi;
- kam mehnat sarfi;
- har doim yangi axborot olish imkoniyati;
- ma'lumotlar ortiqchaligining kamayishi.

**Ma'lumotlar bazasi** - kompyuter yordamida qidirib topilishi va qayta ishlatish mumkin bo'lgan tarzda tartibga solingan ma'lumotlar majmuidir. Bunga misol tariqasida talaba yoki o'quvchilar ro'yxati va ular haqidagi ma'lumotlar shuningdek, gurux jurnali ma'lumotlari, xisob kitob, maqolalar, telefon raqamlari, va shunga o'xshash ma'lumotlarni kiritish mumkin.

Ma'lumotlarni ishlash masalalarini yechish usullarni takomillashishi, ma'lumotlar banki tushunchasini paydo bo'lishiga olib keldi.

**Ma'lumotlar banki** – Ma'lumotlar bazasi hamda ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va ularni amalga oshiruvchi texnik vositalar majmuidir.

Ma'lumotlar banki - ma'lumotlarni markazlashtirilgan holda saqlash va jamoa bo'lib, foydalanishning avtomatlashtirilgan tizimidir. Ma'lumotlarni o'zida saqlab va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari ostida boshqariladigan fayl oldin «ma'lumotlar banki» deb atalib, keyinchalik esa “ma'lumotlar bazasi” dab yurutila boshlandi.

Ma'lumotlar banki istalgan ma'lumotlar to'plamiga tegishli bo'lishi mumkin, jumladan, mustaqil fayllar, MB va axborot izlovchi tizimlardir. Ma'lumotlar bazasidan va bankidan foydalanish o'zaro bog'langan ma'lumotlar to'plamlariga kirishni ulardan foydalanishni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni yangilash, keraksizlarini yo'qotishni avtomatlashtirishni taminlaydi.

Ma'lumotlar bazasi bu maxsus formatga ega bo'lgan muayyan tuzilmali fayl bo'lib, u yozuv deb ataladigan bir xil turdagi qismlardan iborat bo'ladi. Yozuv- o'zaro bog'langan ma'lumotlarning bir qismidir. Har bir yozuv maydon deb ataladigan bo'laklardan tashkil topadi. Maydon ma'lumotlarning eng kichik qismi hisoblanadi. Har bir maydon, o'zi ifodalaydigan ma'lumotlariga ko'ra biror nomga ega bo'ladi. Ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun foydalanuvchi ishini yengillashtirish maqsadida ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari yaratilgan. Bu tizimlar ma'lumotlar bazasini amaliy dasturlardan ajratilgan holda qaraydi.

**Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT)** – bu dasturiy hamda apparat vositalarining murakkab majmui bo'lib, ular yordamida foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini yaratishi va shu bazadagi ma'lumotlar bilan ishlashi mumkin. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari uchun maxsus dasturlash tillari mavjud va bu tillar buyruqli dasturlash tillari deb aytiladi. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlariga Oracle, Clipper, Paradox, FoxPro, Access va boshqa dasturlarni misol keltirish mumkin.

**Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT)** ning asosiy xususiyatlari bu ma'lumotlarni kiritish va saqlashda ishlatiladigan protseduralar tarkibi bo'libgina qolmay, ularning strukturaviy holtini ham tasvirlaydi. Ma'lumotlarni o'zida saqlab so'ngra ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida boshqariladigan fayllar ilgari ma'lumotlar banki so'ngra ma'lumotlar bazasi deb yurutila boshlandi. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarining quyidagi xossalari mavjud:

- Bir necha foydalanuvchilar paraller ishlashini ta'minlaydi;

- Har xil to‘xtalishlardan keyin ma’lumotlarni qayta tiklaydi;
- Ma’lumotlar ustida ish yurutish tili bilan ta’minlaydi;
- Fayllar to‘plami mantiqiy kelushuvni quvvatlaydi.

Bugungi kunga kelib ma’lumotlar bazasida ishlaydigan har bir foydalanuvchi quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

- Ma’lumotlar bazasi vazifalari;
- Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarining turlari, vazifalari va tarkibi;
- Tarmoqlangan ma’lumotlar bazasi va klassifikatsiyasi;
- Zamonaviy dasturlash texnologiyalari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimidan foydalanishni;
- Ma’lumotlar bazasini normal shaklga keltirish usullarini;
- Foydalanuvchi interfeysini shakllantirishni;
- Ma’lumotlar bazasini loyihalash, va yaratishni;
- Dasturlash texnologiyalarini;
- Dasturni testlashni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- Infologik modellar, predmet sohani tahlil qilish;
- Ma’lumotlar bazasini loyihalash bosqichlarini;
- Ma’lumotlar bazasi jadvalarini o‘zaro bog‘lash;
- Relyatsion modellar, kod algebrasidan foydalanish;
- Tanlab olingan algoritimga test misollarini ishlab chiqish;
- Dasturdagi xatoliklarni topish va tuzatish.

**Xulosa.** Ushbu maqolada o‘quvchilarning ma’lumotlar bazasini yaratish bosqichlari ketma – ketligi keltirilgan. Natijada o‘quvchilarning ma’lumotlar bazasini yaratishga hamda undan foydalanishga bo‘lgan bilimlarini yanada orttiradi. O‘quvchilarda ma’lumotlar bazasidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ularni kelgusida bu sohada bo‘lgan qiziqishlarini yanada rivojlantiradi.

#### Adabiyotlar:

1. Zaripov N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda webfreelance faoliyati //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
2. Зарипов Н. Н. Использование иностранного опыта в обучении информатике и информационным технологиям в школе //проблемы современного образования. – 2020. – №. 6. – С. 213-218.
3. Nabiyev, D. P. (2023). Zamonaviy ta’limda elektron texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati. // Educational Research in Universal Sciences, 2(3 SPECIAL), 1171-1175.
4. Paxlavonovich, N. D. (2024, March). The issue of organizing classes of general education schools in an electronic system. // In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 161-163).
5. Paxlavonovich, N. D. (2024). The problem of innovative activity in the organization of education on the base of information technologies in general education schools. // Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(6), 634-638.
6. Paxlavonovich, N. D. (2024). On the Pedagogical Basis of Using Innovative Information Technologies in the Educational System. // European journal of innovation in nonformal education, 4(6), 241-244.
7. Nabiyev D. (2023). Modern in education electron technologies and interactive of the methods of use importance. // Innovative research in modern education, 1(3), 27-30.
8. Pahlavonovich, N. D. (2022). Sun’iy intellekt tizimlarini loyihalashda qo‘llaniladigan yondashuvlar. innovative achievements in science 2022, 2(14), 25-28.
9. Javohirbek G‘anijon o‘g, Qulliyev. "The importance of programming languages in the field of artificial intelligence." // American journal of education and learning 2.3 (2024): 283-286.
10. Gaipnazarov, tahiridin Sidikovich G-11 Ma’lumotlar ombori: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/ T.S. Gaipnazarov, D.Y. Irgasheva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2017. — 224 bet.

## TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: MOBIL ILOVALAR TA'SIRI VA ISTIQBOLLARI

*Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna,*  
*Buxoro davlat tibbiyot instituti tyutori,*  
*Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*  
*nargizasayfetdinovna@gmail.com*

*Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonida mobil ilovalarning ta'lim tizimiga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonining sifatini oshirish, uni shaxsiylashtirish va interaktiv qilishda mobil ilovalarning tutgan o'rni batafsil ko'rib chiqiladi. Mobil ilovalar yordamida o'quv jarayonlarini talabalar uchun qiziqarli va qulay qilib tashkil etish imkoniyatlari yoritilib, o'qituvchilarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy texnologik yechimlar tahlil etiladi. Tadqiqot davomida ilg'or amaliy misollar, xalqaro tajriba hamda statistik ma'lumotlarga asoslangan holda mobil ilovalarning ta'lim sohasida qo'llanilish holati va istiqbollari atroflicha o'rganildi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar joriy etilishining ijobiy natijalari bilan bir qatorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik va metodik qiyinchiliklar ham ko'rib chiqildi.*

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, mobil ilovalar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, interaktiv o'qitish, gamifikatsiya, sun'iy intellekt, texnik infratuzilma, masofaviy ta'lim.

## ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В ОБРАЗОВАНИИ: ВЛИЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ

*В данной статье глубоко анализируется влияние мобильных приложений на систему образования в процессе цифровой трансформации. Подробно рассмотрена роль мобильных приложений в повышении качества образовательного процесса, его персонализации и интерактивности. Выделены возможности организации учебного процесса интересным и удобным для учащихся способом с помощью мобильных приложений, а также проанализированы современные технологические решения, служащие повышению эффективности работы преподавателей. В ходе исследования на основе передовых практических примеров, международного опыта и статистических данных были тщательно изучены состояние и перспективы использования мобильных приложений в сфере образования. При этом, наряду с положительными результатами внедрения цифровых технологий, были рассмотрены и возможные технические и методические трудности.*

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, мобильные приложения, персонализированное образование, интерактивное обучение, геймификация, искусственный интеллект, техническая инфраструктура, дистанционное образование.

## DIGITAL TRANSFORMATION IN EDUCATION: IMPACT AND PROSPECTS OF MOBILE APPLICATIONS

*This article provides an in-depth analysis of the impact of mobile applications on the education system in the process of digital transformation. The role of mobile applications in improving the quality of the educational process, its personalization and interactivity is examined in detail. The possibilities of organizing educational processes using mobile applications in an interesting and convenient way for students are highlighted, and modern technological solutions that serve to increase the efficiency of teachers are analyzed. During the study, the state and prospects of the use of mobile applications in education were studied in detail, based on advanced practical examples, international experience and statistical data. At the same time, along with the positive results of the introduction of digital technologies, possible technical and methodological difficulties were also considered.*

**Keywords:** digital transformation, mobile applications, personalized education, interactive learning, gamification, artificial intelligence, technical infrastructure, distance learning.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini zamonaviy davrning dolzarb masalalaridan biriga aylantirdi. Ushbu jarayon ta'lim

sifatini oshirish, uni shaxsiylashtirish va interaktiv shaklga keltirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mobil ilovalar bu jarayonning muhim qismi sifatida ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish, individual o’qitish metodlarini ishlab chiqish va diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini taqdim etmoqda [1].

Hozirgi kunda xalqaro tajriba mobil ilovalarning o’quv jarayonlaridagi samaradorligini ko’rsatmoqda. Masalan, Duolingo, Kahoot, va Google Classroom kabi ilovalar yordamida o’quv materiallari talabalarga qulay, qiziqarli va samarali tarzda yetkazib berilmoqda [2]. Yurtimizda ham mobil texnologiyalarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, O’zbekistonlik olimlar tomonidan mobil ilovalarning talabalarning bilim olish jarayoniga ta’siri o’rganilib, bu jarayonni yanada samarali qilish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [3].

Mobil ilovalar faqat o’quv materiallarini yetkazib berish vositasi emas, balki ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini o’z ichiga oluvchi kompleks yechim sifatida namoyon bo’lmoqda. Ular nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki talabalarni faollashtirish, mustaqil fikrlashga undash va bilimlarini amaliyotda qo’llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, Learning Management Systems (LMS) tizimlari va mobil ilovalar yordamida o’quv materiallarini boshqarish va o’quv jarayonini monitoring qilish imkoniyati yaratilmoqda [4].

Yurtimizda ham raqamli transformatsiya jarayoniga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish”ga oid qarorlari doirasida ta’limda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish choralari ko’rilmoqda. Bu jarayonlar nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki ta’lim resurslariga kirishni kengaytirishga, talabalar va o’qituvchilar o’rtasida innovatsion texnologiyalarni qo’llash madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, A.Karimovning raqamli transformatsiyaga oid ilmiy izlanishlarida oliy ta’limning raqamli transformatsiyasi va uning ta’lim sifatini oshirishdagi o’rni tahlil qilingan [5]. Shuningdek, Qozog’iston, Rossiya va boshqa MDH davlatlarida ham raqamli ta’lim texnologiyalari va mobil ilovalarning ta’lim jarayonlariga integratsiyasi bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilish, o’quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo’lib raqamli transformatsiya jarayonida mobil ilovalarning dolzarbligini ko’rsatmoqda.


**Materiallar va metodlar.** Tadqiqotda raqamli ta’lim texnologiyalarining ta’sirini o’rganish uchun sifat va miqdoriy tahlil usullari birgalikda qo’llanildi. Birinchi bosqichda zamonaviy mobil ilovalar, jumladan, **Edmodo, Kahoot, Google Classroom, Duolingo, va Quizlet** kabi ta’lim platformalarining ta’lim jarayonlaridagi o’rni, afzalliklari va kamchiliklari chuqur tahlil qilindi [1,2]. Ushbu ilovalarning samaradorligini baholash maqsadida foydalanuvchilarining o’quv jarayonidagi faolligi, qiziqishi va bilim olish darajasiga ta’siri o’rganildi.

Ikkinchi bosqichda talabalar va o’qituvchilar o’rtasida so’rovnoma o’tkazilib, ularning mobil ilovalarni qanchalik samarali ishlatayotganliklari hamda bu ilovalar ularning o’qitish va o’rganish jarayonlariga qanday ta’sir ko’rsatayotganligi aniqlab olindi. So’rovnoma natijalarida mobil ilovalarni ishlatishda uchraydigan texnik va pedagogik muammolar, shuningdek, ularning ta’limni shaxsiylashtirishdagi o’rni kabi jihatlar tahlil qilingan.

Tadqiqotda, shuningdek, adabiyotlar tahlili orqali raqamli transformatsiya va mobil texnologiyalarning ta’limdagi zamonaviy tendensiyalari o’rganildi. Pedagogik nuqtayi nazardan raqamli vositalarning talabalar bilim olish jarayoniga qanday ta’sir ko’rsatishi, ularning tanqidiy va kreativ fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi [4].

Tajriba-sinov metodlari orqali mobil ilovalarning o’qitish samaradorligini oshirishdagi roli amaliyotda tekshirildi. Pedagogik tajribada, xususan, o’quv jarayonining turli bosqichlarida mobil ilovalarni qo’llashning samaradorligi baholandi. Natijalar tahlili uchun statistik ma’lumotlar yig’ilib, ularga asoslangan holda grafiklar va diagrammalar yaratildi. Tadqiqot davomida ushbu ilovalarning interaktivlik, moslashuvchanlik va foydalanish qulayligi bo’yicha afzalliklari aniqlanib, ularni joriy etish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqildi [6].

Mazkur metodologik yondashuv ta’lim jarayonlarida mobil ilovalarning roli va ta’sirini chuqur o’rganish, shuningdek, ularning raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga qo’shayotgan hissasini ilmiy asosda baholash imkonini beradi. Quyidagi diagrammada turli mobil ilovalar (Edmodo, Kahoot, Google Classroom, Duolingo, Quizlet) yordamida talabalarning samaradorligi va o’qituvchilarning qoniqish darajasi foizlarda ko’rsatilgan.



**1-rasm. Mobil ilovalardan talabalarning samaradorlik va o'qituvchilarning qoniqish darajasi**

Diagrammadan ko'rish mumkinki, Google Classroom va Edmodo kabi ilovalar yuqori samaradorlik va qoniqish darajasiga ega. Ushbu ma'lumotlar, shuningdek, mobil ilovalarning o'quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va qulay qilishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Mobil texnologiyalarni ta'limga yanada kengroq joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda ushbu statistik natijalar asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar turli manbalardan olingan tadqiqotlar va tahlillarga asoslanadi. Masalan, Rasulova va Isroilov tomonidan olib borilgan tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitishda multimediali mobil ilovalardan foydalanishning statistik tahlili keltirilgan [7]. Bundan tashqari, Zakirova va Nafasov ta'lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning pedagogik asoslarini o'rganib, ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilganlar [8]. Ushbu tadqiqotlar va tahlillar mobil ilovalarning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi va yuqoridagi statistik ma'lumotlar ana shunday ilmiy ishlar natijalariga asoslanadi.



**2-rasm. Mobil ilovalardan ta'lim jarayonida foydalanishning asosiy jihatlari**

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalar ta'lim jarayonlarini takomillashtirishda quyidagi uchta asosiy jihatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

1. **Shaxsiylashtirish.** Mobil ilovalar talabalarning individual ehtiyojlari va o'quv jarayonidagi imkoniyatlarini hisobga olishga imkon yaratadi. Ular talabalarga o'z bilim darajalariga mos dars materiallarini tanlash, qiyinlik darajasini sozlash va shaxsiy maqsadlar asosida ta'limni davom ettirish imkoniyatini beradi. Masalan, Duolingo va Kahoot kabi ilovalar foydalanuvchi ma'lumotlariga asoslangan algoritmlar yordamida darslarni moslashtiradi [1]. Shu tariqa, shaxsiylashtirilgan ta'lim jarayoni talabalarning motivatsiyasini oshiradi va ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

2. **Interaktivlik.** Mobil ilovalar yordamida talabalarning bilim olish jarayonlari yanada faol va interaktiv bo'ladi. Ilovalar o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida real vaqt rejimida muloqot qilish, qayta aloqani ta'minlash va talabalar faoliyatini monitoring qilish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, Google Classroom orqali o'qituvchi va talabalar o'rtasida dars materiallarini almashish, topshiriqlarni muhokama qilish va tezkor fikr almashish imkoniyati yaratilgan [2]. Bundan tashqari, o'yinlashtirish (gamification) usuli ham interaktivlikni kuchaytirib, talabalar faolligini oshiradi.

3. Qulaylik. Mobil ilovalar istalgan vaqtda va joyda ta’lim olish imkonini ta’minlaydi, bu esa ayniqsa masofaviy ta’lim uchun juda muhim. Ular orqali talabalar o’quv materiallariga doimiy kirish imkoniyatiga ega bo’ladi, topshiriqlarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun turli resurslardan foydalanadi. Masalan, Quizlet foydalanuvchilarga istalgan joyda fleshkartalar yordamida tayyorlanish imkoniyatini beradi, bu esa talabalar bilimini mustahkamlashga yordam beradi.

Mobil ilovalarning ko’plab afzalliklariga qaramasdan, ulardan foydalanishda ayrim muammolar kuzatilmoqda:

- Internetga ulanish muammolari: Ayrim hududlarda barqaror internet aloqasining mavjud emasligi talabalar uchun asosiy to’siq bo’lib qolmoqda [5].

- Pedagoglarning texnik bilimlari: Ba’zi pedagoglar mobil ilovalardan foydalanishda yetarli darajada texnik ko’nikmaga ega emasligi sababli ilovalardan samarali foydalana olmaydi. Bu holat o’qituvchilarga tegishli maxsus treninglar va qo’llab-quvvatlashni talab qiladi [6].

- Xavfsizlik masalalari: Mobil ilovalar orqali axborot almashish jarayonida ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan, ilovalar ishlab chiquvchilari xavfsizlik protokollarini takomillashtirishi lozim [4].

Ushbu natijalar shuni ko’rsatadiki, mobil ilovalar ta’lim jarayonlarini samarali tashkil qilish va shaxsiylashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, mavjud muammolarni hal qilish uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, o’qituvchilarni o’qitish va xavfsizlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, mobil ilovalarni ta’lim jarayoniga yanada kengroq joriy etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida mobil ilovalar ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, uning sifatini oshirishda muhim rol o’ynamoqda. Mobil ilovalar o’qitish va o’qish jarayonlarini modernizatsiya qilish, talabalar va o’qituvchilar o’rtasidagi o’zaro ta’sirni kuchaytirish hamda ta’limning universalligi va qulayligini ta’minlashga qaratilgan yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Jumladan:

Raqamli transformatsiyada mobil ilovalarning asosiy afzalliklari: Mobil ilovalar orqali ta’lim jarayonlarini shaxsiylashtirish, interaktiv qilish va joylashuv yoki vaqt bo’yicha cheklovlarni bartaraf etish imkoniyati ta’minlanadi. Ilmiy tadqiqotlar ko’rsatmoqda, bu platformalar ta’limning universalligini kengaytirib, ko’proq talaba qamrab olinishiga yordam bermoqda [9]. Ayniqsa, masofaviy ta’lim va aralash o’qitish tizimida mobil ilovalar innovatsion texnologiyalarni samarali tatbiq etish imkoniyatini beradi.

Mobil ilovalarning ta’lim jarayonini takomillashtirishdagi roli: Mobil ilovalar pedagogika va ta’lim texnologiyalarini integratsiyalashga xizmat qilmoqda. Masalan, Google Classroom va Kahoot kabi platformalar o’qituvchi va talabalarning bilim olish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi [4]. Bunday vositalar talabalarni mustaqil o’qishga undab, ularda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko’nikmalarini shakllantiradi.

Istiqbolli yo’nalishlar: Kelgusida mobil ilovalarni ta’lim tizimiga kengroq integratsiya qilish bir nechta istiqbolli yo’nalishlarni ochib beradi:

- Sun’iy intellekt va adaptiv texnologiyalarni qo’llash: Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan mobil ilovalar shaxsiylashtirilgan o’qitish usulini yanada takomillashtiradi [Smith, 2023].

- Gamifikatsiya elementlarini chuqur integratsiya qilish: O’yinlashtirilgan platformalar talabalar motivatsiyasini oshirishda katta rol o’ynaydi, chunki ular o’quv materiallarini qiziqarli va interaktiv shaklda yetkazadi [2].

- Ma’lumotlar tahlilidan foydalanish: Mobil ilovalar orqali yig’ilgan katta hajmdagi ma’lumotlar o’quv jarayonlarini chuqur tahlil qilish va samaradorlikni oshirish uchun foydalanilishi mumkin.

Amaldagi cheklovlar va ularni bartaraf etish strategiyalari: Mobil ilovalar raqamli transformatsiyaning muhim komponenti bo’lsa-da, ularni joriy etishda ba’zi cheklovlar mavjud. Xususan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, pedagoglarning texnologik ko’nikmalarining pastligi va axborot xavfsizligi bilan bog’liq muammolar yechimini talab qiladi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi, shuningdek, ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur [6].

**Xulosa.** Mobil ilovalar raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ular o’qitish jarayonini individuallashtirish orqali talabalarni o’ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta’lim bilan ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, mobil ilovalar o’qituvchilarga dars materiallarini samarali boshqarish, vaqtni tejash va talabalarning o’quv faoliyatini kuzatish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Bu

platformalar nafaqat o‘quv jarayonini interaktiv qilish, balki istalgan vaqtda, istalgan joyda bilim olish imkoniyatini yaratib, ta’limning universalligini kengaytirmoqda.

Mobil ilovalar orqali shaxsiylashtirilgan va interaktiv ta’lim jarayonlari talabalar o‘rtasida bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘quv jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi. Masalan, gamifikatsiya elementlari va sun’iy intellekt asosida ishlaydigan ilovalar ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini bermoqda.

Biroq raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati bir qancha muammolarni hal qilishga bog‘liq. Birinchidan, texnik infratuzilma masalasi, ayniqsa, qishloq va olis hududlarda, barqaror internet aloqasini ta’minlashni talab qiladi. Ikkinchidan, pedagoglarning texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi mobil ilovalarning samaradorligini cheklashi mumkin. Uchinchidan, axborot xavfsizligi va ma’lumotlar maxfiylikini ta’minlash masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki mobil ilovalar orqali ulkan hajmdagi ma’lumotlar uzatiladi va saqlanadi.

Kelgusida mobil ilovalarni yanada samarali qo‘llash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi, ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish hamda pedagoglarning malakasini oshirishga e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, o‘quv jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish orqali mobil ilovalarni nafaqat yordamchi vosita, balki innovatsion ta’lim tizimining asosiy qismi sifatida rivojlantirish mumkin.

Mobil ilovalarning ta’lim tizimiga integratsiyasi ta’lim sifatini oshirish, ta’lim olishga bo‘lgan imkoniyatlarni kengaytirish va zamonaviy texnologiyalar yordamida kelajak avlodni tayyorlash uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi. Bu jarayonning samaradorligi esa texnologik rivojlanish va pedagogik yondashuvlarning birgalikda muvozanatli amalga oshirilishiga bog‘liq.

#### Adabiyotlar:

1. Smith, J. (2023). Digital Transformation in Education: The Role of Mobile Applications. // *Journal of Educational Technology*.
2. Brown, A., & Lee, C. (2022). Interactive Learning through Mobile Apps. // *Technology in Education Review*.
3. Shakirova S. (2023). Ta’lim jarayonida foydalaniladigan mobil ilovalar. // *Filologiya masalalari – yosh tadqiqotchilar nigohida*. Vol. 1 No. 1
4. Garrison D. R. (2021). *E-Learning in the 21st Century*. Taylor & Francis.
5. Karimov A.A. Raqamli transformatsiya - ta’lim sifatining lokomotividir. // *Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023*
6. Alimova A. (2023). Ta’limda raqamli transformatsiya: // *Mobil ilovalarning amaliyoti va istiqbollari*. Mahalliy ilmiy jurnal.
7. Rasulova F., & Isroilov S. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda multimediali mobil ilovadandan foydalanishning statistik tahlili. // *Al-Farg‘oniy avlodlari*. 1(4), 277–280.
8. Zakirova F.M., Nafasov M.M. Ta’lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning pedagogik asoslari. // *Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 4 | 2022*
9. OECD (2022). *The Impact of Digital Technologies on Education*.



## GOOGLE FORMS PLATFORMASINI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

*Ne'matov Oybek Erkin o'g'li,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.  
oybek.nematov1991@gmail.com*

*Maqolada Google forms platformasining afzalliklari hamda platformani ta'lim jarayonida qo'llash tartibi ko'rsatilgan. Google forms platformasida test yaratish va onlayn test o'tkazishni amalga oshirish haqida ma'lumot keltirilgan. Platformada test natijalarini tahlil qilish natijalari bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** Google Forms, onlayn test, veb platforma, veb-sahifa.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЛАТФОРМЫ GOOGLE FORMS В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*В статье описываются преимущества платформы Google Forms и способы её использования в образовательном процессе. Предоставляется информация о том, как создать тест и провести онлайн-тестирование на платформе Google Forms. На платформе представлены результаты анализа результатов испытаний.*

**Ключевые слова:** Google Forms, онлайн-тест, веб-платформа, веб-страница.

## USING THE GOOGLE FORMS PLATFORM IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*The article describes the advantages of the Google Forms platform and how to use it in the educational process. Information is provided on how to create a test and conduct online testing on the Google Forms platform. The results of analysing test results are presented on the platform.*

**Keywords:** Google Forms, online test, web platform, web page.

**Kirish.** Hozirgi kunda ta'lim jarayonida test orqali o'quvchi (talaba) bilimlarni baholash, operativ baholashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari testlar, so'rovlar va anketalar ma'lum bir sohaning reytingini aniqlashda ham qulay vosita hisoblanib, natijalarning tezkorligi bilan boshqa baholash mezonlaridan ajralib turadi.

Google forms platformasi test o'tkazuvchilarga, test yaratish va online masofaviy test jarayonini tashkil etishning bir necha xil usullarini taqdim etadi. Ayniqsa, Google Forms yordamida yaratilgan testlar, foydalanishda qulayligi va osonligi jihatidan barcha sohalarida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Google Forms platformasi turli xil shakllarni o'z ichiga olgan veb platforma bo'lib, unda anketa (anketa) yoki viktorina (quiz) joylashtirilgan tanlovda, bir yoki bir nechta ishtirokchilar qatnashadigan va online tarzda o'tkaziladigan tanlov hisoblanadi.

Google Forms platformasi yordamida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- Turli tadbirlarda onlayn registratsiyadan o'tish;
- Onlayn tadqiqot o'tkazish;
- Fikrlarni jamlash (to'plash);
- Yozma kelishuvlar;
- Ovoz berish;
- Anketa so'rovnomalari
- Test o'tkazish va hokazo.

Google Forms nimasi bilan qulay?

Foydalanishdagi qulaylik. Google Forms bilan ishlash MyTest dasturida ishlashdan ko'ra osonroq. Interfeysi qulay va tushunarli. Shaklni yuklab olish, mijozlarga yuborish va pochta orqali to'ldirilgan versiyani qabul qilish shart emas.

Forma bulutli texnologiya asosida ishlaydi. Agar siz turli xil qurilmalardan ishlasangiz, Google Formsdagi shaklni, internet mavjud bo'lgan qurilmalardan browser dasturi orqali istalgan vaqtda veb sahifasiga kirib, yuklab olishingiz mumkin.

Individual dizayn. Shakl (forma) uchun siz o'z dizayningizni yaratishingiz mumkin. Google Forms sizga bepul bo'lgan ko'p sonli shablonlarni tanlash yoki o'zingizning yuklashingiz mumkin bo'lgan imkoniyatni beradi.

Xizmatning o‘zi bepul. Agar siz to‘satdan qo‘shimcha plaginlarning kengaytirilgan versiyasiga ehtiyoj sezsangiz, to‘lov qilishingiz kerak bo‘ladi.

**Mobillik.** Google Forms mobil qurilmalarda ishlaydi. Siz to‘liq funksional xususiyatlarga ega bo‘lgan smartfonlar yordamida shakllarni telefoningiz va planshetingizda yaratishingiz, ko‘rishingiz, tahrirlashingiz va yuborishingiz mumkin.


**Tushunarliklik.** Google Forms javoblar bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni to‘playdi va professional ravishda rasmiylashtiradi. Olingan ma‘lumotlarni qo‘shimcha ravishda qayta ishlashingiz shart emas, darhol natijalarni tahlil qilishni boshlashingiz mumkin.

Javoblar statistikasini diagramma shaklida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaklda va respondentlarning javoblarini avtomatik ravishda yaratilgan Google elektron jadvalidan topishingiz mumkin.


Google Formsdan foydalanib, siz test yaratishingiz, uni o‘quvchilarga yuborishingiz va javoblarni baholashingiz mumkin. Test natijalari to‘g‘ri javoblar soniga qarab avtomatik ravishda hisoblanadi.

**Materiallar va usullar.** Google Forms platformasida test yaratish uchun, google chrome dasturi orqali qidiruv bo‘limi yordamida “Google Forms” deb qidiruvni amalga oshiramiz va qidiruv natijasida chiqqan birinchi saytni tanlaymiz (1-rasm). Shuni esda tutish zarurki, ushbu platformadan foydalanish uchun, siz, google hisobidan ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishingiz zarur, ya‘ni sizda google account mavjud bo‘lishi kerak.

**1-rasm. Google Forms sahifasi qidiruv oynasida ko‘rinishi.**




1-Rasmda ko‘rsatilgan sahifani ustiga bosganimizdan so‘ng, platformaga kirish oynasi ochiladi va u yerdan “Перейти в Формы” tugmasini ustiga bosamiz (2-rasm).



**2-rasm.**

Yangi ochilgan oynadan “Пустая форма” tugmasini bosib, test yaratish oynasi “Новая форма” sahifasini ochib olamiz (3-rasm).




3-rasm.

«Новая форма» sahifasida quyidagi asosiy uskunalar mavjud:

**Вопросы**  
**Настройки**


- Ответы**
- Savol va topshiriqlar kiritish sahifasiga o'tish;
  - Javoblar va natijalarni ko'rish sahifasiga o'tish;
  - Sozlamalar sahifasiga o'tish;

Test yaratish uchun eng avval, «Настройки»(Sozlamalar) sahifasiga o'tib, testni belgilash zarur bo'ladi va u yerdan test savollari uchun eng yuqori ballni ham kiritish kerak bo'ladi (4-5-rasmlar).



4-rasm (Test sozlamasi).

5-rasm (Test uchun eng yuqori ballni belgilash)



Test sozlamalarini o‘rnatganimizdan so‘ng, «Вопросы» veb-sahifasida, «Новая форма» deb yozilgan yozuvni o‘chirib, forma nomini yozamiz, «Описание» da esa, testimiz to‘g‘risida qisqacha tavsif beramiz hamda, quyidagi uskunalar yordamida test formasini yaratamiz va savol va javoblarni kiritamiz (6-rasmga qarang):

6-rasm.

Google Forms yordamida yaratish mumkin bo‘lgan test savollarini, javoblarni belgilash tartibiga qarab quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

Текст (строка)	- Matn(qator) – ya’ni test javobini yozma 1 qatorda kiritishni belgilash;
Текст (абзац)	- Matn(paragraf) – ya’ni test javobini yozma ko‘p qatorli kiritishni belgilash;
Один из списка	- Bitta javobli - ya’ni javoblardan faqat bittasini belgilay olish shaklida;
Несколько из списка	- Bir nechta javobli – ya’ni javoblardan 2 yoki undan ortiq javobni belgilay olish shaklida;
Раскрывающийся список	- Ochiladigan ro‘yxat – ya’ni javoblar ochiladigan ro‘yxat shaklida;

Bundan tashqari, ekranning o‘ng tomonidagi belgilar yordamida esa savol qo‘shish, test savollari bankini import qilish, savollarga izoh qoldirish, kompyuter diskidan, Google Diskdan yoki biror internet manzili hamda rasmi fayllarga qidiruv berish orqali tasvirlarni yuklash mumkin. Shuningdek, YouTube dan video yuklash va tegilshli YouTube manziliga havola berish hamda savollar uchun yangi bo‘lim qo‘shish mumkin bo‘ladi. Ya’ni quyida keltirilgan belgilar yordamida:

- Savol qo‘shish;
  - Formda oldindan tayyorlangan savollar bankini import qilish;
  - Savolga izoh berish;
  - Rasm joylashtirish (kompyuterdan, Google Diskdan yoki internet tarmoq‘idan qidirish orqali);
  - Savolga YouTube dan video yuklash;
  - Qo‘shimcha yangi bo‘lim ochish.
- Savol va javoblarni kiritganimizdan so‘ng, qo‘shimcha sozlamalar hamda, javoblar ichidan to‘g‘ri javobni belgilab qo‘yishimiz uchun, quyi panelda joylashgan tugmasini bosamiz va hosil bo‘lgan forma interfeysidan to‘g‘ri variantni belgilab, to‘g‘ri javob uchun ball shkalasi kiritiladi, Odatda ball shkalasida har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball kiritamiz. (7-rasm).

Выберите верные варианты:

Misolni yeching  $1000+101010 = ?$  1 балл.

1000

101010

102010 ✓

[Добавить пояснение](#)

[Готово](#)

### 7-rasm. To‘g‘ri javobni belgilash

Savol va javoblar ostida joylashgan quyi panel uskunalari orqali ham test variant uchun qo‘shimcha sozlamalarni o‘rnatishimiz mumkin. Masalan, variantni nusxasini hosil qilish, variantni o‘chirish, savolni belgilashni majburiy qilib qo‘yish hamda, savolga qo‘shimcha tavsif qo‘shish, variant javoblarini taqribiy tartiblash rejimi va har bir javob uchun harakatni belgilash (8-rasmga qarang).

**To‘g‘ri javoblar va ball** **Savolni nusxalash** **Savolni o‘chirish** **Majburiy savol**

[Ответы](#) (10 баллов)    [Обязательный вопрос](#)

### 8-rasm. Quyi panel.

Oynaning o‘ng yuqori qismidagi ikonkasi orqali savollar xuddi shu tarzda qo‘shib borilaveradi.

Ekraning yuqori qismidagi belgisi orqali esa, test savollarini sozlamalarini o‘zgartirish mumkin.

Test varianlari hosil qilingandan so‘ng, albatta uni kim tomonidan yechilishini ya‘ni shaxsini aniqlashtirish, qaysi sinfda o‘qishini aniqlash hamda nazorat qilish uchun so‘rovnoma ko‘rinishida yangi forma yaratishimiz kerak bo‘ladi, xuddi 9-10-rasmlarda ko‘rsatilgan kabi. So‘rovnoma formasida ballni 0 ball qilib kiritish ham esdan chiqmasligi zarur, chunki so‘rovnoma baholanmasligi kerak, aks holda baholashda xatolik yuzaga keladi.


Ism familiyangizni kiriting: Текст (строка)

Краткий ответ

Правильный ответ: Правильный ответ

[Ответы](#) (0 баллов)    [Обязательный вопрос](#)

9-rasm. Sinfni belgilash uchun test so‘rovnomasi shakli




10-rasm. O‘quvchini shaxsini aniqlash uchun so‘rovnoma shakli

**Imkoniyatlar va natijalar.** Testni barcha yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatmalar yordamida tayyorlaganimizdan so‘ng, ushbu testni nazorat uchun o‘quvchilarimizga uzatishimiz mumkin. Buning uchun, tepa panelda joylashgan “Отправить” tugmasini bosamiz.

Test formasini o‘quvchiga yuborishni 2 xil usulda amalga oshirishimiz mumkin:


- ✉ E-mail pochta manzillarini kiritish orqali;  
URL internet manzilni telegram yoki sms xabarda yuborish orqali;
- 🔗 Testni URL internet manzilini o‘quvchilarga yuborish uchun, “Отправить” tugmasini bosishdan hosil bo‘lgan oynadan kerakli sozlamalarni o‘rnatamiz va “Копировать” tugmasini bosish orqali nusxalab olamiz (11-rasm).



11-rasm. Test URL ni nusxalash


*O‘qituvchi test natijalari haqidagi ma’lumotlarni qay tarzda oladi?*

Yaratilgan test topshiriqlari Google Forms ilovasi yordamida ochiladi. Buning uchun brauzer dasturi manzil qatoriga *forms.google.com* manzili kiritiladi. Hosil bo‘lgan veb-sahifada oxirgi ishlatilgan yoki yaratilgan shakllar ro‘yxati turadi (12-rasm).



12-rasm.

Ro‘yxatdan Test shaklini tanlab, hosil bo‘lgan oynaning “**Ответы**” bo‘limiga o‘tiladi. “**Ответы**” bo‘limida yuborilgan test natijalari statistikasi bilan tanishib chiqish va natijalarni “excel” elektron jadval ko‘rinishida saqlab olish imkoniyatlari mavjud (13-rasm).



13-rasm.

Javoblarni elektron jadval ko‘rinishida saqlab olish uchun “**Установить связь с Таблицами**” tugmasi ustiga bosiladi. Hosil bo‘lgan oynadan “**Создать**” tugmasi bosiladi va natijalar “**Новая таблица**” - Javob fayli **Google Sheets**da yaratiladi.

*Eslatib o‘taman:* Javob fayli yaratilgandan so‘ng, Google Sheets (ilovada va web-versiyada) va “Google Drive” da paydo bo‘ladi hamda saqlanib turadi.

**Xulosa.** Test asosida o‘rganuvchilar (o‘quvchi yoki talaba)ning bilimini nazorat qilish nazorat turlari ichida ancha samarali usul sanaladi. Bugungi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda testlarni tuzishda ham zamonaviy texnologik usullardan foydalanish ham vaqtda ham resursda unumdorlikni yuzaga keltiradi. Bu texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish uchun test tuzuvchidan yuqoridagi Google Forms kabi platformalar haqida bilim, ko‘nikma va malaka talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, Google Forms platformasi onlayn test tashkil etilish imkoniyati mavjudligi, to‘g‘ri javoblar sonini avtomatik hisoblashi orqali pedagog uchun qulaylik yaratadi. Bu esa o‘rganuvchilar (o‘quvchi yoki talaba)ning bilimini nazorat qilish jarayonida vaqtdan yutishga imkoniyat yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. <https://workspace.google.com/products/forms/> -rasmiy sayt.
2. Неъматов, Ойбек, and Моҳинур Умирова. "Значение информационно-коммуникационных технологий в организации процесса начального образования." // Журнал научно-инновационных исследований в Узбекистане 2.4 (2024): 77-81.
3. <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/> rasmiy sayt.
4. М.Кадиров “Ахборот texnologiyalari” Toshkent -2018.
5. G‘ulomov S.S., Begalov B.A. “Informatika va axborot texnologiyalari”
6. Khomidov Khusniddin Kupaysinovich. "Cooperation between state and public organizations in the meaningful organization of youth leisure activities." // Thematics Journal of Social Sciences 7.3 (2021).
7. Homidov H. K. "Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishning amaldagi holati va takomillashtirish yo‘llari." // Экономика и социум 5-1 (108) (2023): 83-87.
8. Khomidov Khusniddin Kupaysinovich. "Cooperation between state and public organizations in the meaningful organization of youth leisure activities." // Thematics Journal of Social Sciences 7.3 (2021).
9. Купайсинович Ҳомидов Ҳусниддин. "Таълим-тарбия сифатини таъминлашда жамоат ташкилотларнинг роли." Наманган давлат университети-2021 1: 561.



## O‘QUV JARAYONIDA DJANGO (PYTHON)NING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Qambarov Bahriddin Panji o‘g‘li,**

Termiz davlat universiteti stajyor o‘qituvchisi

[qambarov.b.p1997@gmail.com](mailto:qambarov.b.p1997@gmail.com)

**Tursunov Farxod Baxodir o‘g‘li,**

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

[farxoddd1007@gmail.com](mailto:farxoddd1007@gmail.com)

*Ushbu maqolada o‘quv jarayonida django kutubxonasi o‘rni, ahamiyati, nazariyasi va imkoniyatlari yoritib berilgan. Django — bu Python asosidagi kuchli veb-ramka bo‘lib, o‘quv jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. U veb-illovalarni yaratishda tezkorlik, xavfsizlik va kengayuvchanlikni ta‘minlaydi. Django talabalarga ma‘lumotlar bazasi, autentifikatsiya, foydalanuvchi interfeysi yaratish kabi amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Ramkaning MVT tuzilmasi tizimli dasturlashni tushunishni osonlashtiradi. Keng ommalashganligi sababli, Django bo‘yicha ko‘plab o‘quv resurslari mavjud bo‘lib, bu jarayonni yanada qulay qiladi. Django real loyihalarda foydalanish imkonini berib, talabalarning amaliy va nazariy bilimlarini mustahkamlaydi.*

**Kalit so‘zlar:** dasturlash tillari, yuqori va quyi darajali dasturlash tillari, java, python(django), javascript, PHP, C++, C#, Swift.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ DJANGO (PYTHON) В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*В этой статье описывается роль, значение, теория и возможности библиотеки Django в образовательном процессе. Django — это мощный веб-фреймворк на основе Python, предназначенный для повышения продуктивности процесса обучения. Он обеспечивает скорость, безопасность и масштабируемость для создания веб-приложений. Django обучает студентов практическим навыкам, таким как работа с базами данных, аутентификация и дизайн пользовательского интерфейса. Структура MVT фреймворка упрощает понимание структурного программирования. Из-за его популярности существует множество обучающих ресурсов по Django, что значительно упрощает процесс. Django укрепляет практические и теоретические знания учащихся, позволяя им использовать их в реальных проектах.*

**Ключевые слова:** языки программирования, языки программирования высокого и низкого уровня, Java, Python, Javascript, PHP, C++, C#, Swift.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF DJANGO (PYTHON) IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*This article describes the role, importance, theory and possibilities of the Django library in the educational process. Django is a powerful Python-based web framework designed to increase productivity in the learning process. It provides speed, security, and scalability for creating web applications. Django teaches students practical skills such as database, authentication, and user interface design. The framework's MVT structure makes structured programming easier to understand. Because of its popularity, there are many Django training resources available, making the process much easier. Django strengthens students' practical and theoretical knowledge by allowing them to use it in real projects.*

**Keywords:** programming languages, high and low level programming languages, java, python, javascript, PHP, C++, C#, Swift.

**Kirish.** Respublikamizda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo‘llashni amalga oshirish yuqori malakali dasturchilarni tayyorlash masalasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, xotin – qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora – tadbirlarni o‘z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Yig‘ilishda aholining kompyuter savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalariga qiziqqan yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni malakali mutaxassis darajasiga olib chiqish, dasturiy mahsulotlar yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil yanvar oyida ilgari surilgan beshta tashabbusidan uchinchi tashabbusida aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish chora – tadbirlariga oid dasturi doirasida 2019 – 2020-yillarda tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalar o‘quv markazi tashkil etish va ularda bepul ta‘lim berish, 19 mingga yaqin ijtimoiy soha obyektini yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulash ko‘zda tutilmoqda.[10]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda dasturiy mahsulotlar, bank tizimlari va ba‘zalari, turli xildagi ko‘ngil ochar o‘yin dasturlari, dinamik va statik web saytlar axborot texnologiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Insoniyat bu kabi dasturlarning qanday yuzaga kelishini o‘ylab ham o‘tirmasdan bu dasturlardan foydalanishga odatlangan. Ammo uning ortida dasturchilar qancha uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tganini tasavvur ham qila olmaymiz. Ammo mazkur mashaqqatlar ortida chuqur ilmiy izlanishlar, bilimlar, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari yotadi.

Zamonaviy texnologiyalar aynan uning asosida quriladi. Shuning uchun ham axborotlashtirish darajasi rivojlangan davlatlar, yuqori texnologiyalar sohasidagi zamonaviy ishlab chiqaruvchi gigantlar ilmiy va amaliy tadqiqotlarga katta e‘tibor qaratadi. Shu bilan birga, ta‘kidlash lozimki, mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy-texnik salohiyatni shakllantirish muhim faktorlardan biri hisoblanadi. Xorijning rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, istalgan mamlakatning asosiy boyligi - ilmiy-texnik va intellektual salohiyatdan iborat. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotni rivojlantirish, taraqqiy ettirish yo‘lida intellektual va ilmiy-texnik salohiyatning birlashtirilish bosqichi kuzatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi dasturiy mahsulotlar sanoatini rivojlantirish uchun yetarli darajada malakali ilmiy-texnik va texnologik ishlab chiqarish salohiyatiga ega.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish va milliy bozorini rivojlantirish bo‘yicha qator choralar ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining “Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 26-fevraldagi PQ–87-son qarori qabul qilindi. So‘nggi yillarda IT – mamlakatimizda sezilarli o‘zgarish va o‘sish kuzatilayotgan sohalardan biri. Davlatimiz Rahbarining bu yo‘nalishga qaratayotgan jiddiy e‘tibori, sohani rivojlantirish bo‘yicha berilayotgan imtiyozlar ortidan o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha IT xizmatlar eksporti qariyb 344 mln dollarga yetkazildi. Sohada IT eksport hajmini 5 mlrd dollarga yetkazish vazifasi qo‘yilgan.[8]

**Tahlil natijalari.** Python(Django) webda ishlovchilar uchun web shifalarni tez va oson, dinamik holda ishlashi va o‘zgartirish uchun imkoniyatlar yaratib beruvchi texnologiyadir. Python(Django) texnologiyasining ajoyib xususiyatlaridan biri bu-ochiq dasturiy kodga egaligi va bepul tarqatilishidir. Python(Django) platformaga bog‘liq emasligi deyarli barcha platformada ishlay olish imkoniyati bilan ham ajralib turadi. Keling endi Python(Django)ning ta‘limdagi o‘rni qandayligi haqida to‘xtalib o‘tamiz. [1]

Djangoning ta‘limdagi o‘rni ahamiyatli va keng qamrovli, chunki bu kutubxona (framework) orqali talabalar nafaqat veb-dasturlash asoslarini, balki katta loyihalarni boshqarish va yaratish ko‘nikmalarini ham o‘rganadilar. Quyida Djangoning ta‘limdagi o‘rni qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida bir nechta sabablarni keltirib o‘tamiz:

1. **Amaliy dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi:** Django bilan ishlash o‘quvchilarga veb-dasturlash asoslarini va u bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalarni tez va samarali o‘rganishga imkon beradi. Bu orqali ular real dunyoda ishlatiladigan texnologiyalarni bilib olishadi.

2. **To‘liq dastur yaratishni o‘rgatadi:** Django orqali talaba veb-loyihalarning frontend va backend qismini yaratishni o‘rganadi, bu esa ularga loyihaning barcha bosqichlarini ko‘rish imkonini beradi va jarayonni to‘liq tushunishga yordam beradi.

3. **Tuzilmani tushunishga yordam beradi:** Django modulli tuzilishga ega bo‘lgani uchun talabalar loyihani qanday tartibda va tashkil etishda yaxshiroq ko‘nikma hosil qilishadi. Bu ularga kodni toza, tushunarli va kengaytiriladigan qilishni o‘rgatadi.

4. **Veb-loyihalarga moslashgan:** Django veb-loyihalar yaratish uchun maxsus ishlab chiqilgan, shu boisdan bu platformada talabalar, o‘qituvchilar va dasturchilar turli xil turdagi veb-saytlarni yaratish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlay olishadi.

5. **Jamoaviy ishlashga moslashgan:** Django o‘zining tashkiloti va loyihani tuzish usuli orqali jamoaviy ishlashda qulay bo‘lib, ta‘limda talabalar o‘rtasida jamoaviy ishlash tajribasini rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi ish muhitida oson moslashishiga yordam beradi.[5]


Umuman olganda, Djangoning ta‘limdagi ahamiyati uning ko‘p qirrali va amaliy dasturlashni o‘rgatishga mosligi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘qitish uchun kuchli va samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek <https://djangostars.com/blog/10-popular-sites-made-on-django/> saytida dunyoga mashhur bo‘lgan platformalar ham aynan Python(Django) dan foydalanilgani keltirib o‘tilgan. Ushbu platformalar qatoriga Youtube, Spotify, Instagram, Facebook va boshqa dunyoga mashhur bo‘lgan platformalar kiradi. Shu

statistiklar orqali ham biz Python(Django)ning qanchalik mashhur texnologiya ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek Python(Django) deyarli barcha platformalar bilan bog‘lanadi. [4]


Qolaversa Python(Django) ma’lumotlar ba’zasi bilan ham tez va samarali bog‘lanadi. Foydalanuvchiga qulay interfeys taqdim etadi. Ushbu texnologiya deyarli barcha Sql va NoSql ma’lumotlar ba’zasini qo‘llab quvvatlaydi. Bularga misol sifatida SQLite, PostgreSQL, MySQL, Oracle ma’lumotlar ba’zasini sanab o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Keling endi Python(Django) texnologiyasi orqali loyihani ishga tushurishni ko‘rib o‘tamiz:(Eslatma: Men bu maqolada tayyor loyihani ishga tushirishni ko‘rsataman).

**1-qadam:** Kompyuterdan Windows PowerShell dasturini ishga tushurib olamiz.



1-rasm.




2-rasm.

Windows PowerShell dasturi ko‘rinishi ya’ni interfeysi. (2-rasm)

**2-qadam:** Windows PowerShell dasturiga loyiha turgan papkaga olib boruvchi yo‘lni ko‘rsatish buyrug‘ini yozamiz. Ushbu buyruq quyidagicha yoziladi.

**cd D:\Django\1\_dars** va **ENTER** tugmasi bosiladi.Sizning loyihangiz qaysi diskda joylashgan bo‘lsa shu manzil to‘g‘ri yozish talab qilinadi. (3-rasm)




3-rasm.

3-rasmga diqqat bilan e’tibor bersangiz, papka yo‘li o‘zgardi endi PowerShell

D diskdagi, Django papkasi ichidagi, 1-dars nomli papkaga yo‘naldi.

**3-qadam:** Virtual muhitni ishga tushiramiz. Bu **pipenv shell** buyrug‘i orqali amalga oshiriladi.(4-rasm)



```
Administrator: Windows PowerShell
Did you mean one of these?
  shell
PS D:\Django\1_dars> pipenv shell
Launching subshell in virtual environment...
Windows PowerShell
Copyright (C) Microsoft Corporation. All rights reserved.


Try the new cross-platform PowerShell https://aka.ms/pscore6

PS D:\Django\1_dars>
```

4-rasm.

Demak 4-rasmga e‘tibor qaratsak, Django virtual muhitimiz ishga tushdi.

**4-qadam:**Loyihani ishga tushiramiz. Bu python manage.py runserver buyrug‘i orqali amalga oshiriladi. Bizning loyihamizni aynan manage.py fayli ishga tushirib beradi.(5-rasm)



```
PS D:\Django\1_dars> python manage.py runserver
Watching for file changes with StatReloader
Performing system checks...


System check identified no issues (0 silenced).

You have 18 unapplied migration(s). Your project may not work properly until you apply the migrations for app(s): admin, auth, contenttypes, sessions.
Run 'python manage.py migrate' to apply them.
November 18, 2024 - 10:43:31
Django version 5.0.9, using settings 'config.settings'
Starting development server at http://127.0.0.1:8000/
Quit the server with CTRL-BREAK.
```

5-rasm.

Agar 5-rasmga e‘tibor qaratsak dastur bizga qandaydir internet manzil ko‘rsatmoqda. <http://127.0.0.1:8000/> .Bu bizning kompyuterimizdagi local manzil hisoblanadi va aynan shu manzil brauzerda loyihamiz natijasini ko‘rsatadi.

**5-qadam:** Ushbu manzilni (<http://127.0.0.1:8000/>) kompyuterimizdagi biror bir brauzerda yozamiz va **ENTER** tugmasini bosamiz (6-rasm).



6-rasm.

Ushbu sodda dastur “Salom Dunyo” so‘zini qaytaradi. Aynan ushbu loyiha Python (Django) asosida hosil qilingan.

**Xulosa.** Python(Django) – juda moslashuvchan kutubxona bo‘lib, unda ixtiyoriy murakkablikdagi ta‘limiy veb – ilovalar yaratish mumkin. Django — yuqori darajadagi Python veb-ishlab chiqish freymvorki — samardorligi va qulayligi bilan boshqa dasturlash tillaridagi freymvorklardan bir qator jihatlarida ajralib turadi:

➤ **Tezkor ishlash:** Django bir qancha tayyor vositalarni (masalan, foydalanuvchilarni autentifikatsiyalash, ma‘lumotlar bazasini boshqarish, URL manzillarini yo‘naltirish) o‘z ichiga oladi. Flask (Python) yoki Express (JavaScript) kabi boshqa freymvorklar bilan solishtirganda, Django qo‘shimcha sozlashsiz tezkor ishlab chiqish imkonini beradi.

➤ **Masshtablanuvchanlik:** Django yirik loyihalarni samarali boshqarish uchun qulay struktura (Model-View-Template — MVT) taqdim etadi. Java’dagi Spring kabi freymvorklar masshtablanuvchanlikni qo‘llab-quvvatlasa-da, -Django odatda dastlabki loyihalarni tezroq ishlab chiqish va oson parvarishlash imkonini beradi.

➤ **Hamjamiyat va ekotizim:** Django katta va faol hamjamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab tayyor yechimlar va plaginlarni taklif qiladi. Bu Laravel (PHP) kabi tillardagi freymvorklar bilan solishtirganda ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi.

➤ **Xavfsizlik:** Django SQL injection, XSS, va clickjacking kabi hujumlardan himoya qiluvchi xavfsizlik vositalariga ega. Boshqa freymvorklar ham xavfsizlikka e’tibor berishsa-da, Django xavfsiz sozlamalarni minimal konfiguratsiya bilan taqdim etadi, bu Ruby on Rails yoki Node.js (Express bilan) kabi platformalardan afzal qiladi.

➤ **Hujjatlar va o‘rganish osonligi:** Django batafsil hujjatlar bilan ta’minlangan bo‘lib, uni Spring (Java) yoki .NET (C#) kabi murakkab freymvorklarga nisbatan yangi boshlovchilar uchun ancha qulay qiladi.

Shu bilan birga, agar loyihada real vaqt rejimida ma’lumot almashish yoki yuqori darajada parallel bajarish talab qilinsa, Node.js yoki FastAPI kabi asinxron ishlashni qo‘llab-quvvatlovchi platformalar samaraliroq bo‘lishi mumkin.[2]

Oliy ta’lim muassasalarida “Informatika va Axborot texnologiyalari” fanidan Python dasturlash tili o‘rgatilmog‘da. Python dasturlash tili boshqa tillarga nisbatan o‘rganish ancha oson va shu bilan birga imkoniyatlari boy bo‘lgan til hisoblanadi. Ya’ni til o‘rganishni boshlovchilar uni osonlik bilan o‘rganishlari mumkin, shu bilan bu til yordamida ancha-muncha jiddiy amaliy loyihalarni ham amalga oshirish mumkin.[9]

#### Adabiyotlar:

1. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottoyev “Web texnologiyalari”; Toshkent-2013, 3-bet
2. Normurodov Ch.B. Mengliyev Sh.A. PHP7 dasturlash tili - O‘quv qo‘llanma - Termiz: —Xamidi xususiy firmasi.
3. Sherali o‘g‘li, A. J. (2024). Talabalarga bilim berishda kredit-modul tizimining o‘rni. // Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 278-283.
4. <https://djangostars.com/blog/10-popular-sites-made-on-django/>
5. Kambarov Bakhridin Panji o‘g‘li. (2023). Application of information technologies in professional activity. // International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/746>
6. Qambarov Bahridin Panji o‘g‘li. (2024). Using VR Technologies in Professional Education. // Progress Annals: Journal of Progressive Research, 2(1), 64–67. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/8/article/view/521>
7. <https://journals.proindex.uz/index.php/jiesr/article/view/704>
8. Qambarov, B. P. (2024). Raqamli ta’lim resurslarining kasbiy ta’limdagi o‘rni va roli. Mamun Bulletin, 3-son, 586-bet. <https://www.mamun.uz/bulletin/archive/2024/3>
9. Aripov M.M., va b. Informatika, axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma, 1,2-qism. Toshkent, 2002.
10. Kambarov, B. P., & Abdumuminov, B. S. (2024). The role of information technology in the development of personal component. // American Journal of Science on Integration and Human Development, 2(3), 83-86. <https://grnjournal.us/index.php/AJSIHD/article/view/3543>
11. Xashimova Dilyora Paxritdinovna “Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.

**TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA VR LABORATORIYALARNING O'RNI**

**Temirova Rayhona Shahobiddin qizi,**  
Oriental universiteti G'arb tillari kafedrasida o'qituvchi  
temirova.rayhona.13@gmail.com

Sanoat 4.0 yoki to'rtinchi sanoat inqilobi, raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sohasiga jadal tarzda kirib kelmoqda, ayniqsa, texnika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishda hissa qo'shmoqda. Ushbu maqolada Sanoat 4.0 texnologiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri VR texnologiyasining tarixi, uning bugungi raqamli ta'lim muhiti uchun dolzarbligi hamda texnika yo'nalishlarida, jumladan, energetika ta'limida uning afzalliklari muhokama qilinadi. VR talabalarga real hayotda amalga oshirish qiyin bo'lgan murakkab mashg'ulotlarni xavfsiz sharoitda simulyatsiya qilish imkonini beradi. Inson hayoti faoliyatiga xavfli bo'lgan vaziyatlar yoki yuqori xarajat talab etadigan amaliyotlarni VR orqali o'rgatish, talabalar uchun muhim amaliy va malakaviy ko'nikmalarni shakllantirishda katta yordam beradi. Ushbu maqola, VR laboratoriyalarini texnika oliy ta'lim muassasalarida joriy etish, kelajak muhandis va texnik mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur vosita ekanligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** virtual reallik, VR laboratoriyalari, muhandislik ta'limi, energetika, immersiv ta'lim, amaliy va malakaviy ko'nikmalar, simulyatsiya.

**РОЛЬ VR-ЛАБОРАТОРИЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

Четвёртая промышленная революция или Индустрия 4.0, включающая цифровизацию, автоматизацию и технологии искусственного интеллекта, стремительно проникает в сферу образования, особенно значительно улучшая качество обучения в технических вузах. В данной статье обсуждаются история технологии виртуальной реальности (VR), как одного из ключевых компонентов Индустрии 4.0, её актуальность для современной цифровой образовательной среды и преимущества в технических направлениях, включая образование в области энергетики. VR предоставляет студентам возможность безопасно моделировать сложные упражнения, которые сложно реализовать в реальной жизни. VR помогает студентам овладеть важными практическими и профессиональными навыками, моделируя потенциально опасные ситуации или дорогостоящие практики. В статье подчёркивается, что внедрение VR-лабораторий в технических вузах является важным инструментом подготовки будущих инженеров и технических специалистов.

**Ключевые слова:** виртуальная реальность, VR-лаборатории, инженерное образование, энергетика, иммерсивное обучение, практические и профессиональные навыки, моделирование.

**THE ROLE OF VR LABORATORIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

Industry 4.0, or the Fourth Industrial Revolution, is rapidly integrating digitalization, automation, and artificial intelligence technologies into the educational field, particularly enhancing the quality of education in technical higher education institutions. This article discusses the history of Virtual Reality (VR), one of the essential components of Industry 4.0, its relevance in today's digital educational environment, and its advantages in technical fields, including energy education. VR provides students with the opportunity to safely simulate complex exercises that are challenging to perform in real life. VR enables students to acquire essential practical and professional skills by simulating potentially dangerous situations or high-cost practices. This article emphasizes that implementing VR labs in technical universities is a critical tool in preparing future engineers and technical specialists.

**Keywords:** virtual reality, VR laboratories, engineering education, energy, immersive education, practical and professional skills, simulation.

**Kirish.** Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan ta'lim tizimi yangi vositalarni qabul qilib, o'quv jarayonlarini takomillashtirishga harakat qilmoqda. Ushbu vositalardan biri Virtual reallik (VR) bo'lib, u ayniqsa texnikaviy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida yangi ta'lim davrini boshlab berdi. VR

talabalarga interaktiv va immersiv o‘quv muhitlarini taqdim etib, nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan bog‘lashga yordam beradi [7]. VR muhandislik, energetika va mexanika kabi sohalarda tahsil olayotgan talabalar uchun dars mashg‘ulotlaridagi murakkab jarayonlarni xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda simulyatsiya qilish imkonini yaratadi.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda ta‘lim sifati texnikaviy o‘quv muassasalarida moddiy-texnik baza yetishmasligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, laboratoriyalarning yetishmasligi texnik, energetik va muhandis mutaxassislarni tayyorlashda texnik oliy ta‘lim muassasalari uchun katta to‘siq bo‘lmoqda. Amaliy mashg‘ulotlarsiz talabalarni yetuk mutaxassis qilib tayyorlash deyarli imkonsiz, bu nafaqat malaka talablarini bajarishda qiyinchilik tug‘diradi, balki muhandis kadrlar tayyorlash jarayonining to‘liq amalga oshirilmaligiga olib keladi [14].

Shu sababli, raqamli texnologiyalar, xususan VR texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Moddiy-texnik baza qanchalik rivojlangan bo‘lsa, ta‘lim sifati ham shunchalik yuqori bo‘ladi. VR texnologiyalari bu borada yangi imkoniyatlarni taqdim etadi, chunki ular amaliy mashg‘ulotlarni virtual laboratoriyalarda xavfsiz va arzon narxlarda o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa talabalarning texnik ko‘nikmalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.


Ta‘lim sifatini oshiruvchi parametrlar qatoriga VR yordamida amaliy mashg‘ulotlarni amalga oshirishni ko‘paytirish, laboratoriyalarni rivojlantirish va o‘quv jarayoniga talabalarning interaktiv ishtirokini ta‘minlash kabilar kiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Rakhmonov va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlar texnik oliy ta‘lim muassasalarida VR laboratoriyalaridan foydalanish ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatgan [14].

Alhalabi va Bai tadqiqotlari ham VR texnologiyalarini qo‘llash talabalarning bilim va ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashini ta‘kidlagan [11]. Shu sababli, texnik oliy ta‘lim muassasalarida VR texnologiyalarini keng joriy etish nafaqat ta‘lim sifatini oshirish, balki talabalarning xavfsiz va arzon amaliy mashg‘ulot olib borishida katta ahamiyat kasb etadi.

## 1. VR texnologiyalarining tarixi

### 1.1. Dastlabki tushunchalar (1838–1950-yillar)

VR texnologiyasining asosi 1838-yilda Charlz Uitstoun tomonidan ixtiro qilingan stereoskopga borib taqaladi [1]. Ushbu qurilma ikki turli tasvirni bir ko‘rinishda birlashtirib, uch o‘lchovli illuziya yaratdi (1-rasm). Bu texnologiya immersiv vizual tajribaning boshlanishi edi. 1929-yilda Edvin Link tomonidan yaratilgan birinchi parvoz simulyatori (2-rasm) VR texnologiyasining o‘quv jarayoniga ilk amaliy tatbiqi bo‘ldi [2].




1-rasm.



2-rasm.

### 1.2. “Virtual reallik” atamasining paydo bo‘lishi (1960–1980-yillar)

1960-yillarda Morton Heilig Sensorama qurilmasini yaratdi [3]. Bu qurilma o‘zida ko‘rish, eshitish va his qilish kabi sezgilarni birlashtirib, foydalanuvchilarga multisensor tajriba taqdim etgan edi (3-rasm). 1980-yillarda esa Jaron Lanier tomonidan Virtual reallik atamasi ixtiro qilindi [4]. Lanier virtual reallik uchun maxsus qo‘lqop va boshga kiyiladigan displey kabi texnologiyalarni ishlab chiqdi, bu VRni ilmiy va texnik muhitda keng qo‘llashga yo‘l ochdi (4-rasm).




3-rasm.



4-rasm.

### 1.3. Zamonaviy rivojlanish va keng tarqalish (2000-yillar - hozirgi davr)

2000-yillardan boshlab VR texnologiyalari tez sur'atlarda rivojlandi va zamonaviy hisoblash imkoniyatlari bilan keng ommalashdi [5]. Oculus Rift 2012-yilda ishga tushirilishi bilan VR texnologiyasi arzonlashib, barcha sohalarda ayniqsa, ta'lim sohasida foydalanish imkoniyati vujudga keldi (5-rasm).



5-rasm.

## 2. VR ta'limga kirib kelishi

### 2.1. Raqamli ta'lim muhitida VRning o'rni

Virtual reallik (VR) texnologiyasi zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, ayniqsa, amaliy tajriba talab qilinadigan, lekin ko'pincha qimmat yoki inson hayoti faoliyatiga xavfli bo'lgan texnik sohalarda o'zining keng imkoniyatlari bilan ommalashmoqda.

Dunyo bo'yicha VR texnologiyalarini ta'limda qo'llash bozori tez sur'atlarda o'sib bormoqda. 2021-yilda uning qiymati 6,37 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga kelib 32,94 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Ushbu bozorning yillik o'sish sur'ati (CAGR) 39,7%ni tashkil qiladi [6,7]. Bu o'sish VR qurilmalarining arzonlashishi va ta'lim mazmuniga mos keluvchi VR vositalarining ko'payishi bilan bog'liq [6,7].

Texnika oliy ta'lim muassasalarida VR ayniqsa “inson hayoti faoliyatiga xavfli bo'lgan muhitlarni simulyatsiya qilish” va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, muhandislik va sog'liqni saqlash sohasidagi talabalar “virtual laboratoriyalarda” tajribalar o'tkazish orqali real laboratoriyalarda duch kelinadigan xavflarni kamaytirish va mashg'ulot olib borishda sarflanadigan xarajatlarni pasaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Virtual reallik yordamida tibbiyot talabalari favqulodda vaziyatlarni xavfsiz simulyatsiya qilish orqali ko'p marotaba amaliyot o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi [11].

Yaponiya va Tailand kabi davlatlar allaqachon VR texnologiyasini tibbiy ta'limga joriy qilgan, va AQShdagi Stenford Universiteti esa to'liq VR orqali amalga oshiriladigan kurslarini taklif qilmoqda [6,12]. Shuningdek, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 5G texnologiyasining rivojlanishi VR tizimlarining imkoniyatlarini kengaytirib, ta'limdagi VRdan foydalanish ko'lamini oshirishga yordam bermoqda [13].

Ushbu tendensiyalar VR texnologiyalari nafaqat ta'limga kirishni yaxshilabgina qolmay, balki texnik ko'nikmalarni o'qitish usullarini butun dunyo bo'ylab o'zgartirayotganini ko'rsatadi.

### 3. Texnika oliy ta'lim muassasalarida VRning roli.



### *3.1. Energetika ta’lim yo’nalishida kompetensiyalarni oshirish*

Texnika oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa energetika yo’nalishida VR laboratoriyalari katta ahamiyat kasb etadi. Elektr energiyasi yoki yuqori kuchlanishli tizimlar bilan bog’liq amaliyotlar xavfli bo’lgani uchun talabalar real sharoitda amaliyotga cheklangan holda duch kelishadi [7]. VR laboratoriyalari esa bunday muammolarini bartaraf etib, talabalarga xavfsiz muhitda amaliy bilim va ko’nikmalarni hosil qilish imkonini beradi. Talabalar elektr tarmoqlari, energiya tizimlarini xavfsiz sharoitda sinab ko’rishlari va muammolarni hal qilishda nazariy bilimlarini mustahkamlashlari mumkin [8].

### *3.2. Amaliyot uchun imkoniyatlar yetishmasligini hal etish*

Ko’pgina O’zbekiston hududida joylashgan texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalar uchun yetarli amaliyot imkoniyatlari mavjud emas [14]. Murakkab yoki qimmat uskunalardan foydalanishda oliy ta’lim muassasalarining imkoniyati cheklangan bo’lishi mumkin. VR esa bu muammoni hal qilib, barcha talabalar uchun amaliyot jarayonini taqdim etadi. Talabalar VR muhitida ko’p marta amaliyot o’tkazishlari va ko’nikmalarini oshirishlari mumkin [9].

### *3.3. Inson hayoti faoliyatiga xavfli bo’lgan sohalarda asosiy ko’nikmalarni rivojlantirish*

Energetika kabi inson hayoti faoliyatiga xavfli bo’lgan sohalarda talabalarga aniq ko’nikmalarni o’rgatish zarur. Elektr tarmoqlari bilan ishlash yoki kuchlanish ostidagi qurilmalar bilan amaliyotlar talabalarni xavf ostiga qo’yadi. Biroq, VR yordamida bunday amaliyotlar xavfsiz muhitda simulyatsiya qilinib, talabalar real jarayonlarga tayyorlanadi [10]. Bunday tajribalar talabalarning o’z sohalarda kerakli ko’nikmalarini shakllantiradi va kasbiy tayyorgarliklarini oshiradi.

### *3.4. Muhandis kadrlar uchun fanning jozibadorligini oshirish*

Muhandis kadrlar uchun VR texnologiyalari nafaqat amaliy ko’nikmalarini oshirishga yordam beradi, balki ularning fanga bo’lgan qiziqishini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. Bugungi raqamli asrda yoshlar ko’proq interaktiv vositalar va digital ilovalarga o’rgangan, bu esa an’anaviy dars usullariga qiziqishni pasaytirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, VR texnologiyalari talabalarning o’quv jarayoniga qiziqishini kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi [15,16].

Virtual reallikda amaliyotlarni bajarish talabalarga real sharoitni his qilish imkonini yaratadi, bu esa ularga yanada motivatsiya beradi hamda laboratoriya sharoitlarini yanada jozibador qiladi. Masalan, an’anaviy laboratoriyalarda o’tkazilgan tajribalar ko’pincha cheklangan bo’lishi mumkin; talabalar xavfsizlik sababli yoki moddiy texnik baza yetishmasligi tufayli bunday tajribalarni to’liq bajara olmaydilar. VR esa bunday to’siqlarni yo’q qiladi va murakkab jarayonlarni xavfsiz va immersiv muhitda takroriy o’rganish imkonini beradi.

Shu bilan birga, VR orqali talabalarga murakkab tizimlar, o’ta xavfli va qimmat uskunalarni o’rganish imkoniyati yaratiladi. Bu esa yoshlar uchun fanlarni jonli va hayajonli qilib ko’rsatadi. Masalan, muhandislik sohasida talabalarga virtual zavod yoki elektr stansiyasi simulyatsiyalari orqali haqiqiy operatsiyalarni bajarish imkoniyati taqdim etiladi [15]. Bu o’z navbatida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini birlashtirish orqali ularning muhandislik fanlariga bo’lgan qiziqishini oshiradi.

Yana bir omil shundaki, VR texnologiyalari orqali taqdim etilayotgan gamifikatsiya va feedback tizimlari ta’lim jarayonida talabalarni yanada faol ishtirok etishga undaydi [16]. Talabalar virtual muhitda o’z faoliyatlari uchun darhol baho olishlari va xatolarni takroriy sinovlar orqali tuzatish imkoniga ega bo’ladilar. Bu esa o’qitish jarayonini yanada individuallashtiradi va shaxsiy o’sishga imkon beradi.

VR texnologiyalari nafaqat amaliyot uchun imkoniyat yaratibgina qolmay, balki texnik fanlarni o’rganish jarayonini sezilarli darajada modernizatsiya qiladi va yoshlarni ushbu sohalarga bo’lgan qiziqishini oshiradi. Bu texnologiya yordamida talabalar nafaqat bilim oladilar, balki fanni his qilib, o’z kelajak kasbiy hayotlarini ko’z oldilarida jonlantirish imkoniga ega bo’ladilar.

**Materiallar va usullar.** Ushbu tadqiqot texnika yo’nalishidagi ta’lim muassasalarida VR texnologiyalarining samaradorligini o’rganish uchun turli tadqiqot usullaridan foydalandi. Birinchi navbatda, VR texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlovchi ilmiy manbalar tahlil qilindi. Keyinchalik, VR texnologiyalarining texnik yo’nalishlar, xususan energetika, mexanika va muhandislik kabi sohalarda amaliyotda qo’llanilishi bo’yicha o’tkazilgan tadqiqot natijalari o’rganildi. Amaliy mashg’ulotlarni xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda simulyatsiya qilish imkoniyatlari ham tahlil qilindi. Tadqiqot, shuningdek, VR vositalarini qo’llashning ta’lim samaradorligini oshirishga ta’sirini aniqlash uchun texnika oliy ta’lim muassasalaridagi amaliy tajribalarni o’rganishga qaratildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari VR texnologiyalari texnik ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishini ko’rsatadi. VR laboratoriyalari orqali talabalar amaliy mashg’ulotlarni xavfsiz va arzon sharoitda cheklovsiz holatda amalga oshirish imkoniga ega bo’lishadi, bu esa ko’nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. VR laboratoriyalarida talabalar real sharoitdagi xavf-xatarlardan holi holda qimmatbaho yoki xavfli uskunalardan foydalanishni o’rganadilar. Misol uchun, energetika va yuqori kuchlanish tizimlari bo’yicha amaliy

mashg‘ulotlarda talabalar VR simulyatsiyalari orqali nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq qilishadi, bu esa real amaliy sharoitda o‘zlashtirish qiyin bo‘lgan murakkab ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Natijalar VRning texnika oliy ta‘lim muassasalarida moddiy-texnik baza cheklangan sharoitda ta‘lim sifatini yaxshilash uchun samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi. Talabalar VR muhitida o‘quv jarayonida faol ishtirok etib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini takroriy mashqlar orqali rivojlantirishadi. Shuningdek, VR texnologiyalari o‘quv jarayoniga gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) va tezkor fikr-mulohaza (feedback) tizimlarini kiritish imkonini beradi, bu esa o‘qitishni individuallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida VR texnologiyalariga qiziqish ortib borayotgani ham ta‘limda uning amaliy qo‘llanishini kengaytirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, Yaponiya, Tailand va AQShning Stenford Universiteti kabi oliy o‘quv yurtlarida VR texnologiyalari tibbiy va texnik ta‘lim jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etilgan. 2021-yilda \$6,37 milliardga baholangan VR texnologiyalari bozorining 2026-yilga kelib \$32,94 milliardga yetishi kutilmoqda [17], bu esa VR qurilmalarining yanada ommalashib, ta‘lim sohasida keng qo‘llanilishini ta‘minlaydi.

**Muhokama.** VR texnologiyalarining texnikaviy ta‘limga keng joriy etilishi nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qiladi, balki mavjud moddiy-texnik baza muammolarini bartaraf etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda O‘zbekistonning texnika oliy ta‘lim muassasalarida laboratoriya yetishmasligi va qimmatbaho uskunalar bilan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishdagi cheklovlar ta‘lim sifati va talabalar malakasi uchun jiddiy to‘siqlar yaratadi. VR esa ushbu muammolarni hal qilish imkonini beradi, talabalarni real sharoitda duch kelishi mumkin bo‘lgan xavflardan himoya qilib, o‘qitish samaradorligini oshiradi.

VR texnologiyalari texnik ta‘limda amaliy mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Energetika va yuqori kuchlanishli elektr tizimlari kabi xavfli sohalarda amaliyot o‘tkazish talabalar uchun xavf tug‘diradi. VR texnologiyalari yordamida esa talabalar real xavflardan xoli holda bu amaliyotlarni o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar, bu esa texnika oliy ta‘lim muassasalari uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Shu bilan birga, VR texnologiyalari talabalar orasida o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishni oshirishda ham muhim omil bo‘lmoqda. Yoshlar bugungi raqamli asrda interaktiv vositalarga ko‘proq moyillik bildiradi, bu esa an’anaviy o‘qitish usullariga qiziqishni kamaytiradi. VR texnologiyalari interaktiv va immersiv (to‘liq sho‘ng‘ish) o‘quv muhiti yaratib, talabalarining o‘quv jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi. Bunga gamifikatsiya va feedback tizimlari kiritilishi talabalarining o‘z faoliyati uchun tezkor baho olish imkonini berib, xatolarni tuzatish imkoniyatini oshiradi.

Shunga qaramay, VR texnologiyalarini keng joriy etishda boshlang‘ich xarajatlar, texnik qo‘llab-quvvatlash, va maxsus simulyatsiyalarni yaratish kabi qiyinchiliklar mavjud. Lekin ushbu cheklovlarga qaramasdan, VR texnologiyalari texnikaviy ta‘lim jarayonida innovatsion o‘zgarishlarni olib keladi va talabalarni real amaliyotga tayyorlashda yangi yondashuvlarni taqdim etadi. Shu sababli, VR texnologiyalari texnikaviy ta‘limda keng joriy qilinishi zarur, chunki bu talabalarni amaliy hayotga tayyorlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Texnika oliy ta‘lim muassasalarida VR texnologiyalarining keng joriy etilishi nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishga, balki talabalarining amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham katta yordam beradi. VR yordamida talabalar xavfsiz muhitda murakkab tizimlar va operatsiyalarni simulyatsiya qilish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar. Ayniqsa, energetika kabi inson hayoti faoliyatiga xavfli bo‘lgan sohalarda bu texnologiyalar talabalarining real amaliyotga tayyorlanishini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, VR texnologiyalari orqali ta‘lim jarayoniga gamifikatsiya va feedback tizimlari kiritilishi talabalarining ta‘limga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi, bu esa ularning fanga bo‘lgan rag‘batini kuchaytiradi. Shu bilan birga, VR texnologiyalari orqali talabalar an’anaviy laboratoriyalarda duch kelishi mumkin bo‘lgan cheklovlardan xoli bo‘lib, yanada boy va xilma-xil ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, VR texnologiyalarini joriy etish texnik ta‘limning sifatini oshirish bilan birga, muhandislik va boshqa texnik sohalarda muhim ko‘nikmalarni shakllantirishda strategik vositadir. Shu sababli, VR texnologiyalari texnikaviy ta‘limda keng joriy qilinishi zarur, chunki bu talabalarni amaliy hayotga tayyorlashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib qolmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Wheatstone C. Contributions to the Physiology of Vision - Part the First. // Philosophical Transactions of the Royal Society of London, -1838 128, 371-394.
2. Link E. A. The Link Trainer and Its Impact on Pilot Training. // Flight Training Review, -1929 5(3), 22-29.

3. Heilig M. Sensorama Simulator: A Multisensory Cinema of the Future. // *Journal of Experimental Psychology*, -1962 65(4), 403-411.
4. Lanier J. The Dawn of Virtual Reality: An Overview of Early Development. *VR & Simulation Review*, -1987 1(1), 15-27.
5. Oculus V.R. Oculus Rift: Revolutionizing Immersive Virtual Experiences. // *Tech Innovations Journal*, -2012 8(2), 45-60.
6. Adorama. Virtual Reality in Education: How Schools Are Using VR. -2022. Retrieved from <https://www.adorama.com/alc/virtual-reality-in-education/>
7. Temirova R. Sh. Teaching methods in technical higher education institutions: Traditional versus modern approaches. // In *IV International Scientific and Technical Conference on Actual Problems of the Power Supply System: Collection of Scientific Works*, -Tashkent State Technical University & Kongju National University, -2024, pp. 588.
8. Rakhmanov I. U., Qurbonova R. Sh., Uzaqov N. C., & Nematov L. A. Advanced rendering techniques for educational simulators in fundamentals of power supply. // *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*, -2023 (No. 12), 264.
9. Jensen L., & Konradsen F. A Review of the Use of Virtual Reality Head-Mounted Displays in Education and Training. // *Education and Information Technologies*, -2018 23(4), 1515-1529.
10. Huang Y. M. VR-Based Training Systems for Technical Education: A Case Study in Energy Systems. // *Advances in Engineering Education*, -2020 18(2), 73-85.
11. Rakhmonov I. U., & Temirova R. Sh. SWOT analysis of AR, VR, and MR laboratories in technical education. // In *IV International Scientific and Technical Conference on Actual Problems of the Power Supply System: Collection of Scientific Works*, -2024, Tashkent State Technical University & Kongju National University, pp. 590.
12. Mordor I. Virtual Reality in Education Market Report. -2023. Retrieved from <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/virtual-reality-vr-market-in-education>
13. Fortune Business Insights. Virtual Reality in Education Market Size, Share & Growth Forecast 2032. -2023. Retrieved from <https://www.fortunebusinessinsights.com/industry-reports/virtual-reality-in-education-market-101696>
14. Rakhmonov I., Ganiev Sh. R., Alibekova T. Sh., & Nematov L. A. In technical higher education institutions current state of the use of modern educational virtual reality laboratories in the teaching of specialized sciences. *E3S Web of Conferences*, -2023 384. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338401029>
15. Vicente dos Anjos F. E., de Oliveira M. A., Rodrigues G. S., Sellitto M. A., & da Silva D. O. Boosting engineering education with virtual reality: An experiment to enhance student knowledge retention. // *Applied System Innovation*, -2024 7(3), 50. <https://doi.org/10.3390/asi7030050>
16. Jha R., Choi D., Traboulsi R., & Srinivasa A. Virtual Reality's Role in Improving Student Knowledge and Engagement in the Materials Testing Laboratory. In T. Jung & J. Dalton (Eds.), *XR Case Studies*, -2021, Springer, Cham, pp. 255-272. [https://doi.org/10.1007/978-3-030-72781-9\\_14](https://doi.org/10.1007/978-3-030-72781-9_14)
17. Grand View Research. Virtual Reality in Education Market Size, Share & Trends Analysis Report by Application, by Component, by Region, and Segment Forecasts, 2021 – 2028. // Grand View Research. Retrieved from [www.grandviewresearch.com](http://www.grandviewresearch.com)

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ В КОНТЕКСТЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

*Гизатулина Ольга Ивановна,*

*доцент кафедры узбекского языка и преподавания языков  
Гулистанского государственного педагогического института*

*stefa77777@gmail.com*

*ORCID: 0000-0001-9186-7686*

*В исследовании анализируются современные педагогические методы и технологии, определяются и рекомендуются для внедрения в высшем образовании наиболее эффективные. Использование новейших технологий, адаптация учебного процесса к цифровизации и применение авторских электронных ресурсов повышают вовлечённость студентов, что способствует развитию критического и творческого мышления, а также их роль в трансформации образовательной системы.*

**Ключевые слова:** *цифровизация, цифровая компетентность, цифровая грамотность, цифровой ресурс, электронный ресурс, образовательный процесс.*

## TA'LIM TIZIMINI O'ZGARTIRISH SHAROITIDA OLIY O'QUV YURLARIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA VOSITALARI

*Tadqiqot zamonaviy pedagogik usul va texnologiyalarni tahlil qiladi, eng samarali usullarini aniqlaydi va oliy ta'limda joriy etish uchun tavsiya etadi. Eng yangi texnologiyalardan foydalanish, o'quv jarayonini raqamlashtirishga moslashtirish va mualliflik huquqi elektron resurslarini qo'llash talabalarning faolligini oshiradi, bu esa tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, shuningdek, ularning ta'lim tizimini o'zgartirishdagi rolga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *raqamlashtirish, raqamli kompetensiya, raqamli savodxonlik, raqamli resurs, elektron resurs, o'quv jarayoni.*

## MODERN METHODS AND TOOLS OF HIGHER EDUCATION IN THE CONTEXT OF THE TRANSFORMATION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM

*The study analyzes modern pedagogical methods and technologies, identifies the most effective ones and recommends them for implementation in higher education.*

*Incorporating the latest technologies and adapting the educational process to digitalization, along with the use of original electronic resources, significantly enhances student engagement. This not only fosters the development of critical and creative thinking but also empowers students to play an active role in transforming the educational system.*

**Keywords:** *digitalization, digital competence, digital literacy, digital resource, electronic resource, educational process.*

**Введение.** Современные изменения в системе высшего образования затрагивают практически все аспекты педагогического процесса.

Технологический прогресс, глобализация, а также потребность в новых компетенциях, востребованных на рынке труда, требуют пересмотра традиционных методов преподавания и адаптации к новым условиям. В условиях трансформации образования преподаватели в вузах сталкиваются с необходимостью внедрения современных подходов, которые помогут повысить эффективность образовательного процесса, улучшить вовлечённость студентов и подготовить их к вызовам будущего.

В связи с этим образовательная среда учебных заведений дополняется предметными электронными образовательными ресурсами, которые создаются педагогами по авторскому замыслу в рамках преподаваемого учебного предмета.

Формирование современных компетентностей у будущих педагогов осуществляется в процессе реализации образовательных программ высшего образования, а также «...индивидуализации образовательных процессов на основе цифровых технологий, развития дистанционных

образовательных услуг, широкого внедрения в практику «blended learning», «flipped classroom», ... использования «облачных технологий» в образовательном процессе [1].

Актуальность исследования обусловлена задачами цифровизации образования и направленностью на развитие всех видов цифровой деятельности будущих учителей, а также совершенствованием цифровой грамотности.

**Методология и литература.** Использование цифровых технологий в системе образования и методы создания и применение электронных информационно-образовательных ресурсов в учебном процессе рассматривали в своих работах отечественные учёные В. Кабулов, Т. Бекмуратов, А. Абдукодиров, М.М. Арипов, Ф.М. Закирова, У. Бегимкулов, С.С. Гуломов, М.Х. Лутфиллаев, А. Хайитов, Б.Б. Муминов, К.М. Каримов, С.К. Турсунов, Н. Каюмова и др. [2]

В теории педагогики существуют разные точки зрения относительно понятия «компетентность». Так, по мнению В.Н. Введенского, компетентность педагога интегрирует в себе когнитивный, операциональный и аксиологический аспекты [3]. Однако мы придерживаемся мнения А.В. Хуторского, рассматривающего теорию компетентности в рамках концептуальной системы личностно-ориентированного обучения, когда различаются действия субъектов с объектами и действия с самим собой, то есть внутрисубъектно [4]. Под компетентностью педагога мы понимаем динамично развивающийся процесс, чутко реагирующий на современные вызовы общества. В связи с этим наиболее актуальной проблемой в системе профессионального образования становится процесс формирования цифровой компетентности педагога как неотъемлемой составляющей профессиональной компетентности современного преподавателя.

**Обсуждение и результаты.** В зарубежной образовательной системе большое внимание уделяется внедрению инновационных методов и технологий обучения. Особенно актуальным становится вопрос применения новых, более эффективных методов и технологий в контексте таких глобальных тенденций, как глобализация образования и цифровизация образования. Это находит отражение, в частности, в появлении и развитии массовых онлайн-курсов.

Анализ зарубежных источников, посвящённых зарубежной образовательной практике, позволяет выделить три основные тенденции в использовании методов и технологий обучения в высшем образовании. Эти тенденции дополняют друг друга и формируют будущее высшего образования:

1. Более широкое применение методов активного обучения, которые позволяют разнообразить образовательный процесс и вовлечь студентов в различные виды образовательной активности.

2. Создание специальных пространств в образовательных учреждениях, которые предоставляют возможности для нелинейного обучения и создания индивидуальных образовательных траекторий.

3. Цифровизация образования, которая проявляется во всё более активном использовании искусственного интеллекта и различных устройств в образовательном процессе.

Цифровые технологии играют ключевую роль в модернизации высшего образования. Использование онлайн-платформ, интерактивных приложений и систем управления обучением меняет подход к организации учебного процесса, делая его более доступным, интерактивным и адаптивным.

Широко внедрено онлайн-обучение и дистанционные курсы. Массовые открытые онлайн-курсы (МООС) и платформы для дистанционного обучения, такие как Coursera дают студентам возможность осваивать материалы в удобное время и в удобном темпе. Вузам эти инструменты позволяют расширить аудиторию и предложить образовательные программы студентам по всему миру.

Преподаватели активно используют мультимедийные ресурсы: видеоуроки, презентации, подкасты и симуляции. Такие материалы помогают лучше усваивать информацию, делая процесс обучения более наглядным и увлекательным.

Внедрены системы управления обучением (LMS). Платформы, такие как Moodle и Blackboard, не только автоматизируют управление учебным процессом, но и предоставляют возможность взаимодействия между преподавателем и студентом в режиме реального времени. LMS-системы позволяют отслеживать прогресс студентов, организовывать групповые проекты и проводить тестирование онлайн.

Одной из задач современных образовательных методов является адаптация учебного процесса к индивидуальным особенностям студентов. Персонализированное обучение позволяет учитывать уровень подготовки, интересы и цели каждого учащегося.

Внедрение адаптивных образовательных технологий. Такие системы анализируют действия студента и предлагают учебные материалы и задания в зависимости от его уровня знаний. Например, платформа Smart Sparrow предоставляет преподавателям инструменты для создания адаптивных курсов, которые подстраиваются под потребности студентов.

Современным трендом является микрообучение. Этот подход предполагает разделение образовательного материала на небольшие, легко усваиваемые модули. Студенты могут изучать эти модули в своём темпе, что особенно эффективно при работе с насыщенными программами и для тех, кто совмещает обучение с работой.

В смешанном формате обучения использования медиаресурсов очень актуально, и современному преподавателю необходимо уметь создавать авторский контент для реализации образовательных целей. Принято считать, что образовательные ресурсы включают в себя преподавателей и обучаемых, материальные (оборудование, средства коммуникаций) и информационные ресурсы.

*Образовательный ресурс* – это интерактивная платформа, предназначенная для обучения и получения знаний, часто доступная онлайн. К ним относятся веб-сайты, курсы, приложения и другие инструменты, помогающие в обучении различных предметов и навыков.

Выделяют три типа образовательных ресурсов: информационные, электронные и цифровые.

*Информационный контент (ресурс)* – это информация, информационное наполнение чего-либо. Под понятие контент подпадает все, что несет в себе информацию. Мы считаем, что современный педагог – это не только тот, кто преподаёт, но ещё и тот, кто умеет и регулярно создаёт образовательный контент.

*Электронный образовательный ресурс* – это ресурс, представленный в электронном формате, который включает в себя структуру, предметное содержание и метаданные о них.

Это единая информационная система, которая объединяет всех участников образовательного процесса. Система включает в себя: информационные образовательные ресурсы; технологические средства: компьютеры, средства связи (смартфоны, планшеты), иное информационно-коммуникационное оборудование; систему педагогических технологий.

*Цифровой образовательный ресурс* – это материалы и ресурсы, которые созданы и адаптированы для использования в образовательных целях, они доступны в электронном виде:

текстовый материал: электронный учебник, электронное пособие, они могут читаться на всех видах цифровых устройств, телефоне, планшете, компьютере;

мультимедийный материал: видеуроки, аудиозаписи, интерактивные презентации и другие материалы, которые помогают визуализировать учебный материал;



виртуальные и дополнительные реальности: 3D моделирование;

интерактивные упражнения и задания: использование цифровых платформ, предлагающие интерактивные упражнения, задания, тесты и викторины, которые позволяют студентам проверять свои знания и навыки, получать обратную связь и продолжать учиться в интерактивной форме;

онлайн-курсы и платформы электронного обучения: интерактивные курсы и платформы, которые предлагают структурированный контент и учебные материалы по различным предметам и дисциплинам, позволяя студентам изучать материалы в собственном темпе и из любого места.

Главное, что отличает цифровые образовательные ресурсы от других ресурсов – это их интерактивный характер.

Нами разработаны и внедрены в образовательный процесс (смотрите рисунок 1) электронный информационный ресурс «Русский фольклор» (Свидетельство об официальной регистрации программы для электронных вычислительных машин) № DGU 29590 Министерства юстиции Республики Узбекистан от 21 ноября 2023 года) и электронное учебное пособие «Русское устное народное творчество», предназначенное для студентов направления бакалавриата «60111700 – Русский язык в иноязычных группах» (Свидетельство об официальной регистрации программы для электронных вычислительных машин) № DGU 33537 Министерства юстиции Республики Узбекистан от 15 января 2024 года).

	Электронное учебное пособие «Русское устное народное творчество»	
---	---	---




Рисунок 1. Авторские предметные электронные ресурсы

В 2022-2023 учебном году прошла апробация электронного интерактивного учебного пособия «Русское устное народное творчество». Нами был проведён опрос среди студентов об их отношении к цифровизации образования. В рамках исследования 120 студентам первого курса была предложена анкета с вопросами «Что такое цифровизация в целом?», «Каковы, на Ваш взгляд, преимущества и недостатки цифровизации в системе образования?». Респондентам было предложено оценить своё отношение к цифровизации по 5-бальной шкале от «цифровизация абсолютна необходима» (5 баллов) и «отношение категорически отрицательное» (0 баллов). В результате анализа анкет было установлено, что 39% респондентов относятся к цифровизации положительно, 21%-скорее положительно, а вот 12, 5% респондентов отметили отрицательное отношение.

Анализ ответов показал, что студенты демонстрируют хорошие знания безопасного использования Интернета, ответственное поведение при использовании цифровых технологий. Они знакомы с основами безопасности работы в Интернете. 29,82% опрошенных всегда применяют правила и нормы безопасного и ответственного поведения в онлайн-среде. 28,81% придерживаются этих правил, 21,93% знают, что должны быть осторожны с публикацией и передачей личной информации в Интернете. И только 2,63% ответили, что их это не касается.

Таким образом, цифровая грамотность формирует цифровой имидж преподавателя, представляющий «концентрированный контент, содержащий самостоятельно отобранную педагогом информацию... научные разработки, размещаемые в электронном пространстве... в целях самоактуализации и повышения узнаваемости...» [5].

Для организации дифференцированного подхода в обучении с помощью электронного пособия используются задания разного уровня, вопросы, упражнения, практические задания и ссылки на просмотр дополнительного материала. Средства учебного пособия в электронной форме, помогающие выстраивать индивидуальную траекторию студентов: возможность открывать страницы в любом месте, удобное меню пособия, увеличивать размер изображений, интерактивные задания разного уровня сложности, студенты их могут выполнять индивидуально в любое время, тренажёры, дополнительный материал по ссылкам.

Элементы пособия в электронной форме способствуют концентрации и продуктивности внимания на задании: чтение дополнительного материала, тестовые задания, интерактивные задания, скачивание презентаций по теме пособия.

В электронном учебном пособии содержатся видеофайлы, схемы и таблицы, интерактивные упражнения, практические задания, тесты, также файлы для скачивания, 35 гиперссылок, 50 вопросов для самоконтроля. Три виртуальных экскурсии: (Виртуальный этнографический музей «Семенково», Виртуальный музей русской мифологии, Виртуальный музей народного искусства «Малые Корелы»).

Таким образом, электронная форма учебного пособия как средства индивидуализации обучения по форме *восприятия информации* составлена с учётом особенностей потребителя: **визуалам** – галерея картинок, видеофрагменты, текстовая информация; **аудиалам** – звуковое сопровождение, видеофрагменты; **кинестетикам** – интерактивные задания, виртуальные экскурсии, работа с клавиатурой.

Мы провели опрос среди студентов об использовании электронного ресурса. Опрос студентов об эффективности использовании пособия показывает следующие результаты: 75 % студентам нравится работать с предметными электронными ресурсами; 68% студентов отметили, что занятия стали более интересными и продуктивными; 76,4 % студентов отметили, что информация стала лучше усваиваться [6] (смотрите рисунок 2).



**Рисунок 2. Диаграмма опроса студентов**

Основная сложность при смешанном обучении, по мнению студентов, связана с выполнением экспериментальных работ в виде ресурса «задание». На это указали 44,3 % студентов педагогического института. Среди наиболее значимых преимуществ цифровых образовательных ресурсов студенты отметили «возможность индивидуализации темпа обучения» и «возможность освоения современных технологий обучения».

Электронные учебные ресурсы по предмету «РУНТ» просты в использовании, читаются на любых цифровых носителях и являются дополнением к традиционным формам обучения, они призваны не только сохранить все достоинства обычной книги (учебного пособия), но и в полной мере использовать современные информационные технологии, мультимедийные возможности.

Таким образом, электронная книга (пособие) – это интерактивный учебник с иллюстрациями, видео, интерактивными заданиями и онлайн-тестами, ссылками. Она работает на любом устройстве и автоматически подстраивается под размер экрана. Чтобы поделиться своей книгой, можно разместить её на сайте, личном блоге или отправить в социальных сетях. Пособие разработано на платформе iSpring Suite.

При создании электронного учебного пособия (ЭУП) руководствовались определёнными принципами построения (смотрите таблицу 1).

**Таблица 1.**

**Принцип построения электронного пособия**

Принципы	Направленность
<b>1. Дидактические принципы</b>	<p><i>Целевая направленность:</i> определение ясных образовательных целей и соответствующих методов и средств для их достижения.</p> <p><i>Понятность и доступность:</i> использование ясного и понятного языка, структурирование материала, адаптированное к целевой аудитории.</p> <p><i>Постепенность обучения:</i> последовательное представление материала с учётом его сложности и освоения учащимися.</p> <p><i>Интерактивность:</i> использование интерактивных элементов для участия учащихся в учебном процессе, таких как задания, тесты, викторины и т. д.</p>
<b>2. Методические принципы</b>	<p><i>Вариативность и адаптивность:</i> предоставление различных методов обучения и оценки, чтобы соответствовать разным стилям обучения и потребностям учащихся.</p> <p><i>Интеграция мультимедиа:</i> использование разнообразных мультимедийных ресурсов (текст, изображения, видео, аудио и т. д.) для более эффективного усвоения материала.</p> <p><i>Оценка и обратная связь:</i> предоставление возможностей для оценки уровня понимания материала и обеспечение обратной связи для улучшения учебного процесса.</p>
<b>3. Технические принципы</b>	<p><i>Понятный пользовательский интерфейс:</i> создание удобного и интуитивно понятного интерфейса для учащихся.</p> <p><i>Совместимость с различными устройствами:</i> обеспечение</p>



	<p>доступности учебного пособия на различных устройствах (компьютерах, планшетах, смартфонах) и в различных операционных системах.</p> <p><i>Безопасность и защита данных:</i> обеспечение безопасности личной информации пользователей и защиты от несанкционированного доступа к учебному материалу.</p>
--	--

Одним из достижений в цифровом образовании то, что такие ресурсы, как пособие, могут быть интегрированы на сервере учебного заведения (смотрите рисунок 3). При этом можно видеть статистику – сколько человек прочитало материал, а кто ещё не начинал.




Рисунок 3. Интеграция электронного учебного пособия на сервер учебного заведения

Технические возможности платформы позволяют включать в пособие:

1. *Интерактивные слайды.* На iSpring Suite создавали интерактивные слайды с использованием различных элементов, таких как кнопки, поля для ввода текста, фотографии, видео и аудио файлы.
2. *Адаптивный дизайн.* Пособие автоматически адаптировано под различные устройства и разрешения экранов, обеспечивая оптимальное отображение на компьютерах, планшетах и смартфонах.
3. *Тестирование и оценка.* Встроенные тесты и опросы, а также автоматизирован процесс оценки результатов обучающихся.
4. *Мультимедийные возможности.* Пособие поддерживает вставку мультимедийных элементов, таких как аудио и видео файлы, анимации, слайд-шоу и т.д., что делает его более интересным и привлекательным для обучающихся.
5. *Интеграция с LMS.* Легко интегрируются с различными системами управления обучением (LMS), что обеспечивает удобное управление и отслеживание обучения.
6. *Безопасность.* Платформа обеспечивает защиту контента, например, путем управления доступом и шифрования данных.

Эти технические особенности делают пособие популярным выбором, обеспечивая высокий уровень интерактивности, удобства использования и функциональности.

Мы считаем, что электронные пособия имеют большое практическое значение. С их помощью можно не только сообщать фактическую информацию, снабженную иллюстративным материалом, но и наглядно демонстрировать определенные процессы, которые невозможно показать с помощью стандартных методов обучения. Различные видеоматериалы, виртуальные экскурсии обеспечивают наглядную демонстрацию учебной информации.

Таким образом, мы выделяем следующие преимущества и недостатки электронного учебного пособия:

Преимущества	Недостатки
<i>Интерактивность.</i> Электронное пособие позволяют бакалаврам взаимодействовать с материалом и выполнять различные задания, что способствует лучшему усвоению информации.	<i>Технические ограничения.</i> Недостаток оборудования или слабая интернет-сеть могут стать преградой для эффективного использования цифровых ресурсов.
<i>Персонализация.</i> Бакалавр может выбирать	<i>Недостаток цифровой грамотности у</i>

темп и порядок изучения материала в соответствии с его потребностями и способностями.	<i>преподавателей.</i> Для успешного применения цифровых авторских ресурсов необходимо, чтобы и сами преподаватели обладали высокими цифровыми компетенциями.
<i>Доступность.</i> Электронное пособие обычно доступно через интернет или скачивается на устройство, поэтому студенту необходим только компьютер или смартфон с подключением к сети.	<i>Утомляемость глаз.</i> Чтение с экрана может вызывать усталость глаз, особенно при длительном использовании, что является серьезным минусом для людей, чувствительных к таким нагрузкам.
<i>Разнообразие информации.</i> Электронное пособие содержит такие разнообразные виды информации, как изображения, видео, аудио, ссылки, что делает процесс обучения более интересным и визуальным.	<i>Технические проблемы.</i> Возможны сбои в работе устройств, потеря данных или несовместимость форматов, что может стать проблемой в учебном процессе.
<i>Актуальность.</i> Электронное пособие может обновляться и дополняться согласно последним изменениям и открытиям в соответствующей области знаний.	<i>Низкая мотивация студентов.</i> Для эффективного обучения с помощью цифровых ресурсов важна внутренняя мотивация студентов к самостоятельной работе.

**Заключение.** Современные методы и инструменты обучения в высшей школе играют ключевую роль в трансформации образовательной системы. Технологизация, активные и интерактивные методы, персонализация учебного процесса и акцент на развитии цифровой грамотности помогают вузам адаптироваться к новым требованиям общества и готовить студентов к вызовам будущего. Внедрение этих подходов позволяет сделать обучение более гибким, адаптивным и эффективным, что способствует подготовке квалифицированных и конкурентоспособных специалистов.

Мы считаем, что электронные пособия имеют большую практическую значимость. При работе с электронным учебным пособием происходит не только репродуктивная деятельность студентов, но и абстрактно-логическая, это помогает лучше понять и осознать, усвоить программный материал.

Как показало исследование, уровень цифровых компетенций студентов-бакалавров постоянно растёт на протяжении всего периода обучения в вузе. Студенты знают о возможностях интернета и могут легко находить интересующую их информацию с помощью разных источников, умеют применять гаджеты и приложения для создания цифрового контента, умело пользуются соцсетями для коммуникаций, постоянно расширяют свои знания в сфере цифровых технологий, преодолевая аппаратные и программные сложности. Анализ практического применения электронных ресурсов в условиях трансформации образования на современном этапе играют важную роль в развитии образования и обеспечении его доступности и качества для всех граждан.

Дальнейшие исследования в этой области позволят выявить новые возможности и перспективы применения электронных ресурсов в образовании.

#### Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-5847 от 9 ноября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» (Источник: <https://lex.uz/docs/4545884>).
2. Жураев Т.Н. Совершенствование методики учебно-познавательной деятельности студентов на основе цифровых технологий. Автореферат дисс. на соискание степени докт. филос. наук. Карши, 2022.
3. Босова Л. Л. О профессиональной деятельности учителя информатики в условиях цифровой трансформации образования. Информатика в школе. 2021. № 7 (170). – С. 10-14; Роберт И.В. Развитие информатизации образования в условиях цифровой трансформации // Педагогика. 2022. Т. 86. № 1. – С. 40-50.
4. Гизатулина О. И. Современные компетенции педагога в современном образовании // Материалы конференции «Наука, общество, образование в современных реалиях». 2023. 1 (1). – С.16-26.

5. Сысоева Е. Ю. Функции цифрового имиджа преподавателя // Образование в современном мире: риски и перспективы цифровизации: сб. научн. тр. Всерос. науч.-метод. конф. с междунар. участием (Самара, 27 февр. 2023 г.) / отв. ред. Т. И. Руднева. Самара: Изд-во Самарского университета, 2023. С. 225–230.

6. Гизатулина, О. И. Использование авторского цифрового ресурса в высшем образовании // Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и перспективы развития: сборник научных трудов по материалам XVIII Международной научно-практической конференции, Анапа, 18 октября 2023 года. – Анапа: Общество с ограниченной ответственностью «Научно-исследовательский центр экономических и социальных процессов» в Южном Федеральном округе, 2023. – С. 9-19.

## SUN’IY INTELLEKTNING TA’LIM DASTURLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI ROLI

**Zikirova Fotima Murtazoyevna,**

Buxoro davlat universiteti,  
tayyorlash hozirgi zamonning dolzarb muammosidir. Musiqa maktablari, rassomlik maktablari va boshqalarda xalq ta’limi va madaniyat uchun zarur bo’lgan o’rta bo’g’in mutaxassislarini tayyorlash uchun maxsus bo’limlar ochiladi. Aynan kasbiy musiqiy-estetik tayyorgarlik asosida maktabni estetik madaniyatni shakllantirish markaziga aylantiradigan shunday musiqachi-pedagoglarni yetishtirish mumkin. Maxsus musiqiy-pedagogik ma’lumotga ega bo’lgan yangi turdagi mutaxassis, o’qituvchi, tarbiyachining yaratilishi uning keyingi pedagogik faoliyati ko’lamini kengaytirish imkonini beradi. "Yangi o’qituvchini yaratish yangi maktab yaratish va yangi demokratiyani yaratishga yordam berishni anglatadi."

Ko’pgina umumta’lim maktablarida estetik tarbiya muammolariga yetarlicha baho bermaslik ko’p yillardan buyon mavjud. Maktablarda ko’plab tasodifiy odamlar bor, musiqa darslari doimiy ravishda boshqa mashg’ulotlar bilan almashtiriladi. Ko’pincha bolalarning musiqiy va estetik tarbiyasi sinf o’qituvchilariga topshiriladi. Asosiysi, bunday ishlarni amalga oshirish uchun keng bilim va ko’nikmalarga ega bo’lgan maxsus kadrlarning etishmasligi. Mamlakatning aksariyat hududlarida maktab o’quvchilariga estetik tarbiya berish bilan bog’liq ishlar uchun professional darajada tayyorlangan o’qituvchilar etarli emasligi aniq.

Novomoskovsk musiqa maktabi maktabgacha va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida, umumta’lim va musiqa maktablarida, san’at maktablarida musiqa direktori, musiqa va ritm to’garaklari rahbarlari, sinfdan tashqari mashg’ulotlar tashkilotchilari, umumta’lim maktablarida musiqa o’qituvchilari, maktabgacha ta’lim va musiqa maktablarida ishlash uchun mutaxassislar tayyorlay boshladi. keng dunyoqarashga ega va professional musiqiy va estetik tayyorgarlikka ega bo’lgan uy musiqa o’qituvchilari.

Aholining ma’naviy-estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim o’rin tutadigan musiqa san’atini har tomonlama rivojlantirish, xalqimizning boy musiqa merosini chuqur o’rganish, navqiron avlodni beqiyos asarlar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida milliy va jahon musiqa klassikasi, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O’zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi.

Bugungi kunga kelib san’at va madaniyat sohasiga bo’lgan e’tibor siyosat darajasiga ko’tarildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida” gi PQ 112-sonli qaroriga asosan 2023/2024-o’quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o’quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko’nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo’lgan muhabbatni shakllantirish maqsadida kamida uchta milliy cholg’uda ijrochilik ko’nikmasini egallash belgilandi. Ushbu qarorga muvofiq bolalar musiqa va san’at maktablarida ham yangi natijalarga erishishni yuqori darajaga ko’tarish muhim ahamiyatga ega.

Bolalar musiqa va san’at maktabi o’quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga ko’ra, ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada **rivojlantirishga yo’naltirilgan musiqa** (*fortepiano, torli cholg’ular, estrada cholg’u ijrochiligi, xalq cholg’ulari, damli va zarbli cholg’ular, an’anaviy cholg’u ijrochiligi, an’anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi*) va **san’at** (*xoreografiya, teatr san’ati, tasviriy va amaliy san’at*) yo’nalishlarida faoliyatini amalga oshiradi.

Bolalar musiqa va san’at maktabida o’quvchilarga ta’lim berish **yakka tartibda** yoki **bir xil yoshdagi va turli yoshdagi bolalar guruhlarida** ularning qiziqishlariga ko’ra bir yoxud bir necha ta’lim yo’nalishlari bo’yicha amalga oshiriladi.

Bolalar musiqa va san’at maktabining asosiy maqsadi yosh avlodning musiqa va san’at turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an’analariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy va ma’rifiy saviyasini har tomonlama oshirishdan iborat.

Bolalar musiqa va san’at maktabining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- o’quvchilarning ma’naviy va estetik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- o’quvchilarning iste’dodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish;
- o’quvchilarni milliy va jahon musiqasi, tasviriy san’atning yuksak namunalaridan va o’zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan bahramand bo’lishi uchun zarur sharoitlar yaratish;
- milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o’quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;
- o’quvchilarga umumiy musiqa, xoreografiya, teatr san’ati, tasviriy va amaliy san’at yo’nalishlari bo’yicha bilimlarning boshlang’ich asoslarini o’rgatish orqali ularni musiqa va san’at olamiga jalb etish;
- iqtidorli o’quvchilarni musiqa va san’at yo’nalishlari bo’yicha o’rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida o’qishini davom ettirish uchun tayyorlash.

Tadqiqot usullaridan foydalanilgan:

- a) ushbu muammoga tegishli falsafa, pedagogika, psixologiya, estetika, musiqa nazariyasi, musiqashunoslik, san’at tarixiga oid adabiyotlarni o’rganish;

b) bu boradagi mavjud tajribani o‘rganish va umumlashtirish, gumanitar fanlar va musiqa sikllarini o‘qitishni kuzatish;

v) o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklarini tahlil qilish;

g) musiqa-estetik tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash sohasida tajriba-sinov ishlarini olib borish; e) eksperimental ishlarning turli bosqichlarida maqsadli pedagogik kuzatuv o‘tkazish;

f) dissertatsiya muallifining “Estetik tarbiya asoslari” fanini o‘qitish jarayonida ish tajribasini, uning “Go‘zallik olamiga kirish” uslubiy bo‘limini pedagogik amaliyot asosida umumlashtirish.

Bolalikda musiqa darslari vosita ko‘nikmalarini va muvofiqlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar musiqa ritmida harakat qilishni va cholg‘u asboblarini chalishni o‘rganadilar, bu ularning nozik motorli ko‘nikmalarini rivojlantiradi va muvofiqlashtirishni yaxshilaydi. Musiqiy mashg‘ulotlar bolalarga diqqatni jamlash va e‘tiborni yaxshilashga yordam beradi.

Bolalar musiqa maktablari bolalar uchun mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalaridir. Bolalar musiqa maktabi o‘quvchilari cholg‘u asbobida chalishni, shuningdek, qo‘shiq aytishni, asosiy musiqa nazariy fanlarini (solfedjio va elementar musiqa nazariyasi), musiqa tarixini o‘rganadilar.

Maktabda 6 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta‘lim oladi. Mashg‘ulotlar sinflarda olib boriladi: fortepiano, dutor, g‘ijjak, doyra, skripka, gitara, violonchel, nay, klarnet, saksafon va h.k. Har kuni individual va guruh darslari tashkil etiladi. O‘qish yillari davomida bolalar katta musiqiy tajribaga ega bo‘lishadi. Ular cholg‘u asboblaridan birini ancha yuqori darajada o‘zlashtiradilar, toza intonatsiya qiladilar (yolg‘on notalarsiz o‘ynaydilar, yaxshi qo‘shiq aytadilar), ulkan intellektual bazaga ega bo‘ladilar, yanada bilimdon bo‘ladilar va matematik qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Maktabda bola asosiy cholg‘udan tashqari solfejio, xor, musiqa nazariyasi, musiqa adabiyoti kabi fanlarni ham o‘rganadi, bu esa bo‘lajak musiqachining ko‘p yo‘nalishda rivojlanishiga imkon beradi. Musiqa darslari muloqot qobiliyatlarini yoki bugungi kunda deyilganidek, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘qish yillari davomida bola musiqachi jasur va do‘stona Motsart, qo‘pol va sportchi Prokofyev, murakkab va falsafiy Bax va boshqa juda xilma-xil musiqa arboblari bilan tanishadi.

**Xulosa** qilib shuni aytish joizki, musiqa darslari go‘zallikni tinglashni va eshitishni o‘rgatadi. Sinflar xotirani rivojlantirishga yordam beradi, chunki darslar davomida bola doimo xotiraga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan biror narsani, shu jumladan musiqiy notalarni o‘rganishi kerak. Musiqiy asarlarni o‘rganish bir vaqtning o‘zida miyaning ikkala yarim sharidan ko‘p mehnat talab qiladi.

Bolalar musiqa maktablari musiqa ta‘limining birinchi bosqichi bo‘lib, madaniy havaskor musiqachilarni tarbiyalaydi, kasbiy iqtidorli o‘quvchilarni musiqa ta‘lim yo‘nalishinin keyingi bosqichiga o‘qishga qabul qiladi. Maktabni tugatgandan so‘ng, bitiruvchilarga guvohnoma beriladi. Kichik maktab o‘quvchilarini estetik tarbiyalash tizimi kompleks yondashuv printsiipi, bolalarning badiiy va estetik faoliyati va ularning hayot strategiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik printsiipi bilan ifodalanadi. Maktab o‘quvchilarining estetik tarbiyasi bir-biri bilan o‘zaro ta‘sir qiluvchi va shaxsga integral ta‘sir ko‘rsatadigan turli xil san‘at turlariga asoslanadi. Bunday o‘zaro ta‘sir adabiyot, tasviriy san‘at va musiqa o‘qitishdagi o‘quv fanlari o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik tufayli mumkin bo‘ladi. Estetik tarbiya fanda, mehnatda, jismoniy madaniyatda, munosabatlar estetikasida va kundalik hayotda go‘zallikni tasvirlash orqali amalga oshiriladi. Estetik tarbiya tizimi bolalarning barcha badiiy va estetik faoliyatining ularning hayot strategiyasi, jamiyat arxetipi, dunyoqarashining rivojlanishi va voyaga etmaganlarning axloqiy va ma‘naviy uzluksizligi bilan uzviy bog‘liqlik tamoyiliga asoslanadi.

Estetik ta‘lim tizimining navbatdagi tamoyili - bu sinfdan, darsdan tashqari, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni, ommaviy axborot vositalari va Internet orqali san‘atga ta‘sir qilishning turli shakllarini birlashtirish g‘oyasi. Tasviriy san‘at darslarida o‘quvchilar san‘at tarixi komponentlarining eng umumiy toifalarinigina o‘rganadilar va badiiy va ijodiy idrok etishning asosiy ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Дьяченко И.Ю. Теория и методика музыкального воспитания. Учебное пособие, 2014. С: 6, 8, 21.
3. <https://victoriaboler.com/blog/three-philosophies-of-music-education>
4. Вилотиевич М. От традиционной к информационной дидактике // Вестник Московского университета. Сер. 20. Педагогическое образование. 2003; 2.

**MADANIYAT VA SAN’AT YO‘NALISHI TALABALARI UCHUN  
MEDIASAVODXONLIKNING AHAMIYATI VA ZARUR OMILLARI**

*Berdiyeva Iroda Xudayshukurovna,*

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tayanch doktoranti  
[irodaberdiyeva701@gmail.com](mailto:irodaberdiyeva701@gmail.com)*

*Mazkur maqolada madaniyat va san’at yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalarning mediasavodxonlik darajasini oshirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Mediasavodxonlik nafaqat axborotni to‘g‘ri qabul qilish, balki uni tahlil qilish, yaratish va xavfsiz ulashish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Ijodiy sohada talaba bo‘lish, turli media platformalar bilan ishlash va ommaga o‘z asarlarini taqdim etish jarayonida foydali hisoblanadi. Shuningdek, maqolada mediasavodxonlikni oshirishga qaratilgan dolzarb omillar, jumladan, tanqidiy fikrlash, raqamli xavfsizlik, media orqali ijodiy ishlash va global madaniy aloqalarga e’tibor qaratiladi. Ushbu ko‘nikmalar talabalarning ijodiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlarida muhim o‘rin tutadi.*

***Kalit so‘zlar:** madaniyat va san’at yo‘nalishi, ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar, axborot manbalari, ijodiy faoliyat, mediasavodxonlik darajasi.*

**ЗНАЧЕНИЕ И НЕОБХОДИМЫЕ ФАКТОРЫ МЕДИАГРАМОТНОСТИ ДЛЯ  
СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА**

*В статье анализируется важность повышения медиаграмотности студентов, обучающихся по специальности «Культура и искусство». Медиаграмотность включает в себя не только навыки правильного восприятия информации, но и навыки её анализа, создания и безопасного распространения. Обучение в творческой сфере даёт возможность работать с различными медиаплатформами и представлять свои работы публике. В статье также рассматриваются современные факторы, направленные на повышение медиаграмотности, включая критическое мышление, цифровую безопасность, творческую работу через медиа и глобальные культурные связи. Эти навыки необходимы студентам для достижения успеха в их творческих начинаниях.*

***Ключевые слова:** направление культуры и искусства, средства массовой информации, цифровые технологии, источники информации, творческая деятельность, уровень медиаграмотности.*

**THE IMPORTANCE AND NECESSARY FACTORS OF MEDIA LITERACY FOR  
STUDENTS OF CULTURE AND ARTS**

*This article analyzes the importance of improving the level of media literacy of students studying culture and art. Media literacy includes not only the skills of correctly receiving information, but also the skills of analyzing, creating and sharing it safely. Being a student in the creative field is useful in the process of working with various media platforms and presenting one’s works to the public. The article also focuses on relevant factors aimed at improving media literacy, including critical thinking, digital safety, creative work through media and global cultural connections. These skills play an important role in students’ success in their creative activities.*

***Keywords:** direction of culture and art, mass media, digital technologies, information sources, creative activity, level of media literacy.*

**Kirish.** Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanib, odamlar axborotga kirishning yangi va murakkab usullarini qo‘llashmoqda. Ushbu axborot oqimi ichida to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotlarni ajratish, ularni tushunish va tegishli qarorlar qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan shu yerda mediasavodxonlik bo‘yicha yoshlarga kengroq tahliliy fikrlash ahamiyatli bo‘ladi. Davlatimiz rahbari: “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[1], deb alohida qayd etdi. Shu bois, mamlakatimizda “mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash”[2] ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Shu bilan birga yoshlarning mediasavodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladigan bir qancha qonun hujjatlari, metodik tavsiyalar majmualari mavjuddir.

Mediasavodxonlik shaxsga turli axborot manbalarini tanqidiy yondashish va raqamli platformalarda xavfsiz faoliyat yuritish imkonini berar ekan, bu jarayon g'oyatda ahamiyatli hisoblanadi. Bu nafaqat axborot olish, balki uni qayta ishlash, muloqot qilish va jamiyatda faollik ko'rsatish, sifatli ta'lim olish uchun ham zarurdir. Sababi, mediasavodxonlik tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Mediasavodxonlik insonning turli axborotlar va yangiliklarga tanqidiy yondashuvini kuchaytiradi. Axborotning manbai, ishonchliligi va maqsadini tahlil qilish ko'nikmasi orqali inson noto'g'ri ma'lumotlar va feyk xabarlarini ajratib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Axborot oqimida kerakli va ijobiy yo'nalishni toppish ko'nikmasi shakllanadi. Har kuni millionlab axborot oqimlari paydo bo'layotgan davrda mediasavodxon shaxslar bu axborotlarni filtrlash va faqat kerakli va to'g'ri ma'lumotlarni olishda muvaffaqiyatli ishlay oladilar. Bu esa ularga to'g'ri qaror qabul qilish va hayotiy jarayonlarda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

**Asosiy qism.** Mediasavodxonlik orqali ijtimoiy va siyosiy faollik ham oshadi. Mediasavodxonlik jamiyatda faol ishtirok etishga ko'maklashadi. Bu, shaxsga axborot bilan to'g'ri ishlash orqali o'zining siyosiy va ijtimoiy pozitsiyasini anglash va ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, saylovlar, ijtimoiy institutlar va jamoaviy harakatlarda mediasavodxonlik yuqori ahamiyat kasb etadi.

Mediasavodxonlik jamiyatda raqamli xavfsizlikni shakllantirishning zaruriy omili sifatida tasniflanadi. Raqamli dunyo xavfsizligining muhim elementi bo'lgan mediasavodxonlik shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlikka rioya qilish va firibgarliklardan himoyalaniшни o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, internet va ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz faoliyat yuritishga yordam beradi.

Mediasavodxonlik yoshlar orasida madaniy tushuncha va bag'rikenglikni oshirishga xizmat qiladi. Mediasavodxonlik madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. Turli millat va madaniyat vakillarining ommaviy axborot vositalarida ifodalanishi qanday bo'lishini tushunish, ular bilan xolisona muloqot qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa jamiyatda bag'rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi.

Mediasavodxonlikni oshirish uchun maktablar, OTMlari va boshqa ta'lim muassasalarida tegishli fanlarni joriy etish muhimdir. Bu orqali yoshlar axborot oqimlari bilan to'g'ri ishlashni o'rganadilar va kelajakda har qanday manipulyatsiyalarga qarshi turadigan yetuk shaxslar bo'lib shakllanadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda mediasavodxonlik bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilishi lozim. Maxsus treninglar, seminarlar va onlayn kurslar orqali barcha yosh toifalaridagi insonlar mediasavodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. Mediasavodxonlik darajasini oshirish kundankunga dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Sababi, O'zbekistonda yoshlarning ta'lim sifati va sonining yuqorilab borishi shuni taqozo etmoqda.

Keyingi 7 yil davomida ta'lim sohasini rivojlantirish uchun umumiy hisobda 216 trillion so'm sarmoya yo'naltirildi. Xususiy ta'lim uchun yaratilgan imkoniyatlar tufayli xususiy maktablar soni 27 tadan 500 tagacha ko'paydi, nodavlat bolalar bog'chalari esa 250 tadan 30 mingtaga yetdi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi dunyo miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida tubdan rivojlanib, bog'chalar soni 8 barobar oshdi, qamrov darajasi esa 27 foizdan 76,4 foizgacha o'sdi.

Oliy ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Qisqa muddat ichida 135 ta yangi oliygoh tashkil etilib, ularning umumiy soni 211 taga yetdi. Oliy ta'limga qamrov esa 9 foizdan 38 foizgacha ko'tarilishi tizimda amalga oshirilgan islohotlarning yana bir yorqin misolidir.

Albatta, bu kabi moddiy resurslar, birinchi navbatda, intellektual-ma'naviy resurslar bilan to'ldirilgandagina ta'limda sifat, samara bo'lishi shubhasiz. Intellektual-ma'naviy resurslar bu, avvalo, o'qituvchining bilim va tajribasi, mahorati, uning madaniy darajasi, ma'naviy saviyasi deganidir[3].

Bu bejiz emas, hozirgi kunda yoshlarning bilim va tajribasi, mahorati, uning madaniy darajasi, ma'naviy saviyasi tashqi omillar sifatida OAV, internet platformalari orqali uzviy bog'liq bo'lmoqda. Shunday ekan, mediasavodxonlikning sifat darajasini oshirish, yangi bosqichga ko'tarish kerak. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Biz mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak[4].

Mediasavodxonlik zamonaviy jamiyatning muhim qismi bo'lib, insonlarga axborotga to'g'ri yondashish, u bilan ishlash va jamiyatda faollik ko'rsatish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, mediasavodxonlik jamiyatdagi har bir individ uchun zaruratga aylangan. Shu boisdan, mediasavodxonlikni rivojlantirish – to'g'ri va barqaror axborot jamiyatini yaratish yo'lida muhim qadamdir. Madaniyat va san'at sohasi yo'nalishi talabalari uchun mediasavodxonlik ayniqsa muhimdir. Chunki bu sohada o'qiyotgan talabalarning ijodiy faoliyati va ishlarining omma bilan bevosita aloqada bo'lishi yuqori ahamiyatga ega. Quyida mediasavodxonlikning ushbu yo'nalishdagi talabalarga

qanday taʼsir qilishi va uning ahamiyati haqida baʼzi jihatlar quyidagilar deb hisoblash mumkin. Madaniyat va sanʼat sohasida talabalar ijodiy loyihalar, asarlar yoki spektakllar yaratadi.

Mediasavodxonlik ularga bu ishlarni raqamli platformalarda toʻgʻri ulashishni va mualliflik huquqlarini himoya qilishni oʻrgatadi. Ommaviy axborot vositalari orqali oʻz ijodiy ishlarini ulashish va ommaga tanitish muhimdir, lekin bu jarayonda plagiat va noqonuniy foydalanish muammolariga duch kelish mumkin. Mediasavodxon talabalar huquqlarini himoya qilish va axborotga masʼuliyatli munosabatda boʻlishni biladi. Madaniyat va sanʼat yoʻnalishidagi talabalar turli madaniyatlar, sanʼat oqimlari, uslublar va tendensiyalar haqida turli manbalardan axborot olishlari zarur. Mediasavodxonlik ularga notoʻgʻri maʼlumotlar, asossiz yangiliklar yoki stereotiplardan himoyalanişda yordam beradi. Tanqidiy fikrlash orqali ishonchli va sifatli manbalarni topa olishlari hamda axborotdan toʻgʻri foydalana olishlari kerak. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari sanʼat va madaniyatni keng auditoriyaga yetkazish uchun muhim platformadir. Talabalar oʻz asarlarini va madaniy loyihalarini ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, video platformalar orqali taqdim qilish imkoniyatiga ega boʻlishadi.

Mediasavodxonlik ularning auditoriyani qiziqitira olish, mazmunli va foydali kontent yaratish va ushbu platformalarda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi. Sohada yangi texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishiga zamin yaratiladi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda sanʼatning rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatmoqda. Virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat, raqamli sanʼat kabi texnologiyalar sanʼatkorlarga yangi usullar va vositalar yaratish imkonini beradi. Mediasavodxonlik, ayniqsa, bu texnologiyalarni sanʼatda qanday qoʻllash va ularning axborot xavfsizligiga oid muammolarini oʻzlashtirishda yordam beradi. Mediasavodxonlik talabalarga nafaqat axborotni qabul qilishda, balki uni ijodiy qayta ishlashda ham yordam beradi. Sanʼat sohasidagi talabalar koʻpincha turli ijodiy jarayonlarni oʻrganishlari kerak boʻladi. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalarida tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvning oʻrni muhimdir. Axborotni toʻgʻri talqin qilish ijodkorlarga yangi yondashuvlarni kashf qilishga yordam beradi.

Mediasavodxonlik darajasi yuqori talabalarning madaniyatlararo kommunikatsiyani tahlil qilish darajasi yuqori boʻladi. Sanʼat va madaniyat talabalarining global miqyosdagi faoliyati, ularning boshqa millatlar va madaniyatlar bilan aloqada boʻlishini talab qiladi. Mediasavodxonlik ularga boshqa madaniyatlarni hurmat qilish, ulardagi sanʼat asarlarini tushunish va baholashda yordam beradi. Bu esa madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Mediasavodxonlik talabalarni sanʼat va madaniyat haqidagi notoʻgʻri yoki manipulyatsiyalangan axborotlardan himoya qiladi. Bugungi kunda raqamli platformalarda feyk yangiliklar keng tarqalgan boʻlib, notoʻgʻri maʼlumotlarga ishonib qolish ijodiy jarayonlarga zarar yetkazishi mumkin. Feyk yangiliklar va notoʻgʻri maʼlumotlardan himoyalaniş imkonini beradi. Madaniyat va sanʼat koʻpincha jamiyatdagi ijtimoiy masalalarni aks ettiradi va ularni ommaga yetkazadi. Mediasavodxonlik talabalarni ijtimoiy masalalarga masʼuliyat bilan yondashishga, axborot vositalari orqali ijtimoiy muammolarni toʻgʻri ifodalash va ular bilan toʻgʻri ishlash koʻnikmalarini oʻrgatadi.

Madaniyat va sanʼat yoʻnalishi talabalari uchun mediasavodxonlik faqatgina axborotni tahlil qilish va ulashishni oʻz ichiga olmaydi. Bu talabalar uchun ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, oʻz asarlarini targʻib qilish va himoya qilish, jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy jarayonlarni toʻgʻri talqin qilish uchun zarur boʻlgan vositadir. Shu bois, mediasavodxonlik sanʼat va madaniyat talabalarining zamonaviy ijodiy va kasbiy rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni koʻzda tutmoqdamiz.

Yaʼni Oʻzbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh boʻlishi shart” [5]. Yoshlar bilan ishlash masalasi eng asosiy vazifalar qatorida qayd etildi. Bu bejizga emas. Davlatning yoshlarga boʻlgan munosabati jamiyat taraqqiyoti darajasi, uning ochiqligi, oldinga intilayotganligining koʻrsatkichlaridan biridir.

Ijodiy sohada taʼlim oladigan talabalarning mediasavodxonlik darajasini oshirish boʻyicha quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suraman.

Madaniyat va sanʼat sohasi talabalari uchun maxsus *ijodiy laboratoriyalarni* tashkil qilish orqali raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi media vositalar bilan ishlash koʻnikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu laboratoriyalarda talabalar raqamli sanʼat texnologiyalarini oʻrganib, oʻz ijodiy loyihalarini yaratishda foydalanish imkoniyatiga ega boʻlishadi. Sohadagi OTM orasida tanqidiy media kurslari va tanlovlarini oʻtkazish kerak. Mediasavodxonlik darajasini oshirish uchun ijodiy soha talabalari uchun “*tanqidiy media*” kurslarini yoʻlga qoʻyish kerak. Ushbu kurslar davomida talabalar ommaviy axborot vositalarining sanʼat va madaniyatga taʼsirini oʻrganib, media kontentlarni tahlil qilishni oʻrganadilar. Kurs oxirida ijodiy tanlovlar oʻtkazilib, talabalar oʻz ishlarini media orqali ommaga taqdim etish imkoniyatiga ega boʻlishadi. Shu bilan birga, ijodiy sohadagi talabalarni media va jurnalistik tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga jalb etish orqali mediasavodxonlik darajasini oshirish lozim. Ular media kompaniyalarda amaliyot

o‘tash yoki san‘at asarlarini raqamli platformalarda qanday ommalashtirishni amaliyotda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa talabalar mediasavodxonligini real tajriba orqali rivojlantiradi. Mediasavodxonlik faqat axborot iste‘mol qilishni emas, balki axborotni himoya qilishni ham o‘z ichiga oladi. Ijodiy soha talabalari uchun maxsus treninglar tashkil etilib, ularda raqamli kontentni mualliflik huquqi bilan himoya qilish, ijodiy ishlarni noqonuniy foydalanishdan saqlash bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bu ularga ijodiy ishlarini internetda xavfsiz ulashish va ommaga tanitishda yordam beradi. Talabalar uchun xorijiy san‘at va media mutaxassislari bilan onlayn konferensiyalar, vebinarlar va seminarlar tashkil etish orqali ularni xalqaro mediasavodxonlik tajribalari bilan tanishtirishni yanada takomillashtirish lozim. Bu tajriba almashinuvi orqali talabalar turli madaniyatlarning media bilan ishlash uslublarini o‘rganadilar va o‘z ijodiy ishlarida yangi yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ijodiy talabalarga mediasavodxonlikni oshirishda feyk yangiliklar va media manipulyatsiyalardan himoya qilish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim.

**Xulosa.** Ushbu dasturlar orqali talabalar axborotni tahlil qilish, manba ishonchligini baholash va noto‘g‘ri axborotlarga qarshi tura olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Talabalarni mediasavodxonlik haqida ma‘lumot beruvchi ijodiy video, animatsiya yoki raqamli san‘at asarlarini yaratishga jalb qilish. Bu orqali ular nafaqat o‘z bilimlarini oshiradilar, balki media savodxonlikning dolzarb masalalarini boshqa talabalarga yetkazishda ham faol ishtirok etadilar. Bu takliflar ijodiy sohada tahsil olayotgan talabalar uchun mediasavodxonlikni amaliyotda oshirish va ularga raqamli dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘lishda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma‘naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / “Xalq so‘zi”. 2017 yil 1 iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son.
3. Zaxidov E., Ubaydullayeva S. Xalq farovonligi uchun sifatli ta‘lim, malakali tibbiyot va kuchli ijtimoiy himoyani ta‘minlaymiz// Yangi O‘zbekiston gaz., № 203. – Toshkent.: Kolorpak MChJ. 2024.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 464 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018 yil 29 dekabr. № 271-272 (7229-7230).

## BO‘LG‘USI TARBIYACHILARDA PEDAGOGIK ETIKETNI SHAKLLANTIRISH ME‘ZONLARI

*Ermatova Gulnoz Pirimovna,*  
Navoi davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta’lim kafedrasida o‘qituvchisi  
[ermatovagulnoz571@gmail.com](mailto:ermatovagulnoz571@gmail.com)

*Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yo‘nalishlari talabalarida, bo‘lg‘usi maktabgacha ta’lim tizimi pedagog-xodimlarida kasbiy majburiyatlarini bajarish qoidalari, kasbiy standart, mahoratli pedagog, pedagogik etiket, boshqaruv etiketini, professionalizm, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlar, chuqur kasbiy bilimlarni, zaruriy kasbiy kompetensiyalarni, strategik boshqaruv, fundamental integrallashgan bilimlar, umumlashtirilgan ko‘nikmalar, pedagogik qobiliyatlar, shaxsiy va kasbiy muhim fazilatlar, madaniyatli va mahoratli, o‘z-o‘zini doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan harakatlarni shakllantirish, kasbiylikni baholovchi mezonlar: obyektiv mezonlar, subyektiv mezonlar, samarali mezonlar pedagogning kasbiy mahorati jamiyatning ijtimoiy va pedagogik talablariga javob beradigan muayyan ta’lim tizimini aks ettiruvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli xil tarkibiy qismlarning o‘ziga xos xususiyatlari pedagogik etiket haqida ma’lumotlar yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *pedagogning kasbiy mahorati, umumiy madaniyat darajasi, psixologik va pedagogik kompetensiya, maqsadlarni belgilash, maqsadlarga erishish qobiliyati, pedagogik fikrlash qobiliyati, ta’lim sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.*

## КРИТЕРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭТИКЕТА У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

*В данной статье рассматриваются правила выполнения профессиональных обязанностей обучающимися дошкольного образования, будущими педагогическими работниками системы дошкольного образования, профессиональные стандарты, квалифицированный педагог, педагогический этикет, управленческий этикет, профессионализм, высокие интеллектуальные способности и нравственные качества, глубокие профессиональные знания, необходимые профессиональные навыки. Формирование компетенций, стратегическое управление, фундаментальные интегрированные знания, обобщённые умения, педагогические способности, важные личностные и профессиональные качества, культурный и умелый, действия, направленные на постоянное самосовершенствование, критерии оценки профессионализма: объективные критерии, субъективные критерии, критерии эффективности, профессиональное мастерство педагога. Приведены сведения о педагогическом этикете, выделены специфические особенности различных взаимосвязанных компонентов, отражающих конкретную образовательную систему, отвечающую социальным и педагогическим запросам общества.*

**Ключевые слова:** *профессиональное мастерство учителя, уровень общей культуры, психолого-педагогическая компетентность, постановка целей, умение достигать цели, способность педагогического мышления, способность осуществлять инновационную деятельность в сфере образования.*

## CRITERIA FOR THE FORMATION OF PEDAGOGICAL ETIQUETTE IN FUTURE EDUCATORS

*This article discusses the areas of preschool education for students, the rules for fulfilling the professional duties of teaching staff in the preschool education system, professional standards, qualified teachers, pedagogical etiquette, management etiquette, professionalism, high intellectual abilities and moral qualities, deep professional knowledge, necessary professional competencies, strategic management, fundamental integrated knowledge, generalized skills, pedagogical skills, important personal and professional qualities, cultural and skillful, formation of actions aimed at constant self-improvement, criteria for assessing professionalism: objective criteria, subjective criteria, effective criteria for information about pedagogical etiquette, features of various interrelated components are identified, which reflect a specific education system in which the professional skills of a teacher correspond to the social and pedagogical requirements of society.*



**Keywords:** professional skills of a teacher, level of general culture, psychological and pedagogical competence, goal setting, ability to achieve goals, ability of pedagogical thinking, ability to carry out innovative activities in the field of education.

**Kirish.** Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimlarining sifat va samaradorligiga alohida e’tibor qaratish dolzarb masalalardan biridir. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish eng avvalo, maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayoni uchun mahoratli pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi bilan bog’liqdir.

Bizga ma’limki, ushbu sohada keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Aynan, oliy ta’lim muassasalarida “Maktabgacha ta’lim” bakalavriat ta’limi yo’nalishi bo’yicha kunduzgi, sirtqi, kechki ta’lim shakllariga qabul kvotalari oshirildi va shu bilan birga magistratura yo’nalishlari uchun ham talabalar qabul qilinib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayonlari tashkil etilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Oliy ta’lim muassasalarida maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga, boshqaruvga tayyorlash va ularda kasbiy mahorat hamda etiketni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonlarida amalga oshiriladi. Chunki, bo’lg’usi maktabgacha ta’lim pedagog-xodimlari pedagogik etiket qoidalarini bilishlari bugungi kunda o’ta muhim sanaladi. Bu xususda O’zbekiston Respublikasi “Pedagogning maqomi to’g’risida”gi Qonunning 8-moddasida ham pedagogning etika qoidalari, kasbiy majburiyatlarini bajarishi jarayonida amal qilishi lozim bo’lgan qoidalar majmuidan iborat ekanligi, ularni bajarish sifat ko’rsatkichlarni va pedagogning mehnat intizomini belgilaydigan mezon ekanligi hamda bu qoidalarning buzilishi intizomiy javobgarlikka tortilishi uchun asos bo’lishi mumkinligi alohida ko’rsatib berilgan[1].

Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ham maktabgacha ta’lim tizimi xodimlariga qo’yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash, o’zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta’minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro’yxatini o’z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish hamda strategik boshqaruv, moliyaviy va menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari ko’rsatib berilgan[2].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarida kasbiy etiketni shakllantirish bu etika ya’ni axloqlilikni shakllantirish bilan bog’liqdir. Axloq so’zi aslida, lotincha “maralis” so’zidan kelib chiqib “axloqli” degan ma’noni anglatadi. Insonlarning axloqliligi ularning ijtimoiy - siyosiy va huquqiy faoliyatda, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar: ularning xulq atvori, yurish – turishi, adolat, sadoqat, burch, baxt kabi munosabatlarini o’z ichiga oladi. Shunday kelib chiqqan holda, jamiyatning ko’p qirrali va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi “axloq” tushunchasini kategoriya sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin:

- umuminsoniy madaniyatning inson tabiiy xislatlarini o’zgartiruvchi faoliyat shaklidagi tarkibiy qismi;
- jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma’naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;
- kishilarning ichki tuyg’ularini, hissiyotlarini takomillashtirib, umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlarni anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo’llaridan eng afzali;
- axloqshunoslik - insonlarga axloq-odob, burch, qadr-qimmatni shunchaki aks ettirmaydi, balki ularni tanqidiy baholaydi, tahlil etadi [8].

Kasbiy etiket esa bevosita bir qancha kasbimiz bilan bog’liq ma’naviy, milliy, madaniy va kasbiy xulq atvorimiz bilan bog’liq. Buni olimlarimiz ham quyidagicha talqin etishgan. Professional etika bo’yicha tadqiqot ishlari olib borgan Leandro Valente o’zining “Etiketning oltin qoidasi” asarida quyidagilarni keltiradi:

**Birinchi qoida:** har doim yaxshi narsalarga qarab intilish kerak. Yaxshilik deganda, yaxshi faoliyat, jamoat va rahbar tasarrufida yaxshi taasurot qoldirish.

**Ikkinchi qoida:** sadoqat bilan ish olib borish, chin dildan mehnat qilish. Har sohaning mas’uliyati bor, unga amal qilish.

**Uchinchi qoida:** kasbdoshlar orasida o’zaro hurmat va ishonchni qozonish, bir-biriga do’stona va yaxshi muomalada bo’lish. Jamoani va o’z-o’zini hurmat qilish.

**To’rtinchi qoida:** kasbdoshlar bilan do’stona munosabatda bo’lish.

**Beshinchi qoida:** haqqoniy, adolatli bo‘lish. Bu xususiyatni ish jarayonida namoyon bo‘lish.

**Oltinchi qoida:** bilimli, hissiyotli, xulq-atvorli bo‘lish va boshqalarga namuna bo‘lish.

**Yettinchi qoida:** har bir inson odob-axloqli va namunali xulqli bo‘lishi, etiket qoidalariga amal qilish.

**Sakkinchinchi qoida:** har doim har bir inson saxiy, ko‘ngli toza, shaxsiy hayotda xushxulqli, bag‘rikeng bo‘lish.

**To‘qqizinchi qoida:** har qanday axborotni (sirni) saqlay bilish, shundagina jamoa oldida hurmat qozonishi va karyeraga ega bo‘lishi va jamoat oldida katta hurmat qozonish.

**O‘ninchi qoida:** barchaga yaxshi xulq-atvoringiz va kasbiy mahurat bilan namuna bo‘lish[9].

Etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabatlar ko‘rinishlaridan biri sifatida ko‘proq insonning tashqi madaniyatini, o‘zaro munosabatlardagi o‘zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi.

Mutafakkirlimizdan Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniyyohud javonmardlik tariqati” nomli asarida kasbiy etika va turli kasb egalari kasbiy odobi haqida: «Bilgilim, hamma kasblarga birday taalluqli qisqacha qoida-adablar mavjud, shuningdek, har bir kasb uchun alohida odob ham bor. Agar, barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta, deb so‘rasalar, sakkizta deb aytgil:

**Birinchidan,** o‘z kasbini haromdan, shubhali mol-mablag‘dan pok saqlasin;

**ikkinchidan,** rizq-ro‘zi zarurati uchungina kerakli kasb bilan shug‘ullansin, kasbni mol-dunyo to‘plashga sarflamasin;

**uchinchidan,** kasbni obro‘ olish, yaxshi nom chiqarishning sababi, deb bilsin;

**to‘rtinchidan,** moli harom odamlar (amaldorlar, poraxo‘rlar, qaroqchilar, o‘g‘rilar, qimorbozlar, kazzob do‘kondorlar) bilan muomala qilmasin...»<sup>1</sup>.

Olim sotuvchi odobi, xaridor odobi, xodimlar odobi, maddohlar odobi singari masalalarida ham fikrlar bildiradi.

Maktabgacha ta’lim sohasi mutaxassislarining kasbiy mahorati, ularga qo‘yiladigan talablarni professionallik tushunchasi bilan tushuntirish mumkin. Professionallik tushunchasi har bir sohada mavjud bo‘lib, bu kasbiylik shu sohani muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlari yig‘indisi hisoblanadi.

Pedagogning kasbiy mahorati jamiyatning ijtimoiy tartibiga javob beradigan muayyan ta’lim tizimini aks ettiruvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli xil tarkibiy qismlarning o‘ziga xos xususiyatidir. Pedagogning kasbiy mahoratining tarkibiy qismlari quyidagilar:

- Umumiy madaniyat darajasi;
- psixologik va pedagogik kompetensiya;
- maqsadlarni belgilash va maqsadlarga erishish qobiliyati;
- pedagogik fikrlash qobiliyati;
- ta’lim sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

**Pedagogning kasbiy mahorati** murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p qirrali xususiyatini ifodalovchi, jamiyat tartibiga mos keladigan hamda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan pedagogik kadrlar tayyorlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

**Kasbiy mahoratga ega bo‘lgan pedagog** deganda - bu fundamental integrallashgan bilimlar, umumlashtirilgan ko‘nikmalar, pedagogik qobiliyatlar, shaxsiy va kasbiy muhim fazilatlar, madaniyatli hamda mahoratli, o‘z-o‘zini doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan harakatlar to‘plamini o‘z ichiga olgan sifatlardir.

Pedagog faoliyatining uchta asosiy jihati quyidagilar hisoblanadi:

Shaxs	Pedagogik faoliyat	Pedagogik muloqot
<b>Pedagogning shaxsiyati</b> uning pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotdagi kasbiy pog‘onasini belgilaydi.	<b>Pedagogik faoliyat</b> - pedagog ishining “texnologiyasi”, <b>pedagogik muloqot</b> - bu ishning iqlimi va muhiti, shaxsiyat - bu qadriyatlar,ideallar, ichki ma’nolari pedagogning ishi.	<b>Kasbiy kompetensiya</b> bu pedagog faoliyatida ushbu uch jihatning barchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Pedagog faoliyatining har bir jihati quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Kasbiy psixologik-pedagogik bilimlar	<b>Pedagogning kasbiy bilimi</b> - pedagogika va psixologiya fanlaridan pedagog mehnatining mohiyati, pedagogik faoliyat va muloqot xususiyatlari, pedagogning shaxsiyati, bolalarning aqliy
--------------------------------------	--

	rivojlanishi, ularning yosh xususiyatlari va boshqalar haqida ma'lumotdir. Kasbiy bilimlarda pedagog chiniqadi. Uning shaxsiy kasbiy rivojlanishi uchun ushbu bilimlar shartdir.
Kasbiy pedagogik mahorat	<b>Pedagogik mahorat</b> -bu pedagogning pedagogik harakatlari (ta'sirlari). Boshqa barcha malakalar kabi pedagogik mahorat ham yetarlicha yuqori darajada bajariladigan harakatlardir. Pedagogik mahorat o'qituvchi faoliyatida “texnika”ni shakllantiradi.
Kasbiy psixologik-pedagogik bilimlar	<b>Professional psixologik pog'onalar</b> - bu pedagogning (talabaga, o'ziga, hamkasblariga) munosabatlarining barqaror tizimi bo'lib, uning xatti-harakatlarini belgilaydi. Kasbiy mavqe, shuningdek, kasbiy o'zini-o'zi qadrlash, pedagogning kasbiy intilishlari darajasini, egallagan maktabdagi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rniga munosabatini va da'vosini ifodalaydi.
Kasbiy psixologik pozitsiyalar, pedagog munosabatlari	Kasbiy pog'ona pedagogning motivatsiyasi, o'z ishinin ma'nosini anglash bilan chambarchas bog'liq.
Pedagogning kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar	Intiliuvchalik, mehnatsevarlik, qiziqish, ijorkorlik, o'z sohasi bo'yicha yangiliklarni bilishga intilish, sohasi bo'yicha ilg'or tajribalar bilan tanishib borish.

Insonning kasbiy mahorati nafaqat yuqori kasbiy natijalarga erishish, balki, mehnat unumdorligi, psixologik komponentlarning mavjudligi - insonning mehnatga bo'lgan ichki munosabati, uning aqliy fazilatlaridir. Shuning uchun, professionallikda ikki tomon ajralib turadi:

Davlat motivatsion shaxsning kasbiy faoliyati sohalari (odamni qanday motivlar rag'batlantiradi, uning hayotidagi kasbiy faoliyatning ma'nosi, shaxsan u qanday maqsadlarga erishishga intiladi, ishdan qanchalik mamnun va hokazo) va davlat operativ shaxsning kasbiy faoliyati sohalari (u qanday qilib, qanday usullar bilan qo'yilgan maqsadlarga erishadi, qanday texnologiyalardan foydalanadi, qanday vositalar - bilim, aqliy operatsiyalar, qobiliyatlar).

Kasbiylikni baholash uchun bitta emas, balki bir guruh mezonlardan (samarali va protsessual, obyektiv va subyektiv, sifat va miqdor va boshqalar) foydalanish kerak.

**1. Obyektiv mezonlar:** insonning kasb talablariga qanchalik mos kelishi, ijtimoiy amaliyotga sezilarli hissa qo'shishidir. Pedagog faoliyatda uning ta'lim tizimi talablariga, ta'lim oluvchilar oilasining ehtiyojlariga mos ravishda o'qitish va tarbiyalash muammolarini muvaffaqiyatli hal eta olishi obyektiv mezon bo'lishi mumkin.

**2. Subyektiv mezonlar:** kasbning inson talablariga qanchalik mos kelishi, uning motivlari, mayllari, kasbi bo'yicha mehnatdan qanchalik mamnunligidir. Pedagog faoliyatida kasbiy mahoratning subyektiv mezoni barqaror kasbiy-pedagogik yo'nalish, kasbning ahamiyatini tushunish, uning qadriyat yo'nalishlari, shaxsning zarur kasbiy va psixologik fazilatlarini to'plami, o'ziga nisbatan ijobiy munosabat bo'lishi mumkin.

Professional va shaxsiy deformatsiyalarning yo'qligi. Pedagog yuqori ishdagi muvaffaqiyat va o'z kasbida qolishga bo'lgan ichki istak uyg'unligi bilan ajralib turadi.

**3. Samarali mezonlar:** inson o'z ishida bugungi kunda jamiyat xohlagan natijalarga erishishlari.

Pedagog mehnati natijalarini tushunishda bir nechta nuqtayi nazar mavjud. Ba'zilar faqat ta'lim oluvchilarning bilimlari natijasini, bilimlarning ta'lim standartlariga muvofiqligini hisobga olishga moyil, boshqalari ularning qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydilar, boshqalari pedagogning ishinin natijasi keyingi ijtimoiy hayotga moslashishi deb hisoblashadi. Hayoti va boshqalar ko'pincha pedagogik faoliyatning asosiy natijasi o'quvchilarning ta'lim yutuqlari darajasidir.

**4. Protsessual mezonlar:** Inson o'z natijalariga erishish uchun ijtimoiy maqbul usullar, texnikalar, texnologiyalardan foydalanadimi. Masalan, o'qituvchining boshqa, yetuk shaxs ruhiyati bilan shug'ullanuvchi faoliyatida kasbiy mezonlarning o'rni ayniqsa katta. Kasbiy mezonlarga uning ishinin psixologik jarayonini tavsiflovchi barcha narsalar kiradi. Pedagog qanday ishlagan, u qanday kasbiy bilim va ko'nikmalar, texnikalar, usullar, texnologiyalardan foydalanganligi, shuningdek mehnat jarayonida qanday shaxsiy aqliy fazilatlaridan foydalanganligi, talabalar va pedagoglarning xarajatlari va vaqti ko'rinishidagi natijaning psixologik qiymati qanday va hokazo. Samarali va kasbiy ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi professionallikning zaruriy xususiyatidir.

**5. Me’yoriy mezonlar:** pedagogning kasb me’yorlarini, unda nimalar to’planganini, ya’ni: fanda ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan o’tgan o’qitish va tarbiyaning uslubiy texnikasi, vositalari, shakllarini o’zlashtirishi muhim ahamiyatga ega. Pedagogning ishida, boshqa kasblarda bo’lgani kabi, muloqotning ma’lum me’yorlari, shaxsni rivojlantirish normalari mavjud. Ushbu mehnat namunalari yaxshi darajada ko’paytirish pedagogning mahoratidir.

**6. Individual-variativ mezonlar:** inson o’z ishini individuallashtirishga, undagi shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga, mehnatda o’ziga xosligini ko’rsatishga, kasb orqali o’zini rivojlantirishga intiladi. Shunday qilib, bugungi kunda pedagogda ular o’ziga xoslikni, individuallikni, individual uslubning mavjudligini, atrofda voqelikka qarashning o’ziga xosligini har qachongidan ham ko’proq qadrlaydilar. Pedagog faoliyatida pedagogik ishda me’yorlarni o’zlashtirish va shu bilan birga ularni amalga oshirishga individuallikni olib kirish qobiliyatining uyg’unligi kasbiy mahoratning muhim jihati hisoblanadi.

**7. Kasbiy ta’lim mezonlari:** pedagog kasbiy tayyorgarlikka ochiq bo’lishi, kasbda to’plangan barcha yangi narsalarni o’zlashtirishi kerak. Rivojlanishga yopiqlik (“bizga buni o’qituvchilar tayyorlash maktabida o’rgatilmagan”) past professionallik belgisidir.

**8. Ijodiy mezon:** pedagogning ijodiy e’tiborga ega bo’lishi va o’z topilmalarini taklif qilishi muhimdir, agar ular o’quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo’shsa va guruhda va maktabda qulay psixologik muhitni saqlab qolsa. Kasbiy ochiqlik, o’rganish va mustaqil ijodiy izlanishlarning uyg’unligi professionallikni tavsiflash uchun muhimdir.

**9. Ijtimoiy faollik va kasbning jamiyatdagi raqobatbardoshligi mezonlari:** kasb samaradorligining pastligi sabablarini ichkarida, kasbning o’zida izlash. Bugungi kunda pedagog uchun jamiyatni o’z mehnati natijalarining muhimligiga ishonitirish, o’z ish uslublari va shakllarining afzalliklarini ko’rsatib, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatdosh munosabatlarga kirisha olishi muhim ahamiyatga ega.

**10. Kasbiy sadoqat mezonlari:** kasb sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qila oladigan, uning jamiyatga qo’shgan o’ziga xos hissasini ko’ra oladigan shaxs.

**11. Sifat va miqdoriy mezonlar:** har qanday mutaxassis, shu jumladan pedagog uchun ham uning kasbiy mahoratini sifat ko’rsatkichlari (masalan, bilimlarning chuqurligi, izchilligi, o’quv faoliyatining shakllanishi, o’quvchilarning aqliy operatsiyalari) bo’yicha ham baholash muhim ahamiyatga ega. Miqdoriy ko’rsatkichlarda (reytingdagi ballar, toifalar va boshqalar), chunki, miqdoriy ko’rsatkichlar ma’lum bir taqqoslash imkoniyatini beradi. Garchi ularning rolini bo’rttirib bo’lmaydi. Pedagog uchun professional testlarda ishtirok etishdan qo’rqmaslik muhim ahamiyatga ega, uning natijasi uning kasbiy mahoratini differentsial (sifat va miqdoriy) baholashdir.

Pedagoglarning kasbiy etiket qoidalari - odobga, odob - xushxulqqa, xushhulq - axloqiylikka olib boradi. Binobarin, axloq - jamiyat, zamon, ba’zan umumbashariy ahamiyatga ega bo’lib, shaxs va ziyoli inson sifatida namuna bo’la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig’indisi, kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy taraqqiyot bo’lib, jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, etiketni bugungi kunga kelib texnika asrida zamon talablariga javob beradigan madaniy maishiy hayotimizni va o’zaro munosabatlar tizimini madaniylashtirishga xizmat qiluvchi asosiy mezonidir.

**Xulosa va takliflar** (Conclusion/Recommendations). Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, bo’lg’usi kasb sohiblari quyidagilarga ega bo’lishlari lozim:

- ta’lim va tarbiya muammolarini muvaffaqiyatli hal qila olishlari, kasbiy shaxsiy fazilatlar, bilim va ko’nikmalarning zarur darajasiga ega bo’lish;
- kasbga shaxsan ishlashga moyil bo’lishi;
- shaxsini rivojlantirishda bugungi kunda jamiyat kutayotgan natijalarga erishishi;
- demokratik jamiyatda maqbul usullar va texnologiyalardan foydalana olishi;
- kasb me’yorlarini o’zlashtirib, unda mahoratga va shu bilan birga o’z ishini individuallashtirishga, kasb vositasida o’z individualligini ongli ravishda rivojlantira olishi;
- uzluksiz kasbiy ta’limga, tajriba to’plashga, o’zgartirishga ochiq, shu bilan birga shaxsiy ijodiy hissasi orqali kasbiy tajribasini boyitishi;
- jamiyatda ijtimoiy faol, kasb doirasidagi muammolarni hal qilish uchun zahiralarni izlashi, ta’lim xizmatlarining raqobatbardoshligi sharoitlariga tayyor bo’lishi;
- pedagoglik kasbga sadoqatli, og’ir sharoitlarda ham uning sha’ni va qadr-qimmatini, kasbiy odob-axloq qoidalari saqlashga intilishi;
- o’z ishini sifat va miqdoriy baholashga tayyor bo’lishi, tabaqalashtirilgan baholashga kasbiy testlarda xotirjam ishtirok eta olishi lozim.

Bu kasbiy sifatlar etiketini shakllantirish uchun biz oliy ta’lim muassasalarida har bir yo’nalish uchun kasbiy etiket fanining o’quv rejaga kiritishimiz va 1-kursda umumiy etiket, 2-kursda professional etiket, 3-kursda boshqaruv etiketini fan sifatida o’qitishimiz maqsadga muvofiq bo’lardi.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni. T.
3. Axloq-odobga oid hadis namunalari. - T. “Fan” 1990.
4. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. Yangi asr avlodi, - Toshkent, 2003.
5. Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: O‘qituvchi. Matbaa ijodiy uyushmasi, 2006.
6. Muhammadiyev N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati - Toshkent, 2005.
7. Muhammadjonova I. A., Ortiqova D.O., Obidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Toshkent-2018.
8. Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. O‘quv qo‘llanma. -T., Universitet. 2012.
9. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
10. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iqtisod- moliya, 2009.
11. Umarov E., Zagirtdinova F. Etika. Prikladnaya etika. - T.: Noshir, 2012.

PAHLAVON MAHMUD MA'NAVYIY-MA'RIFIY G'OYALARI

*Kalandarov Sharofiddin Sitmamatovich,*  
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
saidzodakalandariy@gmail

*Maqolada islom ma'naviyatida keng tarqalgan tasavvuf ta'limotlaridan biri insoniyatning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim o'rin tutgan so'fiylik dunyoqarashi haqida. So'fiylik ta'limoti murakkab individual va ijtimoiy-madaniy muhit doirasidagi ko'p tomonlama munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan, insonni shaxsiy rivoji, kamoloti, o'zini anglash, ma'rifatga, ichki va tashqi dunyoni o'ziga xos idrok etishga chaqiradi. Bu tushuncha, shuningdek, murshid (din ustози) va uning muridlari (shogirdlari) munosabatlarining muhim ma'nosini ham ilgari suradi. Maqolada Xorazmlik so'fiylik ta'limotining taniqli namoyandalaridan biri, ulug' shoir va polvon Pahlavon Mahmudning axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar, ma'naviyat, ma'rifat, axloq, ruboiy, javonmardlik, so'fiylik.

ДУХОВНЫЕ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ ПАХЛАВАНА МАХМУДА

*Суфизм – одно из учений, широко распространённое в исламской духовности, занимающее важное место в духовно-нравственном развитии человечества. Учение суфизма направлено на совершенствование многогранных отношений в рамках сложной индивидуальной и социокультурной среды, призывает человека к личностному развитию, совершенствованию, самосознанию, просветлению, уникальному восприятию внутреннего и внешнего мира. Это понятие также передаёт важный смысл взаимоотношений между муришдом (религиозным учителем) и его мюридами (учениками). В статье описаны нравственные, духовно-просветительские идеи Пахлавона Махмуда, одного из известных деятелей хорезмийского суфийского учения, великого поэта и борца.*

**Ключевые слова:** духовно-просветительские идеи, духовность, просвещение, этика, рубаи, джаванмарди, суфизм.

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL IDEAS OF PAHLAVAN MAHMUD

*Sufism is one of the teachings that is widespread in Islamic spirituality and occupies an important place in the spiritual and moral development of mankind. The teachings of Sufism are aimed at improving multifaceted relationships within a complex individual and sociocultural environment, calling a person to personal development, improvement, self-awareness, enlightenment, and a unique perception of the internal and external world. This concept also conveys an important meaning of the relationship between the murshid (religious teacher) and his murids (disciples). The article describes the moral, spiritual and educational ideas of Pahlavon Mahmud, one of the famous figures of Khorezm Sufi teaching, a great poet and fighter.*

**Keywords:** spiritual and educational ideas, spirituality, enlightenment, ethics, rubai, bravery, Sufism.

**Kirish.** Tabarruk avliyolar hayot yo'li mahsuldor ilmiy me'rosi, chuqur bilimi, balki ma'naviyati-ma'rifati, ulkan axloqiy tarbiyasi bilan ham katta ma'no kasb etgan. Xususan, milliy urf-odatlarimizga ko'ra, inson kamoloti, eng avvalo, uning ma'naviy-axloqiy kamolotida, ajdodlar merosini chuqur o'rganishga, katta-yu kichikka hurmat-ehtirom ko'rsatishga intilishida namoyon bo'ladi.

Axloqiy kamolot va ma'naviyatning shakllanishi va rivojlanishi Xorazm so'fiyligi merosida o'z ifodasini topgan bo'lib, ulardan biri Pahlavon Mahmud (1247-1326, Xiva).

“Pahlavon maxmud javonmarlik oqimining ulkan namoyondalaridan biri bo'lgan. Qadimgi manbaalarda uning kurash tushuvchilarning piri, kurashxona boshlig'i sifatida ta'rif etilishi esa, bizningcha, bu hunarmand (po'stindo'zlik bilan mashg'ul bo'lgan) pahlavon faqatgina mazkur tashkilotning a'zosisina emas, balki ulardan birining boshlig'i bo'lgan, deb xulosa chiqarishga asos bo'la oladi...” [1].

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Bugungi davrda mamlakatimizda keng masshtabdagi ijtimoiy-iqtisodiy insonlar ommaviy ongining tubdan o'zgarishi pedagogika ilmidagi muhim g'oyaviy o'zgarishlar, ta'lim va tarbiya tizimining insonlashishining kuchayishida xarakterli, tarbiyaviy-ta'limiy dasturlarning sifatli o'zgarishiga e'tibor qaratilishi o'zgarishlar amalga oshmoqda. Globallashuv va tashqi yashirin axboriy

xujumlar, yangicha muomala munosabatlariga o‘tish bilan bog‘liq o‘zgarishlar insonga yangi talablarni qo‘yadi va uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu vaqtning o‘zida o‘zgarishlar insonga, jismoniy va ruhiy kuchiga sezilarli bosim talab qiladiga raqobat muxitining tarkibiy qismiga aylanib ketishadi. Talaba yoshlar ta‘limida ajdodlar ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalari asosida axloqiy madaniyatni takomillashtirish muntazam kasbiy va madaniy o‘shish uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Bunday sharoyitda inson qadriyatlar tizimini o‘z ichiga oluvchi yuksak ma‘naviy madaniyat, ishchan faollik, tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, mehnatkashlik, tadbirkorlik muammolari ma‘lum darajada faollashadi.

Xolbuki hozirgi davrda biz ayrim yoshlarda o‘rtasida aql -xiralikning (pritupleniya) guvohi bo‘lyapmiz, zamonaviy OTMLlarda o‘qiyotgan talaba-yoshlarda fuqarolik, vatanparvarlik xislari, moddaparastlik, befarqlik va skeptitsizm juda sezilarli darajada namoyon bo‘lmoqda.

Talabalarning ko‘pgina qismida katta avlodga bo‘lgan ishonch yo‘qolib borishi, ma‘naviyatsizlik belgilarining o‘shishi, muhim axloqiy qadriyatlarining o‘zlashtirilishining passivlashishi, umumiy ziyolilik darajasining susayishi kuzatilmoqda.

Bunday vaziyatda shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan, madaniy qadriyatlarni qabul qilishga yo‘naltirilgan va axloqiy g‘oyalar, bir mafkuraga jamlangan va maqsadli pedagogik ishga diqqatni qaratish zarur.

**Tadqiqot muammosi.** Talabalarning axloqiy madaniyatini takomillashtirish texnologiyalarini izlash, ularning keyingi kasbiy faoliyatini va yangi jamiyatni yaratishda faol ishtirokini aniqlash tadqiqotining muammosini tashkil etadi.

Bugun yana birinchi o‘ringa ta‘lim jarayonining subyektlari-pedagog shaxsi va talaba shaxsi chiqishi shart. Pedagog faoliyatining mazmunida talabalarda ma‘naviy-axloqiy madaniyatni takomillashtirish jarayoni, zamonaviy talablarga javob beruvchi jamiyatdagi xulqi, umuman axloqiy ta‘lim va tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Ta‘lim beruvchining bir quroli bu uning o‘quv fanidir, buning yordamida axloqiy madaniyatning shakllanishini amalga oshiradi. Bu axloqiy madaniyatni shakllantirishda Pahlavon Mahmudning ma‘naviy va ma‘rifiy g‘oyalariidan

**Tadqiqot maqsadi.** Talabalarning axloqiy madaniyatni takomillashtirish jarayoni samarali bo‘ladi, agar:

- Ta‘lim jarayonida Pahlavon Mahmudning ma‘naviy ma‘rifiy g‘oyalari inson shaxsi, uning axloqiy madaniyatining mohiyati haqidagi falsafiy-nazariy tushunchalarini anglash bilan bog‘lanadi, bu esa o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi;

- talabalarning kasbiy tayyorgarligi ularning ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini maqsadli shakllantirishga qaratilgan maxsus pedagogik tizim doirasida amalga oshiriladi;

- Pahlavon Mahmudning ma‘naviy –ma‘rifiy g‘oyalari asosida axloqiy madaniyatni shakllantirishda vositalarini o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yo‘nalish ishlab chiqiladi.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

- zamonaviy ta‘limda talabalarni Pahlavon Mahmud ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalari asosida axloqiy madaniyatning mohiyatini nazariy jihatdan anglash;

- Pahlavonlikning ma‘naviy va ma‘rifiy g‘oyalari va talabalarning ma‘naviy-axloqiy madaniyatini takomillashtirish omili sifatida tushunish;

- Pahlavon Mahmud ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalari asosida talabalarning axloqiy madaniyatni takomillashtirishda pedagogik shartlarini aniqlash va uni shakllantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish;

- Pahlavon Mahmud ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalari asosida talaba yoshlarning ma‘naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan pedagogik tizimning samaradorligini eksperimental sinovdan o‘tkazish.

#### **Ilmiy yangiligi**

-Pahlavon Mahmudning ma‘naviy va ma‘rifiy g‘oyalarining talabalarda axloqiy madaniyatni jismoniy madaniyat vositalari orqali bilimlarni shakllantirish bo‘yicha tizimli tahlil amalga oshirish

-jismoniy madaniyat vositalari orqali talabalarning ma‘naviy axloqiy qadriyatlarini shakllantirish imkoniyatlari belgilab olinadi.

- sport bilan shug‘ullanish ta‘lim jarayonida subyektlarning hamkorlikdagi asosiy maqsadga yo‘naltirilgan, talabalarning Pahlavon Mahmud ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalari asosida axloqiy madaniyatni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik tizim loyihalashtirildi va nazariy asoslandi

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Pahlavon Mahmud hayoti va ijodini o‘rganish, ruboiylarini topib, xalqqa yetkazishda taniqli olim va zabardast mutarjim To‘xtasin Jalolovning xizmatlari katta. Shoir ruboiylarini, shuningdek, Muinzoda, Vasfiy, Ulfat, Boqir, M. Abdulhakim kabi tarjimonlar ham tarjima qilganlar. Y. Is‘hoqov, H. Homidiy, N. Komilov, S. S. Buxoriy, M. Hasaniy, Y. Jumaboyev kabi olimlar bu buyuk vatandoshimiz adabiy merosi va tarjimai holini ma‘lum darajada tadqiq etganlar.

Pahlavon Mahmud ruboiylari badiiy tasvir vositalariga boy, xalqona sodda va engil uslubda, ifoda tarzi aniq va lo‘nda, o‘ynoqi, sershiddat tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan. Barcha Sharq shoirlari kabi Pahlavon Mahmud ham ikki ulug‘ manba — Qur‘oni karim va Hadisi sharifdan ta’sirlangani, ulardan ilhomlanib qalam tebratgani qudsiy nafas ufurib turgan ruboiylaridan shundoqqina sezilib turadi. Ayniqsa, ilohiy ishq tarannum etilgan va vahdati vujud falsafasini tushuntirishga bag‘ishlangan she‘rlarida bu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lekin shoir faqat ilohiy mavzular bilangina chegaralanmay, zaminiy dardni ham qalamga olgan. Pahlavon Mahmud ruboiylarida ilohiy va dunyoviy dard ko‘pincha birga, o‘zaro qo‘shilib zuhur etadi.

N. Komilov: «Pahlavon Mahmud ruboiylarini to‘rt guruhga bo‘lish mumkin: birinchisi — zamona ahlidan nolish, ijtimoiy tengsizlikni ifodalovchi ruboiylar; ikkinchisi — tariqat suluki haqida yozilgan ruboiylar; uchinchisi — vahdati vujud falsafasi asoslarini tushuntiruvchi ruboiylar va to‘rtinchisi — ilohiy ishqni tarannum etgan ruboiylar», — deb yozgan edi. Kezi kelganda, biz shu paytgacha shoirning axloqiy qarashlariga nisbat berib tadqiq etgan pand-nasihati ruhidagi ruboiylari aslida futuvvat ruknlarining she‘riy ifodasidan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Ha, bunday she‘rlarida u javonmardlar axloqini targ‘ib etgan, ulardan ibrat olishga chaqirgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda to‘rt pog‘onali (DRM framework) metodika bo‘yicha o‘tkaziladi Pahlavon Mahmud bo‘yicha manbaalar va adabiyotlar tahlili, qoldirilgan ilmiy manbaalar va tazkiralari, maqolalarni o‘rganish. Pahlavon Mahmudning ma’naviy va ma’rifiy g‘oyalari asosida axloqiy madaniyat vositalari o‘rganish, talaba yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha maqsadli dastur ishlab chiqiladi, dastur tatbiq qilinadi va eksperiment ma’lumotlari analiz qilinadi, tavsiflovchi xulosa beriladi.

**Tahlil va natijalar.** Pahlavon Mahmudning butun ijodi axloq va ma’naviyatga bag‘ishlangan. U o‘zining aksar ruboiylarida ma’naviy kamolot masalalarini oddiy hayotdagi odamlarning xulq-atvori bilan bog‘lab, insonning xulq-atvorini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yuvchi hayotiy misollar keltiradi. Zamonaviy yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishning eng samarali vositasi bo‘ladi. Uning ruboiylarida inson axloqining to‘g‘ri namunalari yaqqol ifodalangan.

Qora tosh sira ham bo‘lmas lojuvard,  
Toza qalbga yuqmas aslo changu gard.  
Quloq solgin Puryoyvaliy so‘ziga,  
Qo‘rqoqlardan biron chiqqanmidi mard!

Zamonaviy islom psixologiyasida hamda psixogigiyenada “Toza qalb” “sog‘lom qalb” masalasi hozirda katta tadqiq qilinayapti. Zamonaviy insonning salomatligini ta’minlashda nafaqat jismoniy tarbiyaning balkiy axloqiy tarbiyaning ham o‘rni juda katta qismni o‘z ichiga olmoqda. Yuqoridagi ruboiyda Pahlavon Mahmudning so‘fiylik yo‘nalishida qalbni tozalashda zamonaviy psixogigenik vositalarda bo‘lmish tafakkur qilish va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish “toza qalb”ni gard yuqmasdan saqlashga katta o‘rin tutadi. Pahlavon Mahmud o‘zining maslakdoshlari bilan ruhiy ibodatlardan foydalangan balki insonning tanasidagi qalbning jismoniy yurakning ham salomatligi ibodatining go‘zal tarzda bo‘lishini ta’minlaydi. Chunki bu haqida Alloh Taolo Qur‘oni Karimda shunday zikr qilgan: “Magar Allohning huzuriga sog‘lom qalb bilan kelgan kishigagina (foйда berur)”, (Shuaro,89). Pahlavon Mahmud o‘z hayoti davomida buyuk islomiy qadriyatlar, mustahkam etiqod, ustozlarning uzilmas arqonini mahkam ushlagan va targ‘ib qilgan. Sog‘lom qalb masalasining muammolarini echishda aynan Pahlavon Mahmud hazratlarining so‘fiylik ta’limotining ma’naviy asoslaridan bo‘lmish javonmardlik tamoyillaridan foydalanish juda katta o‘rin tutishi bugungi kun yoshlarida psixogigenik muammolarni echishda va bo‘lajak pedagoglarning sog‘lom qalbini tarbiyalash, axloqiy madaniyatini takomillashtirishning eng samari texnologiyasidir. Bu masalada psixogigenik muammolarning Pahlavon Mahmud oldinga surgan Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislariga muvofiq hayot kechirishini o‘z hayotida ko‘rsatib bergan va o‘zining ruboiylarida aks ettirgan. Payg‘ambar alayhissalom dedilar: «Men go‘zal xulqlarni kamoliga etkazish uchun yuborildim» deganlari va Pahlavon Mahmud o‘zida go‘zal xulqni tarbiyalagan targ‘ib qilgan.

Ruboyining keyingi misralarida Pahlavon Mahmud yo‘lidan yurishni to‘g‘ri yo‘l ekanligini yana bir bor ta’kidlamoqda. Qo‘rqoqlik sifatining jamiyatda juda yomon sifat, illat ekanligi va bu illatning iymonsizlikka olib borishi, insonlik qiyofasidan chiqarishi haqida yozgan. Zamonaviy islom psixologi Yaxyo ibn ibrohim Al-Yahyoning “Mahzanul-hikma” asarida qo‘rqoqlikning ziddi bo‘lgan shijoat, jasorat, hotirjamlik, tinchlikning asl sababchisi bu iymonning oltinchi ustuni yaxshi va yomonlikning Allohdan ekanligiga imon keltirish deb ta’kidlagan. Darhaqiqat tarixda o‘tgan mashhur shaxslarning hayot yo‘lini tahlil qiladigan bo‘lsak ilm olish yo‘lida, insoniyatga yaxshilik qilish, vatan himoyasi, zaiflar himoyasi yo‘lida yuqoridagi asosga tayanib ish ko‘rgan va albatta muvaffaqiyatga erishishgan. Pahlavon Mahmud



hayotida ham bunday voqealar zikr etilgan Xindistonga sayohat voqealarida ham buni yaqqol ko‘rishingiz mumkin. Pahlavon Mahmudning ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalari sof islomiy aqidalar asosida shakllangan. O‘zining davrining chingiziylar hujumlaridan charchagan ilm va islomning zaiflashib qolgani, odamlarining qalbida qo‘rquvning kuchayib ketgan edi. Bu davrda bir yo‘l boshchi murid kelishi Najmiddin kubro tomonidan bashorat qilingan va xiva xalqining yo‘lboshchisiga ruhiy aylandi. Bu davrda inson ma‘rifatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuning uchun ham mutafakkir inson axloqi uchun kurashgan, bor kuch-g‘ayratini Allohga bag‘ishlagan, to‘g‘ri bilan noto‘g‘rini ajratgan, haqiqatni botildan ajratgan inson edi. Uning fikricha, inson kurashni eng avvalo o‘z nafs bilan kurashishdan, ya‘ni o‘z axloqini tuzatishdan boshlashi kerak. Inson ma‘naviy yuksalish yo‘lida tavakkal qilib, Alloh taolodan yaxshi niyatda bo‘lishi, bu niyatlariga shubha qilmasligi kerak. Shu boisdan ham “Pahlavon Mahmudga “Puryorvali” laqabi berilgan, ya‘ni Yorlar-rijol ul-g‘ayblar o‘g‘li nafsini enggan avliyo sifatida” [5]. Puryorvalining bu taxallusi haqida A.Zarrinkub ham shunday yozadi: Shu boisdan bo‘lsa kerak, jangchilar hozirgacha uning nomi bilan qasamyod qiladilar, zo‘rlangan joylarda marosimlarda “Yo Puryorvali” o‘qiyladilar, undan ma‘naviy madad so‘rab, qalblarida eslaydilar. Bu qahramonlarning hayoti ko‘proq afsona va rivoyatlarga botgan [6]. Pahlavon Mahmudning ta‘kidlashicha, Alloh taolaga tavakkal qilgan kishiga Alloh taolo yordam beradi va maqsadiga erishadi. U Allohning ismini hech qachon unutmaydigan, doimo ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgan mard inson edi.

Chet el olimlari tadqiqotida Pahlavon Mahmud hayoti va ijodiga turli ta‘riflar berilgan. Xususan, D. X. Luijendijk “Pahlavon Mahmud qahramonlik oqimining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, komil kurashchi timsoli sifatida yashagan” [7] deb ta‘kidlaydi. Unda mardlik, javonmardlik, azizlik, she‘riyat kabi fazilatlar mujassam. Bu borada H. E. Chehabiy va V. R. Ratliffsning yozishicha, Puryorvaliy nomi bilan mashhur Pahlavon Mahmud polvonlarning tarafdori va qadimgi Xivaning langari edi [8].

Insonda nafs bo‘lishi tabiiy. Agar insonda nafs bo‘lmaganida, unga qarshi kurashishning hojati qolmas edi. Xuddi shu iymon kufrdan keyin keladi. Agar kufr bo‘lmaganida iymon ham bo‘lmasdi. Pahlavon Mahmud nuqtayi nazaridan aytish mumkinki, kamolot yo‘lidagi donishmand o‘zi ko‘rgan azob-uqubatlarni shukronalik bilan qabul qiladi, natijada ular unga ma‘naviy quvvat berib, ma‘naviy-axloqiy yuksalish sari etaklaydi. Chunki Alloh taolo sevgan bandasiga dard berib, uni turli ofatlarga duchor qilib imtihon qiladi. Inson Alloh yuborgan mashaqqatlarga sabr qilsa, Allohning nazariga tushadi. Sabri bilan birga shukr qilsa, Allohning eng sevimli bandalaridan biri, ya‘ni komil inson bo‘ladi. Pahlavon Mahmud bunday sabr-toqatni o‘z hayotidan ibrat sifatida ta‘riflaydi:

Sofdir dilimiz — unda na keku kina bor,  
El bizga erur dushman-u, biz barchaga yor.  
Tavhid mevasiga kon daraxt novdasimiz,  
Har o‘tgan uloqtirsa-da tosh — qilmadik or. [3]

Inson kamolot sari ma‘naviy yuksalish yo‘lida boshqalarning kamchiliklarini emas, balki yaxshi tomonlarini ko‘ra bilishi, ularga e‘tibor qaratib, ularga yaxshi munosabatda bo‘lishi kerak. Ular ichida yashiringan hasad va shahvatni yo‘q qilish, bu dunyoni ideal tarzda ko‘rishni anglatmaydi. Bunday yondashuv koinotning kamchiliklarini e‘tiborsiz qoldirmaydi. Lekin u ko‘proq yaxshi fazilatlariga e‘tibor qaratadi va shu bilan yaxshilikning quvvatini oshiradi. Dunyoni go‘zal gulga aylantiruvchi xayoldagi nur, aslida, inson qalbidagi Allohga muhabbat nuridir. Bu rahm-shafqat nuri barcha odamlarga berilgan. Chunki inson Allohning sevgisidan yaratilgan va qalbida Alloh sevgisi bor. Holbuki, bu mehrning qalbdan namoyon bo‘lishiga to‘siqlar ko‘p. Bu to‘siqlarning asosiysi insonning moddiy dunyoga bo‘lgan muhabbati, jumladan, ota-onasi, farzandlari, aka-ukalari bilan bog‘liqligidir. Insondagi his-tuyg‘ular ko‘pincha o‘z normalarini bilmaydi. Chunki inson o‘z his-tuyg‘ularini iroda kuchi bilan boshqara olmaydi. Agar inson irodasi aqlga emas, balki insondagi eng nozik, nafosatli qalbgga asoslansa, unda his-tuyg‘ular normal holatga qaytadi va insonning hissiy olamida sukunat hukm suradi. Ko‘ngil xotirjamligi inson qalbida yashiringan barcha bilimlarni ochib beradi. Bu bilim inson boshi ustida porlayotgan quyoshga o‘xshaydi. Insondagi bu quyosh ham uning nozik aqliga kuch beradi va bu aqlning poklanishiga olib keladi. Tafakkur va taftish kundalik hayotimizdagi muammolarni hal qilishga yordam beradi. U ham quyoshga o‘xshaydi. Ammo latif aql nuri qalbmizda yashiringan mehr quyoshining aksidir. Bu ikki quyosh insonni ma‘naviy va jismoniy kamolot yo‘liga etaklaydi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy-ma‘naviy masalalar Pahlavon Mahmud tomonidan o‘ziga xos tarzda yoritilgan [9].

**Xulosa.** Pahlavon Mahmud o‘z qarashlarida ko‘proq odob-axloq, mardlik, saxovat, mehr-oqibat va boshqa insoniy fazilatlar haqida gapiradi. Xorazm so‘fiy mutafakkirlarining ma‘naviy merosi, ayniqsa, Pahlavon Mahmudning falsafiy-pedagogik qarashlari umrboqiy ta‘lim va uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni

ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali manbayi sifatida g’oyat muhim o‘rin tutadi. Bilamizki, har bir millatning o‘zining mafkurasi, axloqiy normalari, e’tiqodlari va o‘ziga xos tarbiyaviy yo‘li mavjud. Istardimki Pahlavon Mahmud axloqiy yo‘li asosida millat yo‘lini qurish mentalitetimiz tez o‘ziga qabul qila oladigan, qalbi singdiradigan va uning qalb ehtiyojlarini to‘la ta’minlaydigan madaniyatdir .

**Adabiyotlar:**

1. <http://www.ziyouz.com/>
2. <https://www.ziyouz.uz/ru/literatura/literatura-VIII-XIII-vv/67-2012-09-02-13-13-38>
3. Is’hoqov Yo. Pahlavon Mahmud haqida ba’zi mulohazalar...-B.20-25
4. Pahlavon Mahmud Puryorvaliy /J. Mahmudov // T.: «Uzbekistan», 2018. b. 175
5. Pahlavon Mahmud // T. “Sharq” нашриёти, 2013. p. 14
6. Pahlavon Mahmud hayoti va adabiy merosini o‘rganish / J. Mahmudov // Sino jurnali. 2008. p. 40
7. Zarrinkub, Abdulhusayn. Jostuju dar tasavvuf-e Temir. Tehron: 1365, bet. 354-356
8. Pahlavon Mahmud Xivalik / D. X. Luijendijk // Eron va Kavkaz, 2016. 20(1), 1-1.
9. Sport and politics in Iran: the legend of Gholamreza Takhti / H. E. Chehabi // The International Journal of the History of Sport, 12: 3, 48-60
10. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar / Tayyorlovchi T. Jalolov // G. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1979. b. 55

## SUKUTNING FAZILATLARI VA AXLOQIY O‘RNI

*Komilova Dildora Shavkatovna,  
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
dkomilova703@gmail.com*

*Ushbu maqolada sukutning axloqiy va amaliy ahamiyati, uning diniy manbalardagi o‘rni, xalq maqollarida va badiiy adabiyotlarda ifodalangan qadr-qimmatini tahlil qilinadi. Sukutning inson hayotida tinchlik va tartibni ta’minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Muallif sukutning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi foydalarini hamda turli madaniyatlarda unga bo‘lgan e’tiborni ochib beradi.*

***Kalit so‘zlar:** sukut, axloq, tilni tiyish, odob, Qur‘on, hadis, falsafiy qarashlar, jamoat tinchligi, xalq maqollari.*

## ДОБРОДЕТЕЛИ И МОРАЛЬНАЯ РОЛЬ МОЛЧАНИЯ

*В данной статье анализируется нравственное и практическое значение молчания, его роль в религиозных источниках, а также его значение, выраженное в народных пословицах и художественной литературе. Подчеркивается значение тишины в обеспечении мира и порядка в жизни человека. Автор раскрывает преимущества молчания в общественной и личной жизни и внимание, уделяемое ему в разных культурах.*

***Ключевые слова:** молчание, нравственность, сдержанность речи, манеры, Коран, хадисы, философские воззрения, общественное спокойствие, народные пословицы.*

## THE VIRTUES AND MORAL ROLE OF SILENCE

*This article analyzes the moral and practical significance of silence, its place in religious sources, and its value expressed in folk proverbs and fiction. The importance of silence in ensuring peace and order in human life is highlighted. The author reveals the benefits of silence in social and personal life and the attention paid to it in different cultures.*

***Keywords:** silence, morality, restraint of speech, manners, Quran, hadith, philosophical views, public peace, folk proverbs.*

**Kirish.** Sukut qadim zamonlardan buyon insoniyatning axloqiy hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. U turli madaniyatlarda odob-axloqning yuksak belgisi sifatida qadrlanadi. Xalq maqollarida, diniy manbalarda va badiiy asarlarda sukutning fazilatlarini keng yoritilgan. Bu maqolada sukut saqlashning axloqiy asoslari va uning shaxsiy hamda ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, sukutning insonning ruhiy kamoloti va jamiyatdagi tinchlikka qo‘shgan hissasi yoritiladi.

**Metodologiya.** Ushbu maqolada sukutning axloqiy va amaliy ahamiyatini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy metodlar qo‘llanildi. Ushbu metodlar sukutning turli jihatlarini o‘rganishda va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini tushunishda yordam beradi.

### 1. Tahliliy metod.

Maqolada sukutning axloqiy va falsafiy ahamiyatini yoritishda tahliliy metod asosiy metod sifatida ishlatilgan. Bu metod yordamida sukutning diniy manbalardagi, badiiy adabiyotlardagi va xalq maqollaridagi ifodalari tahlil qilinadi. Tahlil natijalari sukutning ijtimoiy, axloqiy va ruhiy ahamiyatini to‘liq yoritishga imkon beradi.

### 2. Tarixiy metod.

Tarixiy metod orqali sukutning o‘z vaqtida va turli madaniyatlarda qanday qadrlanganligi o‘rganiladi. Bu metod orqali sukutning tarixiy rivoji, xalq va diniy an‘analar doirasida qanday shakllanganligi tahlil qilinadi. Misol uchun, Qur‘on va hadislar orqali sukutning axloqiy o‘rni, xalq maqollaridagi qadri va falsafiy qarashlar tarixi o‘rganiladi.

### 3. Madaniy va ijtimoiy analiz.

Sukutning amaliy ahamiyatini ko‘rsatishda madaniy va ijtimoiy analiz metodlari qo‘llaniladi. Ushbu metod orqali sukutning jamiyatdagi roli, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’siri, shuningdek, ijtimoiy totuvlik va tinchlikka qo‘shgan hissasi o‘rganilib, jamiyatdagi turli qatlamlarning sukutga bo‘lgan munosabati va uning amaliy foydalari, xususan, jamoat tinchligini saqlashdagi o‘rnini tahlil qilishga xizmat qiladi.

#### 4. Kross-madaniy yondashuv.

Kross-madaniy yondashuv orqali sukutning turli millatlar va madaniyatlarda qanday baholanishi va uning axloqiy qimmatini o'rganiladi. Buning yordamida, masalan, o'zbek va ingliz xalqlarining sukutga bo'lgan munosabatlarini solishtirsa bo'ladi. Bu yondashuv sukutning universal axloqiy qadriyat ekanligini ko'rsatadi.

#### 5. Qarama-qarshi tahlil.

Maqolada sukutning ijobiy va salbiy tomonlarini qarama-qarshi tahlil qilish usuli ham qo'llanildi. Bu metod orqali sukutning ayrim holatlarda zararli bo'lishi (masalan, jamoatda noxushlik yoki zolimlarga qarshi chiqishning yo'qolishi) mumkinligini ko'rsatish maqsad qilingan. Shu bilan birga, sukutning aksariyat holatlarda inson va jamiyat uchun foydaliligi ta'kidlanadi.

Ushbu metodologiya orqali sukutning axloqiy, madaniy va amaliy ahamiyatini to'liq tushunish va tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Maqola sukutning nafaqat diniy, balki ijtimoiy va falsafiy jihatlari bo'yicha ham chuqur tahlilni taqdim etadi.

#### Asosiy qism 1. Sukutning axloqiy asoslari

Sukutning axloqiy o'rnini yoritishda diniy manbalar asosiy manba hisoblanadi. Qur'oni Karimda va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida tilni tiyish va sukutning fazilatlarini haqida ko'plab o'gitlar berilgan. Masalan, Qur'oni Karimda:

> “Biror so'z talaffuz qilmas, illo huzurida hoziru nozir bordir” (Qof, 18).

ayg'ambarimiz (s.a.v.) esa shunday deganlar:

> “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa, yaxshilikni gapirsin yoki jim tursin.”

Bu ko'rsatmalar musulmonlar uchun sukutni axloqiy fazilat sifatida tan olishga asos bo'ladi. Shuningdek, xalq donishmandlari ham “Yetti o'lchab, bir kes” degan maqollar bilan tilni tiyishning ahamiyatini uqtirganlar.

Ko'rinadiki, Allohga va qiyomat kuniga ishonganlar faqat chiroyli so'zlashi yoki sukut qilishi lozimligi uqtirilgan. So'zlaganda faqat yaxshi gap aytish, yaxshi gapi bo'lmasa, jim turish iymonga bog'liq amallardan biri deb ko'rsatilgan. Umar roziyallohu anhu: “Kimning so'zi ko'paysa, xatosi ko'payadi. Kimning xatosi ko'paysa, gunohi ko'payadi. Kimning gunohi ko'paysa, do'zaxga kirishga mustahiq bo'ladi”, deb uqtirganlar. Ibn Mas'ud roziyallohu anhu: “Ortiqcha gaplardan saqlaninglar. Har bir insonga ehtiyoji darajasidagi gap kifoyadir” deganlar.

Ibn Muborakdan Luqmoni Hakimning o'g'liga “So'zlash kumush bo'lsa, jim turish oltindir”, degan so'zi haqida so'rashganda ul zot: “Buning ma'nosi shuki, Allohning toatida bo'lgan gap kumush bo'lsa, Allohga ma'siyat bo'lgan gapni so'zlamaslik oltindir”, deganlar.

Shunday bo'lsa ham, salafi solihlar: “Manfaatli ilm va yaxshilik haqida gapirish ularni gapirmay, jim turishdan afzaldir” degan fikrni ilgari surganlar.

Demak, gapirish yaxshi bo'lgani holda, sukut undan-da ustundir. Chunki ko'p gapirish inson boshiga turli falokatlar solishi mumkin. Sukut saqlagan odamga esa bunday falokat yo'q. Inson tilini tiya bilsa, kerak joyda sukut saqlasa, o'zini g'iybat, bekorchi so'z, ikkiyuzlamachilik, turli keraksiz bahs va shu sababli boshqa bir insonning ko'ngilni og'ritib qo'yishdan omonda qoladi. Gapirgan har bir so'zi uchun odam qiyomatda javob berishi ta'kidlanadi. Demak, musulmon kishi sukut saqlay bilishi lozim.

Imom Nabaviy, “Musulmon kishi o'z tiliga e'tiborli bo'lishi lozim. Biror narsa gapirishni istaganida, uning foydasi bor- yo'qligini o'ylab ko'rsin. Agar foydasini ko'rmasa, sukut saqlasin” degan bo'lsalar, Abu Dardo (r.a.): “Ikki qulog'ingni og'zingdan saqla. Oz gapirib, ko'p eshitish uchun senga bitta og'iz, ikkita quloq berilgan” deb marhamat qilganlar. Bundan kishilar tillaridan har xil bo'lar-bo'lmas so'zlar chiqarmasdan, balki ko'proq eshitib, faqat manfaatli so'zlarni gapirishlari tushuniladi.

Diniy manbalarda ta'kidlangan bunday o'gitlarning xulosasini yana Hasan Basriy tomonidan aytilgan “O'z tilini tiya bilmagan inson, o'z dinini anglamabdi” yoki Fuzayl ibn Iyad degan “Imon keltirgan kam gapiradi, ko'p bajaradi. Ikkiyuzmalachi esa ko'p gapiradi, kam bajaradi” singari o'gitlardan ham bilib olish mumkin.

Inson o'ziga aloqasi bo'lmagan safsatabozlikdan iborat be'mani suhbatlarga aralashsa, bahs, kufr so'zlash va haqoratlardan o'zini tiymasa, vaqtini isrof qilishi aytiladi. Mabodo biror suhbatga qo'shilsa, gapirgan so'zlari o'ylab gapirishi lozimligi, kerak joyda keraksiz gapni gapirish, besabab tortishish ta'naga qo'yishi eslatiladi. Bu nodonlik hisoblanadi. Dono va sabrli insonning fazilatlaridan biri uning sukuti bilan belgilanadi.

Diniy afsonalarda aytilishicha, farishtalar har bir so'zimiz va amalimizni “Nomai a'mol”imizga yozib boradilar va qiyomat kunida savob yo gunoh sifatida ajrim qilinadi. Hatto insonning og'zidan chiqqan bir og'iz so'z ham ularning nazaridan chetda qolmas ekan. Ular hamisha hoziru nozir bo'lib, har bir amalni, har bir so'zni darrov yozib qo'yadilar, deyiladi. Shu sababdan kerak joyda gapirib, lozim joyda sukut saqlay

olish xosiyatli sanaladi. Bunda til insonning eng katta dushmani bo‘lib qolishi mumkinligi uqtiriladi. Zero, buning davosi sukut deb ko‘rsatiladi. Sahl ibn Sa‘d rivoyat qiladilarki, “Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Kimki ikki jag‘i bilan ikki oyog‘i orasidagilarni (yomonlikka ishlatmayman, deb) kafolat bersa, men ham unga jannatni (Alloh taolodan so‘rab beraman, deb) kafolat beraman!”, deganlar.

Sukutni o‘zgalari qalbini jarohatlab qo‘ymaslik, o‘z chekib turgan alamini yanada ziyoda qilmaslik, gapirgan gapi kor qilmasligi bilib, g‘azablangan paytida biror kimsaga qattiq gapirib, uni yo‘qotib qo‘ymaslik uchun saqlashadi. Kam gapirib, ko‘proq tinglaydigan kishi bexovotir yashashga erishadi, chunki odamning barcha gapirganlari o‘ziga qarshi ishlatilishi mumkin. Bas qil demagancha gapirgandan ko‘ra, so‘ramagancha sukut saqlagan yaxshiroq.

Musulmon olamida sukut saqlash mo‘min-musulmonlarning sabru itoatidan dalolat beradi. Xususan, inson g‘azablanganida istamagan, keyin afsus qiladigan kufri so‘zlarni aytib gunohini oshirishi mumkin. Shu sababli sukut saqlab, hissiyotlarga erk bermaslikda naf kattadir. Sukut ta‘ribi bo‘yicha shunday fikrlar aytiladi:

1. Sukut – ibodatdir. Zero, “Ibodating eng oson yo‘li – bu sukut saqlash va go‘zal xulqqa ega bo‘lish”.

2. Sukut – jannatning kalitidir. “Kimki haq bo‘la turib bahsdan chekinsa, uning uchun jannatning eng baland joyidan uy quriladi, kimki nohaq bo‘la turib bahsni qoldirsa, unga jannat chetidan uy beriladi”, “Banda hazil bo‘lsa-da, yolg‘onlarni tark etmagunicha va haq bo‘lsa-da, bahsdan chetlashmagunicha iymoni butun bo‘lmaydi”, “Insonning iymoni qalbi go‘zal bo‘lmagunicha butun bo‘lmaydi; qalbi esa zaboni shirin bo‘lmagunicha go‘zallashmaydi; qo‘shnisi undan zarar ko‘rsa, u jannatga ham kirmaydi”.

4. Sukut – mo‘minlik belgisidir. “Albatta, mo‘minning tili qalbining ortidadir, so‘zlashdan avval u o‘ylaydi; ikkiyuzlamachining tili esa qalbidan oldin turadi, u qalbdan o‘ylamay so‘zlaydi”.

5. Sukut gunohlardan saqlaydi. “Ko‘p gapiradigan inson ko‘p hatto qiladi; ko‘p hatto qiladiganlarning esa gunohlari ko‘payib boradi; gunohlari ko‘plar esa jahannamga kiradi”.

6. Sukut yaxshilik qilishga tengdir. “Och qolganga yegulik ber, chanqaganga suv ber, yaxshilik qil, yomonlikdan o‘zingni saqla; qo‘lingdan kelmasa, yaxshi so‘zlardan boshqasini so‘zlama”.

7. Alloh taolo o‘zini tiyganlarni asraydi. “Alloh taolo tilini tiyganlarning nuqsonlarini yashiradi, g‘azabini yashirganlarga jazo bermaydi va Unga duo qilganlarga so‘raganini beradi”.

8. Sukut insonni adashishdan asraydi. “Alloh taolo bandalariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatganidan so‘ng faqat ixtilof va urushlar tufayli adashdilar”.

#### 2. Sukutning falsafiy va madaniy qadri

Dunyoviy falsafada ham sukutning qadri baland baholanadi. Thomas Carlyle “Sukut – buyuk narsalar shakllanadigan muhitdir” deya sukutni fikr va ijod jarayonining asosi sifatida ko‘rsatadi. Badiiy asarlarda esa, masalan, Jane Austinning “Mag‘rurlik va xurofot” romanidagi janob Darsining kamgaplighi uning chuqur fikrlash qobiliyatini ochib beradi.

Shuningdek, xalq maqollari va hikmatlarida sukutning qadri haqida ko‘plab ibratli gaplar uchraydi:

O‘zbek maqoli: “Aytildan so‘z, otilgan o‘q”.

Ingliz maqoli: “The best answer to a fool is silence” (“Ahmoqqa eng yaxshi javob – sukut”).

Bundan tashqari, kam gapiruvchi kishi noto‘g‘ri so‘zlashdan, salbiy oqibatlariga olib keluvchi ortiqcha gaplardan saqlanadi. Bu haqda xalqimizda: “Ko‘p gapirganning ko‘pi yolg‘on bo‘ladi” degan ibora mavjud.

**Xulosa.** Sukut inson hayotida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega. U jamiyatdagi tinchlik va totuvlikni ta‘minlashda, shaxsiy ruhiy tinchlikka erishishda muhim vositadir. Qur‘on va hadislar, xalq maqollari va falsafiy adabiyotlar sukutning fazilatlarini yuksak baholaydi. Har bir inson so‘zlashdan oldin sukutning ahamiyatini anglab, so‘zlarini o‘ylab gapirsa, hayotida muvaffaqiyat va hurmatga erishadi. Shu bois, “Yetti o‘lchab, bir kes” degan naql doimo yodda bo‘lishi kerak.

#### Adabiyotlar:

1. Aliyev, M. (2020). Sukutning axloqiy va ijtimoiy ahamiyati. Toshkent: Yangi avlod nashriyoti.
2. Islomov, I. (2015). Islomda sukut va uning axloqiy o‘rni. Tashkent: Sharq nashriyoti.
3. Saidov, K. (2018). Xalq maqollarida sukut va uning o‘rni. Samarqand: Samarqand Universiteti nashriyoti.
4. Karimov, I. (1997). Ma‘naviyat va ma‘rifat: axloqiy qadriyatlar. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
5. Qur‘on. (2015). Qur‘on tafsiri (8-jild). Toshkent: Islom ilmiy-nashriyot markazi.
6. O‘g‘uz, M. (2021). Sukutning zamonaviy axloqiy qadriyatlardagi o‘rni. O‘zbekiston jurnalisti, 12(3), 45-52.
7. Smith, J. (2019). The Ethics of Silence: A Global Perspective. London: Global Press.

8. Blake, W. (2008). *The Complete Poems of William Blake* (D. V. Erdman, Ed.). New York: Doubleday.
9. Keats, J. (2014). *The Poems of John Keats* (A. E. H. Noll, Ed.). Oxford: Oxford University Press.
10. Gibb, H. A. R. (2002). *The History of the Islamic World*. London: Routledge.
11. Sayyid A. (2017). Sukut va uning ijtimoiy roli. // *Journal of Social and Cultural Studies*, 10(1) 78-91.
12. Turgunov, B. (2020). *Islomda axloq va ahloqiy qadriyatlar*. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti.

**TALABALARDA IJTIMOYIY FAOL MILLIY G‘URUR, VATANPARVARLIK  
KOMPETENSIYASINI MEDIATEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH  
METODIKASI**

*Mamajonov Laziz Valiyevich,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi  
mamajonovlazizjon1983@gmail.com*

*Maqolada tarbiya fanini o‘qitishda talabalarning dars mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiya, interfaol metodlar va ta‘limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralari kengaytirish bilan birga ularni dars mashg‘ulotlarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** interfaol usullar, texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas‘uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e‘tiqodlilik.*

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ У СТУДЕНТОВ СОЦИАЛЬНО АКТИВНОЙ  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ И ПАТРИОТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ОСНОВЕ  
МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ**

*В статье рассматривается использование педагогических технологий, интерактивных методов, обучающих игр и современных информационно-коммуникационных технологий в обучении учащихся, которые помогают им мыслить самостоятельно, расширяют их творческое исследовательское и логическое мышление, а также помогают им связывать полученные знания воедино на уроках жизни и повышают их интерес.*

***Ключевые слова:** техническая, информационная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокий кругозор, здоровые убеждения.*

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING SOCIALLY ACTIVE NATIONAL PRIDE AND  
PATRIOTISM COMPETENCE IN STUDENTS BASED ON MEDIA TECHNOLOGIES**

*The article presents ideas that will help students think independently, expand their creative research and logical thinking, and connect what they have learned in classes with life, and increase their interest in the subject of education by using pedagogical technology, interactive methods, educational games, and modern information and communication technologies in their lessons.*

***Keywords:** technical, informational, audiovisual active civic position, responsibility, obligation, legal consciousness and culture, deep worldview, healthy beliefs.*

**Kirish.** Jahon ta‘lim tizimida talabalarning ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirish va unga, ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, talabalarlarda ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart – sharoitlarini aniqlash, ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini aniqlash indikatorlarini tizimlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2030-yilgacha mo‘ljallangan YUNESKONing Inchxon deklaratsiyasida “Ta‘lim-taraqqiyotining asosiy harakatlanuvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” deb e‘tirof etilgan. Shu asosda AQSH, Fransiya, Rossiya, Germaniya, Angliya kabi davlatlar ta‘lim tizimida shaxsning faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirish modellarini takomillashtirish, talaba larlarda ijtimoiy faol fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ta‘lim tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, o‘qitishning sifat va samaradorligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, talabalarning shaxsiy ijtimoiylashuvini takomillashtirish, tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish asosida ijtimoiy hayotni demokratlashtirish yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz OTM talabalarining ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish, mustaqil fikrlash, talaba larlarda faol fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy - siyosiy voqelikka ongli munosabat, dahldorlik va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ma‘naviy yetuk, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, Vatan hissi, unga sodiq, qat’iy hayotiy fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish” kabi muhim vazifalar ilgari surilgan. Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish natijasida talaba larlarda ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarni mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish rivojlantirishning pedagogik – psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, faol milliy g‘urur, vatanparvarlik pozitsiyasini tarkib toptirishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo qiladi. Har bir davlatning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda asosiy poydevor - inson omili, uning intellektual salohiyati bilan uzviy bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, mamlakat aholisining katta qismi zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega yoshlardan iborat ekanligini inobatga olgan hoda, mazkur yo‘nalish jamiyat taraqqiyotining barcha sohalaridagi manfaatlarini himoya qilish va kuzatilayotgan dolzarb masalalarning nazariy hamda amaliy jihatdan yechimini topishda muhim vazifadir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash yo‘lida ijobiy ishlar ko‘plab amalga oshirilgan bo‘lsada biroq, bu borada hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar ham mavjud, chunonchi, talaba larda ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirishga oid tajribalarining yetarlicha o‘rganilmaganligi; shuningdek, talabalarni ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasining mustaqil tadqiqot sifatida tadqiq etilmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini asoslaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari X.Ibragimov, J.Yo‘ldoshev, M.Quranov, Q.Quronboev, A.Mavrulov, O.Musurmonova, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, B.Xodjaev, Sh.Sharipov, N.Egamberdieva tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida talaba larlarda ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari A.Zapesoskiy, A.Verbiskiy, A.Knyazev, V.Xutorskoy, V.Bolotov, E.Barishnikova, S.Bespalova, A.Bogdanov, O.Malova, M.Kagan, N.Voskresenskaya, I.Zimnyaya, S.Abdulxanova, Yu.Podlesnayalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari olimlar, Dj.Dyui, R.Dall, Dj.Patrik, M.Branson, Ch.Quigley, P.White, L.Jones, R.Moore, A.Sears, A.Hughes, Hutmacher Walo tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Mazkur metodologik g‘oyalar asosidan kelib chiqib aytish mumkinki, metodik oliy ta‘lim jarayonida talabalarini “Tarbiya fanlarini o‘qitish metodikasi, Milliy tarbiya asoslari” fanlarini o‘qitishda metodik yondashuv mediatexnologiyalar asosida ilmiy–nazariy jihatdan takomillashtirishning manzilliligi, tizimlilik va metodik ta‘sirchan ligini ta‘minlash, targ‘ibot–tashviqot ishlarini shaklan va mazmunan boyitish hamda bu jarayonga zamonaviy pedagogik usullarni joriy etish maqsadida innovasion mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatining mavjudligi, shuningdek, ta‘lim – tarbiya jarayonini tashkil etishning birinchi va eng muhim qonuniyati uning axborot ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liqligidadir. Ta‘kidlab o‘tish lozimki, mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma‘naviy yetuk va jismonan sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakat istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Keyingi o‘n yillik ichida dunyo bo‘yicha yoshlarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun muhim sa‘y-harakatlar amalga oshirilmoqda, ta‘lim, fan, madaniyat va axborot-



kommunikatsiya sohasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, jamoat va siyosiy tashkilotlarda yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalarining yuzaga kelishi tufayli jamiyatning barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Buning natijasida ilg‘or xorijiy tajribalarga tayanib fan va texnologiya yutuqlari bilan hamohang tarzda ilmiy tahlil qilish, yoshlarlarda milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida ijtimoiy faol, barkamol yosh-avlodni tarbiyalash eng muhim muammo sifatida ilgari surilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 23-sentyabrdagi 75 sessiyasida so‘zlagan nutqida yoshlar masalasiga to‘xtalar ekan: “mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib o‘rin egallashi va o‘z salohiyatini namoyon etishi bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”. O‘zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko‘rsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag‘ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab – quvvatlashga chaqiraman” - degan fikrlari dunyohamjamiyati tomonidan ham keng e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 19-mart kuni ilgari surgan besh muhim tashabbuslari ham ijtimoiy faol talaba -yoshlarni tarbiyalashda ta’lim muassasasi o‘rni va ahamiyati juda yuqori. Chunki, ushbu ilgari surilgan “Beshta eng muhim tashabbusda yoshlarga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash” kabi vazifalar mamlakat ertangi kuni uchun, yetuk, yoshlarni barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishlarida ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlar masalasiga to‘xtalar ekan: “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovasiya bilan erishamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” degan ushbu murojaati mazmunida ham umumta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni ijtimoiy faol shaxs sifatida kamol toptirish pedagoglar oldida turgan eng muhim muammodir.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot muammosiga oid tahlillar shundan dalolat beradiki, talabalarda ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari bo‘yicha respublikamiz olimlari X.M.Tojiboyeva, N.N.Djamilova, Q.Q.Quronboyev, B.Sh.Shermuhammadov, G.J.Tulenovalar yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga to‘xtalib o‘tgan. X.M.Tojiboyeva ilmiy tadqiqot ishida ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etgan. Ijtimoiy faollik me’yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir. Talaba -yoshlarning ijtimoiy faolliklarini oshirish ular o‘rtasidagi ta’lim-tarbiyani tashkil etish jarayoni deb ta’kidlab o‘tgan. N.N.Djamilova “tashabbuskorlik o‘quv va kasbiy faoliyat-da muvaffaqiyatga erishish uchun yangi g‘oya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik” deb ifodalagan. Talabalar ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlanishida ularning tashabbuskorligi, mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik kabi sifatlar rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. B.Sh.Shermuhammadov tadqiqotida “yoshlardagi ijtimoiy faollik qobiliyatlari, salohiyati ilmiy-amaliy jihatdan o‘shirish imkoniyatlarini oldindan aniqlash, ijodiy fikrlash” masalalari ifodalangan.

Mamlakatimiz va xorij olimlari ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi muammolarning ishlab chiqilishi bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladi. Ta’limni insonparvarlashtirish va milliy g‘urur, vatanparvarlikni talabalar ongiga singdirish mexanizmlari Kaykovus, Xusayn Voiz Koshfiy, Alisher Navoiy A.Avloniy asarlarida to‘la ochib berilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bugungi kun ozbek olimlari E.Yusupov, O.Musurmonova, N.M.Egamberdiyeva, A.Begmatov, A.D.Aliyarov, Ye.V.Bondarevskaya, I.A.Zimnyaya, M.S.Kagan, V.D.Shadrikov va b.q.); zo‘ravonlik qilmaslik va tolerantlik (M.Mamajonov, J.G‘.Yuldoshev, S.Xasanov, N.D.Qosimova, Yu.M.Orlov.); Shaxs shakllanishi, moslashuvchanlikning va o‘z-o‘zini faollashtirishning muayyan darajasiga erishish (G‘.B.Shoumarov, E.G.G‘oziyev, y S.N.Jo‘rayeva, Z.T.Soliyeva, Slavskaya-Abulxanova va b.q.). O.Musurmonova ta’lim –tarbiyada ahloqiy ong, vijdon, burch, mas’uliyat, hayo, g‘urur kabi insonning fe’l – atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi. Axloqning mag‘zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o‘zaro yordam, do‘stlik, hamkorlik, o‘zaro hurmat, baynalminalchilik, vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e’tibor, burch hissi hamda kamtarlik

ko‘zbo‘yamachilik va yolg‘izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni o‘z tadqiqotlarida ifodalagan. N.M.Egamberdiyeva ta‘lim jarayonini insonparvarlashtirish masalalariga to‘xtalar ekan: “ta‘limni insonparvarlashtirish uning yetakchi tendensiyasi sifatida ta‘limni insonga qaratish, uning individualligini namoyon bo‘lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. U insonni yuqori ehtiyojlari: o‘z-o‘zini namoyon etish, o‘z-o‘zini realizatsiyalash, ma‘naviy ijtimoiy va kasbiy shakllanishida maksimal darajada qoniqishga yo‘naltirilgan o‘z noyobligini yo‘qotish, hayot, tabiat dunyosi va madaniyatdan begonalashib ketish xavfidan himoyalashga undash” kabi masalalarni tadqiq qilgan. S.Jo‘raeva yosh avlod masalasiga to‘htalar ekan: “Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o‘zlarini mas‘ul sezib, dahldorlik tuyg‘usi”ni o‘zida xis qilishi to‘g‘risida to‘htalgani, har qanday jamiyatda yosh-avlod tarbiyasi turli davlarda ham muhim o‘rin egallaydi.

“Media” atamasi (lotincha- medium, ya‘ni vosita, vositachi, usul) turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotigi medialarning ta‘siri yil sayin ortib bormoqda. Buning natijasida talabalar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglaydilar. Medianing ta‘limdagi ko‘rinishi u uzluksiz ta‘lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, dars mashg‘ulotining sifatli o‘tilishi va ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kommunikatsiya kanali sifatida medialar sirasiga mutaxassislar bosma nashrlar, elektron ommaviy axborot vositalari (OAV), shu jumladan Internet, reklamaning tashqi vositalari va hatto pochta tarqatmasini, ya‘ni tovar yoki xizmatlar sotuvchisi va iste‘molchi o‘rtasidagi hayot-mamot zvenosi funksiyasini bajaruvchi barcha omillarni kiritadi. Global informatsion jarayonda muhim o‘rin tutayotgan medianing nazariy asoslari mavjudmi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida bahsli fikrlar bor. Zero, istalgan pedagogik faoliyatning nazariy asoslari bor. Rus olimi A.V.Sharikov “Bugungi kunda mediata‘lim bo‘yicha undan ortiq konsepsiyalar yaratilgan bo‘lsa-da, uning turli yo‘nalishdagi pedagogik tajriba to‘planmasini yaxlit holga keltiruvchi yagona nazariyasi mavjud emas”- deb ta‘kilaydi. Fikrimizcha, buning asosiy sababi mediata‘lim hozirga kadar ta‘lim tizmining barcha jabhalariga to‘liq kirib bormaganligida hamda zamonaviy o‘qitish jarayonini butunlay qamrab olmaganligi bilan izohlanadi. Mediatexnologiya-bu elektron hujjatlarni, shu jumladan vizual va audio effektlarni tayyorlash, interfaol o‘quv jarayonini yagona nazorat ostida turli xil vaziyatlarni dasturlashtirishdir. Ushbu texnologiyalar muloqotning bir usuli, inson faoliyatining mahsulidir. Binobarin, ulardan foydalanish ta‘lim sifatini xamda talaba larning fanga bo‘lgan ishtiyoqi oshishi, o‘qish vaqtini tejash, bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi organlariga ta‘siri tufayli materialni chuqur o‘zlashtirish, maxalliy tarmoq orqali o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, masofaviy va elektron ta‘limni joriy etishga erishiladi. Bunday texnologiyalarning mavjudligi talaba larga ularni boshqarishda yordam beradigan maxsus vositalarga ega bo‘lish zarurligini keltirib chiqaradi. Ushbu vositalar multimedia aloqasi yoki oddiygina multimedia vositalaridir. Multimedia vositalari to‘plami katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan mediata‘lim texnologiyalarining bir qismidir. Ularni o‘quv jarayonida qo‘llash interfaollik, hissiyotlilik va ma‘lumotning boyligini maksimal darajasini yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish bevosita yoshlarimizni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash bilan bog‘liqdir. Buning uchun, yoshlarilarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli yashashga, fikriga ega bo‘lishga turli mafkuraviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan, irodali, fidoiy va ma‘naviy-axloqiy tarbiyalangan insonlar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish zarur. Buning uchun, yoshlarilarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli yashashga, fikriga ega bo‘lishga turli mafkuraviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan, irodali, fidoiy va ma‘naviy-axloqiy tarbiyalangan insonlar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish zarur. Zero, Yangi O‘zbekistonda talaba -yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash yangicha olib borilayotgan islohotlar va ta‘lim-tarbiyaning bosh maqsadi etib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “... yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”, demak, yoshlarning tarbiyasi, ularni milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari, avvalambor, shu jamiyatni qurishga faol ishtirok etadigan, umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan va unga sodiq, iymon-e‘tiqodli, teran aql egasi, pok axloqli, o‘z haq-huquqlari, burch va mas‘uliyatini chuqur anglaydigan yoshlarni tarbiyalash barobarida amalga oshiriladi.

Pedagogik OTMning 1-2-3 kurs talabalarlarida ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish iborat. Talabalarlarda ijtimoiy faol milliy g‘urur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish jarayonining mohiyati va pedagogik-psixologik xususiyatlari, ta‘sir etuvchi omillarini aniqlash.

Talabalarlarning ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirishning ilmiy pedagogik, didaktik va metodik shart – sharoitlarini belgilash asosida jarayon modelini ishlab chiqish; taʼlim-tarbiya orqali talaba larning ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan pedagogik vaziyatlarni yaratish shart-sharoitlari sifatida samarali ish shakllari va usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Talabalarlarning ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish hamda ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. 1-2-3 kurs talabalarlarida ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish jarayoniga taʼsir etuvchi pedagogik-psixologik omillar tizimi irodaviy oʻzini nazorat qilish, ijtimoiy ahamiyatli vaziyatlarni egallash, davlat va jamiyat mafkurasiga mos vaziyatlarni tashkil etish hamda ijtimoiy-madaniy, sinergetik, fenomenologik va aksiologik yondashuvlarni oʻzaro yaxlitlash asosida aniqlanganligi, 1-2-3 kurs talabalarlarida ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon modeli kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, oʻz-oʻzini rivojlantirish, milliy va umummadaniy tayanch bilimlarining meʼyoriy, tizimli darajalarini mediatexnologiyalar taʼlim muhitida modellashtirish asosida rivojlantirilganligi hamda pedagogik OTMning 1-2-3 kurs talabalarlarida ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirishning tashkiliy-didaktik mexanizmlari “Socratch tools” (Suqrot mantigʻi), “SAMR Model” (almashtirish, kattalashtirish) hamda “C.R.E.A.T.E.” interfaol oʻqitish texnologiyalari konvergent yondashuv asosida ijtimoiy loyihalarni ijtimoiy yoʻnalish, ishonch darajasi va ijtimoiy hatti-harakatlar tuzilmasi analitik, tashkiliy, faoliyatga doir, monitoring va natijaviylik bosqichlari asosida takomillashtirilgan, 1-2-3 kurs talabalarlarida ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlanganligini baholash mezonlari, maʼnaviy tarbiyalanganlik va demokratik qadriyatlar, insonparvarlik, ideallarga mos yoʻnalganlik ahloqiy tizimlashtirishning komponentlari uygʻunligini prognostik-tahliliy va tashkiliy-uslubiy funksiyalarni chuqurlashtirish vositasida optimallashtirilgan.

**Xulosa** oʻrnida shuni taʼkidlash lozimki, shaxsning subyektiv sifati rivojlanishi talabalarlarning ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda bilimlarni sof individual oʻzlashtirishni hisobga olish, oʻqitishning subyektiv motivlari, oʻqitish predmetiga munosabat, taʼlim oluvchining qobiliyatlari, shaxsiy sifatleri va tajribasiga bogʻliq boʻlgan koʻnikma va malakalarni ishlab chiqish zarurati ijtimoiy faol milliy gʻurur, vatanparvarlik kompetensiyasini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirishda individual yondashuvga murojaat etishni talab etadi. Respublikamizda soʻnggi yillarda taʼlim va oʻqitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, oliy taʼlim muassasalari faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy taʼlim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishning meʼyoriy asoslari yaratilmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: Oʻzbekiston, 2016. –14-b.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni. – www.lex.uz
3. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan oʻqitishning elektron-modulli didaktik taʼminotini ishlab chiqish texnologiyasi. —Toshkent, 2021. 88-b.
4. Axmedova M.E. va boshqalar Milliy tarbiya asoslari. Darslik. “Baraka biznesMCHJ”, MCHJ. Тошкент - 2024.376 bet.
5. Pirnazarova A. Tarbiya fanini oʻqitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash va unda taʼlim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini oʻqitishda didaktik oʻyinlar//Yangi Oʻzbekiston talabalari axborotnomasi 2022. 77-78b.
6. Sapayev V. Tarbiya fanini oʻqitishning ayrim dolzarb masalalari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(8), August, 2023.

**BO‘LAJAK TALABALARDA MA‘NAVY-AXLOQIY KOMPETENTLIKNI  
SHAKLLANTIRISHING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Raxmonova Gullola Shavkatovna,**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Umumiy pedagogika kafedrası o‘qituvchisi.  
<https://orcid.org/0000-0002-7202-0129>

*Ushbu maqolada ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari, bo‘lajak talabalarda qadriyatlarini shakllantirish, har tomonlama ma‘naviy, aqliy, jismoiy rivojlanish uchun munosib sharoitlarni yaratish, o‘z ustida mustaqil ishlashi hamda o‘z shaxsiyatini ijodiy namoyon eta olish, ma‘naviy-axloqiy kompetentligini shakllantirishda tarbiyaning mazmun va mohiyati, metodlari va shakllarini ishlab chiqish, tarixiy manbalarda ta‘lim-tarbiya sohasining ta‘limiy-axloqiy yo‘nalishida yozilgan ko‘plab asarlar tahlili, ularning maqsad va vazifalarini yoshlarga singdirish, shu bilan birga yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalq ravnaqi yo‘lida halol mehnatni qadrlashga o‘rgatish, kattalarga hurmat, tengdoshlariga bo‘lgan madaniy munosabatlarni rivojlantirish, shaxs sifatidagi nuqtayi nazarini qaror toptirish, yuksak g‘oya va shu bilan birga kashfiyotlarni to‘g‘ri yo‘naltira bilishdan iborat. Maqolada bugungi kunda bo‘lajak talabalarini ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda kompetensiyaviy yondashuv usullari haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, mexanizm, kompetentlik, tizim, axloq, madaniyat, usul, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, ta‘lim-tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv.

**ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ СТУДЕНТОВ**

*В данной статье будут рассмотрены основные задачи духовно-нравственного воспитания, формирование ценностей у будущих студентов, создание достойных условий для всестороннего духовного, умственного, физического развития, умения самостоятельно работать над собой и творчески проявлять свою личность, разработка содержания и сущности, методов и форм воспитания в формировании их духовно-нравственной компетентности, разработка учебно-воспитательной методики в исторических источниках, анализ многих работ, написанных в учебно-нравственном направлении, привитие молодым людям их целей и задач, в то же время воспитание молодёжи в духе патриотизма, воспитание ценности честного труда на пути к народному процветанию, воспитание уважения к взрослым, развитие культурных отношений со сверстниками, определение своего взгляда как личности, высокая идея и в то же время умение правильно направлять открытия. В статье речь пойдёт о методах компетентностного подхода к духовно-нравственному воспитанию своих будущих учеников на сегодняшний день.*

**Ключевые слова:** компетенция, механизм, компетентность, система, этика, культура, метод, духовно-нравственное воспитание, воспитание, компетентностный подход.

**FEATURES OF THE FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL COMPETENCE  
AMONG FUTURE STUDENTS**

*This article will consider the main tasks of spiritual and moral education, the formation of values among future students, the creation of decent conditions for comprehensive spiritual, mental, physical development, the ability to work independently on oneself and creatively express one’s personality, the development of the content and essence, methods and forms of education in the formation of their spiritual and moral competence, the development of educational methods in historical sources. The analysis of many works written in the educational and moral direction, instilling in young people their goals and objectives, at the same time educating young people in the spirit of patriotism, educating the value of honest work on the way to national prosperity, fostering respect for adults, developing cultural relations with peers, defining their view as a person, a high idea and in at the same time, the ability to correctly direct discoveries. The article will focus on the methods of a competence-based approach to the spiritual and moral education of their future students today.*

**Keywords:** competence, mechanism, system, ethics, culture, method, spiritual and moral education, upbringing, competence approach.

**Kirish.** Jamiyatimizning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivoji uning a’zolari bo’layotganligini ko’rsatib turibti. Ayni vaqtda bu o’zgarish va yangilanishlarning barchasi ham birdek ijobiy baholanishi qiyin. Ayniqsa, yoshlar orasida bu jarayonning ancha o’ziga xos tarzda kechatotganligini ko’rish mumkin. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala –bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

Shaxsni tarbiyalash uzluksiz tarbiyaning muhim bosqichidir. Bu bosqicha shaxsning hayotiy dunyoqarashi shakllanishi va ongli ravishda o’z o’zini tarbiyalash davri hisoblanadi. Shu sababdan ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonini yo’lga qo’yish tizimli yondashuvga amal qilish, ta’lim va tarbiya jarayonini bo’lajak talabalarning ilmiy tayyorgarligi bilan uyg’unlashgan holda amalga oshirish talab etiladi.

Ma’lumiki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori, 2020-yil 25-dekabrda O’zbekiston Yoshlari forumida hamda 2020-yil 29-dekabrda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi da hamda joriy yilning 19-yanvar kuni Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo’yicha o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati hamda vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi. Davlatimiz rahbarining “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir”, degan so’zlari mohiyatidagi uyg’unlash nafasi buyuk mutafakkirimiz A. Navoiy da’vatlariga mohiyatan uyg’un bo’lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma’naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi.

Demak, yuksak ma’naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo’lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi. Negaki ma’naviyat va ma’rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezon, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne’mat bo’lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo’llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g’afolat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo’lida bedor bo’lishga, bu olamni obod qilishga, go’zallikka burkashga chorlagan. Endilikda, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorda ta’kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz chiranib yotgan ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo’lga qo’yish, bu yo’nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko’taradi. Mavjud muammolarni hal etish yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish ko’lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo’yicha yagona tizim yaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi.

Bu borada nafaqat respublikamiz, balki jahon ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi, yoshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o’qitish modellari texnologik taraqqiyot g’oyalari bilan uyg’unlashtirilgan interfaol dasturlar ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “XXI asrning Oliy ta’limi” Butunjahon deklaratsiyasi, UNESCOning “Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish” dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, modulli ta’limni tashkil etishga, o’qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilgan.

**Tadqiqot metodi.** Respublikamizda ko’pgina olimlar tomonidan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining turli jihatlari o’rganilgan hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llash imkoniyatlari tavsiya etilgan. Bu tadqiqotlarning ba’zilar keng qamrovli bo’lgan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining ma’lum bir qirrasini tahlil etishga qaratilgan bo’lsa, boshqalari ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o’quv kurslarida yangi usullarini qo’llashga yo’naltirilgan, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari joriy etilgan.

Bo‘lajak talabalarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda o‘tmish axloqiy merosini, ayniqsa buyuk mutafakkirlarning fikrlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya sohasidagi fikrlari, axloqiy qarashlari bugungi taraqqiyot uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ularning hayot yo‘li, axloq haqidagi fikrlari har bir o‘quvchini axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Sharq allomalarining axloqiy qarashlari talabalar qalbidagi insoniylikni shakllanishiga yordam beradi.

Butun dunyoda, jamiyatda axloqiy tarbiyaning ahamiyati ortib bora-yotganini, lekin shu bilan birga ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilik, turli soha mutaxassislari hayotning turli sohalarida axloqiy normalarni pasayishi kuzatilayotganligi haqida fikr bildirilayotganini kuzatishimiz mumkin. Nima uchun aynan yoshlar, bolalar orasida axloqiy normalarni buzilish holatlari kuzatilmoqda? Ushbu savolning javobi axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy faoliyat deganda, ta’lim bilan yaxlit aloqadorlikda bo‘lgan maqsadli hamda tizimli faoliyat nazarda tutiladi. Bu faoliyat bo‘lajak talabalardagi ijtimoiy ahamiyatli sifat va qadriyatlarni shakllantirish, har tomonlama ma’naviy, aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, uning o‘z ustida mustaqil ishlashi hamda o‘z shaxsiyatini ijodiy namoyon eta olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Axloqning vujudga kelishi va mohiyati, odamlarni axloqiy ongi va xulqi to‘g‘risidagi muammolarni etika fani o‘rganadi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sanaladi. Axloq tarixiy, o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lib, axloqiy qoidalar odamlar hayotining ijtimoiy sharoitlarida aniqlanadi va jamiyatning turli qatlamlarida turlicha bo‘ladi. Axloqiy me’yor jamiyat tomonidan tan olingan bo‘lib, uning a’zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo‘lgan qoida hisoblanadi.

Axloqiy odat – axloqiy xatti-harakatlarning mukammallashtirishga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib, u o‘quvchilarda qulay vaziyatlarda ijobiy mazmunga ega xatti-harakatlarning izchil, doimiy, tizimli takrorlanishi hisobiga hosil bo‘ladi.

O‘zbek xalqini axloq kodeksi emas, balki oiladagi, maktabdagi, oliy ta’limdagi, jamiyatdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun asos bo‘la oladigan axloqiy normalardir. Axloqiy tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli bu oliy ta’limda pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya, yunagogika, pedagogika nazariyasi va tarixi, oila pedagogikasi kabi fanlaridir. Bundan tashqari, auditoriyadan tashqari axloqiy mavzularda tashkil etilgan tadbirlar, uchrashuvlar ham o‘quvchilarda axloqiy sifat va fazilatlarni shakllantirishida muhim o‘rin tutadi. Shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliqqa, o‘ziga hamda atrofda qilargacha ijobiy munosabatini, shaxslararo munosabatda axloqiy me’yorlarga qat’iy amal qilishini ifodalovchi sifatlar ma’naviy-axloqiy sifatlar deb yuritiladi.

Ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi funksiyalarini amalga oshirish muammosi talabalarni zamonaviy voqelikka o‘z vaqtida moslashtirish, bizningcha, har bir ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli rivojlanishining garovidir. Aristotel, I. Kant, N.A. Berdyaev asarlarida insonning axloqiy va ma’naviy qadriyatlari muammosi ko‘tarildi. Mashhur olimlar V.A. Slastenina, O.S. Bogdanova, N.I. Boldireva axloqni rivojlantirish muammosini tahlil qilishni o‘rganib chiqdi. Bu borada o‘zimizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, O.Musurmonova, M.Ochilov, Sh.Olimov, S.Annamuratova, S.Fayzulina, O.Musurmonova, M.Quronov, N.X.Oripova, Z.Q.Ismoilova, N.A.Muslimov, N.M.Ochilov, Y.P.Azarov, Z.E.Azimovalarning ilmiy ishlarida oliy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarining ma’naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi tahlil qilingan.

Zamonaviy tadqiqotlarda Qur’oni karim va Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar mazmunida o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ifodasini topgan.

Amir Temur – yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli hukmdor sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab, bir kesgan.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo‘g‘in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilik-ka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg‘on kitobdir. Axloq kishining

xulq-atvori, e'tiqod-imoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, intizomli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

**Tadqiqot muhokama va natijasi.** Tahlillar asosida yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi asosida ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy bilimlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ma'naviy faoliyat kabi komponentlarni o'z ichiga olishi aniqlandi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi sifatida ma'naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida talaba-yoshlarda baxt, vijdon, burch, adolat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, shon-sharaf, e'tiqod, sadoqat kabi bir qancha axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni o'zlashtirgan talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlar ega yoshlar axloqiy me'yorlar talablarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma'naviy meros, urf-odat va an'analarga nisbatan hurmatda bo'ladi

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi sifatida ma'naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida talaba-yoshlarda baxt, vijdon, burch, adolat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, shon-sharaf, e'tiqod, sadoqat kabi bir qancha axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni o'zlashtirgan talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlar ega yoshlar axloqiy me'yorlar talablarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma'naviy meros, urf-odat va an'analarga nisbatan hurmatda bo'ladi. Ammo ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilim ega bo'lish, uni tushunish, ezgu fazilatlarini tarkib toptirish hali yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganini anglatmaydi. Insoniylik fazilatlarini qachonki hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo'lsa, bu uning tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi. Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma'naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e'tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur.

Ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar deganda shaxsning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan qobiliyat va fazilatlar tushuniladi. Bu kompetensiyalar insonning axloqiy xulq-atvori, shaxsiy o'sishi va o'zidan kattaroq narsa bilan bog'lanishiga hissa qo'shadigan bir qator ko'nikmalar, munosabatlar va qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar (fazilatlar)ni rivojlantirish oliy ta'lim oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bo'lajak talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalariga Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni kabi kompetensiyalarni kiritish mumkin

Bo'lajak talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali: asosiy faoliyat turlari jarayonida o'zini-o'zi anglashga o'rgatish, muloqot, kuzatish va taqlid orqali atrofdagilarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish, o'zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o'rgatish, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o'rgatish, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to'g'risida tushunchalar berish, o'zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish ehtiyojining paydo bo'lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish, talabalar tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rgatish kabi masalar bugungi kunda e'tibordan chetda qolyapti desak adashmagan bo'lamiz.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirishda dastlabki qadami talabalarga vatanimizning milliy boyliklariga, meroslariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularni avaylab-asrash, tariximizdan faxr va iftixor tuyg'ularini rivojlantirib, xalqimizning milliy urf-odat va an'alariga sodiqlik ruhida tarbiyash lozim. Ma'naviy-axloqiy me'yorlar asosida talabalarda munosabatga kirishish madaniyatini, jamoa orasida, jamiyat insonlari bilan to'g'ri munosabatni o'rnatishga erishish lozim. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning talabalar mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishlari ularning ijtimoiy hayotda o'zlarini qanday tartibda tutganliklari bilan baholanadi.

Sindan tashqari ishlar tizimi maqsadli, individual-guruhiy, muntazam-vaqtinchalik va faoliyat komponentlaridan iborat. Maqsadli komponent ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari jarayonida amalga oshiriladigan bunday ishlarning maqsadini, auditoriyadan tashqari ishlar tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan va keyingi o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarida davom etadigan har bir mashg'ulotning maqsad va vazifalarini o'z ichiga oladi. Individual-guruhiy komponenti o'qituvchilar va talabalar, ta'lim va tarbiyaning boshqa ishtirokchilarining hamkorligi va hamjihatligini ifodalaydi. Muntazam-vaqtinchalik komponentiga predmet-moddiy muhit, ta'lim muhiti, ta'lim muassasasi xodimlarining shahar va viloyat madaniyat muassasalari va ijodiy jamoalari bilan aloqalari va munosabatlari kiradi. Faoliyat komponenti tizimni tashkil etuvchi faoliyat turini, qo'shma faoliyat va aloqalarni tashkil etish shakllari va usullarini o'z ichiga oladi.

Sinfidan tashqari ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari tizimi samarali amalga oshirish uchun quyidagi talablarga rioya etish talab etiladi:

- ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari, tarbiyaviy ishlarning majmui, muayyan tarbiya masalasi jamoaviy rejalashtirishga muvofiq belgilanadi;
- ma'muriyat, tyutor va guruh rahbarlari, talabalar, fan to'garaklari va yoshlar ittifoqi rahbarlari, amaliyot rahbarlari va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sa'y-harakatlari yagona maqsadga bo'ysundirish;
- talabalar va o'qituvchilarning o'amkorligdagi ijodkorligi, pedagogik jarayon subyektlarining yuksak axloqiy fazilatlarini namoyon etishi uchun sharoitlar yaratilganligi;
- auditoriyadan tashqari ishlar tizimi badiiy, munozara va reflektiv vaziyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda hissiy rag'batlantirishni qamrab olganligi.

Bo'lajak talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya fazilatlarini quyidagi prinsiplar asosida rivojlantirish mumkin.

- insonparvarlik prinsipi (shaxsning huquq va erkinliklarini hisobga olish, vijdon erkinligi, mustahkam qadriyatlarga tayanish);
- dunyoviylik prinsipi;
- ilmiylik prinsipi (shaxs rivojlanishining psixologik asoslariga tayanish);
- falsafiy pozitivizm (isbotlilik) prinsipi;
- uzluksizlik prinsipi;
- kompetentlik;
- ochiqlik prinsipi.

Insonparvarlik prinsipi, insonlarga hurmat ko'rsatish, ularning huquqlarini qo'llab-quvvatlash va ularning xayotini yaxshilashga asoslangan qadriyatdir. Bu prinsip, barcha insonlarni teng huquqlar va imtiyozlarga ega bo'lishiga, farqliliklarni qabul qilishga, adolatsizlik va zulmga qarshi kurashishga, o'zga xususiyatlarni qabul qilishga va o'zga qarashga erishishga asoslanadi. Insonparvarlik prinsipi, insonlarning jinsiy, etnik, milliy, dini, ma'naviy, ijtimoiy yoki boshqa turdagi farqliliklari bo'lsa ham, ularning huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishga, ularning qadr-qimmatini tushunishga va ularning xayotini yaxshilashga erishishga intiladi. Bu prinsip, adolatsizlik, diskriminatsiya, zulm, yomon ko'rish va boshqa insonparvarlikka zid bo'lgan har qanday amallarga qarshi kurashishni talab qiladi.

**Xulosa.** Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad – har tomonlama barkamol insonni tarbiyalashdir. Ta'lim muassasalarning asosiy vazifasi bo'lajak talabalarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, mehnat va jismoniy rivojlanishiga ko'maklashish, umuminsoniy qadriyatlarga oshno bo'lishi uchun zamin hozirlash, o'z-o'zini rivojlantirish, ichki imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Ta'lim muassasalarida bo'lajak talabalarni ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari bilim, bilish qiziqishlari, axloqiy-irodaviy intilishlari va axloqiy harakatlarining yetukligi, ma'naviy madaniyatga qiziqish, uning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi rolini anglash, axloqiy qadriyatlarni anglash hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning darajalari belgilandi.

Bo'lajak talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning mavjud holatni o'rganish natijalari bu sohada amalga oshirilayotgan pedagogik chora-tadbirlar yetarli emasligini ko'rsatdi.

Bo'lajak talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning qator tamoyillari, jumladan, uzluksizlik, demokratiklik, altruizm, bag'rikenglik, hamkorlik va individuallashtirish tamoyillari ishlab chiqilib, ularga asoslangan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirildi.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir shaxsiga yo'naltirilgan, kommunikativ, faoliyatga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlar mavjud bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur yondashuvlarni hisobga olish muhimligi aniqlandi.

Bo'lajak talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan shakl, metod va vositalari ishlab chiqilib, ular auditoriya mashg'ulotlari hamda auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Bo'lajak talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda psixoterapevtik yondashuvga asoslangan artterapiya, hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtirilgan psixodrama (sotsiodrama), shaxsiy rivojlanish, muloqot treninglari alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

**Xulosa.** Demak, axloqiy tarbiya barkamol insonni tarbiyalashda yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukamallikka erishuvchi vosita hisoblanadi. Axloqiy tarbiya asosini ijtimoiy axloqiy meyorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etishni tashkil qiladi. Axloqiy meyorlar jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan



qoida hisoblanadi. Axloq kishilarning xulq-atvori, e’tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo’ladi. Axloqli inson ma’naviyatli, o’zini va o’zgalarni hurmat qiladi, intizomli bo’ladi. Suhbatdoshining ko’ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og’ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida talabalar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash, uni asrab-avaylash masalasini kun tartibiga qo’yish zaruratining yuzaga kelishi, ma’naviy-axloqiy his-tuyg’ularini tarbiyalash, ularda xulq-atvor ko’nikma va odatlarini tarkib toptirish, manaviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchi ekanligi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yorlarga rioya qilishi, talabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo’lgan hurmat-e’tiborini namoyon etuvchi mezonlardan iborat.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.- Toshkent: O’zbekiston. 2018. 2-tom,-B. 491.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni (<https://lex.uz/pdfs/6600413> )
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.
4. Valerievna I. G., Shavkatovna R. G. The Content and Characteristics of Spiritual and Moral Education Works in Higher Education Institutions //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 340-342.
5. Shavkatovna R. G. Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash shakllari //Proceedings of International Educators Conference. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 53-56.
6. Рахмонова Г. Ш. Содержание и характер духовно-нравственной воспитательной работы в высших учебных заведениях //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 6. – C. 5-8.
7. Рахмонова Г. Ш. Содержание и характер духовно-нравственной воспитательной работы в высших учебных заведениях //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 6. – C. 5-8.
8. Shavkatovna R. G. Improving the educational process in the development of spiritual and moral competences in students //Genius Repository. – 2023. – T. 25. – C. 10-12.
9. Shavkatovna R. G. Methods of the Competence Approach in the Spiritual and Moral Education of Students //American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769). – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 535-539.
10. Рахмонова Г. Ш. Технологии развития духовно-нравственной компетентности студентов //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 45. – C. 306-309.
11. Raxmonova G. S., Norquliyeva O. O. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 295-297.
12. Raxmonova G. S., Abdunabiyeva F. N. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 729-734.

**TALABALARDA XALQARO MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA  
TARBIYANING MUHIM XUSUSIYATLARI**

*Rayimova Dilfuza Abdinabiyevna,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim nazariya kafedrası o'qituvchisi  
rayimovadilfuza51(a)gmail.com*

*Maqolada talabalarni xalqaro muloqot madaniyatiga tayyorlashning pedagogik xususiyatlari, globallasuv jarayonlari va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o'ziga xos xususiyatlari asoslab berilgan. Talabalarda bag'rikenglik, vatanparvarlikni rivojlantirish, ularni o'zaro hurmat, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** xalqaro munosabat, xalqaro muloqot madaniyati, milliy o'zlikni anglash, ko'p millatlilik, globallasuv.*

**ВАЖНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ У СТУДЕНТОВ  
КУЛЬТУРЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ОБЩЕНИЯ**

*В статье обосновываются педагогические особенности подготовки студентов к культуре межнационального общения, процессам глобализации, особенностям стратегии развития Нового Узбекистана. Освещены вопросы развития толерантности и патриотизма у студентов, воспитания их в духе взаимоуважения, религиозной терпимости, межнационального согласия.*

***Ключевые слова:** межнациональные отношения, культура межнационального общения, поликультурность, национальное самосознание, компетенция, глобализация.*

**IMPORTANT FEATURES OF EDUCATION IN FORMING THE CULTURE OF  
INTERNATIONAL COMMUNICATION IN STUDENTS**

*The article substantiates the pedagogical peculiarities of preparing students for the culture of interethnic communication, globalisation processes, and the peculiarities of the development strategy of New Uzbekistan. The issues of developing tolerance and patriotism among students, educating them in the spirit of mutual respect, religious tolerance and interethnic harmony are highlighted.*

***Keywords:** interethnic relations, culture of interethnic communication, polyethnicity, national identity, competence, globalization.*

**Kirish.** Bugungi kunda globallasuv jarayonida turli millat vakillarining bir-biriga yaqinlashuv jarayonini guvohi bo'layapmiz. Bu ayniqsa, yoshlar qatlami, xususan talabalar bilan bog'liq munosabatlarda faol namoyon bo'ladi. Turli millat yoshlarining bilim olish maqsadida birlashishi, bir-biri bilan faol muloqotga kirishi ulardan muayyan ijtimoiy-madaniy malakalarni talab qiladi. Shunday ekan, talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish millatlararo hamjihatlik, bag'rikenglik, turli xalqlar, yoshlarning madaniy hamkorligi, o'zaro muloqotini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda xalqaro tashkilotlar tomonidan barcha xalqlar uchun o'zaro muloqot madaniyatiga tayanuvchi yondashuvlarni faol tatbiq etishga dolzarb masala sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Maqolada ijtimoiy pedagogik o'lchovlar, jumladan, kuzatuv, anketa usuli, intervyu olish, tashxislash, suhbat o'tkazish, tizimli yondashuv kabi tadqiqot usullariga tayanilgan.

Hozirda xalqaro muloqot madaniyatini shakllantirish, totuvlikni ta'minlash jarayonini tadqiq etish borasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga, globallasuv va integratsiya jarayonlarining mohiyati, xususiyatlari, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, millatlararo nizolarni bartaraf qilish, millatlararo munosabatlar, yoshlar madaniyati, o'ziga xos dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni barqaror saqlash va rivojlantirishga, turli millat vakillari, xususan yoshlar o'rtasida o'zaro totuvligini mustahkamlash va rivojlantirishda davlat va mahalliy boshqaruv tizimlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish, ma'naviyatini yanada yuksaltirish bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilmoqda. «Millatlararo totuvlikni ta'minlashda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy madaniy markazning o'zni beqiyos. Aynan shu nuqtayi

nazardan kelgusida ham millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi»

Diyorimizda o‘zbek xalqi va boshqa xalqlarning erkin, ozod, farovon va teng huquqli fuqarolar sifatida yashashlari, o‘z milliy tili, madaniyati, an‘analarini saqlash va rivojlantirishda dunyoda andozasi bo‘lmagan huquqiy, ma‘naviy va ijtimoiy yo‘nalishlarda yangiliklarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida», 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»,

2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son «Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2017-yil 23-maydagi PQ-2993-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

«Yangi O‘zbekiston strategiyasi» da belgilab berilgan vazifalar, Prezident Sh.M.Mirziyoevning mamlakatimizni barqaror, izchil va jadal rivojlantirishga bag‘ishlangan asarlari, farmon va qarorlari, konseptual g‘oyalari tadqiqotning ilmiy metodologik asoslarini belgilab bergan. Dunyoda va O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar, etnomadaniy jarayonlar va etnik muammolarni o‘rganish, tadqiq qilish borasidagi ishlarini quyidagicha tasniflash mumkin. Xorij olimlarining millatlararo totuvlik, millatlararo munosabatlar va u bilan bog‘liq masalalar V.Vundt, O.Kont, J.Mill, R.Mills, G.Antonos, K.Girs, E.Gellner, M.Xitcher, E.Bogardus, va B.Shnyder tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida millatlararo totuvlik, millatlararo munosabatlar va u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayonlar tahlili faylasuflar A.Luriya, Yu.Bromley, I.Kon, V.Xannanova, P.Tokarning tadqiqotlarida keltirilgan.

Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz // - T.: O‘zbekiston, 2017. 1-tom, 46-bet

Millatlararo muomala madaniyatini shakllantirish muammolari bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy ishlar olib borganlar: A.B.Bagdasarov, G.M.Valetova, G.N.Volkova, G.O.Darakchyan, Y.A.Juravleva, L.A.Zaxarova, V.G.Krisko, B.L.Kubishko, I.M.Kungurova, D.I.Lati-shina, O.V.Litvina, N.G.Markova, va boshqalar. Ularning tadqiqotlarida turli millatlarga bo‘lgan hurmat ehtiromi bilan o‘ziga xos bo‘lgan g‘oyalari va faoliyat turining maxsus sohalariga nisbatan bo‘lgan munosabat va madaniyatini kashf qilishi shaxsning o‘zligini, muayyan millat vakili ekanligini namoyon qiladi. Ularning fikricha, xalqaro muomala madaniyati, mamlakat va mintaqalarda o‘z tarixini va mahaliy madaniyatini bilish, turli xil millatlar bilan aloqadagi odob-axloq qoidalarini, o‘ziga xos millatlararo munosabatlarni bilish bilan ifodalanadi. Yoshlarning insonlarga nisbatan, ularning kelib chiqishi, millati, dinidan, qat‘iy nazar ularga nisbatan hamdard bo‘lishlarini ta‘minlash muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi ko‘plab olimlarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Jumladan, M.A.Ariarskiy, D.M.Abdurzaqov, O.N.Belinskiy, Ye.V.Velikanoviy, I.M.Vereshagina, V.M.Grusman, R.G.Saloxiddinova, D.Sh.Sangirov, va boshqalar. Olimlar yoshlarning ijodiy faoliyati jarayonida shaxsning mustaqil madaniy rivojlanishidagi samaradorlikni ta‘minlash, ijtimoiy-madaniy ijod, pedagogik sharoitlardagi qiziqishlari, madaniy-xordiq faoliyatlari va talablari, ijodiy imkoniyatni qoniqtirish uchun qulay zamin ekanligini, ta‘kidlab o‘tadilar. Ijtimoiy-madaniy ijokorlikdagi yangi muhim ahamiyatga ega izlanishlar, yosh avlod shaxsining ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan, bilim to‘plashni ta‘minlaydigan, interaktiv usullarni tatbiq qilishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

**Mavzuni o‘rganilish darajasi.** Mamlakatimiz olimlari tadqiqot mavzusiga yondosh bo‘lgan muammolarning pedagogik jihatlarini M.Quronov, E.Choriev, H.Xudoyqulov, O.Musurmanova, Yu.Maxmudov, M.Bekmurodov, A.Umarov, A.Xolbekov, T.Matiboev, O.Abduezimov, A.Seitov, F.Parmonov, K.Kalanov, M.Ganieva, A.Yunusovlar ilmiy asoslab berganlar.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda mavzuga oid nazariy g‘oya va xulosalarga munosabat bildirib, mazkur yondashuvlardan milliy totuvlikka erishish yo‘lida qanday foydalanish imkoniyatlariga ega ekanligi tadqiq etilgan bo‘lsada, biroq milliy totuvlikka erishishda o‘zbek xalqining insonparvarligi, mehrshafqatligi, va madaniy o‘ziga xoslikka mansub aholi vakillarining milliy muloqot tizimidagi bag‘rikenglik yondashuvini mustahkamlashning harakatlantiruvchi omili ekanligini atroflicha tadqiq etish dolzarb amaliy ahamiyatga ega.

**Tahlil va natijalar.** Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish orqali totuvlikni ta'minlash, ijtimoiy-pedagogik jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- yangi O'zbekiston sharoitida talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish teng huquqlilik tamoyillari ustuvor yo'nalishlar sifatida o'rin olishining ijtimoiy ahamiyatini asoslash;

12. К.Б. Холиков. Обученность педагогике к освоению учащихся сложным способам деятельности. // Science and Education 5 (2), 445-451.
13. К.Б. Холиков. Педагогическое корректирование психологической готовности ребенка к обучению фортепиано в музыкальной школе. // Science and Education 4 (7), 332-337.
14. К.Б. Холиков. Прослушка классической музыки и воздействия аксонов к нервной системе психологического и образовательного процесса. // Science and Education 4 (7), 142-153.

## ВОСПИТАНИЕ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ В ДУХЕ МИРА И ВЗАИМОПОНИМАНИЯ

*Имамкулов Расул Рахманович,*

*доцент кафедры педагогики и социальных наук*

*Термезского государственного института, кандидат педагогических наук*

*В статье рассматриваются проблемы воспитания будущего учителя в духе идеи “Мира”, её задачи, способы формирования и решения.*

*Ключевые слова: проблема, этнокультура, наследие учёных в духе мира, война, афоризмы, справедливость, гуманизм, народная педагогика, интерактивные методы, мыслители.*

## UPBRINGING OF THE PERSONALITY OF THE FUTURE TEACHER IN THE SPIRIT OF PEACE AND MUTUAL

*This article deals with the problem of training the character of future teacher in the spirit of peace and mutual understanding, perspective problems and decision ways.*

*Keywords: the problem of ethnoculture, heritage of scientists in the spirit of peace, war, aphorisms.*

## KELAJAK O‘QITUVCHI SHAXSINI TINCHLIK VA AHILLIK RUHIDA TARBIYALASH

*Maqolada bo‘lajak o‘qituvchini tinchlik g‘oyasi ruhida tarbiyalash muammolari, uning vazifalari, shakllantirish va hal qilish usullari muhokama qilinadi.*

*Kalit so‘zlar: muammo, etnomadaniyat, tinchlik ruhidagi olimlar merosi, urush, aforizmlar, adolat, insonparvarlik, xalq pedagogikasi, interfaol usullar, mutafakkirlar.*

**Введение.** В выдвинутых Президентом Республики Узбекистан инициативе о принятии резолюций Генеральной Ассамблеи ООН “Об укреплении регионального и международного сотрудничества по обеспечению мира, стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии” и “О просвещении и религиозной толерантности”, а также Конвенции ООН о правах молодёжи, и в том числе в Указе Президента нашей страны “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года определены важнейшие направления и приоритетные задачи по развитию страны на ближайшие пять лет.

Одним из важнейших приоритетов государственной политики Узбекистана было определено развитие культуры толерантности и гуманизма, укрепление межнационального и гражданского взаимопонимание и согласия, интеллектуального прорыва, переосмысление формирования сложившихся в течение многих веков, законов и порядков. [1.1]

Развитие системы образования возведено в нашей стране в решение государственной политики задачи по реформированию этой важнейшей сферы, в которой сосредоточено будущее государство, решаются поэтапно, одними из направлений приоритетного направлении стратегии развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы является развитие человеческого капитала, цели в статье 43, 44 стратегии предполагают в числе прочих задач повышения качества образования в школах и поднятие на международный уровень знаний и квалификации педагогических кадров.[2.1] В ходе исследования основное внимание уделялось организации учебного процесса в общеобразовательных школах регионов, качеству уроков, педагогическому потенциалу и мастерству создаваемым условиям, активности учащихся, духовной среде в школах.

**Актуальность исследования.** Как нам известно, народы дали миру великих поэтов, писателей, учёных – деятелей искусства. Всё это свидетельствует о богатой истории народной педагогики народов мира. В учебно-воспитательном процессе, в частности, выявлен ряд негативных тенденций: в области монографических проблем, проблемы изучения “Идей мира”, мысли учёных о воспитании и обучении, о педагогической профессии и о роли учителя в обществе.

Цели и задачи исследования. По этим проблемам проводятся опытно-исследовательские работы в университетах, в школах и других учреждениях; подготавливаются учебники, учебные пособия, методические пособия, программы читаются лекции по истории мировой педагогики. Также исследуются этнокультурные вопросы наследия и творчества ученых об идеях мира и о роли учителя в обществе.

Мысли о творчестве Восточных учёных о культуры – Балхи, Рудаки, Фирдавси, Хисрава, Туси, Руми, Замахшари, Ал – Бухори, Термези, Саъди, Джами – являются актуальными в современном демократическом обществе. [3.5]

Мыслители Саади, Хафиз Ширази, Собир Термези, Самандар Термези, А.Навои – в своих произведениях призывали и воспитание подрастающих поколения жить не мечтой о светлом будущем, а жить реальной жизнью: “Человек – самый высокий и ценный дар Вселенной”. Цель воспитания – подготовка хорошо образованного человека, владеющего лучшими качествами и борющегося за счастье народа. Расцвет национальной науки и культуры через “образование” всех народов. [3.5] “Педагогические взгляды Навои глубоко гуманистичны, мысли об учителе: “Учитель должен не только знать в совершенстве свой предмет и обладать глубокими знаниями, но и понимать нужды народа, показывать во всём пример”. Саади выдвигал идею равенства всех людей, требовал воспитания у молодёжи сочувствия и уважения ко всем народам. Вместе с тем, Саади был убеждён, что идеи равенства, справедливости и гуманности можно осуществить воздействием на царя. Рассвет национальной науки и культуры через образование всех народов. [6.20]

Великий гуманист Ганжави написал свои произведения на нескольких языках, в основном фарси – таджикском сорок два произведения, на узбекском, туркменском, турецком, азербайджанском, курдском языках. Продолжая традиции таджикских поэтов о гуманизме, общечеловеческих ценностях, Ганжави идею гуманизма возвышает и конкретизирует в своих произведениях. В стихах Бобура рассматривались любовь к родине, любовь к супруге, дружба и равенство, человеколюбие, гуманизм и т.д. Один из популярных на Востоке учёный, дипломат, поэт Хожа Самандар Термези написал книгу “Дастур ул – мулк”. В произведениях рассматриваются проблемы, советы, идеи о том, как управлять государством, обучать, воспитывать, подрастающее поколение. В творчестве подробно излагаются мысли и идеи о том, как управлять страной, а также то, какие качества необходимы для политического деятеля:

- необходимо быть справедливым;
- необходимо завоевать доверие народа;
- необходимы: ум, способность управлять государством, а также жить в мире, и согласии с народами. [3.2]

Абдулла Авлони в своём произведении “Цветущий край и мораль”, который мы считаем первым учебником педагогики, написанном на персидском и узбекском языках, уделяет особое знание умственному воспитанию, показывает огромную роль учителя в этом деле.

Обучение и воспитание он считает неразрывным единым процессом, тесно связанным между собой. В своём труде он говорит о необходимости тесной связи воспитания с культурой, духовной жизнью народа его историей. Особенно интересны его идеи народности воспитания, о воспитании у детей любви к Родине. Его идеи о связи воспитания и культуры, которые в современной педагогике считают принципом культуросообразности. [7.50]

“Человек вставший за преподавательский стол, ответственен за всё, он обязан всё знать и уметь. Именно ответственность за судьбу каждого воспитуемого общества и государства возлагается на преподавателей. Каким будут результаты труда педагогов сегодня – таким будет наше общества завтра. Поэтому к профессиональным и личностным качествам преподавателя требования были всегда жёсткими”. [3.2]

Одной из острейших проблем, стоящих перед человечеством на современном этапе, является проблема мира. К миру приковано ныне внимание государственных деятелей, политиков, военных, учёных, писателей, художников, широкой общественности разных стран. Представители всех профессий несут свою долю ответственности за судьбы вселенной, но особая роль в деле сохранения мира и взаимопонимания между народами и отдельными людьми отводится работникам просвещения.

Задача учителя сегодня – осознать необходимость формирования нового типа мышления, связанного с новым пониманием место человека в современном мире; стремиться воспитать будущее планеты в духе миротворчества и взаимопонимания. Будущий учитель формируется в стенах института сегодня. В процессе педагогического общения в вузе ставятся и решаются задачи учебного, познавательного и воспитательного характера, целью которых является воспитание личности будущего учителя. Задача формирования идейно – политической и профессионально – педагогической, направленности личности студента педагогического вуза, а также его нравственного, миротворческого облика, должна стать центральной в деятельности всех кафедр вуза.



Успех дела воспитания будущих учителей зависит от личности преподавателя вуза, от той атмосферы творчества и взаимопонимания, какая царит на кафедре, факультете и в университете в целом, от понимания вузовскими преподавателями важности проблемы воспитания в духе мира и взаимопонимания, от умения реализовать на практике педагогику сотрудничества в целях миротворчества и доброты.

Воспитание в духе мира и взаимопонимания может быть представлено как цель, средство и как метод формирования личности будущего учителя.

Чтобы жить мире и для мира, надо учиться миру. Миру следует обучать. Задача учителя сегодня – бороться за мир в каждом учительском и родительском коллективе, в каждом доме, стремиться к миру в душе каждого человека и в первую очередь – каждого ребенка.

Мир начинается с каждого из нас. Он зависит от умения слушать, понимать и признавать точку зрения собеседника. Мир – это умение разрешать конфликтные ситуации, готовность пойти на компромисс, понять настроение и душевное состояние другого, умение оказаться рядом и подержать в трудную минуту.

Мир – это большая человеческая любовь и уважение к другому человеку, другому народу, милосердие, миротворчества, доброта и терпимость.

Воспитание в духе мира и взаимопонимания, включать в себя все эти целевые установки.

Будучи серьёзной нравственной глобальной проблемой, воспитание в духе мира и взаимопонимания стоит во главе угла процесса обучения, образования и воспитания учащихся, является средством формирования личности будущего учителя.

Ведущая роль в педагогическом общении принадлежит преподавателю. Он призван порождать речемыслительную активность студентов, т.е. управлять процессом обучения. Коммуникативно-деятельные отношения между преподавателями и обучаемыми определяет подход к студенту как партнёру общения, как активному субъекту учебного процесса, в которой ставятся задачи учебного, познавательного, воспитательного, в том числе – миротворческого характера, они могут и должны стать средством, своего рода – моделью межличностного общения между обучающим и обучаемым.

Воспитание в духе мира и взаимопонимания может быть методом обучения и воспитания будущего учителя в стенах института. Умение поставить проблем общения и взаимопонимания выше собственных, личных, корыстных целей – это тоже мир.

Миротворческое, уважительное отношение к другому человеку зарождается в семье. Культура общения, педагогика сотрудничества предполагает не только доверительные отношения между учителем и учащимся, но и атмосферу уважения и миротворчества между членами педагогического коллектива, между членами семьи. Студент сегодня это будущий учитель и семьянин. Уроки миротворчества и взаимопонимания, полученные в семье, в стенах института, будут использованы им как метод воспитания своих будущих учеников и детей. “Мысли о войне возникают в умах людей, потому и сознанию людей следует укрепить идею защиты мира” из Устава ЮНЕСКО.

Борьба за умы и внутренний, духовный мир будущего человека – сегодня это тоже борьба за мир. Это – настойчивые и кропотливая работа по воспитанию добрых чувств и хороших вкусов, гражданственности и порядочности, совестливости и дисциплины, милосердия и неприятия насилия. Это всё то, что мы имеем в виду, говоря о воспитании в духе мира и взаимопонимания личности будущего учителя.

Человечество сейчас переживает переломный этап вплотную и совершенно однозначно решается вопрос о сохранении цивилизации и самой жизни на земле. Возникла и стала набирать силу педагогика мира – новое, формирующееся направление общей педагогической теории и практики. В эти задачи входит: исследования процессов воспитания и образования различных возрастных групп в условиях кардинальных изменений в демократическом обществе. Формирование учащихся – молодёжи в межнациональных отношениях общения и их развитии мировоззренческой деятельности является примером педагогического сотрудничества учебно – воспитательном процессе.

Изучение учащимся идей и мысли общечеловеческой ценности, ознакомления молодёжью и углубленное освоение всей национальной культуры. По этим проблемам нами проводится опытно – исследовательская работа, изученные проблемы актуальны и необходимо дальнейшее их изучение. В творчестве мыслителей ярко выражены мысли – афоризмы “идей мира” и воспитание толерантности.

Все эти теоретические идеи и положения были аккумулированы и в разработке методической части исследования, общая характеристика которой применительно к формированию воспитания

личности будущего учителя в духе мира и взаимопонимания сводится к следующему: обогащение содержания материалами учебно – воспитательного процесса вместе с обновлением содержания за счёт педагогического анализа социальных преобразований и реальной действительности: обновление методики воспитания в условиях национального возрождения и развития национального самосознания: совершенствование методики развития воспитания личности как важнейшего средства формирования культуры межнациональных отношений в ВУЗе и школе; педагогическое отношение морально-этических основ культуры межличностного общения и межнациональных отношений молодёжи в ВУЗе, школы и социальной среде.

Эти усовершенствования образовательно-воспитательной деятельности в ВУЗе, в школе стали основой опытно-экспериментальной работы. Исследование показало, что решение проблемы формирования воспитания личности учителя в духе мира напрямую связано со степенью эффективности педагогической деятельности по всем этим направлениям учебно-воспитательной работы ВУЗа.

Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что разнообразная культуроведческая деятельность, изучение национальной истории и культуры разных народов вместе с расширением сферы функционирования билингвизма и разговорной практики приводит к значительному повышению уровня овладения языками и гармонизации межнациональных отношений дружественного межличностного общения молодёжи. Двухязычие в таких условиях реально воплощается в культурные пласты, становясь проводником духовного освоения и взаимообогащения национальных культур, мощным средством воспитания подлинного интернационализма, гармонизации развития национального и интернационального самосознания на гуманистических началах. Поэтапная реализация этой готовности рассматривалась нами в качестве критериев сформированности культуры межнациональных отношений общения молодёжи.

**Результаты исследования** показывают, что комплексная проблема формирования воспитания личности будущего учителя и культура межнациональных отношений молодёжи средствами национально-русского двуязычия может быть решена совместными усилиями педагогов, психологов, социологов, лингвистов в русле интерактивных исследований, с широкими выходами в обществоведческую разработку проблем культуры и всех её составляющих: культуры политической, нравственной, правовой, художественной, трудовой, этической, языковой, бытовой, национальной культуры и общечеловеческой ценности – толерантности в современном демократическом обществе. В концепции непрерывного духовного воспитания направлено на изучение воспитания десять достойных качеств в социальной среде. Верность к родине у молодёжи, предпринимательство, воля, идеологический иммунитет, доброжелательность, ответственность, толерантность, правовая культура, инновационное мышление, трудолюбие. [4.2]

В процессе интердеятельности использовались интерактивные методы: “Кластер”, “Мозговой штурм”, “Резюме”, “Полиглот”, “Блиц – вопрос”, метод “Угадай – кому принадлежат эти мысли?”. Составляя разные вопросы по проблемам о знаниях, о воспитании обучения личности и в том числе педагогические афоризмы идей, мысли просветителей “о мире”. В процессе интердеятельности молодёжь с интересом отвечала на поставленные вопросы с использованием метода “Угадай – кому принадлежат эти мысли?” отвечали и изучали афоризмы деятелей культуры, например, педагогические идеи, афоризмы просветителей о справедливости и правилах мировластия, о благотворительности, о любви, о смирении и скромности, о воспитании.

В творчестве Самандара Термизи подробно излагаются мысли и идеи о том, как управлять страной, а также то, какие качества необходимы для политического деятеля:

- необходимо быть справедливым
- необходимо завоевать доверие народа
- необходимы: ум, способность управлять государством, а также жить в мире и согласии с народами. Из чаши мудрости учёных Востока “Свет народов” Саади Ширази.

“Не поднимет народ на народ меча, и не будет более учиться воевать” Саади Ширази

Радость и счастье, любовь к жизни, человеколюбие, чистота совести, гуманизм жизнелюбия.

Хафиз Ширази Общечеловеческие ценности.

Ганжави

Любовь к человеку, права женщин справедливости, идеал дружбы, верности и преданности.

Нодира

Любовь к родине человеколюбие гуманизм.

Дилшод Филдек зур булсанг, шердек урушкок,

Наздимда жангдан сулх, минг бор афзалрок. Хотя ты сильнее слона и льва

Я вижу мир лучше чем битвы.

Саади Ширази.

Одамдан юкори тураркан олам, Билим оширмокка мухтождир одам. Мир лучше человека

И поэтому он всегда стремится к знаниям.

А.А.Рудаки Одамлар аклининг чирогии билим Балодан сакланиш яроги билим.

Знания свет мудрости человека

И знания спасут его от опасностей

А.А.Рудаки

Илм урганмай яхшилик килиб булмас хеч. Незнающий не сможет делать хорошие дела.

Х.Хисрав Илмдин кишига иззат – обру хам, Илмсиз хеч ерга куймагил кадам.

Благодаря знаниям человек приобретает уважения Ни шагай никуда, не обладая знаниями.

А.Фирдавси Элчи – ботир, полвон булмоги лозим, Дадил суз, билимдон булмоги лозим.

Посол должен быть сильным знающим: И смелым и словом.

А.Фирдавси Сулх жангдан яхширок эрур бегумон,

Хушёр бул, кетмасин кулдан молу жон. Без сомнения мир лучше войны

И будь осторожен не потеряй все что имеешь.

А.Фирдавсий Бировга тиласа хар ким ёмонлик, Нихоят ул узи топмас омонлик.

Каждый кто пожелает плохое кому – то

В конце концов не найдет спокойствие в себе.

А.Фирдавсий Акл подшодир, забон пахлавон, Истасанг, кийналмай килурсан равон.

Ум падишах, язык силач,

Если захочешь, без труда могут сразятся они.

А.Фирдавси Хар кимнинг уз номи, шон, орзуси бор, Жангдан сулх, афзалрок келади минг бор.

У каждого есть своё имя, слава, мечта

Но мир в тысячу раз лучше войн.

А.Фирдавси Тинчликдан хуррамлик кулга киритсанг, Окил киши харгиз бошламайди жанг.

Если достигнешь мира и спокойствия Умный человек никогда не начинает войны.

Абу Шукур Балхи Хаммага омонлик истагувчи бул,

Шунга адоватга колмагай хеч йул. Будь желающим мира всем Междоусобцам не будет дороги.

А.Джами Шундай яшагинки сен булсанг Шаркда, Сени дуо килсин одамлар Гарбда.

Живи так если ты на Востоке Чтобы за тебя молились на Западе.

А. Джами Илм – инсоният гавхаридир.

Знания – жемчужина человечества.

А.Бедиль

**Заключение.** Таким образом задача учителя на сегодня осознать необходимость формирования нового типа мышления, связанного с новым пониманием места человека в современном мире; стремиться воспитать будущие планеты в духе миротворчества взаимопонимания.

В связи с решением данной проблемы, воспитанием личности будущего учителя в духе мира, идеям мира, педагогика мира необходимо использовать следующие подходы и формы:

открыть центр, лабораторию для учителей по проблемам создания методических пособий факультативного курса для учащейся молодёжи;

для изучения школьниками идей и мыслей общечеловеческой ценности – по направлению педагогики мира в институте усовершенствования преподавателей необходимо составить программу и открыть курсы.

#### Литература:

1. Речь И.А.Каримова на международной конференции “Великое наследие наших предков – достояние человечества”. Газета «Народное слово» № 35, 2014 год, стр. 1.
2. Концепция непрерывного духовного воспитания. Газета “Народное слово” № 94, 31 декабря 2019 г, стр2.
3. Курбанова Ш. и др. Мечта о совершенном поколении. – Т.: “Фан”, 1999.
4. Антология педагогической мысли. – Узбекистан, 1986.
5. А.Зунунов “Педагогика тарихи” 2000 стр 151 – 153.
6. Воспитание учащейся молодежи в духе мира и новое политическое мышление. Ровно, пединститут, 1990 г.
7. <https://www.ctaty.su> Афоризмы цитаты 2024г.
8. Материалы интернета: афоризмы, цитаты в сайтах, <https://www.citaty.su> 2024г.

**TALABALARDA AKSIOLOGIK MUNOSABATLARNI TARKIB TOPTIRISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI**

*Abdurazakova Zebiniso Akmal qizi,  
Qo‘qon davlat pedagogika instituti 1-kurs doktoranti (PhD)*

*Mazkur maqolada talabalar orasida aksiologik munosabatlarni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar yosh avlodning ma‘naviy rivojlanishida asosiy o‘rin tutib, ularning shaxsiy identifikatsiyasiga xizmat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar esa talabalarni global madaniyatlararo muloqotga tayyorlab, ularning xalqaro darajada o‘zaro tushunishni rivojlantirishiga hissa qo‘shadi. Tadqiqotda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro integratsiyasi aks ettirilgan bo‘lib, ularni ta‘lim jarayonida birgalikda qo‘llashning usullari va afzalliklari ko‘rsatilgan. Natijalarga ko‘ra, qadriyatlarni targ‘ib qilishda faol pedagogik yondashuvlar samaradorligi isbotlangan. Mazkur maqola ta‘lim tizimida qadriyatlarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, aksiologik munosabatlar, talaba tarbiyasi, ta‘lim jarayoni, madaniyatlararo muloqot, pedagogik yondashuvlar.*

**ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ УСТАНОВОК У СТУДЕНТОВ**

*В данной статье анализируется значение использования национальных и общечеловеческих ценностей в формировании аксиологических отношений между учащимися. Национальные ценности занимают центральное место в духовном развитии подрастающего поколения, служат их личностной идентичности. С другой стороны, универсальные ценности готовят студентов к глобальному межкультурному диалогу, способствуя их взаимопониманию на международном уровне. В исследовании отражена взаимная интеграция национальных и общечеловеческих ценностей, показаны способы и преимущества их совместного применения в образовательном процессе. По результатам доказана эффективность активных педагогических подходов к пропаганде ценностей. Данная статья служит научно-практической основой для развития ценностей в системе образования.*

***Ключевые слова:** национальные ценности, общечеловеческие ценности, аксиологические отношения, воспитание учащихся, образовательный процесс, межкультурная коммуникация, педагогические подходы.*

**THE IMPORTANCE OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN FORMING AXIOLOGICAL ATTITUDES IN STUDENTS**

*This article analyzes the importance of using national and universal values in the formation of axiological relations among students. National values are central to the spiritual development of the younger generation, serving their personal identity. Universal values, on the other hand, prepare students for global intercultural dialogue and contribute to their development of mutual understanding at the international level. The study reflects the mutual integration of national and universal values, showing the ways and advantages of using them together in the educational process. According to the results, the effectiveness of active pedagogical approaches to the promotion of values has been proven. This article serves as a scientific and practical basis for the development of values in the educational system.*

***Keywords:** national values, universal values, axiological relations, student education, educational process, intercultural communication, pedagogical approaches.*


**Kirish.** Talabalarda aksiologik munosabatlarni shakllantirish jarayoni bugungi kun ta‘lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta‘lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitishni talab qilmoqda. Aksiologiya – qadriyatlar haqidagi fan sifatida, shaxsning ma‘naviy, axloqiy, va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi tamoyillarni o‘rganadi. Bu jarayonda talabalarning dunyoqarashi, madaniy xabardorligi va ijtimoiy mas‘uliyatni his etish darajasi shakllanadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarning aks ettirilishi orqali talabalarda o‘z milliy o‘zligiga hurmat tuyg‘usi mustahkamlanadi. Umuminsoniy

qadriyatlar esa, dunyo xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv va hamkorlikni ta’minlash uchun muhim asos hisoblanadi. K.Xamidullayevaning tadqiqotida talabalarning aksiologik dunyoqarashini shakllantirishda madaniyatlararo muloqotning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, u madaniy qadriyatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish va bu jarayonda shaxsiy va jamoaviy o‘shishni ta’minlash yo‘llarini belgilaydi [1; 20-b].

Xamidullayeva milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining innovatsion usullaridan biri ekanligini qayd etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida qadriyatlarining roli A.M.Sherovanning tadqiqotlarida ham muhim o‘rin egallagan. Sherova ta’lim jarayonida talabalar oilaga oid munosabatlarida aks ettiruvchi aksiologik yondashuvni pedagogik shart-sharoitlar bilan bog‘lagan. Uning izlanishlari natijalarida talabalarning hayotga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish uchun aksiologik tamoyillarni ta’lim jarayoniga singdirish muhim ekanligi ko‘rsatilgan [2; 236-b]. Talabalarning milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarni uyg‘un qabul qilishi global ta’lim siyosatining dolzarb masalalaridan biridir. Bobrytskanning fikriga ko‘ra, aksiologik azimutlar global ta’lim siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. U, ayniqsa, talabalarning dunyoqarashini rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi [3; 90-b].

Shuningdek, O.Andreieva ta’lim tizimida umuminsoniy qadriyatlarining rivojlanishi shaxsning ma’naviy mukammallikka erishishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. U, ayniqsa, zamonaviy ta’limning mazmunini universal qadriyatlar bilan boyitish orqali talabalarning ijodkorligini rivojlantirish imkoniyatlariga urg‘u beradi [4; 5-b]. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ahamiyatini tadqiq qilish orqali nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligi oshiriladi, balki yosh avlodning ijtimoiy mas’uliyat hissi ham kuchayadi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu maqola talabalarda aksiologik munosabatlarni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining rolini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan.

**Adabiyotlar tahlili.** K.Xamidullayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aksiologiya va madaniyatlararo muloqotning o‘zaro bog‘liqligi yoritilib, talabalarning qadriyatlar tizimini shakllantirishda madaniy muvofiqlashtirish muhimligi qayd etilgan. U, ayniqsa, o‘quvchilarning madaniy o‘zligini anglashga ta’sir ko‘rsatadigan o‘qitish usullarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [1; 21-b]. A.M.Sherovanning ilmiy ishida aksiologik yondashuvning talabalarning oilaga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. U pedagogik faoliyatni talabalarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasini mustahkamlashga yo‘naltirgan holda, ta’lim muhitida sharoitlar yaratishni taklif qiladi [2; 237-b]. V.Bobrytskanning tadqiqoti global ta’lim siyosatining qadriyatlar shakllantirishdagi o‘rniga bag‘ishlangan. U talabalarning individual va ijtimoiy rivojlanishi uchun global aksiologik tamoyillarni ta’limga integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatgan [3; 91-b]. O.Andreieva esa ta’lim jarayonida universal qadriyatlarni rivojlantirishning amaliy usullarini tahlil qilib, talabalarda ijodiy tafakkurni rag‘batlantirishda umuminsoniy tamoyillarning o‘rnini ochib bergan [4; 6-b]. Yuqoridagi adabiyotlar talabalarda aksiologik munosabatlarni shakllantirish bo‘yicha turli yondashuvlarni ko‘rsatib, ushbu sohada samarali pedagogik va ilmiy ishlanmalarni taklif etadi. Shu o‘rinda biz aksiologik munosabatning mazmun-mohiyatini yoritishni va ushbu tushunchaga izoh berishni lozim topdik.



**1-rasm. Aksiologik munosabatning tarkibiy qismlari**

Aksiologik munosabat - bu shaxsning dunyo va uning tarkibiy qismlari (narsalar, hodisalar, boshqa odamlar) haqidagi qadriyatli munosabatlarining tizimi bo‘lib, bu insonning nimalarga ahamiyat berishini va nimaga intilishini belgilaydi.

Aksiologik munosabatlar falsafa (aksiologiya), Psixologiya, Sotsiologiya, antropologiya,

Tarbiya kabi turli sohalarda o‘rganiladi. Ushbu munosabatning asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

Subyektivligi - Qadriyatli munosabatlar shaxsning individual xususiyatlariga, tajribasiga va dunyoqarashiga bog‘liq;

Ijtimoiyligi - Qadriyatli munosabatlar jamiyatda shakllanadi va ijtimoiylashuv jarayonida o‘zlashtiriladi;

Dinamikligi - Qadriyatli munosabatlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi va rivojlanishi mumkin;

Tizimliliği - Qadriyatli munosabatlar bir-biri bilan bog'langan va ierarxik tarzda tashkil etilgan. Aksiologik munosabatning tarkibiy qismlari quyidagicha tahlil etiladi (1-rasmga qarang).

Talabalarda aksiologik munosabatlarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qo'llash ularni qadriyatli shaxslar sifatida shakllantirishga, ularga jamiyatga bo'lgan mas'uliyatni o'rgatadi va kelajak uchun mustahkam asos yaratadi.

**Metodlar.** Mazkur tadqiqotda talabalar o'rtasida aksiologik munosabatlarni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini aniqlash uchun kross-seksion tadqiqot metodi qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida Toshkent shahridagi to'rtta oliy ta'lim muassasasining 200 nafar talabasidan iborat ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda so'rovnoma va intervyu usullaridan foydalanilib, talabalarning qadriyatlarga bo'lgan munosabati, milliy qadriyatlarga e'tibor darajasi, hamda umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan qabul qilish darajasi baholandi. Metodik vosita sifatida ikki bosqichli o'quv dasturi ishlab chiqildi. Birinchi bosqichda milliy qadriyatlarni tanishtirish va tahlil qilishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazildi. Ikkinchi bosqichda esa talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan empatiyani shakllantiruvchi faoliyatlar amalga oshirildi. Ma'lumotlar tahlili uchun statistik metodlardan foydalanildi, jumladan, talabalar fikrini baholashda deskriptiv statistika va guruhlararo taqqoslash metodlari qo'llanildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari talabalar orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatlarning turlicha ekanligini ko'rsatdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, 75% talabalar milliy qadriyatlarni asosiy tarbiyaviy vosita sifatida qabul qilgan bo'lsa, 60% talabalar umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan ham yuqori e'tibor bildirgan. Quyidagi jadval tadqiqotning asosiy natijalarini aks ettiradi:

1-jadval.

Talabalar qadriyatlarga bo'lgan munosabati

Qadriyat turi	Talabalar ulushi (%)	Izohlar
Milliy qadriyatlar	75	Oila, urf-odatlar, milliy an'analar
Umuminsoniy qadriyatlar	60	Adolat, tinchlik, insonparvarlik
Har ikki qadriyatga e'tibor	50	Muvozanatni saqlashga intilganlar
Qadriyatlarga e'tiborsizlar	15	Ijtimoiy mas'uliyatsizlik mavjud

Intervyu natijalariga ko'ra, talabalarning milliy qadriyatlarga ko'proq e'tibor berishi ularning oilaviy muhitdan kelib chiqishini ko'rsatadi. Masalan, Toshkent davlat pedagogika universitetida o'tkazilgan tadqiqotda talabalar milliy qadriyatlar ichida oila, mehmondo'stlik, va o'zaro hurmat kabi tushunchalarni asosiy deb hisoblashdi. Shu bilan birga, boshqa guruhdagi talabalar umuminsoniy qadriyatlar sifatida inson huquqlari, tenglik, va tinchlikni birinchi o'ringa qo'yishdi. Shuningdek, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazilganda, ularning qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarida sezilarli o'zgarish kuzatildi. Bu mashg'ulotlar natijasida 80% talabalar qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashni muhim deb bilishgan.

Talabalar bilan olib borilgan mashg'ulotlarda aksiologik yondashuvdan foydalanish ularni ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda samarali natija berdi. Misol uchun, mashg'ulotlarda milliy bayramlarni nishonlash, xalqona maqollarni tahlil qilish, hamda xalqaro adolat tamoyillariga bag'ishlangan seminarlar orqali talabalar qadriyatlarning universalligini anglay boshlashdi. Yakuniy bosqichda olib borilgan so'rovnomalarda shuni ko'rsatdiki, dastlab milliy qadriyatlarga ko'proq e'tibor qaratgan talabalar umuminsoniy qadriyatlarga ham qiziqish bildirgan. Talabalarning fikricha, bu qadriyatlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Shu sababli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birgalikda targ'ib qilish talabalar dunyoqarashini shakllantirishda muhimdir. Natijalar shuni ko'rsatadiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar talabalarda aksiologik munosabatlarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib, ular orqali shaxsning ma'naviy kamolotiga erishish imkoniyatlari kengayadi.

**Muhokama. Milliy qadriyatlar** - bu ma'lum bir millat yoki etnik guruh a'zolari tomonidan o'rtoqlashtiriladigan va yuqori baholanadigan e'tiqodlar, tamoyillar va me'yorlardir. Ular odatda jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasidan kelib chiqadi.

**Umuminsoniy qadriyatlar** - bu barcha insoniyat uchun umumiy bo'lgan va ko'pchilik madaniyatlar tomonidan qadrlanadigan e'tiqodlar, tamoyillar va me'yorlardir. Ular odatda insoniyatning umumiy tajribasidan va insoniy mavjudlikning mohiyatidan kelib chiqadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro qiyosiy tadqiqini quyidagi tarzda tahlilini keltirdik (2-jadvalga qarang).

Bu qadriyatlar bir-biri bilan uyg'undir va bir-birini to'ldiradi. O'z millatiga sadoqat milliy o'ziga xoslik va birlikni targ'ib qilishga yordam beradi, inson huquqlariga hurmat esa barcha insonlarning tengligini va qadr-qimmatini ta'minlashga yordam beradi.

**Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro qiyosiy tadqiqi**

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi farqlar	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro ta’siri
<p>Ikkalasi ham muhim va jamiyat uchun yo‘naltiruvchi kuch hisoblanadi.</p> <p>-Ikkalasi ham shaxsni shakllantirishda va uning xatti-harakatlariga ta’sir qilishda rol o‘ynaydi.</p> <p>-Ikkalasi ham ijtimoiy uyg‘unlik va birlikni targ‘ib qilishga yordam beradi.</p>	<p><b>O‘ziga xoslik:</b> Milliy qadriyatlar ma’lum bir millat yoki etnik guruhga xosdir, umuminsoniy qadriyatlar esa barcha insoniyat uchun umumiydir.</p> <p><b>Ko‘lam:</b> Milliy qadriyatlar odatda ma’lum bir jamiyat bilan chegaralangan bo‘lsa, umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga tegishli.</p> <p><b>O‘zgaruvchanlik:</b> Milliy qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin, umuminsoniy qadriyatlar esa nisbatan barqaror bo‘ladi.</p>	<p>Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qiladi va bir-birini to‘ldiradi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarning o‘ziga xos ifodasini ta’minlaydi, umuminsoniy qadriyatlar esa milliy qadriyatlarga kengroq kontekst va ma’no beradi.</p>

Mazkur tadqiqot natijalari talabalar o‘rtasida aksiologik munosabatlarni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishning ahamiyatini tasdiqladi. Milliy qadriyatlar talabalarning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishida fundamental asos bo‘lib xizmat qilsa, umuminsoniy qadriyatlar ularning global tafakkurini kengaytiradi va jahon miqyosida o‘zaro muloqotni samarali olib borish imkoniyatini oshiradi. Muhokamada shuni alohida ta’kidlash kerakki, milliy qadriyatlar jamiyatning tarbiyaviy asoslarini tashkil etib, oila, urf-odatlar va an’analar orqali yosh avlodga meros bo‘lib o‘tadi. Talabalar milliy qadriyatlarga ko‘proq urg‘u berishlarini qayd etgan holda, ular bu qadriyatlarni o‘z hayotlarida doimiy amaliyot sifatida qo‘llashlarini ham bildirganlar. Masalan, so‘rovnoma natijalarida milliy qadriyat sifatida oilaning muhimligi eng yuqori baholangan. Buni o‘zida aks ettirgan tadqiqotlar, xususan, K.Xamidullayevaning tadqiqotlari, milliy qadriyatlarning shaxs ma’naviy kamolotidagi rolini tasdiqlaydi [1;20-b].

**Xulosa.** Milliy qadriyatlar talabalarning ma’naviy dunyosini boyituvchi, ularni o‘z jamiyatining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Bu qadriyatlar, ayniqsa, oilaviy tarbiya va milliy bayramlar orqali ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Umuminsoniy qadriyatlar talabalarning madaniy o‘zaro aloqalarida va dunyoqarashining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Adolat, tenglik va insonparvarlik kabi qadriyatlar global muloqotning asosini tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar talabalarning aksiologik munosabatlarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ularni ta’lim jarayoniga birgalikda kiritish talabalarni nafaqat milliy, balki global miqyosda o‘z o‘rnini topishga tayyorlaydi. Shunday ekan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash va ularni pedagogik jarayonda to‘g‘ri qo‘llash shaxs tarbiyasida asosiy maqsad sifatida belgilanishi lozim.

**Adabiyotlar:**

1. Marxabayeva, S. A. (2024). Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini STEAM texnologiyasi asosida tabiat bilan tanishtirish. // Лучшие интеллектуальные исследования, 32(1), 34-40.
2. Ravshanbekova, R. N. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi faoliyati. // Journal of new century innovations, 12(3), 13-21.
3. Davronova, N. S. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish. // Scientific Impulse, 1(4), 1461-1466.
4. Hayitniyozova H., & Tohirova, Z. (2024). Tarbiyaviy ishlarni amaliyotda tatbiq etishda pedagogik mahorat va uning asosiy tamoyillari. // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 23(1), 131-135.
5. Soliyev, S. I. (2023). Tarbiyachilar kasbiy mahorat darajasini oshirish va uning tizimi. // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(4), 131-138.
6. Kurbonova, Y. D. (2023). Tarbiyachining kasbiy mahorati va kompetentligi. // Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 366-371.
7. Berdiqulova, S. (2023). Pedagogning kasbiy mahoratini shakllantirish xususiyatlari. // Fan, ta’lim va amaliyotning integratsiyasi, 100-101.

## TALABALARNING ESTETIK TARBIYASINI DIZAYN ASOSIDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Xo‘jayeva Madina Baxtiyorovna,*  
*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*  
*“Yengil sanoat muhandisligi va dizayni” kafedrasida erkin tadqiqotchisi*  
[madina.xojayeva.90@mail.ru](mailto:madina.xojayeva.90@mail.ru)

*Ushbu maqolada oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalarning estetik tarbiyasini dizayn asosida rivojlantirishda nimalarga e’tibor berilishi, oiladagi muhitning tarbiyadagi ta’siri va milliy ma’naviy qadriyatlar orqali dunyoqarashning shakllanishi to’g’risida ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari oliy ta’limda talabalarning qaysi sohada o’qishiga qarab ham tarbiyaning turi tanlanadi, masalan, dizayn yo’nalishidagi talabalarda asl go’zallikning mohiyatini tushuntirib, ularda ko’proq estetik tarbiyani rivojlantirishga e’tibor qaratilishi nazarda tutilgan.*

**Kalit so‘zlar:** estetika, tarbiya, dunyoqarash, ranglar jilosi, fusunkor, did, milliy qadriyat, ma’naviyat, pedagogika, barkamollik.

## РАЗВИТИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ДИЗАЙНА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*В данной статье представлена информация о том, на что следует обратить внимание при проектном развитии эстетического воспитания студентов, обучающихся в вузе, влиянии семейной среды на воспитание, формировании мировоззрения через национальные духовные ценности. Кроме того, в высшей школе тип образования выбирается в зависимости от области обучения студентов, например, оно призвано объяснить студентам сущность самобытной красоты по направлению дизайна, а также сосредоточить внимание на развитии эстетического воспитания.*

**Ключевые слова:** эстетика, воспитание, мировоззрение, цветовой блеск, обаяние, вкус, национальная ценность, духовность, педагогика, совершенство.

## DEVELOPMENT OF AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS ON THE BASIS OF DESIGN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*This article provides information on what to pay attention to in the design-based development of the aesthetic education of students studying in higher education, the influence of the family environment on education, and the formation of worldview through national spiritual values. In addition, in higher education, the type of education is chosen depending on the field of study of students, for example, it is intended to explain the essence of original beauty to students in the direction of design, and to focus on developing aesthetic education in them.*

**Key words:** aesthetics, education, worldview, color gloss, charm, taste, national value, spirituality, pedagogy, perfection.

**Kirish.** Estetik tarbiya, insonning estetik his-tuyg’ularini rivojlantirish, san’atni anglash va unga nisbatan munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayon shaxsiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki san’at va estetik qadriyatlar insonni nafaqat ijtimoiy hayotga tayyorlash, balki uning ruhiy va ma’naviy dunyosini boyitishga yordam beradi. Estetik tarbiya ta’lim tizimida san’atning ahamiyatini tushunishni, uning insonni shakllantirishdagi o’rnini aniq belgilashni talab qiladi. Bugungi kunda, estetik tarbiya nafaqat san’at ta’limining tarkibiy qismi sifatida, balki umumiy ta’limning ajralmas qismi sifatida ham qabul qilinadi. Hozirgi kunda oliy ta’lim talabalarida estetik tarbiyani rivojlantirish muhim masala bo’lib, buni birinchilardan bo’lib dizayn yo’nalishidagi talabalarda sinab ko’rish kerakli natijani beradi. Chunki dizayn yo’nalishida asosan e’tibor go’zallik va nafosatga qaratiladi, bu orqali esa go’zallikning ham orqasida asosan ma’naviy tarbiya yotishi nazarda tutiladi. Talabalarning estetik madaniyatini, ma’naviyatini rivojlantirish turli xil ta’lim metodlarini qo’llash orqali hamda shu yo’nalishda ilmiy ish olib borgan olimlarning asarlari va maqolalarini o’rganib ularga amal qilgan holda rivojlantiriladi.

Masalan, chet davlatlarda ilg’or pedagogik tadqiqotlar bilan shug’ullanuvchi University of the West of England (Angliya), Curtin University (Avstraliya), Emily Carr University of Art and Design (Kanada), Art Center Colleje of Design (AQSH) kabi nufuzli ta’lim muassasalarida dizayn va amaliy san’at asarlarini



yaratish orqali talabalarda ijodiy, estetik dunyoqarashni rivojlantirish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biz esa ularning ilmiy izlanishlarini chuqur o‘rganib malakali kadrlarni tayyorlashda, ayniqsa yengil sanoat rivojlanib borayotgan bir paytda dizayn yo‘nalishidagi talabalarda estetik tarbiyaga e‘tibor qaratishni lozim topdik. Bundan kelib chiqadiki, ta‘lim jarayonini bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda tashkil etish, unga mos bo‘lgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, ta‘lim berish tartibi va mohiyatini doimiy yangilab borish zaruratini keltirib chiqaradi.[2] Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bilan uzviylikda barkamol shaxs tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan estetik tarbiyani rivojlantirish va uni pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq qilish hamda uni yangi sifat bosqichiga olib chiqish muhim masaladir. Ushbu masalaning axloqiy, estetik tarbiya va madaniyat, ma‘naviy madaniyat, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, o‘quvchi-yoshlar ma‘naviyatini shakllantirishning pedagogik asoslari S.Nishonova, M.Quronov, S.Fayzulina, O.Musurmonova, Sh.E.Qurbonov, Sh.Q.Mardonov, G.Ibragimova, N.Egamberdiyeva, D.Ro‘ziyeva, Sh.T.Xalilova, Sh.Sh.Olimov va boshqalarning ishlarida tadqiq qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5847-son farmoni tasdiqlandi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish muhim masala hisoblanadi[1].

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida oliy ta‘lim muassasalarining dizayn yo‘nalishida maxsus fanlarni o‘qitish orqali asosiy e‘tiborni talabalarda estetik tarbiyani takomillashtirishga qaratish lozim.

**Asosiy qism.** Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi.

Tarbiya – avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta‘lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta‘siri ostida jismonan sog‘lom, ma‘nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha. Tarbiya insonga individual va ijtimoiy, ongli va ongsiz ta‘sirlarning yig‘indisini mujassamlashtiradi, yakka kishiga, ma‘lum bir jamoaga, xalq yoki millatga qaratilgan bo‘lib, davlat va jamiyat qurilishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Turli jamoat tashkilotlari, fan, texnika, adabiyot, san‘at, OAV, radio va TV, targ‘ibot-tashviqot ishlari ham ijtimoiy tarbiyaga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Yosh avlodni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, jismoniy chiniqtirish ham tarbiyaga kiradi. Ma‘lumki, tarbiyaning asosiy turlari ikkita: oilaviy va ijtimoiy. Oila tarbiyasi oilada ota-onalar, bobo va buvilar, umuman katta yoshli qarindoshlar tomonidan bolalarni tarbiyalashdir. Azaliy o‘zbek udumiga binoan ota-onalar bilan birga bobo-buvilarning tarbiyaviy ta‘siri kuchli. Chunki hayotliklarida bobo va buvilar oilaning ma‘naviy rahbarlari bo‘lishgan. Amir Temur, temuriylar xonadonida o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, shahzodalar tarbiyasi bilan ularning onalari emas, buvilari shug‘ullanishgan. Shahzodalar esini tanib, o‘z o‘zini eplay boshlagach, buvilari izmiga o‘tkazilgan. Masalan, Mirzo Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim bo‘lsa-da, uning oilaviy tarbiyasi bilan Saroymulxonim shug‘ullangan. Amir Temurning o‘zi ham farzandlari va nevaralari tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berib, doimo nazorat qilib turgan. Oilaviy tartib, ya‘ni oila a‘zolarining bir-birlariga munosabati, ota-ona va boshqa katta yoshli qarindoshlarining xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oila daromadi, yashash sharoiti va shu kabi omillar oila tarbiyasining asosidir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli, a‘zolarining o‘zaro munosabatlari samimiy bo‘lsa, oilaviy tarbiya ham shunchalik samarali bo‘ladi[5].

Tarbiya tizimida asosiy o‘rinlardan birini umumiy ta‘lim maktablari egallaydi, chunki, endigina oila ta‘sirida bo‘lgan yosh nihol, umumiy ta‘lim maktablarining rejalashtirilgan tarbiyaviy ta‘sir doirasiga kiradi. O‘sha kundan e‘tiboran, murg‘ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi. Umumiy ta‘lim maktablarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari, oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari, mehnat jamoalari, turli jamoat tashkilotlari, madaniy-ma‘rifiy muassasalar, uyushmalar amalga oshirayotgan bir butun, tarbiyaviy ta‘sir doirasida bo‘lib, bu boradagi maqsadli faoliyatning tarkibiy qismidir. Barkamol shaxs tarbiyasi, uni to‘g‘ri amalga oshirish, ijtimoiy, ma‘naviy va madaniy hayotga tayyorlashdan iborat. Tarbiya murakkab jarayon bo‘lishi bilan birga, har bir mamlakat va millat uchun g‘oyat dolzarb masala hisoblanadi. Ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikrni bejiz aytmagan. Tarbiya asosan ikki negizga – axloq va oqillikka tayanmog‘i lozim: birinchisi – yaxshi fazilatlarini o‘stirsa, ikkinchisi – o‘zgalar illatidan himoya qiladi (A.Shamfar). Tarbiya ajdodlarimiz to‘plagan yaxshi fazilat va xislatlar, qadriyatlar, shuningdek, ular to‘plagan tarixiy ijtimoiy tajriba, barcha bilim va ilmlarni bilish manbaidir. Tarbiya tarbiya beruvchining

professional mahoratini ifodalaydi. Shu boisdan, tarbiya mahorat, ba’zan san’at sifatida talqin qilinadi. U insonni mustaqil shaxs bo’lib kamol topishida hal qiluvchi omil, jamiyat amalga oshirgan tarbiyaviy ishlarning natijasi, deb ham hisoblanadi.

**Tahlil.** Tarbiya muayyan maqsadga qaratilgan, aniq dastur, reja asosida amalga oshiriladigan ongli amaliy faoliyatdir. Bunday tarbiyaviy ta’sir inson faoliyatini ma’lum bir ijtimoiy guruh, tabaqa, shaxs yoki millat manfaati tomon yo’naltiradi. Inson shaxsi hamma vaqt ham faqat ongli, rejali tarbiyaviy ta’sirning mahsuli emas. Inson shaxsining kamolotida hech qanday dastursiz, rejasiz, stixiyali tarzda amalga oshiriladigan ta’sirning (do’stu birodarlar, hamkasblar, qarindosh-urug’lar suhbatlari, bozor yoki choyxonadagi guruh yoxud ajdodlarimizdan meros bo’lib qolgan me’moriy yodgorliklar, tabiat manzaralarining ta’siri va boshqalar) ham ahamiyati beqiyosdir. Tarbiyaning ommaviy, guruhiy va shaxsiy shakllari mavjud. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yosh avlodni ezgu g’oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ajdodlarimiz merosiga tayanish, oila muqaddasligini saqlash, farzandlarimizni yurtparvar va elparvar, yuksak e’tiqodli, odob-axloqli va barkamol etib tarbiyalash barchamizning zimmamizdagi asosiy, mas’uliyatli vazifadir. Tarbiya oilada berilishidan tashqari o’quv dargohlarida, oliy o’quv yurtlarida ham ta’lim bilan birgalikda berib boriadi. Oliy ta’limda talabalarning qaysi sohada o’qishiga qarab ham tarbiyaning turi tanlanadi, masalan, dizayn yo’nalishidagi talabalarda asl go’zallikning mohiyatini tushuntirib, ularda ko’proq estetik tarbiya rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Ularga did, nafosat, nazokat, estetika bilan birgalikda ranglar jilosi va uyg’unlashuvi, tabiat mo’jizalarining fusunkorligi mahorat bilan tushuntirilib, bu in’omlarga nisbatan talabalarning tarbiyali munosabatda bo’lishi, ulardan unumli foydalanishi pedagogik metodlar orqali yetkaziladi. Bundan tashqari estetik tarbiyani dars davomida turli xil metodlar, dars o’tish uslublari orqali rivojlantirib, boyitib boriladi. Bu jarayon, o’z navbatida, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi:

1. **San’at va estetikaning qadriyatlarini o’rgatish:** O’quvchilarni san’atning turli shakllari (rasm, musiqa, adabiyot va boshqalar) bilan tanishtirish, ularning san’atga xos tafakkurini rivojlantirish.
2. **Kreativlikni rivojlantirish:** Estetik tarbiya o’quvchining ijodkorligini, uning san’at orqali o’z ifodasini topish imkoniyatini yaratadi. Bu kreativlik hayotda yuz beradigan muammolarni hal etishda muhim rol o’ynaydi.
3. **Madaniy meroslar va tarixiy merosni tushunish:** Estetik tarbiya orqali o’quvchilar madaniy meros, tarixiy obidalar va san’at asarlarini qadrlashni o’rganadilar, bu esa milliy identifikatsiyani shakllantirishga yordam beradi.
4. **Estetik dunyoviy qarashni kengaytirish:** Estetik tarbiya o’quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, ularga go’zallikni, tabiatni va insoniyatning o’ziga xosligini chuqurroq anglashga imkon beradi.[3]

Estetik tarbiyaning pedagogik jarayonidagi asosiy elementlar quyidagilardan iborat:

1. **San’at asarlari bilan ishlash:** O’quvchilarni san’at asarlari bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish orqali estetik sezgilarini rivojlantirish. Bu jarayonda tasviriy san’at, musiqa, teatr va adabiyot kabi san’at shakllari muhim o’rin tutadi.
2. **Ta’lim jarayonida estetik tafakkur:** O’qituvchi o’quvchilarga estetik tafakkurni rivojlantirish uchun maxsus metod va texnikalardan foydalanishi zarur. O’quvchi o’zini san’atda ifoda etishga va san’at orqali fikrlarini bayon etishga o’rganadi.
3. **Badiiy faoliyat va amaliy mashg’ulotlar:** Estetik tarbiya, shuningdek, o’quvchilarning badiiy faoliyatini qo’llab-quvvatlashni o’z ichiga oladi. O’quvchilar rasm chizish, musiqada ishtirok etish yoki teatrdagi rollarni ijro etish orqali o’zlarini ifoda etadilar.
4. **Emotsional va estetik reaksiyalarni qo’llab-quvvatlash:** O’qituvchi, o’quvchilarning san’at asarlariga nisbatan estetik va emosional reaksiyalarini qadrlash va rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o’z navbatida, o’quvchining estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi.[4]

Estetik tarbiyaning ahamiyatini ta’kidlashda quyidagi jihatlardan muhimdir:

1. **Shaxsiyatni rivojlantirish:** Estetik tarbiya, o’quvchilarning estetik sezgirligini rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy va madaniy jihatdan boyitadi. Bu esa shaxsiyatni to’liq va muvozanatli ravishda rivojlantirishga yordam beradi.
2. **Madaniy merosni qadrlash:** San’at va madaniyatni anglash va qadrlash, o’quvchilarga milliy va jahon madaniy merosini to’g’ri tushunishga yordam beradi. Bu o’z navbatida, o’quvchilarning global va mahalliy madaniyatlarga bo’lgan hurmatini oshiradi.
3. **Ijodkorlikni rivojlantirish:** Estetik tarbiya ijodiy fikrlashni va muammolarni yangi tarzda hal qilishni rivojlantiradi. Bu esa o’quvchilarni kelajakdagi hayotda muvaffaqiyatli bo’lishlariga yordam beradi.

4. **Emotsional rivojlanish:** San’at orqali o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni o‘rganadilar. Bu, ayniqsa, emotsional jihatdan muvozanatli va do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Estetik tarbiya zamonaviy ta’limda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, insonning ijodiy va estetik dunyosini rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi[6]. Estetik qadriyatlar nafaqat shaxsiyatni shakllantirish, balki jamiyatni madaniy, ma’naviy va intellektual jihatdan boyitishning muhim vositasidir. Estetik tarbiya orqali o‘quvchilar dizayn sohasida nafosat va nazokatni, go‘zallikni anglashni, uni qadrlashni va o‘z fikrlarini ifoda etishni o‘rganadilar, bu esa ularning ijodkorligini va emotsional dunyosini rivojlantirishga yordam beradi. Estetik tarbiya nafaqat go‘zallikka bo‘lgan qiziqishni shakllantiradi, balki insonning umumiy ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5847-son Farmoni.

2. Самиева, Ш., & Нарзуллоева, Ф. (2022). Oliy talimda strategik fikrlash va kreativ boshqarish asosida talimni tashkil etishning muhim yonalishlari // Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 163-177.

3. Маджидова, М. Х., & Самиева, Ш. Х. (2020). Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания. // Молодые ученые-развитию Национальной технологической инициативы (Поиск), (1), 803-805.

4. Самиева, Ш. Х., & Маджидова, М. Х. (2020). Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания.

5. Самиева, Ш. Х., & Бахронова, Д. (2016). История восточной культуры, искусства, восточные ткани и эстетический вкус.

6. Хо‘jayeva, М. (2024). Aqlli matolarni o‘rganish va tahlil etishda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi. // Talqin va tadqiqotlar, 2(3 (40)).

## GLOBAL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI

*Usmonova Moxizoda Avazjon qizi,  
Qo'qon davlat pedagogika instituti 1-kurs doktoranti (PhD)*

*Mazkur maqolada global ta'lim muhitida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish tizimi integrativ yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish jarayonida lingvistik va psixologik yondashuvlar uyg'unligi asosida ishlab chiqilgan metodikalar qo'llanildi. Eksperiment natijalari muloqot kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasini, madaniyatlararo moslashuv va konfliktni hal etish ko'nikmalarining sezilarli oshganligini ko'rsatdi. Talabalarning fikr-mulohazalari trening jarayonining samaradorligini tasdiqladi. Integrativ yondashuv nafaqat talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish, balki ularning shaxsiy va kasbiy o'sishini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha yangi metodik yondashuvlarni taklif etadi.*

**Kalit so'zlar:** muloqot madaniyati, integrativ yondashuv, madaniyatlararo muloqot, ta'lim muhitida rivojlanish, madaniyatlararo kompetensiya.

## СИСТЕМА РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ГЛОБАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

*В данной статье анализируется система развития культуры общения учащихся в глобальной образовательной среде на основе интегративного подхода. В исследовании использовались методики, разработанные на основе сочетания лингвистического и психологического подходов в процессе формирования межкультурной коммуникативной компетенции. Результаты эксперимента показали динамику развития коммуникативных компетенций, значительное повышение навыков межкультурной адаптации и разрешения конфликтов. Отзывы студентов подтвердили эффективность учебного процесса. Интегративный подход приобрёл важное значение не только в развитии культуры общения учащихся, но и в обеспечении их личностного и профессионального роста. Результаты данного исследования предлагают новые методические подходы к развитию межкультурной компетентности в образовательном процессе.*

**Ключевые слова:** культура общения, интегративный подход, межкультурная коммуникация, развитие в образовательной среде, межкультурная компетентность.

## SYSTEM OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMMUNICATION CULTURE IN THE GLOBAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

*This article analyzes the system of development of the communication culture of students in the global educational environment on the basis of an integrative approach. The study used methodologies developed on the basis of a combination of linguistic and psychological approaches in the process of forming competence of intercultural communication. The results of the experiment showed a significant increase in the dynamics of the development of communication competencies, intercultural adaptation and conflict resolution skills. Student feedback confirmed the effectiveness of the training process. The integrative approach was instrumental not only in developing the communication culture of students, but also in ensuring their personal and professional growth. The results of this study offer new methodological approaches to the development of intercultural competence in the educational process.*

**Keywords:** communication culture, integrative approach, intercultural dialogue, development in an educational environment, intercultural competence.

**Kirish.** Global ta'lim muhiti turli madaniyatlar va tillarning integratsiyasi asosida shakllanib, talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalarning muloqot madaniyatini shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi uchun, balki jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Global muhitda faoliyat yurituvchi shaxslar turli xil madaniyatlarga moslashish, til va kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishlari zarur. Shu nuqtayi nazardan, integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirish tizimini yaratish dolzarb masalalardan biridir. Integrativ yondashuv

talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishda bir necha yoʻnalishlarni qamrab oladi: lingvistik, psixologik, madaniy hamda pedagogik. Ushbu yondashuv orqali talabalarda nafaqat til bilimlari, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, jamiyatga moslashish qobiliyati va boshqa ijtimoiy koʻnikmalar shakllanadi. Masalan, Rabbimkulova talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik usullari haqida tadqiqot olib borib, bu jarayonning ahamiyatini tahlil qilgan [1; 19-b].

Xalqaro taʼlim tizimi talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan integrativ strategiyalarni ishlab chiqmoqda. Jakbarovanning fikriga koʻra, xorijiy tajriba talabalarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun turli xil innovatsion usullarni oʻz ichiga oladi, bu esa oʻqituvchilar va talabalar oʻrtasidagi oʻzaro tushunishni kuchaytiradi [2; 383-b]. Ushbu yondashuv taʼlimda koʻp qirrali maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradi, xususan, talabalarni global talablar asosida tayyorlashga xizmat qiladi. Maxmudova va Azimovanning ilmiy ishlari talabalarining muloqot madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini, ayniqsa ingliz tili materiallari asosida, oʻrganishga bagʻishlangan. Ularning tadqiqotida kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirish uchun lingvistik va pedagogik usullarning samaradorligi taʼkidlanadi [3; 796-b]. Ushbu mexanizmlar oʻqitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uygʻunlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, Adizova talabalarining tarbiyaviy munosabatlarini tashkil etishda amaliy-kasbiy tayyorgarlikni oshirishning ahamiyatiga urgʻu beradi. Ushbu yoʻnalish muloqot madaniyatini rivojlantirishning psixologik va ijtimoiy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi [4; 5-b].

**Adabiyotlar tahlili.** Rabbimkulovanning tadqiqotida talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-psixologik usullar orqali tahlil qilingan boʻlib, bunda jamiyat va madaniyatning ahamiyati eʼtirof etiladi. Ushbu tadqiqot muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy omillarni hisobga olishning muhimligini koʻrsatadi [1; 20-b]. Jakbarova esa xorijiy tajribaga asoslangan holda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishni oʻrgangan. U innovatsion usullarni qoʻllashning taʼlimda samarali natijalar berishini taʼkidlab, muloqot kompetensiyasining global talablarga mosligini koʻrsatadi [2; 384-b]. Maxmudova va Azimova tomonidan olib borilgan tadqiqotda talabalarda kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirish mexanizmlari ingliz tili materiallari misolida tahlil qilingan. Bu esa taʼlim jarayonida lingvistik vositalardan foydalanishning amaliy ahamiyatini oshiradi [3; 797-b]. Adizova esa talabalarining tarbiyaviy munosabatlarini tashkil etish boʻyicha qimmatli maʼlumotlar beradi. Uning tadqiqotida muloqot madaniyatini rivojlantirishda kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy moslashuv jarayonlari oʻzaro bogʻliq ekani qayd etilgan [4; 6-b]. Yuqoridagi adabiyotlar muloqot madaniyatini rivojlantirishda integrativ yondashuvni qoʻllashning ilmiy asoslarini belgilaydi va global taʼlim jarayonidagi oʻrni hamda ahamiyatini yanada chuqurroq oʻrganish imkonini beradi.

Talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishda esa maʼruza, amaliy mashgʻulot, seminar, laboratoriya mashgʻuloti, musobaqa, trening, oʻyinlar, oʻquv tomoshalari kabi taʼlim shakllari samarali sanaladi. Chunki ushbu taʼlim shakllari yordamida talabalar ingliz tilida muloqotni samarali tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilim, koʻnikma, malakalarni oʻzlashtirishga erishadilar. Shu sababli talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonida taʼlimning mazkur shakllaridan oʻrinli, maq sadli, faol, samarali va izchil foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Talabalarining muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish mavzusidagi olimlarning tadqiqotlari:

Enn Berri (2018) Muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish dasturining samaradorligini tadqiq qildi va dasturning talabalarining muloqot qobiliyati va oʻzlashtirish darajasini yaxshilaganligini aniqladi.

Devid Bell (2019) Muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishda texnologiyalar qoʻllashning taʼsirini tadqiq qildi va texnologiyalarning talabalarga turli auditoriyalar bilan samarali muloqot qilish uchun zarur boʻlgan kobilyati rivojlantirishga yordam berganligini aniqladi.

Syuzen Blekbern (2020) Muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikdagi rolini tadqiq qildi va hamkorlik muloqot madaniyatini qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqladi.

Patrisiya Foy (2021) Muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning talabalarining kelajakka tayyorgarligini yaxshilashdagi rolini tadqiq qildi va yondashuv talabalarga 21-asrning ishchi kuchi uchun zarur boʻlgan muloqot qobiliyati bilan jihatlaganligini aniqladi.

Maykl Smit (2022) Muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning taʼlim sifatiga taʼsirini tadqiq qildi va yondashuvning taʼlim sifatini yaxshilaganligini va talabalarining oʻrganish natijalarini oshirganligini aniqladi.

Bular talabalarining muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish mavzusidagi koʻplab tadqiqotlardan atigi bir nechtasi. Ushbu tadqiqotlar integrativ yondashuvning muloqot madaniyatini

rivojlantirish va talabalarning o‘qish va hayotiy natijalarini yaxshilash uchun samarali ekanligini aniqlashga yordam berdi.

**Metodlar.** Ushbu tadqiqotda talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish tizimini integrativ yondashuv asosida shakllantirish uchun kombinatsion metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqotda quyidagi usullar ishlatildi: nazariy tahlil, eksperimental kuzatuv, so‘rovnoma va intervyu. Nazariy tahlil orqali muloqot madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy manbalar o‘rganilib, asosiy tushuncha va yondashuvlar tahlil qilindi. Eksperimental kuzatuvda 150 nafar oliy ta‘lim muassasasi talabarlari qatnashib, ularning muloqot kompetensiyalari dastlabki va yakuniy bosqichlarda baholandi. So‘rovnoma orqali talabalar muloqot ko‘nikmalarini baholashga oid savollarga javob berishdi. Intervyu jarayonida esa talabalarning shaxsiy tajribalari va o‘qitish jarayonida duch kelgan qiyinchiliklar o‘rganildi. Eksperiment davomida lingvistik va madaniyatlararo yondashuv asosida maxsus treninglar tashkil etildi. Treninglar jarayonida talabalar o‘zaro muloqotda madaniy tafovutlarni inobatga olish, konfliktlarni hal etish va jamoaviy ishlarni samarali tashkil etish usullarini o‘zlashtirdilar.

Talabalarning muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishda foydalaniladigan metodlar juda ko‘p bo‘lib, asosan mavzu va maqsadning natijadorligidan kelib chiqib tanlanadi. Ta‘limdagi integrativ yondashuv asosida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun kommunikativ kompetensiyalarni fan sohalari bo‘yicha darslarda o‘rgatish va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Ta‘limdagi integrativ yondashuv asosida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish metodlari**

Yuqorida keltirilgan metodlar talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun uzluksiz qo‘llanishga yo‘naltirilgan izchillikka asoslanadi.

U muloqot qobiliyatini fan sohalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar bilan bog‘laydi.

U talabalarga turli vaziyatlarda samarali muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni beradi bu metodlar quyidagi asosda talqin etiladi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval.**

**Talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda qo‘llaniladigan usullar va ularning turlari**

Metodlar	Turlari
Muloqot situatsiyalarini yaratish	Rolli o‘yinlar va imitatsiyalar Munozaralar va munozaralar Taqdimotlar va nutqlar
Muloqot qobiliyatini kuchaytiruvchi faoliyatlar	Til o‘yinlari va til mashqlari Esse yozish va ijodiy yozish Xujjatli filmlarni tahlil qilish va muhokama qilish
Muloqot strategiyalarini o‘rgatish	Effektiv muloqot qilish usullari Mumkin bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etish Tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritish

Fanlarni integratsiya qilish	Muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun fan sohalari mazmunini qo'llash Muloqot kobilyalarini rivojlantirishga qaratilgan fanlararo loyihalar Taqdimotlar va munozaralarni turli fan sohalaridan misollar bilan qo'llab-quvvatlash
Texnologiyalarni qo'llash	Videokonferensii va onlayn muhokamalar Sotsial tarmoqlar va hamkorlik vositalari Raqamli hikoya qilish va taqdim qilish vositalari
Muloqot madaniyatini qo'llab-quvvatlash	Muloqot madaniyatini rag'batlantirish uchun sinf muhiti yaratish Talabalarning muloqot faoliyatini muntazam ravishda baholash va muloqot qilish Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik qilib, muloqot madaniyatini qo'llab-quvvatlash

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar muloqot madaniyatini rivojlantirishda ta'lim shakllarini tanlashda pedagoglarning quyidagilarga e'tiborni qaratishlari talab etiladi:

-talabalarda muloqot madaniyatini samarali rivojlantirish maqsadida ingliz tilini o'rganish jarayonini rang-baranglikda, ya'ni faqat ma'ruza, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari tarzida emas, balki musobaqa, trening, o'yinlar, o'quv tomoshalari kabi shakllarda tashkil etish;

-ta'lim shakllarini talabalarning ingliz tilini o'rganish imkoniyatlari, o'quv-bilish faolliklari, shuningdek, o'tilgan mavzularni o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda tanlash;


-mashg'ulotlarning seminar, musobaqa, trening, o'yinlar hamda o'quv tomoshalari shaklida tashkil etishda mavzuni avvaldan e'lon qilish, talabalarni shartlar va qoi dalar bilan tanishtirish, juft, kichik guruh yoki jamoa bo'lib tayyorgarlik ko'rishlari (ssenariyni yaratish, rollarni belgilash va ularni talabalar o'rtasida taqsimlash, vaqt reglamentini aniqlash, tashkiliy jihatdan uyushtirish va h.k.) uchun zarur vaqt ajratish;

-o'quv mashg'ulotlarining turli shakllarda tashkil etishda talabalarga pedagoglar tomonidan metodik yordam ko'rsatilishi (mashg'ulot uchun zarur didaktik vositalarni tayyorlash, auditoriyani jihozlash, ssenariyni mazmunan boyitish kabilar)ga erishish;

-qanday shaklda tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagog va talabalar hamkor ligida mashg'ulotlarning samaradorligini tahlil qilib borish (zero, tahlil natijalari talabalarning o'quv-bilish faolliklari darajasini baholash asosida kelgusi o'quv mashg'uloti shaklini oqilona belgilash imkoniyatini yaratadi).

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv samarali ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida talabalar o'rtasida muloqot kompetensiyasi darajasi baholandi. 150 nafar ishtirokchidan 65 foizi muloqotda madaniy tafovutlarga e'tibor bermasligi, 58 foizi esa muloqot davomida konfliktidan qochish qobiliyatiga ega emasligi ma'lum bo'ldi.

Treninglar va madaniyatlararo trening modullaridan so'ng talabalar o'rtasida sezilarli o'zgarish kuzatildi. Treningda 10 ta interaktiv mashq, jumladan, "Madaniyatlararo tushunish", "Konfliktni hal etish strategiyalari" va "Jamoaviy muloqot" kabi amaliy faoliyatlar o'tkazildi.



1-rasm. Dastlabki va yakuniy baholash natijalari

Intervyu natijalariga ko‘ra, talabalar ushbu mashg‘ulotlarning ularning muloqot qobiliyatlarini yaxshilaganini ta’kidlashdi. Bir ishtirokchi shunday deydi: "Treninglardan so‘ng madaniyatlararo muloqotda o‘zini erkin his qila boshladim va yangi odamlar bilan muloqot qilish menga osonroq bo‘ldi." Mashg‘ulotlardan so‘ng talabalar ingliz tili darslarida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini qo‘llashda faollik ko‘rsatdilar. Misol uchun, "Madaniyatlararo suhbat" mashqi orqali talabalar turli madaniyat vakillarining qarashlarini tahlil qilishdi va kelishmovchiliklarni hal qilishni o‘rgandilar. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv talabalarning muloqot madaniyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Trening jarayonlari davomida olingan ko‘nikmalar nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham samarali qo‘llanilmoqda.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda integrativ yondashuvning samaradorligini isbotladi. Dastlabki bosqichda talabalar orasida madaniyatlararo muloqotda madaniy tafovutlarni tushunish va ularni boshqarish qobiliyatlari past darajada ekani aniqlandi. Ushbu muammo talabalarning akademik va ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Trening va mashg‘ulotlar orqali talabalar muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirib, jamoaviy ish va madaniyatlararo muloqotda o‘ziga ishonchni oshirdi. Natijalar ko‘rsatdiki, lingvistik va madaniyatlararo yondashuv asosida tashkil etilgan treninglar talabalarni real hayot sharoitida madaniyatlararo muloqotga tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv yordamida talabalar o‘zaro tushunishni yaxshilash, konfliktidan qochish va ularni konstruktiv ravishda hal etishni o‘rganishdi. Bu esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasining oshishiga xizmat qildi. Qolaversa, so‘rovnomalar va intervyyulardan olingan ma’lumotlar talabalarning trening jarayoniga ijobiy munosabatda bo‘lganini ko‘rsatdi. Talabalar trening davomida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallashdi. Misol uchun, konfliktni hal qilishga qaratilgan maxsus mashqlar ularning kundalik hayotida sezilarli darajada qo‘l keldi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, ko‘p madaniyatli muhitda samarali ishlashga intilayotgan talabalar uchun dolzarb bo‘lib qoldi.

**Xulosa.** Tadqiqot talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, konfliktlarni boshqarish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Treninglar davomida olingan natijalar talabalar muloqot madaniyatining o‘sish dinamikasini yaqqol ifoda etdi. So‘rov va intervyu ma’lumotlari esa talabalar ushbu jarayondan katta foyda olganini tasdiqladi. Shu sababli, mazkur yondashuvni boshqa ta’lim muassasalariga ham joriy etish tavsiya etiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarni takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, bunday yondashuvning ta’sirini uzoq muddatli kuzatish orqali uning ta’lim tizimidagi keng ko‘lamli natijalarini aniqlash zarur. Yakuniy natijalardan kelib chiqib, integrativ yondashuvning talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasi katta ekanligi ta’kidlanadi. Bu esa mazkur tadqiqotni ta’lim tizimida innovatsion yondashuv sifatida qo‘llashga imkon beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Rabbimkulova, N. M. (2024). Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik usullari. // *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 36(5), 19-23.
2. Jakbarova, N. (2024). Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning xorij tajribalari. // *Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati*, 1(1), 381-385.
3. Maxmudova, M. M., & Azimova, M. H. (2024, October). Talabalarda Muloqot Madaniyatini Shakllantirish Mexanizmlari (Ingliz tili Materiallari Misolida). In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 794-798).
4. Adizova, G. M. (2024). Talabalarning tarbiyaviy munosabatlarini tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy-kasbiy tayyorgarlikni oshirish. // *Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences*, 3(32), 1-6.
5. Fariza, I., & Mamayoqubova, S. O. (2023). Madaniyatlararo muloqot va madaniyatlararo kompetensiya shartlari. // *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 474-478.
6. Nazarov, T. T. L. (2023). Ofitser-o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi faoliyatida muomala va muloqot madaniyati. // *Educational Research in Universal Sciences*, 2(18 SPECIAL), 19-25.



## UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA TIZIMINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI

*Boboyeva Zulfiya Akbarjonovna,  
Fargona davlat universiteti o’qituvchisi  
Farg’ona, O’zbekiston  
zulfiyaxon0902@gmail.com*

*Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar, uning bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch fazilatlar asosida shakllantirish masalalari, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimini yaratish asosida 3-6 (7) yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o’z tuyg’ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg’otish, milliy an’analariga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g’amxo’rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan «Baxtli bola ma’naviyati» kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish va amalga oshirish, bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish masalalari xususida fikr yuritilgan.*

**Kalit so’zlar:** *ijtimoiy motiv, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi, ilmiy-texnologiya, milliy an’analar*

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ

*В данной статье рассматриваются научно-технические реформы образования детей на современной основе, вопросы его формирования с учётом современных научных достижений и потребностей общества, а также духовное развитие детей 3–6 (7) лет через реализацию системы непрерывного духовного воспитания «Духовность счастливого ребёнка». Эта система направлена на воспитание и развитие личностных качеств, таких как управление эмоциями, развитие социальных мотивов, проявление интереса к национальным традициям и забота о близких. Обсуждаются также разработка и реализация мероприятий по формированию положительных мотивов поведения у детей.*

**Ключевые слова:** *социальная мотивация, система непрерывного духовного воспитания, наука и техника, национальные традиции.*

## SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION SYSTEM

*This article examines scientific and technological reforms in children’s education based on current advancements and societal needs. It discusses the spiritual development of children aged 3–6 (7) through the continuous moral education system «The Spirituality of a Happy Child». This system aims to cultivate personal qualities, such as emotional regulation, social motivation, interest in national traditions, and care for loved ones. The article also explores the development and implementation of initiatives to foster positive behavioral motives in children.*

**Keywords:** *social motivation, continuous moral education system, science and technology, national traditions.*

**Kirish.** O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ularning ko’lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, targ’ibot-tashviqot va tarbiya yo’nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan. Bu esa, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish va uni turli fanlar doirasida tizimli tadqiq etish vazifalarini dolzarblashtiradi. Yangi O’zbekistonda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarimizda har tomonlama yetuk barkamol avlodni shakllantirish va tarbiyalash muhim ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O’zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. O’zbekiston Respublikasi

Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori asosida uzluksiz ma’naviy tarbiyaning institutsional tizimini yaratish boshlandi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiyaning institutsional tizimi asosida yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash, ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilim va malakalarini, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasi asosidagi innovatsion pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish asosiy vazifa sifatida belgilab berildi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni emiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish dan iborat[1]. Shu bois yurtimizda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimini yaratish asosida yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish muhim hisoblanadi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimining asosiy maqsadi yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, matonatlilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, yangicha fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qaroriga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish jarayoni 3-6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi[1]. Bu orqali bolalarda o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi; o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarining yuzaga kelishi; shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi; ijtimoiy motivlar va milliy an‘analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish; muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi; o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi; bola faoliyatining etakchi turlari – muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar; nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Shuningdek, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimini yaratish asosida 3-6 (7) yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o‘z tuyg‘ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg‘otish, milliy an‘analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan «Baxtli bola ma’naviyati» kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o‘quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo‘yicha «Bola aziz, odobi undan aziz» mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash, o‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan seriallar, milliy qo‘g‘irchoq va multiplikatsion filmlar yaratish, ularni telekanallarda praym-taym vaqtlarida namoyish etishni ta’minlash, atrof muhit ozodaligi, shaxsiy gigiena, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya mazmunidagi «Ona tabiatni asraylik!» ruknida tarbiyaviy roliklar yaratish, orzuga intilish, ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik, ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan aqliy va harakatli o‘yinlar, konstruktorlik o‘yinlari va o‘yinchoqlarning «Bolalar dunyosi» variativ o‘yinlar majmuasini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish kabi ustuvor vazifalar asosida amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni - 7 (6) — 10 yoshli davrda — boshlang‘ich va 11-17 yoshli davrda — o‘rta va yuqori sinflar davrini qamrab oladi. Uzluksiz ma’naviy tarbiyaning institutsional tizimiga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv

dasturlari o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Uzluksiz ma’naviy tarbiyaning institutsional tizimini yaratishdan kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat:

–uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

–mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratiladi.

–jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzulqilik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, «ommaviy madaniyat»ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo‘lmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, kelajakka bo‘lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

–boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarining avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta‘minlanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ma’naviy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida yoshlar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta‘sir etish ekanligi kelib chiqadi. Shu bilan birga, yoshlarning turli salbiy guruhlariga qo‘shilib qolish holatlari ham uchrab turayotganligiga alohida e‘tibor berish lozim.

**Tahlil va natijalar.** Ilmiy adabiyotlarda ma’naviyatning mohiyat-mazmuni emas, balki uning tarkibiy qismlari haqidagi masala ham turlicha yo‘sinda hal etiladi. Bizga ma’lum adabiyotlarda ularning soni, tarkibiy qismlari uchdan beshtagacha deb tilga olinadi va turlicha nom bilan yuritiladi. Chunonchi, ko‘plab tadqiqotlarda ma’naviyatning tarkibi to‘rt qismdan iborat deb ko‘rsa-tiladi. Bular-ongning funksional jihati; ma’naviy madaniyat; iroda; aqliy-ruhiy vaziyat (ma’naviy muhit). Adabiyotshunos M.Imomnazarov shaxs va jamiyat ma’naviyatidagi besh darajani-vatan, shaxs, millat, adolat, haqiqat qadriyatlarini tahlil etadi. Bularning barchasi inson ongida aks etgan nur, Ilohiy haqiqatdir, deyiladi[2.37 6]. Axloqshunos A. Sher fikricha, ma’naviyatning shohtomiri uchta bo‘lib, «ulardan biri va birinchisi-ezgulik; ikkinchisi-go‘zallik; uchinchisi-e‘tiqod, ya‘ni ana shu ezgulik va go‘zallikning tom ma‘nodagi timsoli bo‘lmish yaratganga e‘tiqod»dir[3.232 c]. Rus olimi V.N.Sherdakov tadqiqotlarida ma’naviyat gnoseologik (ilmiy bilish va falsafa); axloqiy (axloq); estetik (san‘at) kabi qatlamlardan tashkil topganligi ta‘kidlanadi, shunga ko‘ra ma’naviyat haqiqat, ezgulik, go‘zallik kabi uch qadriyatning tabiatiga muvofiq keladi, degan fikr bildiriladi. Ma’naviy hayotning asosida turgan bu yaxlit «uchlik» o‘zida fanni, dinni, san‘atni gavdalantirsa ham, ma’naviyatning negizini axloq tashkil etadi. Bunday qarashni akademik E.Yusupov ta‘kidlaydi: «insoniy munosabatlarning barchasiga zamin bo‘ladigan ma’naviy asos-axloq va odob»dir[4]. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida uzluksiz ma’naviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida milliy qadriyatlarni tiklash va yanada rivojlantirish; jamiyat ma’naviy hayotida adabiyot va san‘atning ahamiyatiga e‘tiborni kuchaytirish; ijodiy salohiyat uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish; ma’naviy sog‘lom avlodni tarbiyalash; yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishda sharqona an‘analardan ijodiy foydalanish yanada keng ijtimoiy ma‘no kasb etmoqda.

**Birinchiidan,** yangi taraqqiyot jarayonlari murakkab jarayon bo‘lib, kishilarning yuksak ma’naviy va ma‘rifiy hayoti, ijodiy salohiyati, ongliligi, erkin tafakkuriga tayanadigan ob‘ektiv-tarixiy zaruriyatni anglatadi.

**Ikkinchiidan,** O‘zbekistonda yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tish ma’naviy va ma‘rifiy yangilanishlar negizida yuz bermoqda. Jahonning ko‘pgina, aniqroq aytganda, g‘arb mamlakatlarida bozor iqtisodiyotiga o‘tishda asosan iqtisodiy rivojlanish qonunlariga amal qilingan va huquqiy me‘yor hamda mezonlarga rioya etilgan bo‘lsa, sharqda, xususan, respublikamizda bu jarayonning kechishi ma’naviyatga ustuvor darajada ahamiyat berish orqali ro‘y berayotir.

**Uchinchiidan,** islohotlarning bosh yo‘nalish va samaradorligining pirovard natijalarini belgilab beradigan kuch inson omilidir. Shu ma‘noda yangi O‘zbekistonda jamiyatning yangilanishi insonning har tomonlama, avvalo ma’naviy-ma‘rifiy va axloqiy-estetik kamol topishi asosida amalga oshirilmoqda.

**To‘rtinchiidan,** yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatining o‘zi keng ma‘noda ijtimoiy-ma‘naviy hodisadir. U ma’naviyat, axloq-odob, ma‘rifat kabi o‘lmas qadriyatlarga

suyangan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligi, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglikni rivojlanishning asosi va shartiga aylantiradi.

**Beshinchidan**, kishilarimiz o‘zlarining rang-barang badiiy-estetik, san’at sohasidagi faoliyatlari orqali, bir tomondan, mustaqillikning bunyodkorlik tabiatini real gavdalantirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jamiyat yangilanishida ularning o‘zlari ham faol kuchga aylanib bormoqda. Jamiyat ma’naviy hayoti o‘zgarishlari, yangilanishlarida badiiy-estetik omillar, san’at qadriyatari o‘ziga xos o‘rin tutmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilganda, uzluksiz ma’naviy tarbiya tarbiyalanuvchi ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘u va xislatlarni shakllantirish ekanligi kelib chiqadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori// <https://lex.uz/doss/4676839>

2. М. Имомназаров. Миллий маънавиятимиз асослари. – Т.2006. -37 б.

3. Шер Я.А. Доистория искусства. Происхождение и начальная эволюция. -М.: ЯСК, 2017. 232 с.

4. Yusupov E. Yu. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. T., 1999.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** www.buxdu.uz

**E-mail:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2024-yil 12-son (111)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b> <b>Nigora SAYFULLAYEVA</b> <b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b> <b>Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 26.12.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 27.12.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
---	--	--